ADABIYOT

7

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan



Yangi nashr

Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 821.512.133(072)
KBK 83.3(O‘zb)ya72
M 54

Tuzuvchilar:

Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU rektori, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Gulbahor Begmuratova – Nukus shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Zulayho Mamatqulova – Farg‘ona viloyati Toshloq tumanidagi 15-o‘rta maktab oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Adabiyot 7 [Matn]: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8352-6-9

© Respublika ta’lim markazi, 2022

ADABIYOT O‘QITISH METODIKASIGA XOS BO‘LGAN TAMOYILLAR

Adabiyot darsida eng asosiy obyekt **bu** – **badiiy matn**. Shunday ekan, adabiyot o‘qitish metodikasiga xos bo‘lgan tamoyillarni tushunish va ularni adabiyot darslarida ongli qo‘llay olish uchun adabiyot o‘qituvchisidan birinchi navbatda matn, xususan, badiiy matn mutolaasi jarayonining ilmiy asoslarini tushunish talab qilinadi.

Mutolaa – o‘ziga xos g‘ayrioddiy jarayon. Mutolaaning nazariy asoslari, kitobxonlik masalasi, kitobxon va matn (har qanday badiiy, ilmiy va publitsistik matn) o‘rtasidagi munosabat haqida O‘zbekistonda va xorijda qator tadqiqotlar yaratilgan.[1] Lekin milliy metodika yo‘nalishida tadqiq etilgan nazariyalarning aksariyati adabiy ta’lim amaliyotiga tatbiq etilmagan.

Mutaxassislar avvallari mutolaaga passiv jarayon sifatida qarab, o‘quvchi matn bilan ishlashda undagi yashirin ma’noni passiv qabul qiladi deyishgan bo‘lsa, o‘tgan asrning 70-yillari oxiriga kelib mutolaaga munosabat o‘zgargan va uni **faol jarayon** sifatida talqin qila boshlaganlar. Faol jarayon **o‘quvchi va matnning bir-biriga o‘zaro ta’siriga asoslanadi** va har qanday badiiy asardan kitobxonlar o‘z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib shaxsiy talqinlarini yaratadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, muayyan asar yoki uning qahramonlariga munosabat kitobxonning hayotiy tajribalari sabab keskin o‘zgarishlarga uchrashi ham mumkin. Masalan, 18–20 yoshlardagi kitobxonda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani qahramonlari Kumush yoki Otabek “ideal shaxs” sifatida tasavvur uyg‘otsa, yillar o‘tib oila, muhabbat, nafrat, rashk kabi tushunchalarda anchayin tajribaga ega bo‘lgan 30-35 yoshli ayni kitobxon-retsipiyent (qabul qiluvchi) endi Kumushni xudbinlikda ayblashi, Zaynabni esa “chorasiz zaifa, muhabbat qurboni” sifatida ko‘rib, uning harakatlarini hatto oqlashi ham mumkin bo‘ladi. Demakki, kitobxonning badiiy asarga munosabati mutlaq haqiqatlarga asoslanmaydi.

Badiiy asar idroki o‘quvchi va matn o‘rtasidagi kommunikativ jarayonlar natijasida yuzaga chiqadi. Ijodkor va o‘quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi.

Olimlarning fikricha, badiiy matnni tushunish o‘quvchining **mutolaa maqsadiga** bog‘liq bo‘ladi. Masalan, Tompkins mutolaa muayyan maqsadlarga asoslanishi zarurligini ta’kidlaydi. Maqsadsiz o‘qishni boshlagan yoki badiiy asarni faqat estetik zavq olish uchungina o‘qigan har qanday kitobxon matndan tez zerikib qoladi.

Chindan ham, badiiy asar mutolaasi avvalida “nimani”, “qanday” va “nima uchun” kabi savollarning qo‘yilishi kitobxonni nafaqat asardan tez zerikishi balki badiiy matn tahlilida o‘quvchi fikrlarining hokimlik kasb etishiga ham zamin yaratdi.

---

[1] Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Fan”, 2007; Qambarova S. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yihcha falsafa doktori (Ph.D) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent, 2019; Küçükoğlu H. Improving Reading Skills Through Effective Reading Strategies. // Procedia — Social and Behavioral Sciences, 70:709–714, January 2013; Dole J. A., Duffy G. G., Roehler L. R. and Pearson P. D. Moving from the Old to the New: Research on Reading Comprehension Instruction. // Review of Educational Research. 1991, Vol. 61, No. 2, pp. 239–264; Marinaccio J. The Most Effective Pre-Reading Strategies for Comprehension. School of Arts and Sciences, St. John Fisher College, 2012, etc.

Adabiyot darslarida ham o‘quvchilar asosiy ma’lumotni **mutolaa (o‘qish)** orqali oladilar. O‘qituvchining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchiga kitob o‘qishni, mutolaani o‘rgatishdir. Shunday ekan, o‘qituvchi mutolaa jarayonining ilmiy asoslarini tushunsa va tahlil qila olsa, u o‘quvchini kitob o‘qishga o‘rgatish jarayonini samarali tashkil qila oladi.

O‘quvchi biron-bir matn bilan ishlayotganida uning ongida qanday jarayonlar ro‘y beradi? Bu jarayonlar o‘qilayotgan matnni tushunishga qanday ta’sir qiladi? O‘quvchi shaxsiyati matnni tushunishda rol o‘ynaydimi? Mutolaa jarayonining ilmiy asoslarini tahlil qilgan olimlar shu savollarga javob topishga uringanlar va javoblar quyidagi uch bosqichga ajratilgan:[2]

– an’anaviy qarashlar;

– kognitiv qarashlar;

– metakognitiv qarashlar.

Bu qarashlar bevosita psixologiya va pedagogikada yetakchi oqimlar sanalgan **bixeviorizm** va **kognitivizm** ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, mutolaa jarayonini shu nazariyalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qiladi.

An’anaviy qarashlar

Mutolaa jarayoni ilmiy tahlilidagi an’anaviy qarashlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida asosan Amerika va Rossiyada shakllangan hamda psixologiya va pedagogikada yetakchi oqimlardan biriga aylangan **bixeviorizm** nazariyasiga asoslangan. An’anaviy qarashlar tarafdorlari: Filip Gaf *(Philip Gough)*, Devid Laberj *(David LaBerge)*, S. J. Semyuels *(S.J.Samuels)* va boshqalar.


Bixeviorizm (inglizcha *behaviourism, behaviour* – “xatti-harakat, o‘zini tutish”) – psixologiya va pedagogikadagi yetakchi nazariyalardan biri. Ushbu nazariya tarafdorlarining fikricha, o‘rganish bu – passiv jarayon bo‘lib, o‘rganuvchining tashqi ta’sirlarga javoblaridan iborat. O‘rganuvchi “toza taxtacha” *(tabula rasa)*sifatida qaraladi va ta’lim jarayonining maqsadi tashqi ijobiy yoki salbiy ta’sirlar (stimullar) yordamida unda kerakli xatti-harakatlar shakllantirishdan iboratdir. Bixeviorizm nazariyasi asoschilari: Jon Uotson *(John Watson)*, Burrus Skinner *(Burrhus Skinner)*, Ivan Pavlov, Edvard Torndayk *(Edward Thorndike)*, Albert Bandura *(Albert Bandura)* va boshqalar.

An’anaviy qarashlar tarafdorlarining fikriga ko‘ra, mutolaa bu – **passiv** jarayon bo‘lib, matn o‘quvchi uchun **tashqi ta’sir (stimul)** bo‘lib xizmat qiladi. Ma’no **o‘quvchiga bog‘liq emas**, u o‘quvchidan tashqarida (matnda) mujassam bo‘lgan va o‘quvchining vazifasi matn mutolaasi jarayonida bu ma’noni qabul qilishdan iboratdir. Mutolaa ko‘nikmasi bir qancha **kichik ko‘nikmalardan** iborat (masalan, harflarni tanish, harflarni qo‘shib so‘z yasash, so‘zning grammatik shaklini tahlil qilish va hokazo) va bu kichik ko‘nikmalarni tartib bilan o‘quvchida shakllantirish orqali mutolaaga, o‘qilayotgan matnni tushunish va undan ma’no chiqarishga o‘rgatiladi.

An’anaviy qarashlar tarafdori bo‘lgan olimlar mutolaaning **“pastdan tepaga”** yoki tilga asoslangan modelini ishlab chiqqanlar. Ushbu model mutolaa jarayonini kichik ko‘nikmalar yig‘indisi sifatiga qarashga asoslangan bo‘lib,unga ko‘ra o‘quvchi matn bilan ishlashda harflardan (tovushlardan) so‘zlar, so‘zlardan gaplar, gaplardan abzaslar yasash orqali matndagi ma’noni chiqarishga harakat qiladi. Matn ma’nosi undagi alohida olingan kichkina elementlar (tovushlar, harflar, so‘zlar, gaplar) ma’nolarining avtomatik yig‘indisidan iboratdir va matnni tushunish uchun har bir element ma’nosini tushunish yetar-

[2] Dole J. A., Duffy G. G., Roehler L. R. and Pearson P. D. Moving from the Old to the New: Research on Reading Comprehension Instruction. // Review of Educational Research, 1991, Vol. 61, No. 2, pp. 239–264.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi



O‘qishning “pastdan tepaga” modeli



Umumta’lim maktablarining 1-sinfi uchun “Alifbe” darsligida o‘qishning “pastdan tepaga” modeli

li hisoblanadi.Tushunish jarayonida grafik simvollarni og‘zaki nutqqa aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni oquvchi harflar yordamida ifodalangan matnlarni talaffuz qilishi va eshitishi kerak. Malaka oshgani sari bu jarayon avtomatlashadi: o‘quvchi matnni ovoz chiqarib o‘qimasa ham “ichida” o‘qiydi va tushunadi.

O‘qishning **“pastdan tepaga”** (inglizcha *“bottom-up”*) modeli – matnni tushunishda uning eng kichik elementlaridan (bo‘laklaridan) kattaroq elementlariga tomon harakat qilish orqali ma’no chiqarish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish aynan “pastdan tepaga” modeliga asoslanib tashkil qilingan: o‘quvchilarga har bir harfni tanish, uni talaffuz qilish va yozish, so‘ng shu harf ishtirok etgan bo‘g‘inlar, so‘zlar, gaplar va kichik matnlarni o‘qish o‘rgatiladi, bunda o‘quvchilardan ovoz chiqarib o‘qish so‘raladi.


Shu bilan birga, mutolaa jarayoniga an’anaviy qarashlardagi zaif nuqta o‘qish jarayonida o‘quvchi shaxsiyatining, uning dunyoqarashi, undagi bilimlarning rolini hisobga olmaslikdir. An’anaviy qarashlarning bu zaif jihatiga javob o‘laroq kognitiv qarashlar yuzaga keldi.

Kognitiv qarashlar

Mutolaa jarayoni ilmiy tahlilidagi kognitiv qarashlar psixologiya va pedagogikadagi yana bir yetakchi oqim – **kognitivizm** nazariyasiga asoslangan. Kognitiv qarashlar tarafdorlari: Devid Nanen *(David Nunan)*, Ken Gudmen *(Ken Goodman)*, Devid Rumelhart *(David Rumelhart)* va boshqalar.

Kognitivizm (inglizcha *cognitivism*, lotincha “*cognoscrere”* – “bilmoq” so‘zidan) – psixologiya va pedagogikadagi yetakchi nazariyalardan biri. Ushbu nazariya tarafdorlari fikricha, inson miyasi “qora quti” va o‘rganish jarayonini samarali tashkil qilish uchun uning uchida qanday jarayonlar sodir bo‘lishini tushunish kerak. Bilim bu – “sxema”lar yig‘indisi[3] va bu sxemalar yangi ma’lumotni qabul qilish jarayoniga ta’sir qiladi: insonda uning sxemasiga mos tushadigan ma’lumotni qabul qilish va o‘zlashtirish jarayoni samaraliroq kechadi,yangi ma’lumotlarning o‘rganuvchi tomonidan qayta ishlanishi esa o‘z navbatida sxemalarni u yoki bu darajada o‘zgartiradi. Kognitivizm nazariyasi asoschilari: Marriner Merill *(Marriner Merill)*, Charlz Reygelyut *(Charles Reigeluth)*, Robert Geyn *(Robert Gagné)*, Jerom Bruner *(Jerome Bruner)* va boshqalar.

[3] Sxema (yunoncha *skhēma* – “shakl”) – insonda mavjud bo‘lgan dunyoqarash, bilimlar, tushunchalar, xatti-harakatlar yig‘indisi.



O‘qishning “tepadan pastga” modeli

An’anaviy qarashlardan farqli o‘laroq, kognitiv qarashlar tarafdorlarining fikriga ko‘ra, mutolaa bu – **faol** jarayon va bu jarayonning markazida matn emas, **o‘quvchi** turadi. Matnni tushunish o‘quvchida mavjud sxemalarga tayanadi va bu sxemalar matnni tushunish uchun yetarli asos bo‘lib xizmat qilmasa, tushunish jarayoni ro‘y bermaydi.

Kognitiv qarashlar tarafdorlari bo‘lgan olimlar mutolaaning **“tepadan pastga”** yoki bilimga asoslangan modelini ishlab chiqqanlar. Ushbu modelga ko‘ra, matn bilan ishlashni “psixolingvistik topishmoq o‘yini” sifatida tushunish mumkin, ya’ni mutolaa jarayonida o‘quvchi o‘zida mavjud bilimlarni ishga solib, matndan anglashiladigan ma’noni oldindan bashorat qiladi (gipotezalar – taxminlar yaratadi) hamda matnning sintaktik, semantik va fonologik belgilari asosida bu bashoratlarini tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Bu jarayonda matnni o‘qishdan maqsad muhim rol o‘ynaydi va matnni tushunishga ta’sir qiladi.

O‘qishning **“tepadan pastga”** (inglizcha *“top-down”*) modeli – matnni tushunishda o‘quvchi matndan anglashiladigan ma’noni oldindan “bashorat” qilishi va mutolaa jarayonida bu “bashorat”larni tasdiqlashi yoki inkor qilishi.

O‘quvchi matn bilan ishlashda, “bashorat” – gipotezalarini tasdiqlash yoki inkor qilishda uch turdagi bilimlarni ishga soladi:

– umumiy bilimlar: o‘quvchining dunyo, ijtimoiy munosabatlar, sabab va oqibatlar haqidagi tasavvurlari;

– maxsus bilimlar: o‘qilayotgan matn mavzusiga oid bilimlar;

– yordamchi bilimlar: matn tuzilishi, sintaksisi va uslubi haqidagi bilimlar.


Matnni tushunish jarayoni samarali bo‘lishi uchun har uch turdagi bilimlar ishga solinishi talab qilinadi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarini tushunish uchun Navoiy davridagi o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini va Navoiy davrida ishlatilgan, hozir iste’moldan chiqqan so‘zlarni bilish bilan birga, islom dini va tasavvuf ta’limoti haqida tushunchaga ega bo‘lish talab qilinadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini mutolaa qilayotgan o‘quvchida roman tasvirlangan davrda Qo‘qon xonligidagi siyosiy va ijtimoiy vaziyat, o‘sha davr urf-odatlari (masalan, to‘rttagacha xotin olish mumkinligi) haqida yetarlicha bilim, tasavvur bo‘lmasa, asarni tushunish qiyinlashadi. Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasini tushunish uchun esa XX asrning o‘rtalarida Sovet Ittifoqida, shu jumladan, O‘zbekistonda olib borilgan ko‘p qavatli uylar qurish siyosati haqida, shuningdek, an’anaviy o‘zbek oilasida qaynona-kelin munosabatlari haqida tasavvur bo‘lishi lozim.

Mutolaa jarayonining kognitiv qarashlari matnning kichik elementlari (tovushlar, so‘zlar) roliga yetarlicha e’tibor qaratmaydi. An’anaviy va kognitiv qarashlarning yutuqlari va asosiy tamoyillarini birlashtirish natijasida meta-kognitiv qarashlar yuzaga keldi.

Meta-kognitiv qarashlar

Mutolaa jarayoni ilmiy tahlilidagi meta-kognitiv qarashlar Adams *(Adams)*, Kollins *(Collins)*, Anderson *(Anderson)*, Pirson *(Pearson)*, Garner *(Garner)* va boshqalarning izlanishlari natijasida shakllandi va hozirgi paytda asosiy nazariya sifatida qabul qilinib, aksar mamlakatlarda adabiyot ta'limining poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Meta-kognitiv qarashlar o'qish va o'qilgan matnni tushunishning interaktivligi (interfaolligi) tamoyiliga asoslangan. Ushbu tamoyilga ko'ra, o'quvchi (uning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, bilimlari, o'qiyotgan paytidagi emotsional holati, kontekst, vaziyat) va matn (tovushlar ohangi, alohida olingan so'zlar ma'nosi, matnning sintaktik va semantik qurilishi) mutolaada bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi va o'quvchi matn ustida ishlash jarayonida ma'noni o'zi yaratadi.[4] Bunda o'qish ham "tepadan pastga", ham "pastdan tepaga" tarzida ro'y beradi: o'quvchi bir paytning o'zida yozilgan matnning kichik elementlaridan ma'no yasaydi va o'z bilimlariga tayanib, muttasil o'z farazlarini yaratadi, ularni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. O'quvchi matnni o'qish jarayonida qabul qilinayotgan yangi ma'lumotni o'z sxemasida mavjud bilimlar bilan muqoyasa qiladi va bu ma'lumotga sxemasidan joy ajratib, uni o'zlashtiradi.



O'qishning meta-kognitiv modeli

Meta-kognitiv qarash tarafdorlariga ko'ra, o'quvchi mutolaa jarayonida nima qilayotgani haqida mulohaza yuritadi, o'zini o'zi **nazorat qiladi, boshqaradi** va bu nazorat (nazariyada meta-tushunish, inglizcha *meta-cognition*) bevosita tushunish jarayoniga ta'sir qiladi.[5] Matn bilan ishlash jarayonini boshqarish uchun o'quvchi **strategiyalarni** ishga soladi. An'anaviy qarashlarda ko'nikmalar avtomatlashtirilgan, o'quvchi ixtiyoridan tashqaridagi xatti-harakatlar bo'lsa, meta-kognitiv qarashlardagi strategiyalarni o'quvchi ixtiyoriy, tanlab, vaziyatga, o'qilayotgan matnga va maqsadga moslashtirib ishlatadi. Masalan, gazetadagi tahliliy maqolaning asosiy ma'nosini ilg'ab olishga harakat qilayotgan o'quvchi maqolaga tez ko'z yugurtirib olib, undagi asosiy ma'no tashuvchi so'zlarga (kalit so'zlarga) e'tibor bersa, teledasturlardan o'ziga kerakli kinofilmning efir vaqtini topishga harakat qilayotgan o'quvchi esa kerakli film nomini qidirib, boshqa, ayni paytda unga keraksiz bo'lgan ma'lumotlarga e'tibor bermaydi. Mijozini sud jarayonida himoya qilishi kerak bo'lgan advokat esa ishga tegishli har bir hujjatni sinchiklab, barcha detallarga e'tibor bergan holda o'qiydi. Shu bilan birga,

[4] Lesgold, A. M. and Perfetti, C. A. Interactive Processes in Reading Comprehension. // Discourse Processes, 1978. Vol. 1. Iss. 4.

[5] Block, E. See How They Read: Comprehension Monitoring of L1 and L2 Readers. // TESOL Quarterly, 1992. Vol. 26, No. 2. pp. 319–343.

mutolaa jarayonini boshqarish va kerakli strategiyalarni tanlab ishlata olish uchun o‘quvchi o‘qish tajribasiga ega va ma’lum bir darajaga yetgan bo‘lishi talab qilinadi. Demak, o‘qishni endi boshlagan o‘quvchiga harflarni tanish, ularni qo‘shib bo‘g‘inlar va so‘zlar yasash o‘rgatilsa, bu bosqichdan o‘tgan o‘quvchiga mutolaa jarayonini boshqarish va o‘qilayotgan matnni tushunish imkonini beradigan strategiyalarni o‘rgatish talab qilinadi. Bu strategiyalar esa o‘quvchining matnni o‘qishdan maqsadi va o‘qilayotgan matn turiga (badiiy, ilmiy, publitsistik, informatsion) ham bog‘liq.

Adabiyot fanining asosiy obyekti **badiiy asardir**. Adabiyot darslarida o‘quvchilar milliy va jahon adabiyotining yetuk namunalarini o‘qiydilar, o‘rganadilar va tahlil qiladilar. Shu bilan birga, badiiy asar boshqa turdagi matnlardan (darsliklar, ensiklopediyalar, ma’lumotnomalar va hokazo) tubdan farq qiladi va bu farqlar badiiy asarni o‘qish jarayoniga ham ta’sir qiladi. Badiiy asarning o‘ziga xos xususiyatlari va bu xususiyatlarning asarni o‘qish jarayoniga ta’siri adabiyot fanini o‘qitishda va o‘quvchilarning adabiy bilimlarini baholashda hisobga olinishi lozim.

Badiiy asar – badiiy ijod mahsuli bo‘lib, unda muallif so‘z vositasida inson his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish orqali o‘zining maqsadini ifodalaydi.

“Oksford” nashriyotining adabiyotshunoslik atamalari izohli lug‘ati[6] badiiy asarning uch asosiy **mezonini** keltiriladi:

– to‘qimalilik, ya’ni asar muallifning badiiy to‘qimasidir;

– kreativlik, ya’ni muallif asardagi voqea-hodisalar, his-tuyg‘ular bayoniga ijodiy yondashadi;

– badiiy qiymat, ya’ni asar so‘z san’ati namunasi sifatida badiiy qiymatga ega bo‘lishi lozim.

“Rautlej” (Routledge) nashriyotining adabiyotshunoslik atamalari izohli lug‘ati[7] esa **to‘qimalilikni** badiiy asarni boshqa turdagi asarlardan (masalan, ilmiy yoki publitsistik asarlardan) farqlovchi **asosiy mezon** sifatida keltiradi. Demak, badiiy asarda tasvirlangan voqelik muallifning tasavvuri mahsuli o‘laroq reallikka da’vo qilmaydi.

N. Brodskiy va boshqalar tahriri ostidagi adabiyotshunoslik atamalari izohli lug‘atida[8] badiiy adabiyotning quyidagi **xususiyatlari** keltiriladi:

– badiiy adabiyotdagi voqelik real hayotdagi voqelikning aynan takrori emas;

– badiiy adabiyotdagi voqelik betakror – o‘quvchi asarni har safar o‘qiganida bu voqelikni boshqacha qabul qiladi;

– badiiy adabiyotdagi voqelik real hayotdagi voqelikdan ihota qilingan;

– real voqelik inson tafakkuridan tashqarida ham mavjud, badiiy adabiyotdagi voqelik esa faqat inson tafakkurida mavjud bo‘ladi;

– badiiy adabiyotdagi voqelikni yaratgan muallif ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan bo‘ladi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida badiiy asarning yuqorida keltirilgan xususiyatlarini tahlil qilishimiz mumkin:

– asar ma’lum bir real tarixiy zamon va makon (Rossiya istilosi arafasida Qo‘qon xonligi) haqida bo‘lsa-da, unda tasvirlangan voqealar tarixiy voqealarning ayni bayoni emas,

---

[6] Qarang: Baldik C. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. 2nd ed. Oxford, “Oxford University Press”, 2011.

[7] Qarang: Childs P. and Fowler R. The Routledge Dictionary of Literary Terms. London, “Routledge”, 2006.

[8] Qarang: Язвицкий В. И., Столяров М., Локс К. Литературная энциклопедия: словарь литературных терминов: В 2-х т. / Под редакцией Н. Бродского, А. Лаврецкого, Э. Лунина, В. Львова-Рогачевского, М. Розанова, В. Чешихина-Ветринского. — М.; Л.: Изд-во Л. Д. Френкель, 1925. Стр.1070.

hatto Toshkent qamali, qipchoq-qorachopon mojarosi, Musulmonqulning o‘limi singari tarixiy voqealar bayonida ham badiiy to‘qima ustunlik qiladi;

– kitobxon asarni har safar qayta o‘qiganida romandagi voqealarni boshqacha tasavvur qiladi, voqealar va qahramonlarga munosabati qaysidir ma’noda o‘zgaradi – aks holda asarga qayta murojaat qilmasdi;

– asarda tasvirlangan davlat (Qo‘qon xonligi) siyosiy xaritada hozir mavjud emas, zamon ham, makon ham o‘zgargan, lekin kitobxon har safar asarga murojaat qilganida o‘zini o‘sha davrga, o‘sha joylarga, o‘sha odamlar orasiga tushib qolganday his qiladi;

– Qo‘qon xonligi Musulmonqul, Xudoyorxon singari tarixiy shaxslar tarixda mavjud bo‘lgan, lekin aynan Qodiriy tasvirlagan zamon, makon, shaxslarni kitobxon faqat asarni o‘qisagina idrok qiladi va har bir kitobxon ularni turlicha idrok qiladi – romanni o‘qigan har bir kitobxonning o‘z Marg‘iloni, Toshkandi, Otabegi, Kumushi, Musulmonquli bor;


– Qodiriy romanni yozayotganida uning maqsadi faqat voqealar, makon va zamonni tasvirlash bo‘lmagan, u o‘zi yashagan davr talablari, o‘zining shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib, ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan va asardagi barcha vositalarni shu maqsad sari yo‘naltirgan.

G‘arb tadqiqotchilarining fikricha, badiiy matnni o‘qish natijasida chiqariladigan xulosalar **uch omilning** bir-biriga o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi[9]:

– o‘quvchi: uning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, unda mavjud bo‘lgan bilimlar majmui (“sxemalari”), matnni tushunishga yordam beruvchi bilimlari (leksika, sintaksis, semantika, pragmatika, adabiyot nazariyasi bo‘yicha ma’lumotlar), mutolaa paytidagi emotsional holati;

– badiiy asar matni: matnning mavzusi, tuzilishi, tili, lingvistik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, ekspozitsiyasi;

– o‘quvchining asarni o‘qishdan maqsadi.



O‘qish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar[10]

[9] Bu haqda qarang: Lipson, A., and Wixson, K. Assessment and Instruction of Reading Disability: An Interactive Approach. New York, “HarperCollins”, 1991.

[10] Lipson, A., and Wixson, K. Assessment and Instruction of Reading Disability: An Interactive Approach. New York: “HarperCollins”, 1991.

Adabiyot o‘qitish metodikasiga “tranzaksiya nazariyasi”ni (inglizcha *transaction theory*) olib kirgan Amerikalik olima Luiza Rozenblatt *(Louise Rosenblatt)* badiiy matn mutolaasiga **estetik hodisa**[11] sifatida qaraydi. Uning fikricha, o‘qilayotgan asardan ma’no yasash o‘quvchi shaxsi – uning bilimi, his-tuyg‘ulari, xohish-istaklari bilan asar matni sintezidan kelib chiqadi. Bu sintez jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– asardagi voqelik o‘quvchi bilimi va dunyoqarashi bilan organik tarzda birlashadi: bir tarafdan, asardan kelib chiqadigan ma’no o‘quvchi bilimi va dunyoqarashi ta’siri ostida shakllanadi, ikkinchi tarafdan esa, asardan kelib chiqadigan ma’no o‘quvchi bilimi va dunyoqarashiga ta’sir qiladi;

– asar o‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi;

– o‘quvchining tasavvurini uyg‘otadi: tasavvur orqali o‘zgalarning hayoti bilan emotsional va intellektual bog‘liqlikni his qiladi, bu esa o‘quvchiga boshqalarni tushunish hamda o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib ko‘rish yoki asardagi voqealarning muqobil (boshqacha) rivojlanishini tasavvur qilish orqali o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga o‘rgatadi.

Asar mutolaasi jarayonida o‘quvchi boshqa bir hayotni “yashab o‘tadi”. Bu hodisaga o‘quvchining hayotiy tajribasi ta’sir qiladi, shuning uchun ham asarni har safar qayta o‘qishda asar o‘quvchiga boshqacha ta’sir qiladi. “Boshqa hayotga sho‘ng‘ish” mutolaaning estetik hodisa sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Asar o‘quvchining hayotiy tajribasi, hozirgi qiziqishlari va his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq bo‘lmasa, uni qiziqtirmasa, estetik hodisa ro‘y bermaydi. Shu bilan birga, Rozenblattning fikricha, “qiziq” tushunchasini tor talqin qilish va faqat o‘quvchining bevosita hayoti bilan bog‘liq asarlarni tanlash noto‘g‘ridir. Adabiyot darslari uchun tanlanadigan asarlar xilma-xil, stereotiplardan xoli bo‘lishi kerak va o‘quvchi asar orqali boshqa madaniyatlar, boshqa dunyolarga qadam qo‘yishni ham o‘rganishi kerak.

Shunday qilib, **badiiy asar mutolaas**i davomida o‘quvchi:

– o‘zini o‘rab turgan voqelikdan farq qiladigan voqelikka sho‘ng‘ish zavqini his qiladi;

– o‘zini hikoyanavis (muallif) va asar qahramonlari bilan muqoyasa qiladi, o‘xshash va farqli jihatlarini qidiradi, ozini ularga yaqinlashtiradi yoki ulardan uzoqlashtiradi, ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy tuyg‘ularni his qiladi;

– asar muallifining dunyoqarashini, qadriyatlarini, uning voqelikka munosabatini va bu munosabatning sabablarini tushunishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, badiiy asar mutolaasi o‘quvchiga o‘zining dunyo haqidagi bilimlarini, siyosiy, ijtimoiy, axloqiy tafakkurini boyitish hamda tarix, madaniyatshunoslik, geografiya va boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish, boshqa fanlarni o‘rganish jarayonida ko‘ra olmaydigan detallarni ko‘rish imkonini beradi.

Badiiy asarning muhim jihatlari **to‘qimalilik, emotsionallik** va **subyektivlikdir**, ya’ni badiiy matn muallifning tasavvuri mahsuli o‘laroq o‘quvchining his-tuyg‘ulariga, har bir o‘quvchiga turlicha ta’sir qiladi. O‘quvchi badiiy asarni mutolaa qilishda undan ma’lumot olish yoki asar syujeti va qahramonlariga oid detallarni eslab qolishni o‘ziga asosiy maqsad sifatida belgilamaydi. Masalan, Bobur hayoti va siyosiy faoliyati haqida ilmiy tadqiqot qilayotgan kishi Pirimqul Qodirov yoki Xayriddin Sultonovning Boburga bag‘ishlangan romanlariga emas, balki “Boburnoma”ga va Bobur haqida yozilgan ilmiy asarlarga murojaat qiladi. Shu bilan birga, badiiy asarni hammadan bir xil tushunish va talqin qilishni talab qilish badiiy asarning qiymatini yo‘qqa chiqaradi. Masalan, “O‘tkan kunlar”da Otabek va Kumush fojiasida kim aybdor, degan savolga har bir o‘quvchi asarni qanday tushunganidan kelib chiqib har xil javob beradi: kimdir jamiyatni va o‘sha davr urf-odatlarini, kimdir

[11] Rosenblatt, L. Literature as Exploration. London, “Heinemann”, 1970.

ota-ota ra’yiga qarshi borolmagan va keyinchalik ikki xotin orasida muvozanatni saqlay olmagan Otabekni, kimdir Toshkentga kelganida kundoshini har safar gap bilan chaqib oladigan Kumushni, kimdir opasi Xushro‘yning maslahatini o‘zicha talqin qilgan Zaynabni, kimdir xotinini oxirigacha o‘ylanmay qilingan xatti-harakatlardan qaytarolmagan Yusufbek hojini, kimdir boshidan qizini Toshkentga yuborishga qarshi bo‘lgan Oftob oyimni ayblaydi, yana kimdir boshqa aybdorlarni sanashi mumkin va eng qizig‘i, bunda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob yo‘q, har bir kitobxon asarga o‘z tushunchasidan kelib chiqib yondashadi va bunga haqli ham.

Quyida keltirilgan matnlarni solishtiring.

1-matn

Xo‘jand shahri Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan edi. Uning tabiiy joylashishi hamda shahar hokimi Temur Malikning qahramonligi bilan xo‘jandliklar mo‘g‘ullarga kutilmagan qarshilikni ko‘rsatadilar. Xo‘jand shahri himoyachilari Temur Malik boshchiligida qariyb bir oy davomida o‘z shahrini mudofaa qiladilar. Oxiri ilojsiz qolganda o‘t ichida qolgan shahar qal’asini ming nafarga yaqin bahodir tark etib, Temur Malik bilan Sirdaryo o‘rtasidagi orolda joylashib olib, dushman bilan mardlarcha olishdilar. Nihoyat, maxsus kemalar yasab, daryo oqimi bo‘ylab, Xorazm tomon suzib ketdilar. Yo‘l-yo‘lakay dushman bilan jang qildilar. Xalq qahramoni Temur Malikning bundan keyingi vatanparvarlik jasorati Xorazm va ona yurtining boshqa hududlarini himoya qiluvchilar safida kechdi.

(A. Muhammadjonov. O‘zbekiston tarixi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslikdan)

2-matn

Shu kecha osmonda bulut paydo bo‘lib, charaqlab turadigan yulduzlar ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Oy ham qoramtir quyuq bulutlar orasidan ba’zan sarkarda Temur Malikning dimishqiy qilichidek yarqirab ko‘rinib qolardi. Tun qorong‘iligini panoh etib, oroldagi yigitlar o‘n besh manjaniqni qirg‘oq – daryo bo‘yiga qator tizib, beliga moyli lattalarni arqon bilan mahkam bog‘lagan xarsangtoshlar uyib qo‘yildi. Yarim tunda Shohmurod Ko‘histoniy boshchiligidagi ikki kemaga yigirmaga yaqin sarboz o‘tirib, orolning yuqori tomonida payt poylab turishdi. Orolning quyi tomoniga terib qo‘yilgan manjaniqlarga xarsang qo‘yilib, o‘rtada yonib turgan gulxanga kosov tiqib, yondirib, xarsanglarni o‘t oldirib, manjaniqlarni ota boshlashdi. Qattiq egilgan archa taxtasi olovli toshlarni daryo ustidan o‘tkazib, dushman borgohini otashbo‘ron qila boshladi. O‘n besh manjaniqdan tinimsiz otilib turgan olovli xarsanglar mo‘g‘ullarni vahimaga soldi. Xarsanglar yerga tushib, ancha vaqtgacha yonib turardi. O‘tov tepasiga tushganlari namatni yorib kirib o‘t oldirardi, otlar hurkib to‘rt tomonga qochardi. Sarosimaga tushib, bezovta bo‘lgan otlarini ushlab, yonayotgan o‘tovlarini suv sepib o‘chirayotgan bir paytda shiddat bilan daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tib ketgan ikki kemani dushman payqamay qoldi.

Mirmuhsin. “Xo‘jand qal’asi” romanidan

3-matn

* * *

...Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
Cho‘lig‘imsan, Vatanim...

Muhammad Yusuf

Birinchi matnning maqsadi – ma’lumot berish, o‘quvchi uni konkret ma’lumot olish maqsadida o‘qiydi, bunda matndagi ma’lumotning to‘g‘riligi muhim ahamiyat kasb etadi va bu ma’lumotni har xil talqin qilib bo‘lmaydi: o‘quvchining matnni tushungan yoki tushunmaganini matn asosida savollar berib, javoblarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga qarab bilish mumkin. Ikkinchi matn esa o‘quvchi tasavvurida manzarani gavdalantiradi, lekin matnni o‘qigan har bir o‘quvchi bu manzarani har xil tasavvur qiladi. Matnda tasvirlangan voqea tarixda bo‘lib o‘tgan, lekin aynan muallif tasvirlagan tarzda bo‘lgan deya olmaymiz, matnni o‘qiyotgan o‘quvchi uchun ham bu ahamiyatsiz, chunki u asarni ma’lumot olish maqsadida o‘qimaydi. Uchinchi matn o‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, tasavvurini jonlantiradi.

Demak, badiiy matn bilan ishlashda uning boshqa turdagi matnlardan **farqlarini** va badiiy asarni o‘qish yoki o‘qitishdagi **maqsadlar** ham boshqa turdagi matnlarni o‘qish yoki o‘qitishdagi maqsadlardan tubdan farq qilishini hisobga olish kerak. Asarni hamma har xil tushunadi va talqin qiladi, hatto bir o‘quvchi bir asarni har xil paytda o‘qiganda har xil xulosalarga keladi va buni normal holat sifatida qabul qilish lozim. Shuni hisobga olgan holda, adabiyot darslarida o‘qituvchi asardagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga yodlatishi yoki asarning ma’lum bir talqinini yagona maqbul talqin sifatida singdirishi emas, balki ularga asar matni bilan ishlashda **badiiy matn, bilimlari va hayotiy tajribalari hamda kontekstdan kelib chiqqan holda individual talqinlarini yaratishga yordam berishi** lozim.

O‘qish jarayoning meta-kognitiv tahlili badiiy matn mutolaasiga tatbiq qilinsa, badiiy matn bilan ishlash va undan ma’no chiqarish jarayoni **interfaollik, konstruktivlik va strategiklik** tamoyillariga asoslanganini ko‘rish mumkin.

1. O‘qish – interfaol jarayon.

O‘qish bu – o‘quvchi va matn orasidagi **interfaol** jarayon va bu jarayonda o‘quvchida mavjud sxemalar matnni tushunishning qay darajada samarali bo‘lishini hal qiladi. Alohida olingan so‘zlarni tushunish hamda matnning kengroq kontekstini tushunish matnni tushunishning asosidir, ya’ni o‘quvchi matnda ishlatilgan so‘zlarni tushunmasa yoki ularni tushungani bilan kontekstni tushunmasa, ya’ni matnda so‘z ketgan hodisa yoki voqelik haqida yetarli bilimi bo‘lmasa, ma’no chiqara olmaydi.

Misol:

Bor edi beshada bir tund sher,

Vahshat aro ko‘k asadidek daler.

(Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”dan)

Ushbu parchani tushunish uchun *besha – to‘qay, tund – yirtqich, vahshat – yovvoyi, ko‘k – osmon, asad – sher, daler – qo‘rqmas* so‘zlarining ma’nosini bilish lozim.

Yoki:

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?

Ibrohimdin qolg‘on ul eski do‘konni na qilay?!

(Mashrabdan)

Ushbu baytning ma’nosini tushunish uchun Makkaga borib haj qilish Islomning besh farzlaridan biri ekanini, “Ibrohimdin qolg‘on ul eski do‘kon” deganda Makkadagi Ibrohim alayhissalom qurgan va muqaddas sajdagoh bo‘lgan Ka’ba nazarda tutilganini bilish kerak.

Yana bir misol:

– Turing, bugun professor Rauf Abdullayevich obxod qiladi! – dedi u Sherzod uyg‘onishi bilan qaddini rostlab. – O‘rinlaringizni yaxshilab tartibga solinglar. Tumbochkaning ustida ortiqcha narsalar turmasin.

(O‘tkir Hoshimov. “Nur borki, soya bor” asaridan)

Ushbu parchani tushunish uchun o‘quvchi “obxod” (kasalxonada shifokorning bemorlar yotgan palatalarni aylanishi) nima ekanini bilishi kerak.

O‘qituvchi o‘quvchiga asarni tushunishga yordam berishi uchun undagi mavjud sxemalarni faollashtirishi – o‘quvchida mavjud bilimlar majmui va hayotiy tajribani ishga solishi lozim. Shu bilan birga, asarni tushunish, undan ma’no chiqarish uchun sxemalar yetarli bo‘lmasa, unda asarni o‘qitishdan oldin va o‘qitish davomida bilimlardagi bo‘shliqlarni to‘ldirib borish – sxemalarni shakllantirish kerak bo‘ladi. Bunda asarni o‘qitishdan oldingi va asar bilan ishlash davomida bajariladigan savol va topshiriqlar muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun xorij darsliklarida bunday savol va topshiriqlardan keng foydalaniladi.

2. O‘qish – konstruktiv jarayon.

O‘qish davomida o‘quvchi matndan **ma’no yaratadi**. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchi muttasil ochiq aytilmagan (yashirin) ma’noni anglash, bo‘shliqlarni to‘ldirish, taxminlar (gipotezalar) yaratish va ularni matn asosida tekshirish jarayonlari asosida ma’no yaratadi.

Masalan:

Tongga yaqin onasining ingrayotganini eshitdi. Keyin otasi nimadir dedi. Tancha sovib qolgan, badani sovuqdan junjika boshlagan edi. Otashkurakni olib kulni titib qo‘ysa-ku, olam guliston, ammo erinchoqlik sovuqdan ustunlik qildi. Bu yumushni ertalab onasi bajarar edi.

Uchovlon tanchaning uch tomonida yotishardi. Hozir onasi narigi uyda ingrayapti, otasi nimadir deyapti. Sovuq uyda nima qilishyapti ekan?

– Uyg‘ondingmi, toychoq? – dedi dadasi ostonada turib. – Turaqol, ayangni kasalxonaga tashlab kelaman. Bugun qorbobo senga ham chana, ham uka olib keladiganga o‘xshaydi. Sen yaxshi bola bo‘lib o‘tirib tur.

(Tohir Malik. “Shaytanat” qissasi 1-kitobidan)

Ushbu parchadan o‘quvchi bolaning onasi homilador ekanini, otasi uni tug‘ruqxonaga olib ketayotganini anglashi mumkin, vaholanki matnda onaning homilador ekanligi va tug‘ruqxona haqida hech narsa deyilmagan.

3. O‘qish – strategik jarayon.

Metakognitiv tahlil tarafdorlariga ko‘ra, o‘quvchi matn bilan ishlash jarayonini nazorat qila oladi. U so‘zlar, ochiq aytilgan va aytilmagan fikrlar, o‘zining bilimlarini ishga solgan holda matndan ma’no yaratishi uchun turli strategiyalarni ishga soladi. O‘qib tushunish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olima Sara Dauhauer *(Sarah Dowhower)* fikricha[12], o‘qilayotgan asarni tushunishga yordam beradigan strategiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– o‘quvchida mavjud bilimlarni faollashtirish;

– bashorat qilish;

– vizualizatsiya (voqeani xayolida tasavvur qilish);

– xulosa yasash;

– o‘z-o‘ziga savol berish;

– matnning badiiy elementlarini tahlil qilish;

– ochiq aytilmagan yashirin ma’noni anglash;


– muhim ma’lumotni ajratib olish;

– sintezlash;

– monitoring qilish;

– noto‘g‘ri tushunchalarni to‘g‘rilash.

Shuningdek, o‘qilayotgan matnni boshqa asarlar va o‘zining hayotiy tajribasi bilan bog‘lash, solishtirish, o‘xshash va farqli jihatlarini qidirish hamda savol berish, o‘qilayotgan matn ustida mushohada yuritish, baho berish ham matnni tushunishga xizmat qiladigan muhim strategiyalarga kiradi. Adabiyot darslarida o‘qituvchi o‘quvchiga bu strategiyalarni o‘z o‘rnida va samarali ishlatishni o‘rgatishi mutolaa jarayonining foydali bo‘lishini ta’minlaydi.



Persia

Build Background

What Is Sufism? Sufism is a mystical form of Islam in which Muslims seek spiritual love and wisdom through direct personal experience with God. An early form of Sufism arose in the 7th century as a reaction to the materialism of the Islamic world. However, the real flowering of Sufism took place in the 12th and 13th centuries, when Sufi brotherhoods were established in special communities, or schools. Like the monks of medieval Europe, Sufi mystics tried to avoid what they considered the lures and traps of the material world. In fact, they are often called dervishes, from the Persian word for a monk who lives in poverty. Rumi founded an order of Sufi mystics that embraced sacred dance as a form of worship. Because of this practice, these mystics acquired the nickname "whirling dervishes."

Prayer in the Mosque (19th century), Jean-Léon Gérôme. The Metropolitan Museum of Art, New York.

Connect to Your Life

In these poems Rumi tries to convey experiences that are hard to put into words. What experiences or feelings might you find difficult to express? Why might this be difficult for you?

Focus Your Reading

LITERARY ANALYSIS: IMAGERY AND TONE

When writers use words and phrases to create vivid sensory experiences for the reader, they are making use of **imagery.** Although most imagery appeals to the sense of sight, imagery may also appeal to the senses of smell, hearing, taste, or touch. The title "Birdsong from Inside the Egg," for example, appeals to the senses of both sight and hearing. Often, a writer uses imagery to convey his or her **tone,** or attitude, toward a subject. The image of a bird's song coming from inside an egg expresses an attitude of amazement and joy. As you read Rumi's poems, notice the images that he uses and think about the kinds of tone they convey.

ACTIVE READING: READING DIFFICULT POETRY

Rumi's poetry presents difficulties for many readers because of his use of unusual images to convey abstract ideas. Even an experienced reader depends on strategies such as these:

- Read each poem slowly and deliberately.
- Read each poem several times. Read first to get an overall sense of the poem's meaning. Then focus on understanding individual parts.
- Write down notes about the stanzas and images that you think you understand.
- If you are still confused by certain sections of a poem, don't be too concerned. Use the parts of the poem that you do understand to help make

AQSH maktablarining yuqori sinflari uchun mo‘ljallangan Artur Eplbi (Arthur Applebee) va boshqalar hammuallifligidagi “Jahon adabiyoti” darsligida (Boston, “McDougal Littell” nashriyoti, 2008) “Rumiy she’riyati” mavzusiga kirish oldidan so‘fiylik va so‘fiy she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ma’lumot berilishi

[12] Dowhower S. Supporting a Strategic Stance in the Classroom: A Comprehension Framework for Helping Teachers Help Students to Be Strategic. // The Reading Teacher, 1999. Vol. 52, No. 7, pp. 673–683.



Ukraina maktablarining 8-sinfi uchun Y. Voloshuk va Y. Slobodanyuk hammuallifligidagi “Adabiyot” darsligida (Kiyev, “Geneza” nashriyoti, 2016) Servantesning “Don Kixot” romanini o‘rganishda vizualizatsiya strategiyasidan foydalanish namunasi

Adabiyot darslarida **badiiy matn bilan ishlash jarayoni** o‘qishning yuqorida keltirilgan xususiyatlari asosida qurilishi kerak. Badiiy matn bilan ishlash jarayoni bir necha bosqichga bo‘linadi va bu **bosqichlar** o‘quvchida mavjud bilimni faollashtirish orqali yangi bilim, tushuncha va fikrlarning o‘zlashtirilishi samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Adabiyot darslarida badiiy asar matni bilan ishlash samarali bo‘lishi uchun bu jarayon:

– **bahs va munozaralarni** keltirib chiqarishi lozim – demak, savol va topshiriqlar shunday qo‘yilishi kerakki, ularning yagona to‘g‘ri javobi yoki yechimi bo‘lmasin;

– boshqa fanlar bo‘yicha olingan bilimlarga **suyanishi** hamda ularni **boyitishga** xizmat qilishi lozim – demak, fanlararo integratsiyaga katta e’tibor beriladi;

– turli **nutq ko‘nikmalarini** (o‘qish, eshitish, yozish, gapirish) qamrab olishi lozim;

– **yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni** rivojlantirishga xizmat qilishi lozim – demak, o‘quvchilarga beriladigan savollar va topshiriqlar faqat ma’lumotni qaytarishni talab qilmasligi, balki matnni tahlil qilib, u asosida yangi narsa yaratish, matndagi voqea-hodisalar, obrazlarga baho berishni ham qamrab olishi talab qilinadi.

Badiiy asar matni bilan ishlash jarayonini **uch bosqichga** ajratish mumkin:

– o‘qishdan oldingi topshiriqlar;

– o‘qish davomidagi topshiriqlar;

– o‘qishdan keyingi topshiriqlar.

O‘qishdan oldingi topshiriqlar

Asar bilan ishlashning dastlabki bosqichi – **o‘qishdan oldingi topshiriqlar.**

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining amaldagi adabiyot darsliklarida o‘qishdan oldingi topshiriqlarga deyarli e’tibor qaratilmaydi. O‘quvchilarni badiiy asarga olib kirish “asar haqida” vositasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari ayrim fikrlashdan ortda qolgan o‘quvchilarda “tushunish o‘qishdan oldin boshlanadi”, yoki “matnni o‘qib bo‘lgandan keyingi savollarga to‘g‘ri javob berish bu – muayyan badiiy asar mazmunini to‘liq tushunishdir”, “tushunish bu – qayta bayon qilish” degan tasavvurlar hosil qilishi ham tabiiy. Bu holat o‘quvchilarning o‘qituvchi fikriga, yoxud “asar haqida”gi qarashlarga qaram bo‘lib qolishi barobarida matn ustida ishlash imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi.

O‘qishdan oldingi topshiriqlar kitobxondagi mavjud bilimlar va badiiy matn o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Bundan maqsad o‘quvchilarni o‘zlari uchun notanish bo‘lgan badiiy asar mutolaasiga tayyorlash, asarni yaxshiroq tushunishga yordam berish, matnni oldindan ko‘ra olish qobiliyatini shakllantirish, asarda hikoya qilingan kontekst (tarixiy davr, geografik muhit, madaniyat) haqida tasavvur uyg‘otishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qishdan oldingi topshiriqlarni tayyorlashda aksariyat holatlarda struktural tahlil imkoniyatlari (masalan, badiiy asarning kompozitsion qurilishi, jumladan, asar sarlavhasi, prolog, epilog, asardagi epigraflar, ilk va so‘ngi jumlalar va muallifning badiiy asar kompozitsion qurilishidan kutgan maqsadi va hokazo)dan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Amerikalik psixolog va kognitivist olimlar Devid Rumelhart (*David Rumelhart, 1942–2011)* va Donald Norman *(Donald Norman, 1935)* ilgari surgan sxemalar nazariyasiga ko‘ra *(schemata theory)*, o‘quvchi yangi ma’lumotlarni (yangi sxemalarni) qabul qilayotganda ularni o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar (sxemalar) bilan solishtiradi va unda mavjud sxemalar bilan mos tushadigan ma’lumotlar osonroq va samaraliroq o‘zlashtiriladi. Donald Norman ta’kidlashicha, “Mos konseptual asos mavjud bo‘lsa, o‘zlashtirish oson, samarali va og‘riqsiz kechadi, aks holda bu jarayon og‘riqli va sekin bo‘ladi”.[13] Amerikalik olim Vilyam Henk *(William Henk)* ham bu fikrni quvvatlab, shunday deydi: “Kiruvchi (yangi) ma’lumot yoki mavjud bilimlarga (sxemalarga) mos keladi yoki yangi bilimlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. O‘quvchi o‘zida mavjud sxemalarga mos tushadigan yangi misollarga duch kelganda bu misollarni o‘zlashtirish sxemalar mavjud bo‘lmagan holatga qaraganda osonroq kechadi”.[14] Demak, yangi matn bilan ishlash jarayoni samarali bo‘lishi uchun o‘qishdan oldin matnni tushunishga yordam beradigan bilimlarni (sxemalarni) faollashtirish lozim.

Bu bosqichda asarda hikoya qilingan zamon va makon haqida tushuncha berish maqsadida turli xil **artefaktlar**dan (buyumlar, xaritalar, kitoblar, plakatlar, hujjatlar va hokazo) hamda **multimedia vositalari**dan (musiqa, ovozli yozuvlar, fotosuratlar, videolavhalar) foydalanish mumkin. Masalan, o‘quvchini Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarini tushunishga tayyorlash uchun Rossiya istilosi arafasidagi Turkiston xaritasini ko‘rsatib, xaritadan Toshkent, Qo‘qon, Marg‘ilonni topishni, bu shaharlar qaysi davlat tarkibida bo‘lganini, bu davlatning poytaxti qayer ekanini so‘rash mumkin.

Shuningdek, **asar muallifi haqida qisqacha ma’lumot** berish, yozuvchi biografiyasidan o‘qiladigan asarni tushunishda muhim bo‘lgan detallar keltirish ham o‘quvchini asarni anglashga tayyorlaydi. Masalan, Antuan de Sent-Ekzyuperini bolaligida oltinrang qo‘ng‘iroq sochlari sabab “Qirol-oftob” deb atashgani, uning kasbi uchuvchi bo‘lgani va Afrika ustidan uchayotganida samolyoti halokatga uchrab, suvsiz qolgani, salvadorlik rafiqasi Konsueloni juda yaxshi ko‘rganiga qaramasdan u bilan munosabatlari og‘ir bo‘lgani, “Kichkina shahzoda” asarini Ikkinchi jahon urushi paytida ona yurti Fransiyani fashistlar istilo qilganida Nyu Yorkdagi do‘stining uyida yozgani kabi detallarni bilish o‘quvchilarga “Kichkina shahzoda” asaridagi obraz va ramzlarni (shahzoda, hikoyachi, gul, baobab, tulki) yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Bu bosqichda **yo‘naltiruvchi savollar**dan foydalanish asarning bosh g‘oyasini tushunishga yordam beradi. Yo‘naltiruvchi savollar samarali bo‘lishi uchun ular:

– ochiq, bitta to‘g‘ri javobga ega bo‘lmagan, muammoli savollar bo‘lishi;

– o‘quvchilarni fikrlashga undaydigan bo‘lishi;

– o‘quvchilarning nafaqat bilimiga, balki dunyoqarashi va hayotiy tajribasiga tayanadigan bo‘lishi;

---

[13] Norman, Donald A. Things That Make Us Smart: Defending Human Attributes in The Age Of The Machine. New York, “William Patrick Book”, 1994. P. 9.

[14] Henk, W. New Directions in Reading Assessment. // Reading and Writing Quarterly, 1993. Vol. 9, pp. 103–120.

– o‘quvchilarni shunga o‘xshash yangi savollarga undashi lozim.

Asarni o‘qish jarayonida yoki o‘qib bo‘lgandan keyin yo‘naltiruvchi savollarga yana qaytib, o‘quvchilarning bu borada fikri o‘zgargan-o‘zgarmaganini so‘rash mumkin.

Masalan, Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarini o‘qitishda quyidagi yo‘naltiruvchi savollardan foydalanish mumkin:

– “Qalb ko‘zi” deganda nimani tushunasiz?

– Biror qaror qabul qilayotganingizda ko‘proq aqlga, mantiqqa suyanasizmi yoki qalbingizga quloq solasizmi?

– Insonlarni bir-biriga qanday rishtalar bog‘lab turadi?

– Bizga qadrli bo‘lgan insonlar yoki narsalarning biz uchun qadri nimada?

Shuningdek, asar g‘oyasiga aloqador **hikmatli so‘z** yoki **maqol**ni xattaxtaga yozib, o‘quvchilarning fikrlarini so‘rash yoki **aqliy hujum** usulidan foydalangan holda asarda ko‘tarilgan g‘oya bo‘yicha o‘quvchilarning fikrlarini yig‘ish mumkin.


Bu bosqichda **asar nomi** yoki **asarning dastlabki satrlari**dan foydalanib, asar nega shunday nomlangani, nima haqida bo‘lishi mumkinligi, qanday tasavvur uyg‘otishini so‘rash ham o‘quvchilarda asarni o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani (ishtiyoqni) oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi quyidagicha tabiat manzarasi bilan boshlanadi: “Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi”. O‘quvchilarni asar ruhiyatiga tayyorlash maqsadida quyidagicha savollar berish mumkin:

– Ko‘zingizni yumib tasvirlanayotgan manzarani tasavvur qilib ko‘ring. Bunday manzara sizda qanday kayfiyat uyg‘otadi?

– O‘zingizni qanday his qilasiz?

– Asar nimaga shunday manzara bilan boshlanyapti, deb o‘ylaysiz?



Yoki amaldagi 5-sinf “Adabiyot” darsligiga kiritilgan, jahon adabiyotining eng go‘zal namunalaridan biri, gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasini o‘qishga kirishishdan oldin quyidagi topshiriqlarni bajarish mumkin.

– O‘quvchilar asar muallifi ismi-sharifi va asar sarlavhasini o‘qishadi va quyidagi savollarga javob berishadi: *Nodar Dumbadze haqida avval eshitganmisiz? Nima uchun asar “Hellados” deb nomlangan bo‘lishi mumkin? “Hellados” so‘zi nimani anglatadi?*

– Kitob muqovasiga ishlangan illyustratsiya, jumladan, muqovadagi ranglar mohiyati haqidagi mustaqil qarashlarini ifoda qilishadi. *(Asar muqovasidagi rasmlar nimalarni ifodalaydi? Ular asarning umumiy g‘oyasini qay darajada aks ettiryapti? Bola (Yanguli)ning chap ko‘kragiga yozilgan “Hellados” nimaga ishora? Kitob muqovasida aks etgan suv, daraxt va hokazolar-chi?)*

Yuqoridagi savol va topshiriqlar yakunida o‘quvchilar asarning umumiy mazmuni haqidagi taxminiy fikrlarini bayon etadilar.

Shu bilan birga, ilk jumla (yoki jumlalar) tahlili orqali o‘quvchilarni badiiy asarga olib kirish ham anchayin qiziq va har qanday o‘rganuvchining tahlildagi faolligini ta’minlaydi. Masalan, “Hellados” hikoyasi Jamol va Yangulining tortishuvidagi quyidagi tugun bi-

lan boshlanadi[15]. O‘quvchilar dialogni o‘qib, savollarga javob berishga harakat qilishlari mumkin:

– Jamol – skripka!

– Yanguli – mishiqi!

– Jamol – cho‘chqa!

– Yanguli – ipirisqi grek!

– Jamol – sassiqtaka!

– Chivinbotir!

....

– *Siz bu suhbatdan nimalarni tushundingiz?*

– *Sizningcha, asar nega mana shu tarzda boshlanadi?*

Bunday tasvir ifodasi o‘ta real, tabiiy va o‘n yoki o‘n bir yoshdagi bola olamiga tanish vaziyat. O‘quvchilar asarning ilk jumlalari va qo‘yilgan savollar yordamida dunyoqarashi, tafakkur olami, suhbatni qabul qilishdagi emotsional holatidan kelib chiqib “asar haqida”gi hokim g‘oyalar ta’siridan xoli “yangi asar”larini yaratadilar.

Demak, **asarni o‘qishdan oldingi** faoliyatda o‘qituvchilar:

– o‘quvchidagi asarni tushunishga yordam beradigan **bilimlarni** (bu bilimlar boshqa fanlar doirasida olingan bo‘lishi ham mumkin) va **hayotiy tajribani** faollashtirishga;

– asarning asosiy **g‘oyasi (muammosi)** va unga yondosh g‘oyalar ustida fikr yuritishga yo‘naltiradigan savol va topshiriqlarga e’tibor qaratishlari zarur bo‘ladi.

O‘qish davomidagi topshiriqlar

Bunday topshiriqlarning maqsadi o‘quvchiga asar matnini **tushunish va tahlil qilishga yordam berish**, o‘qish davomida o‘quvchining fikrini yo‘naltirib borishdan iboratdir. Bunda asardagi obrazlarning xatti-harakatlarini, xarakterlarini, bir-birlariga munosabatlarini, voqealarning sabab va oqibat zanjirini, asarning tili (leksikasi grammatikasi, uslubi), unda qo‘llangan badiiy vositalarning ma’nosini tushunish, ularni tahlil qilish va baho berishga e’tibor qaratiladi. O‘qish davomida bajariladigan topshiriqlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

– bashorat qilish: asarning ma’lum bir qismini o‘qigandan so‘ng keyin nima bo‘lishini so‘rash;

– to‘xtab o‘qish: asarning muhim tugunlarida o‘quvchilarni to‘xtatib, asarni tushunish, tahlil qilish va baholashga qaratilgan savollar berish;

– asarning o‘qilgan qismiga sarlavha qo‘yishni so‘rash: bunday topshiriq o‘qilgan parchadagi muhim g‘oyani ajratib olishga yordam beradi.

Bu bosqichda o‘quvchilarning **“ikki qismli kundalik”** to‘ldirishlari asarni yaxshiroq tushunish va unga nisbatan o‘z munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. “Ikki qismli kundalik”da o‘quvchilar jadval to‘ldirib boradilar: jadvalning chap tarafiga asardan muhim parcha yoziladi va o‘ng tarafiga shu parchaga munosabat, parcha asosida tug‘ilgan fikrlar yoziladi. Ushbu usul ayniqsa o‘quvchilarga uyda katta hajmdagi asar matni bilan ishlash vazifasi berilganda ish samaradorligini oshiradi. Masalan, Aleksandr Pushkinning

[15] Amaldagi 5-sinf adabiyot darsligiga (Sunnat Ahmedov va boshqalar, “Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’limning 5-sinfi uchun darslik”, Toshkent, 2020-yil) bu qism kiritilmagan.

“Yevgeniy Onegin” she’riy romani bilan ishlayotganda o‘quvchi Onegin xarakteridagi o‘zgarishlarni va bu o‘zgarishlarga o‘z munosabatini qayd qilib borishi mumkin.

Asardan parcha	Mening munosabatim
Lekin, parvardigor, bu qanday zahmat, Bemor kishi bilan kunduz ham, tun ham O‘tirish siljimay undan bir qadam!	Onegin kasal amakisiga qarash zahmat ekanini o‘ylayapti. Onegin bu yerda insoniy tuyg‘ulardan yiroq bir kishi sifatida gavdalanadi.

O‘qishdan keyingi topshiriqlar

Bunday topshiriqlarning maqsadi asarni **tahlil qilish, sintez, baho berish va o‘quvchi hayoti bilan bog‘lash (personalizatsiya)**dan iboratdir. Bunda asosiy e’tiborni syujetni (voqealar ketma-ketligini) qayta hikoya qilib berishga emas, **g‘oyaga**, muallif yetkazmoqchi bo‘lgan fikrga qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu bosqichda tahlil qilishni osonlashtiruvchi yordamchi vositalar sifatida **grafik organayzerlar** va **jadvallar**dan foydalanish mumkin. Bu bosqichda bajariladigan topshiriqlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

– asarni tarkibiy qismlarga (kulminatsiya, tugun, yechim va hokazo) ajratish;

– asardan uning asosiy g‘oyasini ochib beradigan so‘zlarni topish;

– asardagi voqealarga yoki obrazlar xatti-harakatlariga baho berish;

– asar bosh qahramoni nomidan xat, kundalik va hokazo yozish;

– asardagi voqealarni biron-bir obraz nuqtayi nazaridan bayon qilish;

– asar syujetidagi biror detal (voqea) o‘zgarganda voqealar qanday rivojlanishi mumkinligini bayon qilish;

– asardagi voqealarni davom ettirish yoki asarga boshqa (alternativ) yakun yozish.

Shuningdek, bu bosqichda **adabiyot va boshqa fanlar integratsiyasini ta’minlash** – asarni o‘qish natijasida olingan bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lash va boshqa fanlardan olingan bilimlarni o‘qilgan asarga tatbiq qilish muhim rol o‘ynaydi.

Asar bilan ishlashning so‘nggi bosqichida **kulminatsion topshiriqlar** berish mumkin. Kulminatsion topshiriqlarda o‘quvchilar:

– guruh bo‘lib ishlashadi va guruhning har bir a’zosining o‘z vazifasi bo‘ladi;

– nafaqat adabiyot, balki boshqa fanlardan ham olgan bilim va ko‘nikmalarini qo‘llashadi;

– ijodiy qobiliyatlarini ishga solishadi;

– konkret bir mahsulot yaratishadi.

Asarni yoki uning bir qismini sahnalashtirish, asar asosida boshqa asar (she’r, rasm, ssenariy, saundtrek, asarning kino variantiga reklama plakati va hokazo) yaratish, asar asosida taqdimot, gazeta yoki jurnal tayyorlash, asar asosida viktorina o‘tkazish, asar muallifi (qahramoni) bilan xayoliy intervyu uyushtirish kabi kulminatsion topshiriqlarga misollar bo‘lishi mumkin. Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasida Hamida aytgan Chexovning “Uyqu istagi” asari asosida go‘dakni o‘ldirgan qizni sud qilish jarayoni kulminatsion topshiriqning bir namunasidir.

Xorijiy davlatlar ta’lim tizimida qo‘llanadigan adabiyot darsliklarida berilgan o‘qishdan keyingi kulminatsion topshiriqlardan ayrim namunalar:

– Siz rassomsiz va sizning oldingizga o‘qilgan hikoyaga faqat bitta illyustratsiya chizish vazifasi qo‘yilgan. Siz bu illyustratsiya uchun hikoyaning qaysi joyini tanlaysiz? Uni illyustratsiyada qanday aks ettirasiz? Guruh bo‘lib hikoyaning eng xarakterli epizodi asosida illyustratsiya ishlab ko‘ring. *(Kutuzov A.V. va boshqalar. “Adabiyot olamida”, 8-sinf uchun darslik, Moskva, 2007)*

– Pushkin asarlarida qahramonlar tushlari har doim muhim ahamiyat kasb etadi. Grinyov ko‘rgan tushni siz qanday talqin qilasiz? O‘z talqiningizni bering va izohlang. *(Voloshuk Y. va Slobodyanyuk Y. “Adabiyot: integratsiyalashgan kurs”, 8-sinf uchun darslik, Kiyev, 2016)*

– Edgar Po hikoyalari ruhida “qo‘rqinchli” hikoya tuzing. *(Bedalov Ch. va boshqalar. “Adabiyot”. 10-sinf uchun darslik. Boku, 2017)*

– Bob va Jimmi uchrashib birgalikda ovqatlanishsa, nimalar haqida gaplashgan bo‘lishardi? Bob va Jimmi o‘rtasida restoranda, kechki taom ustida kechishi mumkin bo‘lgan dialogbi yozing. *(Alan Prurves va boshqalar. “Adabiyot va integrallashgan fanlar. 7-sinf”. Illinoys, 1997)*

O‘qish davomidagi va o‘qishdan keyingi topshiriqlar o‘quvchilarni kognitiv qobiliyatlarning **Blum taksonomiyasi bo‘yicha quyi bosqichlaridan yuqori bosqichlariga** olib chiqishi lozim.

<table>
<tr><th colspan="5">O‘QISHDAN OLDIN</th></tr>
<tr><td colspan="2">Mavjud bilimlarni faollashtirish</td><td colspan="2">Matnni tushunish uchun zamin yaratish</td><td>Strategiyaga e’tibor qaratish (nima va nima uchun)</td></tr>
<tr><th colspan="5">FAOL O‘QISH (matnning har bir qismi uchun takrorlanadi)</th></tr>
<tr><td colspan="2">O‘quvchi o‘qishdan maqsadni aniqlashtirib oladi</td><td colspan="2">O‘quvchi matnni o‘qiydi va o‘z-o‘zini monitoring qiladi (matn bilan ishlaydi)</td><td>Muhokama – o‘quvchi va o‘qituvchi mazmun, strategiya va mavzularni tushunish ustida ishlaydilar</td></tr>
<tr><th colspan="5">O‘QISHDAN KEYIN (mustaqil mashqlar)</th></tr>
<tr><td>Matnni esga solish</td><td>O‘quvchi javobi</td><td>Matnni kengaytirish</td><td>Strategiyalarni ishga solish va ko‘chirish</td><td>Norasmiy yoki o‘z-o‘zini baholash</td></tr>
</table>

Sara Dauhauer bo‘yicha matnni tushunish strategiyalari

ADABIYOT O‘QITISH METODOLOGIYASI

Adabiyot darslarida **badiiy matn ustida ishlash**, ya’ni o‘quv tahlili eng **asosiy** vazifadir. **Matn ustida mustaqil ishlash** o‘quvchilarni ijodiy fikrlash, badiiy tahlil va nutqiy kompetentlikka o‘rgatadi. Shu bilan birga, tahlil jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, tafakkur darajalari, ruhiy rivojlanish bosqichlarining holatlarini hisobga olish lozim.

Adabiyot darslarida badiiy asarlar **savol va topshiriqlar yordamida** atroflicha tahlil qilinishi lozim. Bu savol va topshiriqlarning **uch bosqichda**: asarni o‘qishdan oldin, o‘qish davomida va o‘qishdan keyin tashkil qilinishi hamda har bir bosqich oldiga **aniq, o‘ziga xos vazifalar** qo‘yilishi o‘quvchilarning asarni tahlil qilishlari uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy asarlar mohiyatini o‘quvchilarning **o‘zlari** tushunib olishlariga, asarni o‘zlari uchun “kashf qilishlariga” katta e’tibor berilishi kerak. O‘quvchiga darsda badiiy asar o‘qitish bilan cheklanmay, ko‘rkam asar o‘qishni uning tabiiy-intellektual ehtiyojiga aylantirish lozim.

Adabiyot saboqlarida badiiy tahlilning rang-barang usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi muayyan asar tahlili yuzasidan sinfdagi barcha o‘quvchilarning bir xil fikrga kelishiga yoki darslikdan, o‘qituvchidan olgan ma’lumotlarini qaytarish bilan cheklanishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Ayni bir badiiy hodisadan o‘quvchilarning **turlicha estetik-axloqiy ma’no** topishlariga imkon yaratish bolalarning betakror shaxs sifatida shakllanishiga omil bo‘ladi.

Tahlilda asosiy e’tibor asar mohiyatini anglash bilan birga, uning **estetik qimmatini** ko‘rsatishga, **badiiyligini ta’minlagan omillarni** idrok etishga qaratilishi zarur. Puxta va chuqur o‘quv tahliligina o‘rganilayotgan asarning o‘quvchilar hissiyotiga ta’sir qilishini ta’minlaydi. Hissiyotga ko‘rsatilgan ta’sir, albatta, shaxsning ma’naviy sifatiga evriladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, adabiyot fani bo‘yicha yangi darsliklarda, oldinlari bo‘lgani kabi har bir o‘rganilgan asar yuzasidan **metodik maqola** (*“asar haqida”* bo‘limi) **berish tajribasidan voz kechildi.** Sababi – bunday maqolalar o‘qituvchilarni ham, o‘quvchilarni ham bir xil fikrlashga, demakki, fikrlamaslikka odatlantiradi. Darslik bilan ishlashda **asar matni tahliliga yo‘naltirilgan savol-topshiriqlar** vositasida o‘quvchilarni asarni tushunish va tahlil qilishga yo‘naltirish, o‘quvchiga asar yuzasidan **o‘z xulosalarini** shakllantirishga yordam berish tavsiya etiladi. Shuningdek, savol-topshiriqlarning faktologik emas, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydigan, asar tahliliga yordam beradigan **konseptual** xarakterda bo‘lishi kerakligini ham e’tibordan qochirmaslik lozim.

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA ADABIYOT FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Adabiyot inson ma’naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini tarkib toptirishning eng samarali vositasidir. Turli davrlarda turli ijodkorlar tomonidan yaratilgan **sara badiiy asarlar** “Adabiyot” o‘quv predmetining o‘rganish obyekti hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishdan **bosh maqsadi** sog‘lom e’tiqodli, keng dunyoqarashli, nozik didli, o‘zga inson tuyg‘ularini his qiladigan, o‘z xatti-harakatlarini asoslay oladigan, **mustaqil fikr va keng dunyoqarashga ega** shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Maktab adabiy ta’limida bosh maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** bajarilishi ko‘zda tutiladi:

– o‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga chuqurroq olib kirish va ularda adabiyotga mehr uyg‘otish orqali kitobxonni tarbiyalash;

– ularni badiiy asar o‘qiydigan, adabiy-nazariy tushunchalarga, o‘z bilim va hayotiy tajribasiga tayangan holda asarlarni **tahlil qiladigan va baho beradigan** darajaga chiqarish;

– badiiy asar va unda aks etgan hayotiy holat hamda adabiy qahramonlar haqidagi fikrlarini ham **og‘zaki, ham yozma shaklda to‘g‘ri ifodalay oladigan** qilib tarbiyalashdan iboratdir.

ADABIYOT FANI BO‘YICHA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI BITIRUVCHILARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Adabiyot fani o‘quvchilarni milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini mustaqil tushunish va tahlil qilishga o‘rgatadi hamda shu orqali o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini va o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni, dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim so‘ngida o‘quvchilarda adabiyot faniga oid quyidagi **kompetensiyalar** shakllangan bo‘lishi lozim.

ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALAR

AK1: asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyasini (g‘oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o‘z hayotiy tajribasiga tayanadi

AK2: asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi;

AK3: asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi;

AK4: muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil qiladi hamda ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi;

AK5: asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotiy misollar yordamida asoslab beradi;

AK6: asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san’atdagi talqinlarini) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi;

AK7: o‘qilgan asarlar tahlili (shu jumladan, qiyosiy tahlili) asosida ijodiy va tahliliy matnlar yaratadi, bunda turli lingvistik va ekspressiv vositalardan o‘rinli foydalanadi hamda mantiqiy izchillikka rioya qiladi.

ADABIYOT FANI BO‘YICHA 7-SINF YAKUNIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

AK 1 – asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyasini (g‘oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o‘z hayotiy tajribasiga tayanadi	
AK1-3	asarning asosiy g‘oyasini aniqlaydi; asarning ikkilamchi g‘oyalarini aniqlaydi; fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltiradi; boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda asar g‘oyalariga o‘z munosabatini bildiradi.
AK2 – asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi	
AK2-2	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi; asardan xulosalar chiqaradi.
AK3 – asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi	
AK3-3	asar syujetini qayta hikoya qiladi; syujetdagi voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri qo‘yadi; voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo‘l tutganiga izoh beradi.
AK4 – muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil qiladi hamda ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi	
AK4-3	muallif qo‘llagan tasviriy vositalarni (o‘xshatish, metafora, jonlantirish, metonimiya, kinoya) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi;

	muallif tiliga xos ayrim leksik xususiyatlarni topadi va ushbu xususiyatlarning o‘quvchiga ta’sirini tahlil qiladi; notanish so‘zlar ma’nosini lug‘atlar yoki boshqa manbalar, shuningdek, kontekstdan aniqlaydi.
AK5 – asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotiy misollar yordamida asoslab beradi	
AK5-3	asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi; obrazlarga o‘z bahosini beradi va hayotiy tajribasiga tayangan holda bahosini asoslaydi.
AK6 – asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san’atdagi talqinlarini) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi	
AK6-3	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g‘oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; asar va u asosida ishlangan multfilm yoki badiiy filmlarni, spektakllarni solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini topadi.

“ADABIYOT” DASTURI MAZMUNI VA TUZILISHI

Umumta’lim o‘rta maktablari adabiy ta’limining ikkinchi, ya’ni tayanch bosqichi bo‘lmish 5–9-sinflarda adabiy ta’lim ***adabiy o‘qish*** shaklida tashkil etilishi mo‘ljallandi. Bunga ko‘ra, o‘quv dasturlarida o‘quvchilarga o‘rgatiladigan badiiy matnlar xronologik yoki janriy belgilariga qarab emas, balki umumlashtiruvchi ***ruknlar*** bo‘yicha joylashtirildi. Har bir sinfda o‘quv yilining to‘rt choragiga mo‘ljallangan to‘rttadan rukn va ushbu ruknlar mavzusiga mos turli davrlarda, turli mualliflar tomonidan yaratilgan, turli janrlarga xos asarlar tavsiya qilindi. Matnlarni tanlash va o‘rinlashtirishda asarlar yordamida o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlar tizimi ko‘zda tutiladi.

5–9-sinflarda xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek, qardosh turkiy va jahon adabiyotining ayrim namunalarini o‘rganish hamda o‘quvchilarni o‘qilgan badiiy asarni tahlil etishga, ularning janr xususiyatlarini aniqlashga, o‘rganilayotgan badiiy asar haqidagi fikrlarini ravon va ta’sirchan bayon qilishga o‘rgatish diqqat markazida turadi. Ushbu bosqich o‘quvchilarda badiiy asar o‘qishga barqaror qiziqish uyg‘otib, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish va adabiy asarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan darajadagi nazariy bilimlar berishga qaratilgani bilan o‘spirinlarda ezgu ma’naviy sifatlar va kreativlik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dasturda jahon adabiyotining sara namunalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Bu asarlarni o‘rganish milliy adabiyotimiz umumjahon adabiy jarayonining uzviy bir bo‘lagi ekanini anglatib turadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda ezgu ma’naviy xislatlarni shakllantirishda jahon adabiyotining eng nodir namunalarini tanlashga harakat qilindi. O‘qituvchi jahon va o‘zbek adabiyoti o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlik, umumiylik, ijodiy aloqaga e’tibor qaratishi va ular taraqqiyotidagi o‘xshash jihatlarga o‘quvchilar diqqatini jalb etishi zarur.

7-SINF UCHUN TAQVIM-MAVZUVIY REJA (TAVSIYAVIY)
Haftasiga 2 soatdan. Jami yillik 68 soat

1-chorak		
1–2	Kirish. Badiiy tahlil asoslari	2
3	Normurod Norqobilov: “Oqbo‘yin” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
4	Normurod Norqobilov: “Oqbo‘yin” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
5	Normurod Norqobilov: “Oqbo‘yin” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Syujet	1
6	Zulfiya: “Sog‘inib”. Asqad Muxtor: “Oliy butunlik”. Tahlil va solishtirish. Zidlantirish	1
7	Zulfiya va Asqad Muxtor lirikasini solishtirish	1
8	Ernest Seton-Tompson: “Lobo” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
9	Ernest Seton-Tompson: “Lobo” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
10	Ernest Seton-Tompson: “Lobo” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Peyzaj	1
11	Ernest Seton-Tompson: “Lobo” hikoyasi. Loyiha	1
12	Ernest Heminguey: “Chol va dengiz” qissasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	
13	Ernest Heminguey: “Chol va dengiz” qissasi. Asar matni bilan ishlash	1
14	Ernest Heminguey: “Chol va dengiz” qissasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Ramz. Loyiha	1
15	Fanlararo aloqa: adabiyot va tabiatshunoslik	1
16–17	Nazorat ishi va uning tahlili	2
18	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1
2-chorak		
19	Muhammad Ali: “Gumbazdagi nur” dostoni. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
20	Muhammad Ali: “Gumbazdagi nur” dostoni. Asar matni bilan ishlash	1
21	Muhammad Ali: “Gumbazdagi nur” dostoni. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Doston	1
22	Hamza: “Jonlarni jononi Vatan”. Sirojiddin Sayyid: “Vatanni o‘rganish”. Tahlil. Solishtirish	1

23	Hamza va Sirojiddin Sayyid lirikasini solishtirish	1
24	Nabi Jaloliddin: “Ota” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
25	Nabi Jaloliddin: “Ota” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
26	Nabi Jaloliddin: “Ota” hikoyasi. Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Loyiha taqdimoti	1
27	Sergey Yesenin: “Shahinam, o, mening Shahinam”. Rasul Hamzatov: “Qushqanotli, hoy karvon”. Tahlil. Solishtirish. Barmoq tizimi	1
28	Sergey Yesenin va Rasul Hamzatov lirikasini solishtirish	1
29	Fanlararo aloqa: adabiyot va musiqa	1
30–31	Nazorat ishi va uning tahlili	2
32	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1
3-chorak		
33	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Navoiy qit’alari tahlili	1
34	Alisher Navoiy fardlari tahlili	1
35	Mumtoz adabiyotdagi janrlarni qiyoslaymiz	1
36	Jahon otin Uvaysiy hayoti va ijodi. G‘azal janri haqida tushuncha. “Sog‘indim” g‘azali tahlili	1
37	“Mendin o‘rgandi” va “Dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi” g‘azallari tahlili	1
38	Uvaysiy chistonlari tahlili. Loyiha	1
39	Abdulla Qodiriy: “Mehrobdan chayon” romanidan boblar. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
40	“Chayonning namoyishi” bobi tahlili	1
41	“Ikki xil sadoqat” va “Barimta” boblari tahlili	1
42	“Xayr endi, Ra’no” va “Qo‘rqunch bir jasorat” boblari tahlili	1
43	Abdulla Qodiriy: “Mehrobdan chayon” romanidan boblar. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Maktub yozish. Loyiha. Epik tur va janrlar.	1
44	Pirimqul Qodirov: “Yulduzli tunlar” romanidan bob. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
45	Pirimqul Qodirov: “Yulduzli tunlar” romanidan bob. Asar matni bilan ishlash	1
46	Pirimqul Qodirov: “Yulduzli tunlar” romanidan bob. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash.	1

47	Pirimqul Qodirov: “Yulduzli tunlar” romanidan bob. Loyiha	1
48	Pirimqul Qodirov: “Yulduzli tunlar” romanidan bob. Konflikt	1
49	Fanlararo aloqa: adabiyot va tarix	1
50–51	Nazorat ishi va uning tahlili	2
52	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1
4-chorak		
53	O‘lmas Umarbekov: “Qiyomat qarz” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
54	O‘lmas Umarbekov: “Qiyomat qarz” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
55	O‘lmas Umarbekov: “Qiyomat qarz” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
56	O‘lmas Umarbekov: “Qiyomat qarz” hikoyasi. Loyiha taqdimoti	1
57	Qamchibek Kenja: “Baliq ovi” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
58	Qamchibek Kenja: “Baliq ovi” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
59	Qamchibek Kenja: “Baliq ovi” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Loyiha	1
60	Saida Zunnunova: “Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh”. Iqbol Mirzo: “Daraxtlar”. Tahlil va solishtirish	1
61	Saida Zunnunova va Iqbol Mirzo lirikasini solishtirish	1
62	Anton Chexov: “Xameleon” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
63	Anton Chexov: “Xameleon” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
64	Anton Chexov: “Xameleon” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Satira va yumor. Detal	1
65	Fanlararo aloqa: adabiyot va tasviriy san’at	1
66–67	Nazorat ishi va uning tahlili	2
68	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1



MAVZULAR USTIDA ISHLASH BO‘YICHA TAVSIYALAR

1-fasl.
INSON, TABIAT, O‘ZLIK

Normurod Norqobilov. “Oqbo‘yin”
Zulfiya. “Sog‘inib”
Asqad Muxtor. “Oliy butunlik”
Ernest Seton-Tompson. “Lobo”
Ernest Heminguey. “Chol va dengiz”

Adabiy tushunchalar:
– syujet
– zidlantirish
– ramz
– muallif uslubi

Fanlararo aloqa:
adabiyot va tabiatshunoslik



NORMUROD NORQOBILOV. “OQBO‘YIN”

Bu mavzuda biz:
– “Oqbo‘yin” qissasida tasvirlangan hayvonlar dunyosini tahlil qilamiz;
– asar syujetining qahramon xarakterini ochishdagi o‘rnini tadqiq qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (muallif bilan tanishish, “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Asar matni bilan ishlashni boshlash	1 soat
Asar matni bilan ishlashni davom ettirish	1 soat
Mutolaadan keyingi bosqich savol va topshiriqlari bilan ishlash, adabiyot nazariyasiga oid tushunchani (syujet) o‘rganish	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Normurod Norqobilovning “Oqbo‘yin” qissasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting. Bu muallif haqida oldin eshitganlari yoki uning biron-bir asarini mutolaa qilganlari haqida so‘rang.

2. Muallif haqida berilgan ma’lumotlarni mustaqil o‘qib chiqish uchun o‘quvchilarga vaqt bering. Bu ma’lumotlardan qaysilari ularning e’tiborini tortganini, yozuvchi haqida ularda qanday tasavvur paydo bo‘lganini so‘rang.

O‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar: bolaligidan kitobga qiziqqan, onasining oychiroq yorug‘ida aytgan ertaklarini eshitib katta bo‘lgan, tabiatga qiziqadi.

3. O‘quvchilardan asar sarlavhasidagi “Oqbo‘yin” so‘zi haqidagi taxminlarini (qanday so‘z ekani, kimlarga va nima uchun qo‘yilishi) so‘rang.

O‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar: Oqbo‘yin – it, bo‘ri yoki shunga o‘xshash hayvonlarga, ehtimol, tashqi ko‘rinishi sababli – bo‘ynida oq dog‘i bo‘lgani uchun qo‘yiladigan laqab.

4. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savol bilan murojaat qiling.

It – inson tomonidan qo‘lga o‘rgatilgan ilk hayvonlardan biri. Buning sababi nimada bo‘lishi mumkin? Itlarning inson hayotidagi ahamiyati nimada?

Ushbu topshiriqni bajarishda “aqliy hujum” usulidan foydalanish mumkin. Bunda oldin savolning birinchi qismiga (It – inson tomonidan qo‘lga o‘rgatilgan ilk hayvonlardan biri. Buning sababi nimada bo‘lishi mumkin?), keyin esa ikkinchi qismiga (Itlarning inson hayotidagi ahamiyati nimada?) e’tibor qarating.

O‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish maqsadida ularni sinf taxtasida o‘zingiz qayd qilib borishingiz yoki o‘quvchilardan birini ko‘ngilli sifatida jalb qilishingiz mumkin. Itlarning inson hayotidagi ahamiyati haqida imkon qadar darslikdagi rasmlarda aks etgan holatlardan farqli fikrlar bildirilishini so‘rang.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

1. O‘quvchilarga asarning dastlabki ikki xatboshisini mustaqil o‘qib chiqish uchun vaqt bering. Shundan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi savollarni bering. Javoblarini matn yordamida dalillashni so‘rang.

– Asar voqealari qayerda sodir bo‘lmoqda?

– Asar ishtirokchilari kimlar?

– Karim podachi nima uchun kelgan bo‘lishi mumkin?

Savollar va javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Asar ishtirokchilar kimlar? *Sodiq aka, uning itlari, Karim podachi* Asar voqealari qayerda sodir bo‘lmoqda? *Qishloq hovlisida* Karim podachi nima uchun kelgan bo‘lishi mumkin? *Yangi tug‘ilgan itlardan birini olib ketish uchun*		Oqbo‘yin notanish hidni darrov ilg‘adi. Parvo qilmadi. Tovuq patini o‘ynashda davom etdi. Patni ertalab topgan, nimaligiga aqli yetmay, boshi garang edi. In yonidagi chirik xashaklar ustida cho‘zilib yotgan ***ona it*** bezovta g‘ingshiganidan so‘nggina qadam tovushlari kelayotgan tomonga o‘girildi. Besh odimcha narida ***uy egasi – Sodiq aka bilan norg‘ul bir odam – Karim podachi, egnida yag‘iri chiqqan paxtalik,*** oyoqlarini kerib turardi. Undan ***go‘ng, pichan, silos va yana allambalolarning hidi*** anqirdi. Oqbo‘yin bu xil tashriflarga ko‘nikkan, ***har keldi-ketdidan so‘ng og‘a-inilaridan birortasi g‘oyib bo‘ladi,*** keyin onasi tuni bilan g‘ingshib chiqadi. Boshida ular o‘nta edi. Uchtasini, urg‘ochi ekan, birinchi haftadayoq gumdon qilishdi. ***Bu gal navbat qaysi biriga ekan?***

2. Asar matni bilan ishlash keyingi darsda davom ettiriladi. Asarni o‘qish davomida o‘quvchilar bilan matn orasida berilgan savollar ustida ishlang.

Savollar va izohlar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Karim podachi sizda qanday taassurot qoldirdi?		Karim podachi oyoqlari ostida o‘ralashayotgan inisi – Oqto‘shni qo‘liga olib, obdan paypaslab ko‘rdi, panjalarini diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Yoqtirmadi. Oqto‘sh nari ketishni xayoliga ham keltirmay, tag‘in suykala boshlagandi, ***Karim podachi etigi uchi bilan turtib yubordi.*** Joni og‘rigan Oqto‘sh angillaganicha onasi tomon pildillab qochdi. …

Karim podachi asarda jonivorlarni yaxshi ko‘rmaydigan, jahldor, hasadgo‘y va xasis shaxs sifatda gavdalantirilgan.		Karim podachi – sinchi, itni farqlay biladi. Umri fermada o‘tgan bu odam ***itni ishqibozlik uchun emas, zarurat yuzasidan asraydi.*** Negaki, qish kezlari qir oshib keladigan bo‘rilardan kuygan – jondor desa, yetmish yetti tomiri tortishadi, bo‘rilarga yemish bo‘lgan ***tomday-tomday novvoslari ko‘z oldiga kelib, ichi-tashi baravar yonadi.*** Avvallari ahvol aytarli darajada yomon emasdi, salgina po‘pisa-yu qutqu bilan jondor zotini daf etmoq mumkin edi. Ammo uch yil burun Yoldor degan bir maxluq paydo bo‘ldi-yu, podachidan halovat ketdi. Arloni bo‘ri itlarni pisand qilmaganidek, miltiqqa ham osongina chap berardi. Tunlari bo‘ri poylayverib, biqinini shamollatib qo‘yganidan so‘ng Karim podachi qopqon qo‘yib ko‘rdi. Biroq Yoldor qolib, qopqonga ferma tevaragida aylanib yuradigan daydi eshaklardan biri tushdi. Etni dorilab, yo‘lga tashladi. Yoldor emas, iti zaharlanib o‘ldi. Keyingi asragan iti esa g‘oyat keraksiz chiqdi. Yoldorning qorasini ilg‘ar-ilg‘amas eshik tirnab, g‘ingshigancha ichkariga intiladi, ba’zida qishloqqa qochib qolardi. Bu qish o‘rtasi bu hol yana takrorlangach, ***Karim podachi jahl ustida itni otib o‘ldirdi.*** Chunki Yoldor to‘dasi boshqa mol quriganday, uning tanasini bo‘g‘izlab ketgandi-da. Shundan buyon podachi yaxshi it qidirib yuradi. Xuddi shunday it hozir uning qo‘lida edi. Bu kuchuk arloni it naslidan. Bunaqasi mingtadan bitta chiqadi. Nasib etsa, uzog‘i bilan yana to‘rt-besh oydan so‘ng bu atrofda unga teng keladigani bo‘lmaydi. Jondor zoti borki, ovozini eshitishi bilan qir boshida mixlanib qolaveradi. Karim podachi ich-ichidan xuruj qilib kelayotgan quvonchini bazo‘r yutib, uy egasiga yuzlandi. ...
Sodiq aka nega Oqbo‘yinni unga bermadi?		***Qishda bir chaksa qorni birovga ravo ko‘rmaydigan shunday bir odam*** qo‘y va’da qilyaptimi, demak, ***bu kuchukda bir gap bor.*** Turishini qara, pinak buzmaydi-ya. ...
Sodiq aka Karim podachi aynan Oqbo‘yinni so‘raganidan undan kelajakda yaxshi it chiqishini sezdi. Qolaversa, u Oqbo‘yinning nasl-nasabini biladi.		Savdosi pishmagan ***Karim podachi itni yerga qo‘yarkan, zarda bilan biqiniga tepdi.*** Zarb kuchli bo‘lmasa-da, bu xil muomala Oqbo‘yinga yomon ta’sir qildi. Irillash barobarida akilladi. U o‘z qadr-qimmatini yaxshi bilardi. Bu jihatdan otasi Olaparga tortgan edi. Olapar qo‘shni qishloqlik Abdurayim ovchining iti. Kuzda u bu tomonlarga qadam qo‘yganda, uning ***haybatli, ko‘rkam kelbatini ko‘rib, butun qishloq lol qolgandi.***

Oqbo‘yin, Oqto‘sh va Malla o‘rtasida qanday farqlarni kuzatdingiz? Muallif bu farqni ko‘rsatishda qanday vositalardan foydalanmoqda? *Muallif itlarning xatti-harakatlari orqali ularning xarakterlari o‘rtasidagi farqni ko‘rsatmoqda.*		Chor atrofi baland devor bilan o‘ralgan tor joyda uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to‘lib-toshib yotibdi. Eng qizig‘i devor boshida o‘qtin-o‘qtin ko‘rinish beradigan babaq xo‘roz. U o‘ziga hayratomuz tikilib turgan Oqbo‘yinga boshini u yon-bu yon burib anchayin qarab qo‘yadi-da, qanotlarini tap-tap qoqqanicha birdan qichqirib qoladiki, sho‘rlik Oqto‘sh qochaman deb o‘mbaloq oshib tushadi. ***Oqto‘sh jur’atsizligiga yarasha o‘lgudek bo‘shang – salga dodlaydi. Oqbo‘yin xuddi mana shunisiga ishqiboz, uni yerga bosib ezg‘ilashni yaxshi ko‘radi.*** Onasining xotirjam boqishlarida o‘z qilig‘iga rag‘bat sezgani sayin g‘ayrati yanayam jo‘shadi, oqibatda, onasi o‘rtaga tushishga majbur bo‘ladi. ***Qilg‘iliqni Oqbo‘yin qilib, gapni Oqto‘sh eshitadi, bo‘shashmay ket, lapashang!*** Gohida shu ish ustida uy egasining o‘rtancha o‘g‘li Rasul kelib qoladi. Ana unda ko‘ring tomoshani. Rasul ularni atay o‘chakishtiradi, ya’ni Oqbo‘yinni Oqto‘shni tagiga bosib g‘ashiga tegadi. Bundan Oqbo‘yinning g‘azabi shu qadar qo‘ziydiki, tutqundan bo‘shashi bilan sakrab turib, hech bir gunohi yo‘q inisini tishlab tortqilay ketadi. Natijada Oqto‘sh tashqariga chiqolmay, soatlab biqinib o‘tiradi. Onasi in og‘zida cho‘zilib, intiqom o‘tida yonayotgan Oqbo‘yinni ichkariga yo‘latmaydi, hovuridan tushishini kutadi. Oqbo‘yin alamidan Mallaga yopishadi. ***Ammo Malla bo‘sh keladiganlar xilidan emas, “mushtga musht bilan” javob beradi.*** Ayniqsa, kechagi janjal yomon bo‘ldi. Rasulning qutqusi bilan u Mallani endi tagiga bosgan edi, kutilmaganda o‘ng oyog‘i akasining jag‘lari orasiga tushib qoldi. Jag‘ emas, misoli qopqon, qani qo‘yvorsa. Angillab yubordi. Rasul uni yerdan ko‘tarib bag‘riga bosdi. Lat yegan oyog‘ini silab-siypadi. Mallani esa tepib haydadi.
Rasul sizda qanday taassurot qoldirdi? Salom do‘xtir uning itim kasal deb kelishidan, O‘qbo‘yinni davolatish uchun har qanday yumushga tayyorligidan nega hayron bo‘ldi?		Rasul qimtinibgina unga yaqinlashdi. – Kuchugimiz o‘lyapti, – dedi tomog‘iga yig‘i tiqilib. – Nima qilay shunga? – Salom do‘xtir hayron bo‘ldi. – Tuzating. Tuzatib bering.

Rasulning Oqbo‘yinga munosabatiga, bu munosabati qishloq ahlining odatda itlariga ko‘rsatadigan munosabatidan farq qilishiga (samimiylik, mehr) e’tibor qarating.		– A! – hayratdan Salom do‘xtirning qoshlari chimirildi. ***Bu bolaning esi joyidami o‘zi degan ma’noda unga boshdan oyoq tikildi. Shu damgacha unga hech kim itim kasal deb kelmagan.*** Allaqanday o‘laksa uloqchasi og‘riganda uning eshigiga tanda qo‘yadigan odamlar iti dardga chalinganda parvo qilishmas, nari borsa, joni qiynalmasin deya biror jar-parga chiqarib otib tashlashardi. – ***Agar xo‘p desangiz, evaziga piyozingizni o‘tab beraman,*** – dedi Rasul yalinchoqlik bilan. Salom do‘xtir endi unga ayricha qiziqish bilan tikilarkan, dimog‘ida himm deb qo‘ydi. – Tuzating, har kuni daladan sigiringizga o‘t yulib kelaman. ... ***Rasul hash-pash deguncha ikki pol piyozni o‘tab tashladi.***

3. O‘quvchilarga uyda asarning to‘liq matnini darslikdagi QR kodda keltirilgan havola orqali o‘qib kelish vazifasi topshiriladi.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH
SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar va izohlar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Oqbo‘yin va Olapar o‘rtasidagi “kelishuv” tasviriga e’tibor bering. Itlar orasida bunday holatni hech kuzatganmisiz? Muallif bu lavhani asarga nima maqsadda kiritgan deb o‘ylaysiz?		U o‘sha tomonga yugurmoqchi bo‘lgan joyida beixtiyor to‘xtadi. Qorani Olapar deb o‘yladi, shuningdek, dov to‘kib borishga o‘zini haqsiz sezdi. Nimaga deganda, do‘nglikdan nariyog‘i Olaparga daxldor. ***Bu haqda Olapar o‘tgan gal o‘ta jiddiy bir tarzda ogohlantirganki, uning o‘sha paytdagi holati hanuz Oqbo‘yinning ko‘z o‘ngida, eslasa eti junjikadi.*** Ikki haftacha burun sutdek oydin tunlarning birida Oqbo‘yin o‘z tasarrufidagi yerlarni aylanib yurib, tasodifan otasiga duch kelib qoldi. Olapar do‘ngda qir tarafga tikilgancha cho‘nqayib o‘tirgan ekan. Oqbo‘yin avvaliga e’tibor bermadi. Qurigan oqquraylar oralab do‘nglikka ko‘tarilarkan, to‘satdan mixlangandek qotib qoldi. ***Qay ko‘z bilan ko‘rsinki, qarshisida o‘zi o‘ylaganchalik jo‘ngina it emas, bahaybat maxluq savlat to‘kib turardi. Jismi go‘yo po‘latdan quyilganday har mo‘yidan kuch yog‘iladi. Ko‘zlarida esa na g‘azab, na adovat – jiddiy osoyishtalikdan o‘zga narsa aks etmasdi. O‘z kuchiga behad ishongan jonivorgina mana shu tarzda xotirjam boqa oladi.***

Ushbu savol muallif qo‘llagan tasvir va ifoda vositalarining maqsadi va ahamiyatini tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Darslikda muallifning hayvonlar dunyosini o‘rgangani haqida ma’lumot keltirilgan edi. Oqbo‘yin va Olapar o‘rtasidagi “kelishuv” tasviridagi detallar muallifning hayvonlar xatti-harakatlari, xarakteri, “muloqot” usullarini yaxshi bilishidan dalolat beradi, shuningdek, voqealar rivojini va obrazlarni tushunishga yordam beradi.		Oqbo‘yin olg‘a borishniyam, chekinishniyam bilmay turganida notanish itning jiddiy nigohlaridan kimsan, bu yerga qanday kelib qolding, degan ma’noni uqdi. Bu xil sokin va bosiq muomala kamdan kam itning qo‘lidan keladi. Bunday damlarda aksariyat itlar darhol po‘pisaga o‘tadi, kuchi yetsa-yetmasa hamla qilmoqqa tirishadi. ***Oqbo‘yin tabiatan og‘ir emasmi, jizzakilik qilmadi***. Kalta akillash bilan javob qaytardi. Notanish itning kalomi unikidan ham qisqa bo‘ldi: “Vov!” Bu tarzdagi muloqot odamlarga bir xil tuyulsa-da, ovozning baland-pastligiga qarab, turli ma’noni anglatadi. Deylik, agar it boshini xiyol quyi egib, vov desa, qani, jo‘nab qol, degan ifodani bildiradi. Yoxud ko‘kka tumshuq cho‘zib, shu xilda hursa, qani, yaqinroq kel, turqingni bir ko‘rib qo‘yay, degani bo‘ladi. Shundan so‘ng bir-biriga yaqin kelib, obdan iskanishadi. Bu vaziyat o‘ta xavfli. Biron tomon jindek qo‘pollikka yo‘l qo‘ysa, tamom – o‘rtada naq qirg‘inbarot yuz beradi. Haytovur, ular o‘rtasidagi bu holat tinch va osoyishta o‘tdi. ***Tabiiy, tomonlar qon-qarindoshligini bilishmadi, ammo kuch-quvvatda bir-biridan aslo qolishmasligini anglashdi.*** Shuning uchun ham Olapar hissiyotga erk bermay, do‘ngdan nariga o‘tish yaxshilikka olib kelmasligini bosiqlik bilan bildirdi. Bu bilan qanoatlanib qolmay, yer tirnab belgi yasarkan, tuprog‘ini bu tomonga sochdi. Oqbo‘yin ham rizolik alomatida tirnalgan yerga panja botirib, u tarafga tuproq to‘zg‘itdi. ***Shundan keyin ular tinchgina ayrilishdi.*** Do‘ngning uchdan ikki qismi Olaparning chekiga o‘tdi.
Sizningcha, Oqbo‘yin Olaparsiz ham bo‘rilarga bas kela olarmidi? Nima uchun? *Ushbu savol matndagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. O‘quvchilarning javoblari turlicha bo‘lishi mumkin.*		***Oqbo‘yin sakramoqqa endi chog‘lagan ham ediki, oldinroq harakat qilgan Olapar uni turtib o‘tib, Yoldorga o‘qdek tashlandi.*** Oqbo‘yin sal narida sarosimada turib qolgan bo‘rilardan biriga hamla qildi. Bu o‘sha – suyagi buzuq ulkan bo‘ri edi. Raqibi harchand chap berishga harakat qilmasin, bo‘g‘zini Oqbo‘yinning o‘tkir tishlaridan asrab qololmadi. It zumda uning bo‘g‘zini yorib tashladi. Oqbo‘yin yerda cho‘zilib qolgan bo‘riga qayrilib boqmay, ikkinchisiga tashlandi. ***Ota-bola yulg‘unzorda uch bo‘ri jasadini qoldirib, ikki bo‘rini qirgacha quvib borishdi.***
Karim podachi Oqbo‘yindagi ko‘rk va mahobatni ko‘rib ham unga o‘q uzganini qanday izohlaysiz?		Aytish kerakki, u darhol miltiqqa yopishmadi. Sovuqdan uvishgan barmoqlarini og‘ziga olib borib, nafasi bilan isitarkan, itga mahliyo termilib qoldi. Oqbo‘yin haqiqatan ham mahobatli edi. Podachi umri bino bo‘lib, hali bunaqasini ko‘rmagandi. Shu damgacha zehn solmaganini qarang.

Ushbu savol matndagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Karim podachidagi hasad, baxillik, adovat uni o‘q uzishga undadi.		***Adovatli nigoh go‘zallikni sezmaydi.*** Podachi ham shu damgacha itdagi ko‘rkni payqamagan, uni bemisl qudrat timsoli sifatidagina bilar, aynan shu xususiyatiga oshiq edi. ***Ayni paytda podachi ruhida qarama-qarshi hislar tug‘yon ura boshladi. Otay desa, shunday it uvol. Bunaqasi ondasonda bir dunyoga keladi. Otmay desa, ichi kuyib o‘ladigan. U g‘ayrishuuriy holatda miltiqni changallab, tepkini bosdi.*** Oqbo‘yin kutilmagan kuchli zarbdan dumalab ketdi. ***Intiqom lahzasidan quturib ketgan Karim podachi hayallamay ikkinchi tepkini bosdi.*** Navbatdagi o‘q shundoqqina boshi ustidan vizillab o‘tishi bilan Oqbo‘yin jon achchig‘ida qocha boshladi. Hovliga yetib kelganida badanidagi o‘q hali sovib ulgurmagan, og‘riqdan ham ko‘ra tashnalikdan ko‘proq azob tortmoqda edi. U ariq chetiga oyoq qo‘yib, yupqa muzni panjasi bilan urib sindirdi-da, yutoqib suv icha boshladi. So‘ng suvga qonib, kemtik tagiga kelarkan, sillasi qurib borayotganini his etdi. Devor oshishga qurbi yetmay, g‘ingshigancha darvoza tomon sudraldi.
Asar nima bilan tugaydi? Muallif asarni nega aynan shunday yakunlagan deb o‘ylaysiz? Uni boshqacha ham yakunlash mumkinmidi? *Ushbu savol matndagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Asar har ikki raqib – Karim podachi va Oqbo‘yinning o‘limi bilan tugamoqda. Shuningdek, ushbu savol orqali o‘quvchilar e’tiborini asarda ko‘tarilgan muammolardan biriga (insonning tabiatga noto‘g‘ri munosabati oqibatlari) qaratish mumkin.*		***Oqbo‘yin raqibini mag‘lub etganiga ishonch hosil qilgach, murdadan chetlandi.*** Tuproqqa yotib turganday ilkis silkindi. So‘ngra betinim g‘ingshiyotgan Qoplonning yoniga borib, arqonni qon yuqqan o‘tkir tishlari orasiga oldi. Fermaxonaga yem olib kelgan To‘qli shofyor Karim podachining hali butunlay sovib ulgurmagan jasadini uchratganida, itlar dala tomon ketib borishardi. To‘qli shofyor murda yuziga belbog‘ini yopib, mashinasini qishloqqa burdi. Ertasi Xidir xira boshliq to‘rt otliq itlarni kamardan topishdi. Oqbo‘yin qochmadi. ***Orqa oyog‘ini sudrab bazo‘r odimlayotgan Qoplonning girdini aylanib, tahdidli irilladi.*** ***Zum o‘tmay kamarni miltiq ovozi tutdi.***
Karim podachi obraziga ta’rif bering. Uning Oqbo‘yinga nisbatan bu qadar nafrati sababi nimada? Sizningcha, Sodiq aka u so‘raganday, Oqbo‘yinni unga berib yuborganida, fojia sodir bo‘lmasligi mumkin edimi?		Yoldor har qancha ustomonlik qilmasin, baribir Oqbo‘yin uning yo‘nalishini aniqlashga muyassar bo‘ldi. Bo‘rilar qirdan jar ichi bilan enib kelishardi-da, tepalikda to‘xtashardi. Xiyla taradduddan so‘nggina biron manzilni qora tortishardi. Ularning yurishi Olapardan ko‘ra Oqbo‘yinning chekiga ko‘proq to‘g‘ri kelardi. Tunlari uzluksiz davom etayotgan bu jang-u jadaldan odamlar mutlaqo bexabar, itlar esa ogoh, ammo ko‘makka chiqishga birortasi ham jur’at etmasdi.

Ushbu savol obrazga baho berish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.		***Hanuz ahdidan qaytmagan Karim podachi Oqbo‘yinni yo‘q qilish payida tunlari miltig‘iga to‘ng‘iz o‘qi joylab qo‘yishni kanda qilmasdi. ... Karim podachi itning yo‘liga astoydil ko‘z tikmayotgan bo‘lsa-da, jonini olmoqdan aslo voz kechmagan edi.*** Ko‘r emas, Oqbo‘yinning xatti-harakatlarini ko‘rib, bilib turardi. ***Bilgani uchun ham ich-ichidan zil ketar, shunday bir it o‘ziniki bo‘lmaganidan yuragi kuygani kuygan edi.*** Hozir ham Oqbo‘yinning ortidan havas bilan qarab qolarkan, akillay-akillay iziga qaytib, oyog‘i ostida o‘ralasha boshlagan itining biqiniga jahl va zarda bilan tepib yubordi. It vangillagancha fermaxona ortiga qochdi. ***Podachi qolgan alamini yog‘och oxurni suzib sindirgan buqadan oldi*** – kurak ikki bo‘lak bo‘lguncha savaladi. ... Oqbo‘yin xavfli joydan uzoqlashar ekan, daf’atan xayoliga kelgan o‘ydan sergak tortdi. Yoldorning izidan bekordan bekorga izg‘iyvermay, biror pana-pastqamda poylab qo‘lga tushirsa-chi? ***Ana, Karim podachi uni qanchalik yomon ko‘rmasin,*** biror marta ortidan quvlaganini eslolmaydi, doim mushukday poylagani poylagan.

6-topshiriq (Hayvonlar dunyosi, xatti-harakatlari, o‘zaro va insonlar bilan munosabatlari real tasvirlangan o‘rinlarni matn asosida izohlang.) matnni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Matndagi Oqbo‘yin va Malla, Oqbo‘yin va Olapar, Oqbo‘yin, Olapar va bo‘rilar, Oqbo‘yin va Qoplon, shuningdek, Oqbo‘yin va Rasul, Oqbo‘yin va Karim podachi munosabatlari tasvirlangan ayrim o‘rinlarni topib, tahlilga tortish mumkin.

7-savol asarning asosiy g‘oyasini aniqlash kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. O‘quvchilarning javoblari turlicha bo‘lishi mumkin.

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHANI O‘RGANISH: SYUJET

1. O‘quvchilarga syujet nimaligini tushuntiring. Syujetni obrazlar harakatga keltirishini, shu bilan birga syujetdagi voqealar (qahramonlarning harakatlari) yordamida qahramonlar xarakteri ochib berilishiga o‘quvchilar e’tiborini qarating.

Misol uchun: *Rasul Oqbo‘yin kasal bo‘lganda uni shifokorga olib bordi, davolatish uchun har qanday ishga tayyorligini ko‘rsatdi. Uning bu harakatlaridan u haqida qanday xulosa chiqarish mumkin?*

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va jadvalni to‘ldirish vazifasini bering. Har bir guruh o‘z jadvalini sinfda taqdimot qiladi.

Oqbo‘yinga xos xususiyat	Ushbu xususiyatni ochib berishga xizmat qilgan voqea

2. O‘quvchilarga retrospektiva nimaligini tushuntiring. Asarning qaysi o‘rinlarida retrospektiva qo‘llanganini va yozuvchining bundan ko‘zlagan maqsadini so‘rang. (Retrospektiva asosan o‘quvchiga bayon qilinayotgan voqealar sababini, shuningdek, qahramonlar xarakterini yaxshiroq tushunish imkonini beradi).

“Oqbo‘yin” qissasining yana qaysi o‘rinlarida muallif retrospektiva usuliga murojaat qilgan? O‘ylab ko‘ring-chi, muallif nega voqealarni bayon qilishning bunday usulini tanlagan bo‘lishi mumkin?

retrospektiva (ilgariroq sodir bo‘lgan voqealar bayoni) *(Karim podachi nima uchun yaxshi it qidirib yurgani izohlanmoqda)*		Karim podachi – sinchi, itni farqlay biladi. Umri fermada o‘tgan bu odam itni ishqibozlik uchun emas, zarurat yuzasidan asraydi. Negaki, qish kezlari qir oshib keladigan bo‘rilardan kuygan – jondor desa yetmish yetti tomiri tortishadi, bo‘rilarga yemish bo‘lgan tomday-tomday novvoslari ko‘z oldiga kelib, ichi-tashi baravar yonadi. Avvallari ahvol aytarli darajada yomon emasdi, salgina po‘pisa-yu qutqu bilan jondor otini daf etmoq mumkin edi. ***Ammo uch yil burun Yoldor degan bir mahluq paydo bo‘ldi-yu podachidan halovat ketdi. Arloni bo‘ri itlarni pisand qilmaganidek, miltiqqa ham osongina chap berardi. Tunlari bo‘ri poylayverib, biqinini shamollatib qo‘yganidan so‘ng Karim podachi qopqon qo‘yib ko‘rdi. Biroq Yoldor qolib, qopqonga ferma tevaragida aylanib yuradigan daydi eshaklardan biri tushdi. Etni dorilab yo‘lga tashladi. Yoldor emas, iti zaharlanib o‘ldi. Keyingi asragan iti esa g‘oyat keraksiz chiqdi. Yoldorning qorasini ilg‘ar-ilg‘amas eshik tirnab, g‘ingshigancha ichkariga intiladi, ba’zida qishloqqa qochib qolardi. Bu qish o‘rtasi bu hol yana takrorlangach, Karim podachi jahl ustida itni otib o‘ldirdi. Chunki Yoldor to‘dasi boshqa mol qurigandaY, uning tanasini bo‘g‘izlab ketgandi-da.*** Shundan buyon podachi yaxshi it qidirib yuradi. Xuddi shunday it hozir uning qo‘lida yedi. Bu kuchuk arloni it naslidan. Bunaqasi mingdan bitta chiqadi. Nasib etsa, uzog‘i bilan yana to‘rt-besh oydan so‘ng bu atrofda unga teng keladigani bo‘lmaydi. Jondor zoti borki, ovozini eshitishi bilan qir boshida mixlanib qolaveradi. Karim podachi ich-ichidan xuruj qilib kelayotgan quvonchini bazo‘r yutib, uy egasiga yuzlandi.
retrospektiva (ilgariroq sodir bo‘lgan voqealar bayoni)		U o‘sha tomonga yugurmoqchi bo‘lgan joyida beixtiyor to‘xtadi. Qorani Olapar deb o‘yladi, shuningdek, dov to‘kib borishga o‘zini haqsiz sezdi. Nimaga deganda, do‘nglikdan naryog‘i Olaparga daxldor. Bu haqda Olapar o‘tgan gal o‘ta jiddiy bir tarzda ogohlantirganki, uning o‘sha paytdagi holati hanuz Oqbo‘yinning ko‘z o‘ngida, eslasa eti junjikadi.

Oqbo‘yin va Olapar o‘rtasidagi munosabatlarga, Oqbo‘yinning nima uchun “o‘sha tomonga yugurmoqchi bo‘lgan joyida beixtiyor to‘xtaganiga” oydinlik kiritilmoqda.		***Ikki haftacha burun sutdek oydin tunlarning birida Oqbo‘yin o‘z tasarrufidagi yerlarni aylanib yurib, tasodifan otasiga duch kelib qoldi. Olapar do‘ngda qir tarafga tikilgancha cho‘nqayib o‘tirgan ekan. Oqbo‘yin avvaliga e’tibor bermadi. Qurigan oqquraylar oralab do‘nglikka ko‘tarilarkan, to‘satdan mixlangandek qotib qoldi. Qay ko‘z bilan ko‘rsinki, qarshisida o‘zi o‘ylaganchalik jo‘ngina it emas, bahaybat maxluq savlat to‘kib turardi. Jismi go‘yo po‘latdan quyilganday har mo‘yidan kuch yog‘iladi. Ko‘zlarida esa na g‘azab, na adovat – jiddiy osoyishtalikdan o‘zga narsa aks etmasdi. O‘z kuchiga behad ishongan jonivorgina mana shu tarzda xotirjam boqa oladi. Oqbo‘yin olg‘a borishniyam, chekinishniyam bilmay turganida notanish itning jiddiy nigohlaridan kimsan, bu yerga qanday kelib qolding, degan ma’noni uqdi. Bu xil sokin va bosiq muomala kamdan kam itning qo‘lidan keladi. Bunday damlarda aksariyat itlar darhol po‘pisaga o‘tadi, kuchi yetsa-yetmasa hamla qilmoqqa tirishadi.*** ***Oqbo‘yin tabiatan og‘ir emasmi, jizzakilik qilmadi. Kalta akillash bilan javob qaytardi. Notanish itning kalomi unikidan ham qisqa bo‘ldi: “Vov!” Bu tarzdagi muloqot odamlarga bir xil tuyulsa-da, ovozning baland-pastligiga qarab turli ma’noni anglatadi. Deylik, agar it boshini xiyol quyi egib, vov desa, qani, jo‘nab qol, degan ifodani bildiradi. Yoxud ko‘kka tumshuq cho‘zib, shu xilda hursa, qani, yaqinroq kel, turqingni bir ko‘rib qo‘yay, degani bo‘ladi. Shundan so‘ng bir-biriga yaqin kelib, obdan iskanishadi. Bu vaziyat o‘ta xavfli. Biron tomon jindek qo‘pollikka yo‘l qo‘ysa, tamom – o‘rtada naq qirg‘inbarot yuz beradi.*** ***Haytovur, ular o‘rtasidagi bu holat tinch va osoyishta o‘tdi. Tabiiy, tomonlar qon-qarindoshligini bilishmadi, ammo kuch-quvvatda bir-biridan aslo qolishmasligini anglashdi. Shuning uchun ham Olapar hissiyotga erk bermay, do‘ngdan nariga o‘tish yaxshilikka olib kelmasligini bosiqlik bilan bildirdi. Bu bilan qanoatlanib qolmay, yer tirnab belgi yasarkan, tuprog‘ini bu tomonga sochdi. Oqbo‘yin ham rizolik alomatida tirnalgan yerga panja botirib, u tarafga tuproq to‘zg‘itdi.*** ***Shundan keyin ular tinchgina ayrilishdi. Do‘ngning uchdan ikki qismi Olaparning chekiga o‘tdi.*** Hozir Olapar do‘nglikning o‘ziga tegishli tomonida turardi. Hovliqish-u jazavaga tushishga asosi qolmagan Oqbo‘yin noiloj yerga cho‘karkan, birdan sergak tortdi.

ZULFIYA. “SOG‘INIB”
ASQAD MUXTOR. “OLIY BUTUNLIK”

Bu mavzuda biz:
– “Sog‘inib” va “Oliy butunlik” she’rlaridagi g‘oyalarni qiyoslaymiz;
– badiiy matnda zidlantirishning vazifasini tahlil qilamiz;
– she’rlardagi lirik qahramon kechinmalarini qiyoslaymiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**2 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (mualliflar bilan tanishish, “Mutolaaga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Zulfiyaning “Sog‘inib” she’rini o‘qib, tahlil qilish. Zidlantirish haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish	1 soat
Asqad Muxtorning “Oliy butunlik” she’rini o‘qib tahlil qilish, ijodkorlarning she’rlarini qiyosiy tahlil qilish	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Zulfiya va Asqad Muxtorning tabiat lirikasiga oid she’rlarini birgalikda qiyoslab tahlil qilishingizni ayting.

2. “Mualliflar bilan tanishamiz” ruknidagi har ikki ijodkorning tarjimayi holini mustaqil o‘qib chiqish uchun vaqt bering, keyin o‘quvchilarga fikrlarini rivojlantirishga, Zulfiya va Asqad Muxtor haqidagi tasavvurlarini ochiqlashga yordam beradigan savollar bilan murojaat qiling. Savollar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

– Har ikki ijodkor hayoti va ijodidagi qaysi nuqtalar e’tiboringizni tortdi? Nima uchun?

– Ular haqida yana nimalarni bilishni istardingiz?

– Berilgan qisqa ma’lumotlardan Zulfiya va Asqad Muxtorni qanday tasavvur qildingiz?

3. “Mutolaaga tayyorlanamiz” ruknida darslikda berilgan savollar orqali o‘quvchilarni tabiat lirikasini tushunishga tayyorlang. Ularning tabiat haqidagi fikrlarini tinglang. Bildirilgan fikrlarning mantiqan asoslanishiga alohida e’tibor bering. Muhokama so‘ngida o‘quvchilarning qarashlarini xulosalab, eng yaxshi fikr egalarini rag‘batlantirishni unutmang.

“Tabiat” deganda ko‘z o‘ngingizda nimalar gavdalanadi? Insonlarning tabiatni yaxshi ko‘rishi sabablari haqida o‘ylab ko‘rganmisiz? Inson va tabiat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?

SHE’RLARNI MUTOLAA VA TAHLIL QILISH

Birinchi soat

1. Zulfiyaning “Sog‘inib” she’rini avval o‘zingiz, keyin yana bir o‘quvchi ifodali o‘qishi tavsiya qilinadi. She’rni o‘qigach, sinfni guruhlarga bo‘lib, she’rdagi mavhum tushunchalar va ular orqali shoira nima demoqchi bo‘lganini jadval shaklida qayd qilishni topshiriq sifat-

ida berish mumkin. Bu orqali fikrini ochiq aytishga jur'at qila olmaydigan o'quvchilarning fikrlarini ham bilib olish imkoniga ega bo'lasiz. Jadvallarni sinfda solishtirib, umumiy va farqli jihatlariga e'tibor qaratish mumkin.

2. Har bir guruhning mavhum tushunchalari "Muhokama qilamiz" ruknidagi savollar asosida she'rni tahlil qilish bosqichiga o'ting. O'quvchilarning javoblarini baholashda fikrini hayotiy misollar bilan yoki matn asosida dalillash ko'nikmasiga egaligiga e'tibor bering.

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sizningcha, she'rda qanday g'oya ilgari surilmoqda?
2. Lirik qahramon nima uchun bahorga intiq? U "shu kunlar" deganda qanday kunlarni nazarda tutmoqda?
3. She'rdagi "o'z bahorim kabi bemisol" jumlasidan nimani anglash mumkin? Siz lirik qahramonning bahorini qanday tasavvur qilyapsiz?
4. Sizningcha, lirik qahramon sog'inchi kimga yoki nimaga nisbatan bo'lishi mumkin?

3. Zidlantirish haqida ma'lumot bering. Nazariy tushunchalarni berishda past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham imkoniyatini hisobga olish va ma'lumotlarni soddadan murakkabga bosqichma-bosqich tushuntirish, kitobda berilganlardan tashqari o'quvchilarning o'zlaridan ham misollar so'rash maqsadga muvofiq. Shundan so'ng o'quvchilarda "Sog'inib" she'ridagi zidlantirishlarning she'r badiiy va g'oyaviy maqsadini ochib berishdagi ahamiyatini izohlashni so'rang.

"Sog'inib" she'ridan lirik qahramonning tushkun kayfiyatini aks ettiruvchi va unga zid tasvirlarni toping. Shoiraning badiiy va g'oyaviy maqsadini ochib berishda mazkur ziddiyatning ahamiyatini matn asosida dalillang.

Birinchi soat so'ngida darslikning "Mustaqil mutolaa va tahlil uchun" qismida berilgan Zulfiya qalamiga mansub "Bahor keldi seni so'roqlab" va "Daraxt" she'rlarini mustaqil o'qib, ularni sinfda o'tilgan "Sog'inib" she'ri bilan qiyosan tahlil qilib kelishni uyga vazifa sifatida berish tavsiya etiladi.

Ikkinchi soat

Darsning ikkinchi soatida Asqad Muxtorning "Oliy butunlik" she'rini o'qib tahlil qilishingiz va dars jarayonida har ikki shoirning bir mavzudagi she'rlariga xos o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilishingizni ma'lum qiling.

Sinfni guruhlarga bo'ling. Bir guruh o'quvchilar she'rni ovoz chiqarmay, ikkinchi guruh esa ovoz chiqarib o'qishlari lozimligini e'lon qiling. She'rni o'qib bo'lgach, darslikdagi savollar yordamida uni muhokama qilishni boshlang. Muhokama jarayonida she'rdagi badiiy tasvir vositalariga, lirikaning nasrdan farqli jihatlariga e'tibor qiling.

Darslikdagi "Sog'inib va "Oliy butunlik" she'rlariga oid savol va topshiriqlar quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan:

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
Sizningcha, she’rda qanday g‘oya ilgari surilmoqda? (“Sog‘inib”) “Oliy butunlik” she’rining g‘oyaviy asosi haqida nimalar deyish mumkin? Nega she’r “Oliy butunlik” deb nomlangan? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.		asarning asosiy g‘oyasini aniqlash
Lirik qahramon nima uchun bahorga intiq? U “shu kunlar” deganda qanday kunlarni nazarda tutmoqda? She’rdagi “o‘z bahorim kabi bemisol” jumlasidan nimani anglash mumkin? Siz lirik qahramonning baho-rini qanday tasavvur qilyapsiz? Sizningcha, lirik qahramon sog‘inchi kimga yoki nimaga nisbatan bo‘lishi mumkin? (“Sog‘inib”) Qanday qilib ona tabiat inson uchun bir vaqtning o‘zida ham erkinlik va ham tutqunlik (qafas) bo‘lishi mumkin? Nima uchun shoir bu so‘zlarni tabiatga nisbatan qo‘llamoqda? “Har tong qarshisida tiz cho‘ksam arzirdi” satrida lirik qahramon nimaga ishora qilmoqda? Tongning inson hayotidagi qimmati nimalarda aks etadi? Qanday qilib bahor insonlardagi hayot ishqini yangilashi mumkin? Bunday fikrni boshqa faslga nisbatan ham qo‘llash mumkinmi? Nima uchun? (“Oliy butunlik”)		asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) tushunish asardan xulosalar chiqarish fikrini matn asosida dalillash
She’rda ishlatilgan badiiy tasvir vositalarini toping. Ularning she’r badiiy va g‘oyaviy qimmatini oshirishdagi ahamiyatini matn asosida izohlang		asarda qo‘llangan badiiy tasvir va ifoda vositalaridan ko‘zlangan maqsadni hamda ularning o‘quvchiga ta’sirini aniqlash

O‘quvchilarning javoblarini eshitgach, o‘z xulosangiz bilan ularning fikrlarini umumlashtirishingiz, o‘ziga xos fikr bildirgan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratishingiz lozim. Xulosa chiqarishda quyidagi talqinlar ham sizga yordam berishi mumkin.

Zulfiyaning “Sog‘inib” she’rida tushkunlik kayfiyatidan, sog‘inch azobidan qutilish haqida fikr yuritilmoqda. Lirik qahramon yaxshi insonlar qatorida, e’zoz va e’tiborda bo‘lsa ham, ko‘ngli mahzun, lirik qahramon kutgan, unga taskin berishi mumkin bo‘lgan, boshqalarga o‘xshamaydigan o‘z bahori esa unga begona. U o‘zini yonayotgan qorga, no‘noq qo‘l butagan niholga o‘xshatmoqda. Ya’ni uning dardlaridan tarqagan olov hatto qorni ham yondirib yuboradi. Shoiraning mazkur she’ri turmush o‘rtog‘i, bu hayotdan juda erta ko‘z yumgan Hamid Olimjonga atalgan bo‘lishi mumkin.

“Oliy butunlik” she’ri inson va tabiat munosabatlariga bag‘ishlangan. Inson tabiatning bir bo‘lagi hisoblanadi. Inson va tabiat bir butun olam, birini ikkinchisidan ayirib bo‘lmaydi, birini ikkinchisiga qarshi qo‘yish esa turli xil fojialarga olib keladi. Masalan, tasavvur qiling, bir kun tong otmay qoldi. Nima bo‘ladi? Kechasi oy yo‘qolib qolsa, daryolar oqmay, suvlar

qurib qolsa, odamzod taqdiri nima bo‘ladi? Shu sabab ham inson va tabiat – oliy butunlik, chunki tabiat ham insonsiz o‘zini to‘laqonli namoyon qilolmaydi. Ikkisining uyg‘unligi shoir aytgan oliy butunlikni yuzaga keltiradi.

Darslikning “Solishtiramiz” ruknida berilgan savol va topshiriqlar yordamida o‘quvchilar “Sog‘inib” va “Oliy butunlik” she’rlaridagi umumiy tushunchalar, obrazlarga, lirik qahramon kechinmalariga e’tibor qaratadilar hamda she’rlardagi o‘xshash va farqli jihatlarni topadilar. O‘quvchilarga mazkur topshiriqni bajarishlaridan oldin “lirik qahramon” tushunchasini eslatib o‘tish tavsiya qilinadi.

SOLISHTIRAMIZ

1. “Sog‘inib” va “Oliy butunlik” she’rlariga xos qanday umumiy tushunchalarni kuzatish mumkin? Bahor badiiy adabiyotda, jumladan, mazkur ijod namunalarida nimaning ramzi sifatida qo‘llangan?

2. Eslang: lirik qahramon kim? Har ikki she’rning lirik qahramoni qaysi jihatlari bilan bir-biriga o‘xshaydi va qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

“Sog‘inib” she’ri lirik qahramoniga xos xususiyatlar	Har ikkala she’r lirik qahramoniga xos xususiyatlar	“Oliy butunlik” she’ri lirik qahramoniga xos xususiyatlar

Asqad Muxtorning mustaqil mutolaa uchun berilgan “Sog‘inish” va “Nihol” she’rlarini ham o‘quvchilar mustaqil o‘qib chiqib, guruhlarda har ikkala ijodkorga xos xususiyatlarni qiyosiy tarzda tahlil qilishlari uchun vaqt ajrating. Unda:

– har ikki ijodkor qo‘llagan obrazlarning qiyosiy tahliliga;

– badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahoratiga;

– ijodkor tuyg‘ularining badiiy ifodasidagi o‘ziga xosliklarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

O‘quvchilar qiyosiy tahlil natijalarini diagrammada aks ettiradilar.

MUSTAQIL MUTOLAA VA TAHLIL UCHUN

Quyida berilgan she’rlar asosida Zulfiya va Asqad Muxtor she’riyatiga xos xususiyatlarni tahlil qiling. Bunda quyidagilarga e’tibor bering:

– she’rlarda ilgari surilgan g‘oyalar;

– lirik qahramonning kechinmalari;

– she’rlarda ishlatilgan badiiy tasvir vositalari.



Mutolaadan keyingi bosqichdagi loyihani uyga vazifa qilib bering. O‘quvchilar tuyg‘ularini o‘zlari istagan fasl vositasida bayon qilib, esse yoki yaqin kishisiga maktub shaklida yozib kelishlari mumkin. Uyga vazifani keyingi dars boshlanishidan avval yig‘ib, loyiha ishlarini baholang va eng yaxshi ish mualliflarini rag‘batlantiring.

3. Agar sizda to‘rt fasldan biriga tuyg‘ularingizni bayon etish imkoni tug‘ilsa, qaysi faslni tanlagan bo‘lardingiz? Nega?



“O‘rik gullayapti”.
O‘zbekiston xalq rassomi
Rahim Ahmedov ishlagan surat

ERNEST SETON-TOMPSON. “LOBO”

Bu mavzuda biz:
– hikoyada peyzajning ahamiyatini aniqlaymiz;
– muallifning hikoya qahramoniga munosabatini tahlil qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**4 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (muallif bilan tanishish, “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash)	1 soat
Asar matni bilan ishlash	1 soat
Mutolaadan keyingi bosqich savol va topshiriqlari bilan ishlash, adabiyot nazariyasiga oid tushunchani (syujet) o‘rganish	1 soat
Loyiha	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Ernest Seton-Tompsonning “Lobo” hikoyasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting. Bu muallif haqida oldin eshitganlariyoki uning biron-bir asarini mutolaa qilganlari haqida so‘rang.

2. Muallif haqida o‘quvchilarga ma’lumot bering. Muallifning hayoti va ijodi asosan Shimoliy Amerika bilan bog‘liq ekaniga e’tibor qarating. O‘quvchilardan Shimoliy Amerika tabiati haqida nimalarni bilishlarini so‘rang.

Shimoliy Amerikada deyarli barcha tabiat zonalari mavjud. Materikning Alyaskadan Meksikagacha cho‘zilgan hududlarida esa bo‘rilarni uchratish mumkin. Seton-Tompsonning “Lobo” hikoyasi ham bo‘ri haqida.

3. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savol bilan murojaat qiling.

Bo‘rilar haqidagi qanday asarlarni o‘qigansiz yoki tomosha qilgansiz? Bu asarlarda bo‘rilar qanday tasvirlangan?

Ushbu topshiriqni bajarishda o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish mumkin. Har bir guruh bir asarni (badiiy asar, kinofilm, multfilm) tanlaydi va mazkur asarda bo‘ri (yoki bo‘rilar) qanday tasvirlangani haqida taqdimot qiladi.

Bo‘rilar tasvirlangan asarlar: “Qizil qalpoqcha”, “Maugli”, “Oq so‘yloq” va hokazo.

4. O‘quvchilarga “Bolalar ensiklopediyasi”dan olingan ma’lumot bilan mustaqil tanishib chiqish uchun vaqt bering. Mazkur ma’lumot va bo‘rilarning ular o‘qigan yoki ko‘rgan asarlardagi tasvirini solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini topishni so‘rang. Agar bundan oldingi topshiriq guruhlarda bajarilgan bo‘lsa, bu topshiriqni ham guruhlarda davom ettirish mumkin.

Misol uchun, ensiklopediyada bo‘rilar nihoyatda ayyor va aqlli deyilgan, ayrim ertaklarda esa (masalan, “Bo‘ri va yetti uloqcha”, “Qizil qalpoqcha”) bo‘rilar ochko‘z va laqma sifatida tasvirlangan.

“Yovvoyi yo‘rg‘a” asari havolasi

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Izoh: darslikda hikoya matni qisqartirib berilgan. Hikoyaning to‘liq matni bilan Ernest Seton-Tompson hikoyalari to‘plami orqali tanishishingiz mumkin.

Asar real voqealarga asoslangan. 1890-yillarda Yangi Meksikada (AQSHning janubi-g‘arbidagi shtat) tabiiy o‘ljasi qolmagan bo‘rilar to‘dasi aholining moliga hujum qila boshlaydi. To‘da sardorini tutish uchun katta pul va’da qilinadi, lekin mukofot ilinjida kelgan ovchilar bu ishning uddasidan chiqa olishmaydi. To‘da hujumlaridan zarar ko‘rayotgan fermerlardan biri Jo Kalon hayvonlar xarakterini yaxshi tushunadigan Seton-Tompsonga murojaat qiladi. Muallif bir qancha urinishlardan keyin sardor bo‘rini qo‘lga tushirishga muvaffaq bo‘ladi. Loboning terisi hozirda Ernest Seton-Tompson muzeyida saqlanadi. “Lobo” hikoyasi AQSHdagi tabiatni asrash harakatlariga turtki berdi.

Asarni o‘qish davomida o‘quvchilar bilan matn orasida berilgan savollar ustida ishlang.

Savollar va izohlar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Lobo va uning galasi tasviriga e’tibor bering. Muallif bo‘rilarga xos xususiyatlarni ochib berishda qanday vositalardan foydalangan? *Muallif bo‘rilarning ayyorligi va kuch-qudratiga e’tibor qaratmoqda. Muallif qo‘llagan sifatlar, shuningdek, podachilarning bo‘rilarga munosabati tasvirlangan o‘rinlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating.*		Qari Lobo arloni bo‘ri, olis yillardan buyon Kurrumpo vodiysi mollarini qiyratib kelayotgan kulrang bo‘rilar galasining arlonisi. Vodiy cho‘pon-cho‘liqlari Loboning kimligini yaxshi biladi, darhaqiqat, ***Lobo galasi doxil bo‘lgan makon qiyomat-qoyim bo‘lib, podachilarni zir qaqshatadi. Qari Lobo bahaybat bo‘ri, ayyor, ham kuch-qudratli bo‘ri.*** Tunlari uvullaganda vodiyliklar uni ovozidan bilib oladi. Boshqa bo‘rilar podachilar manzilgohi tevaragida soatlab uvullasa ham podachilarning parvoyiga kelmaydi, ***ammo darada qari Lobo uvullashi yangrasa, podachilar tahlikaga tushib qoladi,*** biladilar, ertalab mollari kamayib qoladi. Loboning galasi unchalik katta emas. Nimaga katta emasligini o‘ylab, o‘yimga yetolmadim. Odatda Loboday ***qudratli bo‘ri*** tevaragiga bo‘rilar ko‘p yig‘iladi. Kim biladi, ehtimol, Loboning o‘zi galasining ko‘payishini xohlamas, ehtimol, ***tabiatidagi jahldorlik*** boshqa bo‘rilarning galaga kelib qo‘shilishiga yo‘l bermayotgandir. Nimagaligini aniq bilolmadim, ammo bir narsani yaxshi bildimki, Loboning umri so‘ngida uning galasida bor-yo‘g‘i beshta bo‘ri qoldi. Ammo beshtasiyam ***shon-shuhrat qozongan, kuch-qudratli bo‘ri, oz bo‘lsayam, soz bo‘ri.*** Ayniqsa, Loboning o‘ng qo‘li bo‘lmish birovi ***ulkandan-ulkan bo‘ri. Ammo uyam kuch-qudrat, ham ayyorlik bobida arloni Lobo oldidan o‘taversin.*** Galadagi har bir bo‘rining o‘z fe’l-atvori, rang-ro‘yi bor. Birovi ***o‘ta go‘zal, oppoq tanli*** bo‘lib, meksikaliklar buni Loboning jufti haloli deya o‘ylab, Blanka deb ataydi. Yana bir sariqrog‘i ***o‘ta uchqur*** bo‘lib, aytishlaricha, jayronlarni ham quvib yetib oladi.

Lobo va uning galasi nega podachilar ko‘ngliga dahshat soldi? Nega ularni tutish yoki yo‘qotish mushkul edi? *Bu yerda ham asosiy e’tibor bo‘rilarning ayyorligi, ziyrakligiga qaratilgan.*		Bo‘rilar galasining talon-torojchilik sarguzashtlari haqida ko‘p gaplarni gapirib berishim mumkin. ***Ularni qirib tashlash uchun har yili turli-tuman chora-tadbirlar ko‘rildi, ammo bo‘rilar o‘z ta’qibchilarining barcha hiyla-nayranglariga, yugurib-yelishlariga chap berib, rohat-farog‘atda yashadi. ...*** Podachi barchasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, bo‘rilar ustiga ot qo‘ydi. Bo‘rilar qochib qoldi. Podachi bildiki, bo‘rilar hali o‘z o‘ljasi oldiga qaytib keladi, shu sababliyam g‘unajin go‘shtining uch joyiga shishadagi strixnin doridan sepib keldi. Ertasiga bo‘rilar murdasini ko‘rgani kelib, hayron bo‘lib qoldi. ***Bo‘rilar g‘unajinni pok-pokiza yeb, zahar sepilgan joylarini avaylab olib tashlabdi.***
Qo‘lga tushganda nafrat va g‘azabini namoyish qilgan Lobo keyin beziyon bo‘lib qolgani sababini qanday izohlaysiz? *Bu lavhalarda Loboning charchaganligi, mag‘lubiyatni tan olishi ko‘rsatilgan.*		Yelkamda miltig‘im bor edi, ammo uni ishga solib, Loboning ajoyib terisini buzgim kelmadi. Lagerimizga ot choptirib borib, bir podachi bilan yangi arqon olib keldim. Loboga bir payrahani otdik, u payrahani tishlari bilan ilib olib, yerga tashlagunicha, arqonimiz vizillab borib, bo‘yniga o‘raldi. ***Loboning qahr-g‘azabga to‘la ko‘zlari so‘na boshladi.*** Shunda men yordamchimga: – Qo‘y, uni o‘ldirmaymiz! Uni lagerga tiriklayin olib boramiz! – deya qichqirdim. ***Lobo juda charchadi.*** Biz bundan foydalanib, uning qoziq tishlari orasidan yo‘g‘on tayoqni o‘tkazib olib, jag‘larini pishiq arqon bilan shu tayoqqa tang‘ib bog‘ladik. Tayoq arqonni, arqon tayoqni ushlab turdi. U beziyon jonivor bo‘lib qoldi. ***Jag‘lari tortib bog‘langanini bilib, tipirchilamay qo‘ydi, ovoziyam o‘chdi.***

Agar darsda asar matni bilan ishlashga ulgurilmasa, hikoyaning qolgan qismini uyda o‘qib kelishni topshirish mumkin.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
1. Hikoyada qanday muhim masalalar ko‘tarilgan? Undagi g‘oyalarni matn asosida izohlang.		asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyalarini aniqlash

2. Asliyatda hikoya “Lobo – Kurrumpo qiroli” deb nomlanadi. Mazkur sarlavha hikoya g‘oyasiga qay darajada mos? Siz hikoyaga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz? Nima uchun?		
3. Muallifning Lobo va uning galasiga munosabati aks etgan o‘rinlarni toping. Bu munosabatning asar so‘ngida o‘zgarishi sabablarini izohlang.		asarda qo‘llangan badiiy tasvir va ifoda vositalaridan ko‘zlangan maqsadni hamda ularning o‘quvchiga ta’sirini aniqlash
4. Loboni Blanka yordamida qo‘lga tushirish g‘oyasiga qanday baho berasiz? Sizningcha, ovchi kurashning halol yo‘lini tanladimi? Fikringizni asoslang.		obrazlarga baho berish
5. Hikoyaning boshqacha yakuni bo‘lishi mumkinmidi? Insonlar va ularning chorvasiga qiron keltirayotgan bo‘rilar galasi o‘rtasidagi konflikt – to‘qnashuvga siz qanday yechim taklif qilgan bo‘lardingiz?		asar qurilishiga munosabat bildirish
6. “Har bir jonli mavjudot – bebaho xazina, uni yo‘q qilishga, bolalarimizni bu xazinadan bebahra qoldirishga haqqimiz yo‘q”, – degan edi Ernest Seton-Tompson. Yozuvchining bu fikrini qanday tushundingiz? “Lobo” hikoyasi bu fikrga qay darajada mos?		asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyalarini aniqlash

Savol va topshiriqlar ustida frontal yoki guruhlarda ishlash mumkin. O‘quvchilarning javoblari turlicha bo‘lishi mumkin, ulardan javoblarini matn asosida izohlashni so‘rang.

3-topshiriq bilan ishlashda quyidagilarga e’tibor qarating.

Savol va izohlar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Muallifning Lobo va uning galasiga munosabati aks etgan o‘rinlarni toping. Bu munosabatning asar so‘ngida o‘zgarishi sabablarini izohlang.		Qari Lobo arloni bo‘ri, olis yillardan buyon Kurrumpo vodiysi mollarini qiyratib kelayotgan kulrang bo‘rilar galasining arlonisi. Vodiy cho‘pon-cho‘liqlari Loboning kimligini yaxshi biladi, darhaqiqat, ***Lobo galasi doxil bo‘lgan makon qiyomat-qoyim bo‘lib, podachilarni zir qaqshatadi. Qari Lobo bahaybat bo‘ri, ayyor, ham kuch-qudratli bo‘ri.*** Tunlari uvullaganda vodiyliklar uni ovozidan bilib oladi. Boshqa bo‘rilar podachilar manzilgohi tevaragida soatlab uvullasa ham podachilarning parvoyiga kelmaydi, ***ammo darada qari Lobo uvullashi yangrasa, podachilar tahlikaga tushib qoladi,*** biladilar, ertalab mollari kamayib qoladi.

Dastlab bo‘rilarning ayyorligi, ziyrakligi, kuch-qudratidan hayratni, sportchiga xos raqibni yengishga bo‘lgan ishtiyoq kuzatilsa, keyinroq raqibiga achinish, qilgan ishidan pushaymonlikni ko‘rish mumkin.		Loboning galasi unchalik katta emas. Nimaga katta emasligini o‘ylab, o‘yimga yetolmadim. Odatda Loboday ***qudratli bo‘ri*** tevaragiga bo‘rilar ko‘p yig‘iladi. Kim biladi, ehtimol, Loboning o‘zi galasining ko‘payishini xohlamas, ehtimol, ***tabiatidagi jahldorlik*** boshqa bo‘rilarning galaga kelib qo‘shilishiga yo‘l bermayotgandir. Nimagaligini aniq bilolmadim, ammo bir narsani yaxshi bildimki, Loboning umri so‘ngida uning galasida bor-yo‘g‘i beshta bo‘ri qoldi. Ammo beshtasiyam ***shon-shuhrat qozongan, kuch-qudratli bo‘ri, oz bo‘lsayam, soz bo‘ri.*** Ayniqsa, Loboning o‘ng qo‘li bo‘lmish birovi ***ulkandan-ulkan bo‘ri. Ammo uyam kuch-qudrat, ham ayyorlik bobida arloni Lobo oldidan o‘taversin. ...*** Yurib-yurib shu narsaga amin bo‘ldimki, Loboni bu adir-u daralarda it va otlar bilan ta’qib etishdan foyda yo‘q. ***Loboning bag‘oyat ziyrakligini bildiruvchi bir voqeani aytib beraman. ...*** Shunday bo‘lsa-da, izni olib boraverib, uchinchi pishloqning ham yo‘qolganini ko‘rdim. Izlar esa yo‘lida davom etib, to‘rtinchi pishloq turgan yerga qarab ketibdi. Shunda men Lobo pishloqlarni yemay, og‘zida bir joyga olib borib to‘plab, o‘zining tezagi bilan ko‘mib ketganini ko‘rdim. ***Bu, albatta, Loboning mening hiylayi nayrangimga nisbatan bildirgan nafrati ifodasi edi.*** U ana shunday ishqilib, ko‘z qorachig‘iday asrayotgan galasini ergashtirib, boshqa yoqlarga qarab ketibdi. ... ***Shunda yo‘ldoshim bilan mash’um bir ishga qo‘l urdik.*** Hali-hali eslab, seskanib ketaman. Sho‘rlik Blankaning bo‘yniga men bir yoqdan, yo‘ldoshim bir yoqdan, uchi sirtmoq arg‘amchi soldik. Blankaning ko‘zlari so‘nib, holsiz sulayib qoldi. Biz nihoyat Loboning galasiga dastlabki o‘lim zarbasini bera olganimizdan xursand bo‘lib, Blankaning jasadini olib qaytdik. ... Emishki, sher kuch-quvvatdan qolsa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa, yuragi yorilib o‘lar ekan. ***Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko‘tara olarmikin? U ham kuch-quvvatidan, ham erkidan, ham juftidan ayrildi.*** Ertalab qarasam, u hamon dam olayotganday osoyishtagina yotibdi. Ammo... jonsiz yotibdi...

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHANI O‘RGANISH: PEYZAJ

1. O‘quvchilarga peyzaj nimaligini tushuntiring. Bunda ularning tasviriy san’at darslaridan olgan bilimlariga ham tayanish mumkin. Peyzajda shunchaki joyni tasvirlanmay, ma’lum bir kayfiyat uyg‘otilishi mumkinligiga e’tibor qarating. Buning uchun peyzajli tasviriy san’at asarini ko‘rsatib, u o‘quvchilarda qanday kayfiyat uyg‘otganini so‘rash mumkin.

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va darslikdagi topshiriqni bering. Har bir guruh o‘z javobini sinfda taqdimot qiladi.

“Lobo” hikoyasida peyzaj qo‘llangan o‘rinni topib, qayta o‘qing. Bu tasvir o‘quvchida qanday kayfiyat uyg‘otadi? Tabiat tasviri va keyingi voqealar rivoji qay darajada bir-biriga uyg‘un (yoki uyg‘un emas)?

peyzaj		Yangi Meksika shimolidagi ulkan chorva yaylovi Kurrumpo deb ataladi. ***Yaylovning o‘rkach-o‘rkach adirlari bor, sero‘t-sero‘t o‘tloqlari bor, poda-poda mollari bor, soylarida zilol-zilol suvlari bor. Zilol suvlari oqib borib-borib, Kurrumpo daryosiga quyiladi,*** shu boisdan ham yaylov ana shu daryo nomi bilan ataladi. Yaylovda Lobo degan bir qari bo‘ri hukm suradi.

LOYIHA

Normurod Norqobilovning “Oqbo‘yin” asari ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar asardagi voqealarning qahramonlar xarakterini ochib berishini tahlil qilgan edilar. O‘quvchilarga topshiriq berishdan oldin shuni eslatib, oldinroq o‘qilgan asarlardan misollar keltirish mumkin.

Mazkur loyihada o‘quvchilar Muhammad Ochil (1953-yil tug‘ilgan) qalamiga mansub “Bo‘ri haqida ballada yoxud Loboning muhabbati” asaridan parchani o‘qiydilar (asarning to‘liq matni quyida berilgan) va undagi Lobo tasvirini Seton-Tompson asaridagi Lobo tasviri bilan solishtirib, jadvalni to‘ldiradilar. Bu topshiriqni juft-juft bo‘lib yoki guruhlarda bajarish tavsiya qilinadi.

LOYIHA

O‘ylab ko‘ring-chi, asardagi voqealar obrazlar xarakterini ochishga qay darajada yordam beradi?

Muhammad Ochilning “Bo‘ri haqida ballada yoxud Loboning muhabbati” asaridan parchani o‘qing va Seton-Tompson hikoyasi bilan solishtiring. Muhammad Ochil talqinidagi Lobo Seton-Tompson tasvirlagan Lobodan qanday farq qiladi? Nima uchun? Quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Seton-Tompson talqinidagi Loboga xos xususiyat	Bu xususiyatni ochib beradigan voqea	Muhammad Ochil talqinidagi Loboga xos xususiyat	Bu xususiyatni ochib beradigan voqea

Misol uchun, Muhammad Ochil talqinida Lobo “ehtiyot neligin, odamzod kimligin – unutdi”. Seton-Tompson asaridagi Lobo Blanka qo‘lga tushmagunicha hech qachon ehtiyotkorligini yo‘qotmagan, har doim insonlarga chap berib kelgan edi.

Muhammad OCHIL

BO‘RI HAQIDA BALLADA YOXUD LOBONING MUHABBATI
(Ernest Seton-Tompsonni o‘qib)

Sevgining tilsimi ko‘p, siri ko‘p…

Qo‘shiqdan

…Lobo – kuch-qudratda tengsiz edi teng-tushlar aro. Kurrumpo vodiysida sanalardi bo‘rilarning sardori sara. Tun mahali uv tortganda tahlikaga tushar edi butun borliq – chorva ahli, sigir-buzoq, echki-uloq… hatto jimib qolar edi har qandayin bo‘ribosar it. Ehtiyot shart, shaqildoqlar chalinardi, o‘qlar uzilardi qoramtir osmonga besamar. Tong yorishgach, so‘ng ma’lum bo‘lardi suruvda sodir etilgan dahshatli qirg‘in-u, ortda qolgan qonli izlar.

“Bo‘ri degan – befarosat, doimo och, yeb ketaverar duch kelganin, o‘limtik, harom qotgan har qanday hayvon so‘ngagin – loshin!” Bu aqida aslo to‘g‘ri kelmas Lobo va bosqinchi galasin fe’l-atvoriga. Qo‘yib berishsa ular mayliga, hazar qilishardi cho‘pon yoki ovchi so‘ygan va qopqon uchun qo‘yilgan – inson hidi kelib turgan har qandayin molning to‘shidan. Hatto ta’blar tortmasdi, jirkanishib qari ho‘kiz yoki kasalga chalingan sigir go‘shtidan.

Xullas, nafslarin tiyishardi har qandayin “xushxo‘r” taomdan. Faqatgina yeyishardi ov mahali o‘zlari tutgan, so‘ng tilka-pora qilingan sog‘lom va baquvvat buzoqning hali qaynoq qoni silqib turgan joyidan…

Ushoq molni-ku, ovlashmasdi oriyat uchun. Ammo ba’zan bo‘g‘izlashardi hurkak va ovsar qo‘ylarning birato‘la ellik-yuzin, shunchaki ermakka, tishlarin o‘tkirlab, qayroqqa ishqab turmoq uchun.

* * *

Sara sardor sanalsa-da, ko‘p maxluqni ergashtirib yurmasdi ortidan Lobo. To‘dada bo‘lardi bor-yo‘g‘i – besh-olti bo‘ri. Biroq sardor sinovidan o‘tgan, hammasi hayvonning zo‘ri.

Yo‘l boshlardi doimo oldinda Lobo. Ortidan ergashardi qolgan maxluqot. Bunday kezda to‘dada bor edi muayyan azaliy odat: o‘lja hidin tuyib yoxud shoshqaloqlikda – Lobodan bir qadam oldinga o‘tsa biror-bir sherik, ya’nikim a’zo, darhol unga tayin bo‘lar edi, albat, munosib jazo. Jarohat topardi boyaqishning badani, misoli arining nashtar nishidan, sardorning olmos yanglig‘ keskir tishidan.

G‘azabi tosh, qahri qattiq edi Loboning. To‘dada qoida, intizom – barcha bo‘ri uchun edi birdek barobar. Shu boisdan Loboga sherik tutinmoqlik sanalardi ko‘p dushvor.

* * *

Bardosh barham topdi. Pichoq borib yetdi suyakka. Kelgan edi elning qahri. Shu bois Lobo va uning talonchi to‘dasin mahv etishga chog‘landi butun Kurrumpo ahli.

Bo‘ri izi muhrlangan so‘qmoqlarga tashlandi og‘uli xo‘rak – qonli dasturxon. Har qadamga qo‘yildi qopqon – pistirma pinhon.

Ovchilar-chi?! Ergashtirib tozi itlarin, ko‘tarishib zo‘r shovqin-suron. Qo‘llarida qurol-

yarog‘, aslaha-sopqon. Hamma xursand, hamma shod. Go‘yoki endi qochib qutulolmas ulardan hattoki – sichqon!

* * *

Lobo esa qattol va anchayin quv. Ayyorlikda hattoki ajaldan abjir. Sezgirlik bobida ip esholmas oldida tulki mug‘ombir. Hayvonmas, misoli ongli maxluqot. Qismat bilan bahs boylashmoq go‘yo bag‘ishlardi lazzat, farog‘at. Shoshmasdi, har qadamni o‘ylab bosardi qilgancha sabr. Inson hiylasiga qarshi ishlatib tadbir. …Zaharli xo‘rakni hidlab, so‘ng bir chetidan avaylab tishlab, katta yo‘l ustiga qo‘yardi uyub. Mazax qilganday so‘ng “ovchi taomi”ning ustiga ketardi siyib…

Ayyor edi Lobo… Ehh, keraklicha quv! Shu bois edi bo‘riga begona qo‘rquv. Qo‘rquv esa tug‘dirardi qalbda sirli mavhumot. Afsonaga aylangandi allaqachon Loboning nomi. Bu maxluq go‘yo – gunohlar uchun yuborilgan taqdir “in’omi”!

Ayni paytda kundan kunga borardi oshib Lobo boshi uchun tikilgan xun – mukofot puli…

* * *

Merganlikda mohir edi texaslik ovchi Tennerey. Son-sanog‘i yo‘q edi otgan hayvon-parrandasin… Eh-hey! Bexato urardi ko‘kda charx urgan sorning ko‘zidan. Vahshat silqib turardi ko‘z qarashidan, qahr-u qurum bosgan yuzidan. Shunday sayyod edi Tennerey. Ammo shafqat anqo edi uning qalbida. Ovchilik qilardi zavq-shavq uchun emas, bil’aks faqat boylik vajidan. “Katta mukofot” sasin tuygach, bormoq bo‘ldi shu sabab o‘lja izidan. Amin edi: bu gal ham omad unga yor, borar yo‘li silliq va ravon.

Ana… Qurol-aslaha osgan, besh bo‘ribosar izmida, otin boshin burdi ovchi Tennerey Texasdan uzoq Kurrumpo vodiysi tomon.

* * *

Yana hamma xursand, xurram, yana hamma shod. Chunki kelmoqda kimsan – Tennerey! Axir, unga teng kelib bo‘lmas. Qani endi Lobo?! O‘sha qo‘lga tushmas – ko‘zga ko‘rinmas?!

Boyaqish bo‘ri! Kurrumpo vodiysida edi hayvonning zo‘ri. Nahot endi Lobo… Jasadi ustida yangrar so‘nggi so‘z – “Alvido”! Ha, Tennereyga axir teng kelib bo‘lmas. Afsungar bo‘rini mahv etish, ehtimol, boshqaning qo‘lidan kelmas?! Fursat yetgan ko‘rinadi beshak, beomon. Lobo endi qolmaydi omon. Bosh terisi osiladi egar qoshiga. Qarg‘a-quzg‘un to‘yar bo‘ldi bo‘ri loshiga…

* * *

…Sahro tongi. Chor tarafdan taralmoqda go‘yo izdihom bongi. Qontalash qarash-la quyosh yotog‘idan ohista ko‘taradi bosh. Tennerey ketmoqda mag‘rur va shodon. Niyati Lobo atalmish maxluqqa bermaslik omon. Sarkash saman so‘liq chaynar. Oldda esa yo‘l boshlar besh bo‘ribosar. Bahaybatlikda har biri ayiq misoli. Nomiga monand, maxluqot uchun go‘yo ajal timsoli.

Saman hamon so‘liq chaynar. Sayyod vujudida esa kuch-g‘ayrat qaynar. Ortda qolar jarlik, qizg‘aldoqli qir-u adir, suv to‘la soylik. Ovchining xayolida g‘ujg‘on o‘ynar ko‘kdan tushib kelayotgan behisob boylik.

Ana, itlar vovullashdi, izlar olindi. Bu yaxshilik debochasi sanaladi odatda ovda.

Tennerey-chi?! O‘lja yaqin qolganin his qilib tuydi. Miltig‘in mehr-la silab, so‘ng tepkisin ko‘tarib qo‘ydi.

Lobo esa… U ham axir anoyi emas. “Quv, ayyor…” nomini bejiz olganmas. Xavfni sezib, ohista o‘rnidan turdi. Havoda hid olgach, boshini ma’noli burdi. Qolganlar kutib turdi sardor “imosin”. Barbod etish uchun tezda ovchi va itlar yag‘mosin. Itoat etishib Lobo “so‘ziga”. Dastlab, birrov ko‘rinishdi itlar ko‘ziga. Besh tomonga tarqab ketdi so‘ng beshovlon bo‘ri. Sardor kabi bari makkor – hayvonning zo‘ri.

Kutilgandek hiyla berdi ish. Shu sabab ovchi va itlarga keldi ko‘p tashvish. Besh bo‘ribosar oqibat ne bo‘lishin bilmay, bo‘rilar izidan ketdi, hovliqqancha sarosar.

Lobo qoldi yolg‘iz, faqat Tennereyning yakkash o‘ziga. Bundayin toledan ko‘ngli bo‘lib shod. Hech narsa ko‘rinmay ko‘ziga. Ovchi ot jilovin qo‘ygancha ozod. Tirik tutmoq ilinjida qo‘liga lasso (sirtmog‘in) oldi. Yuragi hapriqqancha goh yugurib, goh emaklab ketayotgan Lobo izidan ot soldi.

Lobo… Ayyorlik bobida senga tahsin, senga shon! Qarang, qanchalik urinmasin ovchiga bo‘lmas hech nishon.

Qolgan bo‘rilar-chi? Qanday tarqalishgan bo‘lsa, shunday qayta qovushib. Go‘yo Lobo “chizib bergan chiziqda” atay topishib… Itlarni yolg‘izlatib bir-biridan. G‘ajib tashlashdi so‘ng go‘shtlarini ajratishib teridan…

Oqshom cho‘kdi. Qorong‘ilik chor atrofga g‘uborin to‘kdi. Besamar tugadi nihoyat shikor. Tennereyga o‘shal kun dunyo keldi tor. Loboni quvlab, ot qo‘yib har yon. Bo‘ldi ko‘p yomon. Zo‘riqishdan toliqib, til tortmay sarkash saman berdi jon.

Toleyi bor ekan, quroli qo‘lda. Aks holda, o‘zin ham jasadi qolardi o‘shal tunda – kimsasiz cho‘lda.

* * *

Ibtidosi bo‘lgan kabi, bo‘lar har qismatning intihosi ham. Alalxusus, tez fursatda qissamiz ham topadi barham…

Lobo! Bo‘ysunmas bo‘ri. Nega bugun boshing egik? Nahot dunyo senga keldi tor? Nega oyga boqib “uv-v” tortasan, olmayin hech tin. Qayda qoldi mag‘rurliging, bugun nega qo‘shig‘ing bunchalar mahzun?!

Shunday… Sir-u sinoatni oshkor etsak, endi yashirmay. Yoshi bir joyga yetganda Lobo. Ajabo! Muhabbatga bo‘lgandi asir. Keksaygan qalb ko‘zin sevgi qilgandi basir.

Oqsiyna… Mahbubasi, muhabbati edi ana shu yosh, durkun, urg‘ochi bo‘ri. Bo‘riki, bo‘rilar ichida tanho bo‘rivash. Hayvonlar ichida bo‘lib zo‘r talash. Qonli muhoraba, bo‘g‘ish-bo‘g‘izlashlar tez topib yakun. Barcha bo‘rilardan alhol Lobo kelgandi ustun. Omad kulib boqqan edi yana sardorga. Keksaygan bo‘lsa-da, muhabbatga tashna, g‘ayrati zo‘r g‘addorga.

Boshin egdi Oqsiyna, g‘olib chiqqach Lobo “sevgi jangi”da. Iltifot o‘rnida so‘ng makrla ko‘z-ko‘z qildi qaddi-qomatin. Tana tusi tovlanardi kulrang baxmal rangida. Faqat siynasida marjon yanglig‘ – oq mo‘yna. Ovoz mayin, kiprik uzun, ko‘zlar suzuk… Shunday mohitobon maxluq edi Oqsiyna!

Ha, go‘zal edi Oqsiyna… Bu borada barcha ta’rif, barcha maqtov unga mos. Biroq, afsus… Fe’l-atvor ham aynan, aksar go‘zallarga xos: o‘yinqaroq, tantiq edi va biroz erkaroq. Azaldan ma’lum, bundayin fe’l-atvor mahbubga keltirar hali ko‘p firoq.

Ana, to‘da ovga otlandi. Oshiqib, shoshib, bosh bo‘lib bormoqda Lobo… Uzr, bu gal teskari tomonga esibdi sabo. Eng oldda, o‘ynoqlab bormoqda edi Oqsiyna! Ajabo! “Bo‘ysunmas”ning nega yo‘li to‘silmas?! Qayerda qoldi qahri qattiq yo‘lboshchi Lobo?! Nechun unga qilinmas pand-nasihat va achchiq gina?!

To‘g‘ri, Lobo boshliq. Ayni paytda qudratli va dahshatli maxluq. Biroq bu o‘rinda aytish, balki, nojoiz. Yashirmoq ne hojat. Sevgi sarhadida sardor qolgandi ojiz.

Har gal jazm etar Lobo bo‘rivashin jazolamoqqa. Ammo, alhol, bu ne hol! Ishva-yu g‘amza, sho‘x va shodon nigoh qarshisida yakkash o‘zin solar edi qiynoqqa…

Lobo – junun sifat, ayrilib aql, idrok va esdan. Sevgi ustun keldi g‘urur, oriyat va nomusdan. Oqibat buzildi to‘dada tartib-intizom. Barham topdi “sardorlik”, azaliy nizom.

* * *

Ko‘za kunda emas, sinar ekan kunida. Axir, ovchi degan payt poylaydi qasos olmoq xunida.

Mana, ular to‘r o‘rnida yoyib makkorlikning matosin. Kutishmoqda pistirmada – Oqsiynaning beboshligin va galdagi xatosin.

Rutubatli edi o‘shal tun. Birdan qora bulut bosdi, qopladi qurum va tutun. Oqsiyna va Lobo… bo‘lib hamma yog‘i shilta, shalabbo… Pisand etmas zulumotni. O‘ynashardi, quvlashardi, biri-birin suyib, erkalab.

Ehtiyot neligin, odamzot kimligin – unutdi ular. Turgan gap, bunday kez – qora qismat ustingdan kular. Ana… Sevgidan mast, masrur, devona. Oq mo‘ynasi siynasida yarashiqli Oqsiyna… So‘nggi bor shamoldek oldinga uchdi. Oh, bu ne sitam, bu ne ko‘rgilik?! Ogoh etib ulgurmasdan Lobo. Bo‘rivash noxos “temir tuzoq”qa tushdi.

Hayqiriq o‘rladi, yangradi havoga behisob ko‘p o‘q. Go‘yo qilingandek po‘pisa, qilingandek do‘q. Olatasir bo‘lib ketdi har tomon. Ana, bu yoqqa yugurgilab kelishmoqda cho‘pon-cho‘liq, qurollangan ovchi, barcha – olomon.

Qochib qoldi qo‘rqib, fursatida bo‘rilar. Bunday kezda “to‘rt oyoqli” jonzot qo‘lidan axir ne kelar?!

Faqat Lobo… Aylab jon fido. Mahbubasi uchun hatto bandi bo‘lmoqqa tayyor. Ko‘z o‘ngida faryod solar Oqsiyna… Oh! Oh-nolasi yurakka sanchadi xanjar.

Lobo… Qaydan keldi senga bunday kuch-qudrat? Nahot sevgida bor shunday sir-u sinoat?! O‘kirigi buzib jumla-jahonni. Parchalab tashladi bo‘rivashin band aylagan temir qopqonni.

Sukutda qotdi bir zum barcha cho‘pon-cho‘liq, ahli ovchilar. Bunaqasin hali hech kim ko‘rmagan, bunaqa jasorat kamdan kam bo‘lar.

Biroq hozir “sukut saqlansa”, so‘ng bo‘lmasmikin kech? Qirilgan qo‘ra, bo‘g‘izlangan buqa, sigir-buzoq, qo‘y-echkining… xunini kim to‘lar?!

…Havoda jarangladi qahri qattol o‘q. Nishon biroq yanglish bo‘ldi, Loboga emas, shundoq ham yaralangan Oqsiyna “mo‘ynasi”ga borib sanchilgandi yonib turgan cho‘g‘.

Lobo titrab ketdi. Siynasidan silqib sizganicha qon… Oqsiynasi bergan edi jon!

Sukunatda qolgan edi sahro, cho‘l-u qir. Tong yorishib, to‘xtagandi yog‘ishdan yomg‘ir.

Lobo… Ajab hol?! Quturib, tashlanmoq o‘rniga bo‘lib bemajol. Bo‘ysungandek taqdir xohish-royiga. Vidolashmoq istagida, ohista cho‘kdi Oqsiynasin poyiga…

Ovchilar-chi, halqa misol qurshab olishdi. Qo‘rquv, hadik tark etmagan edi hamon ular jismini. So‘ng ehtiyot shart – sirtmoq solishib, sudrab ketishdi Loboning jonsiz tanini…

Hamma xursand edi, kulishib, yayrashib shodon. Axir endi qo‘rquv yo‘q, osoyishta sahro, dala-dasht, yobon. Ammo hech kim o‘ylamasdi: kuch-qudratda tengsiz, bo‘ysunmas bo‘ri, tengsiz “qahramon” so‘nggi yo‘lga nega bunday otlandi oson?!

Javob esa juda jo‘n va qilsak bayon: sevgisidan, o‘z juftidan ajraganda har qanday mavjudot, nafaqat inson, avval kuchdan ketib, so‘ng yuragi yorilib berar ekan jon!

Ha, sevgida bordir ajib sir-u sinoat. Ibrat bo‘lsin bu borada sizga ushbu rivoyat.

“Yoshlik” jurnalining 2012-yil 10-sonidan

ERNEST HEMINGUEY.
“CHOL VA DENGIZ”

Bu mavzuda biz:
– asar g‘oyasi va undagi tagma’nolarni tahlil qilamiz;
– asardagi ramzlarni tahlil qilamiz;
– muallif uslubiga xos xususiyatlarni aniqlaymiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (muallif bilan tanishish, “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Asar matni bilan ishlashni boshlash	1 soat
Asar matni bilan ishlashni davom ettirish	1 soat
Mutolaadan keyingi bosqich savol va topshiriqlari bilan ishlash, adabiyot nazariyasiga oid tushunchalarni (ramz, muallif uslubi) o‘rganish. Loyiha	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Ernest Hemingueyning “Chol va dengiz” qissasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting. Bu muallif haqida oldin eshitganlari yoki uning biron-bir asarini mutolaa qilganlari haqida so‘rang.

2. Muallif haqida berilgan ma’lumotlarni mustaqil o‘qib chiqish uchun o‘quvchilarga vaqt bering. Qaysi ma’lumotlar yozuvchi haqida yaxshiroq tasavvurlar berganini so‘rang. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini o‘z tajribasi, dunyoqarashi, avvalgi bilimlari asosida dalillashga harakat qilsin.

O‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar:

– shifokor oilasida tug‘ilgan;

– maktabda a’lo baholarga o‘qigan;

– yoshligidan yozuvchi bo‘lishni maqsad qilgan;

– baliq ovini yaxshi ko‘rgan;

– otasi unga qarmoq sovg‘a qilgan kundan boshlab baliq ovi uning eng sevimli mash-g‘ulotlaridan biriga aylangan.

3. O‘quvchilardan asar nima sababdan “Chol va dengiz” deb nomlangani haqida tax-minlarini so‘rang. Chol va dengiz o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkinligi haqidagi taxminlari bilan qiziqing.

O‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar:

– chol baliqchi bo‘lgan va u dengizga yaqin joyda yashagan;

– chol baliq ovlashni yaxshi ko‘rgani uchun u o‘zi haqida asar yozgan;

– cholning o‘zi dengizga o‘xshaydi, shu sabab asarga shunday nom bergan bo‘lishi mumkin.

4. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savol bilan murojaat qiling.



Gregorio Fuentes 100 yoshda

O‘ylab ko‘ring: Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan bu asar, muallif o‘zi aytganidek, oddiy narsalar tasviriga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkinmi?

Chol, dengiz va baliq sizda qanday tasavvurlarni uyg‘otadi? Ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz? Ularni umumlashtiruvchi g‘oya(lar) haqida nimalar deyish mumkin?

O‘quvchilarda Nobel mukofoti va uning ahamiyati haqida tasavvur paydo bo‘lishi uchun qisqa ma’lumot berib o‘tish mumkin: ushbu mukofot adabiyot olamida eng nufuzli mukofotlardan biri hisoblanadi, har yili butun dunyodan bitta ijodkorga beriladi, maxsus komissiya g‘olibni bir necha bosqichda aniqlaydi, mukofotni shaxsan Shvetsiya qirolining o‘zi topshiradi.

Ushbu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar bilan frontal ishlash yoki ularni guruhlarga bo‘lish mumkin. Bunda oldin savolning birinchi qismiga *(Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan bu asar, muallif o‘zi aytganidek, oddiy narsalar tasviriga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkinmi?*), keyin esa ikkinchi qismiga (*Chol, dengiz va baliq sizda qanday tasavvurlarni uyg‘otadi? Ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz? Ularni umumlashtiruvchi g‘oya(lar) haqida nimalar deyish mumkin?*) e’tibor qarating.

O‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish maqsadida ularning javoblarini yozuv taxtasiga qayd qilib borishingiz mumkin. Jarayon so‘ngida ulardagi umumiy va o‘ziga xos fikrlarga e’tibor berib, o‘z munosabatingizni, umumiy xulosangizni bildiring. O‘qituvchi tomonidan bildirilgan munosabat keyingi tahlil jarayonlarining murosasiz, qiziqarli o‘tishiga, o‘quvchilaringizda yangi, o‘ziga xos fikrlarning tug‘ilishiga rag‘bat beradi.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Ernest Heminguey ijodidagi eng mashhur va salmoqli asarlardan biri bo‘lgan “Chol va dengiz” 1951-yilda yozilgan. Asar voqealari Kubada bo‘lib o‘tadi. 84 kundan beri dengizda omadi chopmagan Santyago yana baliq oviga chiqadi. Qirg‘oqdan ancha uzoqqa ketib qolgan Santyagoning bu safar omadi chopadi – u ulkan marlinga duch keladi. Butun kuchi va zakovatini ishga solgan holda u baliq bilan uch kun olishadi va uni tutishga muvaffaq bo‘ladi. Biroq cholning harakatlari zoye ketadi – baliqni akulalar yeb qo‘yadi va undan faqat ustuxon qoladi. Chol shu ustuxonni qirg‘oqqa olib chiqadi.

Darslikda qissa matni qisqartirib berilgan. Asarning to‘liq matnini Ziyouz kutubxonasi yoki kitob.uz saytida o‘qish mumkin. Darslikda berilgan QR kod orqali qissa asosida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasida tayyorlangan radiospektaklni tinglash mumkin.

1. O‘quvchilarga asarning dastlabki ikki xatboshisini mustaqil o‘qib chiqish uchun vaqt bering va so‘ng quyidagi savollar bilan murojaat qiling. Javoblarini matn yordamida dalillashni so‘rang. Bir xil javob talab qilmaydigan savollar orqali esa bolalarda erkin, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga harakat qiling.

– Chol nega yolg‘iz o‘zi baliq ovlardi?

– Cholning qayig‘idagi yelkan tasviridan nimalarni his qildingiz?

– Nega muallif aynan bolani cholga qirq kunlik hamroh qilib qo‘ydi? U ota-onasining qaroridan mamnun edimi? Bola cholning yoniga yana qaytadi deb o‘ylaysizmi? Nega?

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Chol nega yolg‘iz o‘zi baliq ovlardi? *Chol omadsiz edi, jamiyat ham uni qabul qilmasdi.* Cholning qayig‘idagi yelkan tasviridan nimalarni his qildingiz? *Bundan u juda kambag‘al bo‘lganini bilish mumkin.* *Cholning hayotdagi mag‘lubiyati, yashash uchun kurashdan charchagani tasviri (askarlar polki uchun yalov – bayroq jangda eng qadrli ashyolardan biri sanaladi, u odatda juda ehtiyot qilinadi)*		Chol qayiqda yolg‘iz o‘zi Golfstrimda baliq ovlardi. Dengizga chiqayotganiga mana sakson to‘rt kun ham to‘ldi, ammo ***hali bironta baliq tutganicha yo‘q. U bilan qirq kun bola birga bo‘ldi. Hadeganda qo‘li quruq qaytavergach, ota-onasi unga endi cholning o‘taketgan “salao”, ya’ni “o‘lguday omadi yurishmagan odam” ekanini aytib, bundan buyon boshqa qayiqda dengizga chiqishi kerakligini qulog‘iga quydilar.*** Haqiqatan ham birinchi haftaning o‘zidayoq bu qayiqda baliq desa arziguday uchta baliq tutib kelishdi. Deyarli har kuni cholning dengizdan quruq qaytayotganini ko‘rib bola ich-ichidan ezilar edi. U cholning uskunalari, changak, garpun va machtaga o‘ralgan yelkanlarini tashishga yordamlashgani qirg‘oqqa kelardi. ***Dag‘al matodan to‘qilgan yelkan yamalaverib, ola-quroq bo‘lib ketgan, o‘rog‘liq holda yaksoni chiqqan polkning yaloviga o‘xshardi.*** Chol oriq va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o‘tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo‘ladigan beozor teri rakining jigarrang dog‘lari bilan qoplangan edi.

3-savol o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, farazlarni ilgari surish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur savolga javoblar turli xil, biri ikkinchisiga o‘xshamagan bo‘lishi mumkin. O‘quvchining mantiqli va matndan uzoqlashmay bergan javobini qabul qilish, “seniki to‘g‘ri” yoki “seniki noto‘g‘ri” kabi qat’iy xulosalardan qochish, o‘quvchilarga asar, xususan, yaxshi asar turfa talqinlarni keltirib chiqarishi mumkinligini tushuntirish kerak bo‘ladi.

2. Asar matni bilan ishlash keyingi darsda davom ettiriladi. Asarni o‘qish davomida o‘quvchilar bilan matn orasida berilgan savollar ustida ishlang.

Savollar, o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar, izohlar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Chol sizda qanday tasavvur uyg‘otdi? *Chol omadsiz, yolg‘iz, qari, ko‘p vaqtini dengizda o‘tkazgan, ko‘zlari quvnoq.*		… chol o‘taketgan “salao”, ya’ni “o‘lguday omadi yurishmagan odam”…

Cholga yordam bergan bola kim bo‘lishi mumkin? (ushbu savolga matndan dalil keltirish shart emas) *– Cholning shogirdi, unga baliq ovida ustozlik qilgan bo‘lishi mumkin;* *– bola cholning qo‘shnisi, balki sirdoshi bo‘lishi mumkin;* *– bola beg‘ubor va qalbi pok bo‘ladi, shu sabab muallif yolg‘iz chol yoniga mana shu bolani hamroh qilib qo‘ygan bo‘lishi mumkin.*		Chol oriq va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o‘tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo‘ladigan beozor teri rakining jigarrang dog‘lari bilan qoplangan edi... Cholda nimaiki bor bo‘lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko‘zlari bundan mustasno edi.
Nega asar “Chol qayiqda yolg‘iz o‘zi Golfstrimda baliq ovlardi” jumlasi bilan boshlanmoqda? (ushbu savolga matndan dalil keltirish shart emas) *– Butun bir asar cholning yolg‘izligi haqida borishiga ishora bo‘lishi mumkin;* *– katta dengizdagi yolg‘iz baliqchi – o‘quvchi e’tiborini tortadigan obraz, shu sabab asarga o‘quvchini qiziqtirish uchun shunday boshlangan bo‘lishi mumkin.*		
Santyago (cholning ismi) nega okeanni saxiy va go‘zal, ayni paytda shafqatsiz deb atamoqda? Dengizning ayrim baliqchilarga ayol (la mar), ayrimlariga esa “raqib, gohida esa, hatto bir dushman er kishidek (el mar)” bo‘lib ko‘rinishi sabablari nimada? *– Okeandan insonlar, shu bilan birga boshqa mavjudotlar ham qancha istashsa shuncha foydalanishlari mumkin, shuning uchun saxiy deb atalmoqda;* *– okeanga, umuman tabiatga noto‘g‘ri munosabat bo‘lganda, u ham o‘z kuchini ko‘rsatadi va uning qasosidan hech kim qutula olmaydi;* *– okean chindan ham go‘zal, uning go‘zalligi sokinligida, cheksizligida, balki, erkinligida.*		Okean saxiy va go‘zal, ammo u goho to‘satdan shunday shafqatsiz bo‘lib ketadiki, uning ustida oziq ilinjida charx urib, sho‘ng‘ib, ojiz va mungli ovoz bilan bir-birlariga jo‘r bo‘lib uchgan bu qushlar unga nisbatan benihoya zaif va mo‘rt ko‘rinadi”, deb o‘ylardi... U har doim dengizni unga muhabbat qo‘ygan hamma kishilar kabi xayolida ispanchasiga “la mar” deb atardi.
Santyago nega o‘zi bilan o‘zi gaplasha boshladi? *– Ehtimol, bola undan ketganidan keyin yolg‘iz qolgach, o‘zi bilan o‘zi gaplasha boshlagandir.*		Chol qachondan boshlab o‘z-o‘zi bilan ovoz chiqarib so‘zlashadigan bo‘lib qolganini endi eslolmas edi…

Bu savolga o‘quvchilardan qo‘shimcha izohlarni ham so‘rash mumkin. Ular o‘z hayotiy tajribalari, kuzatishlari, asarni o‘qish paytidagi ruhiy holatlaridan kelib chiqib turli xil, matnni chuqur tushunishga yordam beradigan fikrlar aytishlari mumkin, masalan: *– odatda inson biror-bir mashaqqatga uchrasa yoki muvaffaqiyatsizlikka duch kelsa, unda tushkun kayfiyat paydo bo‘ladi va Santyago kabi o‘ziga o‘zi savollar berishni boshlaydi;* *– maqsadlarini, orzularini bir tizimga solish uchun;* *– Santyagoning maqsadi ana shu katta baliqni ovlab, “omadsiz” emasligini isbotlash edi, shu sabab u ov paytida tug‘ilganlik sabablari haqida o‘ylab qoldi.*		Endi faqat bir narsa ustida bosh qotirish kerak. Gap mening nima uchun tug‘ilganim ustida boradi. Ehtimol, qayerdadir, mana bu tunets galalari bilan yonma-yon bo‘lib mening ulkan balig‘im ham daydiyotgandir.
Nima sababdan Santyago baliqdan “ol, ye” deb o‘tinmoqda? *– Baliqni to‘rga ilintirish uchun;* *– chol yana quruq qaytmaslik uchun baliqdan yordam berishini o‘tinib so‘ramoqda.*		... baliq juda ham katta bo‘lsa kerak. Yeyaver. Yegin endi, ol, yegin. Sardinlar biram mazali, sen bo‘lsang juda sovqotgansan, olti yuz fut chuqurlikda suv juda ham sovuq va qop-qorong‘i bo‘ladi.
Baliq oviga daxldor har bir detalning atroflicha tasvirlanishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz? Bu savolga o‘quvchilardan qo‘shimcha izohlarni ham so‘rash mumkin. Ular o‘z hayotiy tajribalari, kuzatishlari, asarni o‘qish paytdagi ruhiy holatlaridan kelib chiqib turli xil, matnni chuqur tushunishga yordam beradigan fikrlar aytishlari mumkin, masalan: *– Heminguey o‘zi baliqchi bo‘lgani uchun baliq oviga daxldor har bir holatni yaxshi bilgan, tajriba qilgan, voqealar ishonchli, real chiqishi uchun u har bir detalni atroflicha tasvirlagan;* *– maqsadga erishish oson emasligini mana shu kichkina detallar bilan ochib berishga harakat qilgan.*		U bosh va ko‘rsatkich barmoqlari bilan kalavani tutib, baliqning joydan joyga suzib o‘tish ehtimoli borligidan bir paytning o‘zida boshqa chilvirlardan ham ko‘z uzmay kutardi. Sezdi-yu, chilvirni bo‘shatib, ehtiyotdagi kalavalardan birini chuvatgancha uning borgan sari quyi, quyi, quyiga tushib borishi uchun imkon berdi. Uning chilviri katta baliqlarga mo‘ljallangan, pishiq edi. Boshqa xo‘raklar dengizga qanday tashlangan bo‘lsa, hamon shundayligicha turar, chol ularni nima qilishni bilmasdi.

“Baliq, o‘lsam o‘lamanki, sendan ajralmayman”. Bu baliqning Santyago uchun ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz? *– Baliq uning uchun hamma narsa edi: omad, baxt, maqsad;* *– u yana quruq qaytsa, odamlar oldida uyatga qoladi, uni yana “omadsiz” deb masxaralashadi.*		
Santyago va baliq o‘rtasidagi hayot uchun kurashdan nimalarni uqdingiz? Ularning holatida qanday o‘xshash va farqli jihatlar mavjud? *– Har ikkisi ham yashash uchun, tirik qolish uchun jang qilyapti;* *– har ikkisi ham yolg‘iz va ojiz;* *– baliq – tutqun, chol – ozod.*		“U ham har holda mendan ayrilmasa kerak”, – deb o‘yladi chol va tong yorishishini kuta boshladi. Qayiq to‘xtovsiz ilgari siljirdi: quyosh ham ufq betida tirnog‘ini ko‘rsatdi-da, cholning o‘ng yelkasiga nur to‘kdi. Agar baliqning harakatini bir me’yordagi qarshilik bilan sekinlatishga muvaffaq bo‘lmasa, u holda baliq bor-yo‘q kalavasini tortib, uzib-yulqib ketajagini chol bilardi. Ko‘rinishidan juda sokin va bamaylixotir doira yasayotgan baliqning har yangi aylanishida chol borgan sari ko‘proq chilvir yig‘ib olar, yana ikki aylanishdan keyin baliq ko‘ksiga garpun urajagiga endi u amin bo‘lib qolgan edi.
Bu parchada tush qanday g‘oyaga xizmat qilmoqda? Asarda uch marta cholning tushiga arslonlar kiradi: asar boshida – uch kunlik dengiz oviga chiqishidan oldin, dengizda qayig‘ida uxlab qolganida va baliq ovidan qaytib, o‘z uyida uxlayotganida. Cholning yoshligi Afrika bilan bog‘liq, Afrikaning zardobrang sohili va sherlarini esa cholning yoshligi, kuch-qudratga to‘la bo‘lgan paytlari ramzi sifatida ko‘rish mumkin. Qayiqda tushiga kirgan dengiz cho‘chqalari esa uning xavotirlari ramzi bo‘lishi mumkin. Cholning qayiqdagi tushidagi obrazlar ketma-ketligi ham ramziy ma’noga ega: sakrayotgan dengiz cho‘chqalari, keyin qishloqdagi kulbasi va keyin yoshligi o‘tgan Afrika.		Bu safar tushiga arslonlar emas, sakkiz yoki o‘n milga cho‘zilib ketgan dengiz cho‘chqalarining hududsiz to‘dalari kirib chiqdi. Keyin tushida ko‘rsa, qishloqda o‘z karavotida yotibdi.

O‘quvchilar bu savolga javob berishda qiynalishsa, ularga yo‘naltiruvchi savollar berish mumkin: Biz odatda qachon tushlar ko‘ramiz? Tushlar muhim ahamiyatga ega qanday asarlarni o‘qigansiz, bu asarlarda tush qanday ahamiyat kasb etadi?		Va nihoyat uning tushiga cho‘ziq zardobrang sohil kirdi…
Akulalarning baliqlarga hujumini qanday izohlaysiz? Nega Santyago bu kurashda o‘zini yengilgan hisoblayapti? Mazkur parchada keltirilgan “Inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo‘lib ketaverish uchun yaratilmagan” jumlasini hayotiy misollar bilan izohlang.		Chol akulani ko‘rishi bilan uning hech narsadan qaytmasligini, xohlagan noma’qulchiligini qilishini tushundi. … baliqdan bo‘lsa yana qon oqyapti, demak, bu akula ketidan hali zamon boshqalari ham kelib qoladi … Bular – akulalar ichida eng palid, eng yaramas va eng sassiq baloxo‘rlari hisoblanardi.
Bola nima uchun yig‘layapti deb o‘ylaysiz? Bu o‘rinda Santyago (chol) va Manolin (bola) o‘rtasidagi munosabatlar samimiyligiga o‘quvchilar e’tiborini qaratish mumkin.		Cholning nafas olayotganiga o‘z ko‘zi bilan ko‘rib ishonch hosil qildi-yu, ammo nazari uning qo‘llariga tushgandan keyin yig‘lab yubordi. – E qo‘ysang-chi, mening balig‘imni! – dedi bola va yana yig‘lab yubordi.
Cholning dengizda va o‘z kulbasida ko‘rgan tushlarini solishtiring va ulardagi farqlarning sababini izohlang. Dengizda ko‘rgan tushida bir qancha obrazlar ketma-ket keladi: dengiz cho‘chqalari, o‘z kulbasi va keyin sherlar. Buni bezovtalik, xavotir o‘rnini sekin-asta xotirjamlik, o‘ziga ishonch egallashi sifatida qabul qilish mumkin. Ovdan qaytgandan keyin esa uning tushiga faqat arslonlar kiradi.		Bu safar tushiga arslonlar emas, sakkiz yoki o‘n milga cho‘zilib ketgan dengiz cho‘chqalarining hududsiz to‘dalari kirib chiqdi. Keyin tushida ko‘rsa, qishloqda o‘z karavotida yotibdi. Va nihoyat uning tushiga cho‘ziq zardobrang sohil kirdi… … Yuqorida, o‘z kulbasida, chol hamon uxlab yotardi. U yana muk tushib uxlar, bola esa yonida o‘tirib uning uyqusini ardoqlardi. Cholning tushiga arslonlar kirar edi.

3. O‘quvchilarga uyda “Chol va dengiz” filmini darslikdagi QR kodda keltirilgan havola orqali ko‘rib kelish vazifasi topshiriladi. Mazkur film 1990-yilda Buyuk Britaniya kinoijodkorlari tomonidan suratga olingan.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Mutolaadan keyingi bosqich savol va topshiriqlari asarda ilgari surilgan asosiy g‘oyani aniqlash, shuningdek, muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalaridan ko‘zlangan maqsad va ularning o‘quvchiga ta’sirini baholash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Savollarni o‘quvchilar bilan muhokama qilish jarayonida shuni nazarda tutish lozimki, asar turli xil talqinlarga imkon beradi. Misol uchun, Santyago o‘z maqsadiga erishdimi? U g‘olibmi yoki mag‘lub? Bir tarafdan, u ulkan marlinni tutdi, ikkinchi tarafdan esa, tutgan o‘ljasini qirg‘oqqa olib kela olmadi – baliq akulalarga yem bo‘ldi. Heminguey o‘z asari haqida fikr bildirar ekan, shunday degan edi: “Hech bir yaxshi asar undagi ramzlar oldindan o‘ylab topilib, mixlangan holda yaratilmagan. Men haqiqiy chol, haqiqiy bola, haqiqiy dengiz, haqiqiy baliq va haqiqiy akulalarni tasvirlashga harakat qildim. Agar men ularni yetarlicha yaxshi va haqqoniy tasvirlay olgan bo‘lsam, ular ko‘p narsani anglatishi mumkin”. Demak, o‘quvchilar bilan darslikdagi savollar va topshiriqlar yordamida asarni muhokama va tahlil qilish jarayonida asosiy maqsad uning “yagona to‘g‘ri” talqinini yaratish emas, asardagi tagma’nolarni o‘quvchilar o‘zlari uchun kashf qilishlariga yordam berish bo‘lmog‘i lozim.

Ayrim savollarga javob berishda matndagi quyidagi o‘rinlarga e’tibor qaratish tavsiya qilinadi:

Savollar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
“Chol va dengiz” qissasidan qanday g‘oya (yoki g‘oyalar)ni tushundingiz? Asarning Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?		Endi faqat bir narsa ustida bosh qotirish kerak. Gap mening nima uchun tug‘ilganim ustida boradi… Ehtimol, qayerdadir, mana bu tunets galalari bilan yonma-yon bo‘lib mening ulkan balig‘im ham daydiyotgandir. … – Ammo inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo‘lib ketaverish uchun yaratilmagan, – dedi u. – Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo‘lmaydi…
Asardan cholning portreti va qayig‘i tasviri berilgan o‘rinlarni toping. Bu o‘rinlar o‘quvchida qanday taassurot qoldiradi? Ular asar g‘oyasini tushunishga qay darajada yordam beradi?		Chol oriq va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o‘tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo‘ladigan beozor teri rakining jigarrang dog‘lari bilan qoplangan edi. Cholda nimaiki bor bo‘lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko‘zlari bundan mustasno edi. U cholning uskunalari, changak, garpun va machtaga o‘ralgan yelkanlarini tashishga yordamlashgani qirg‘oqqa kelardi. Dag‘al matodan to‘qilgan yelkan yamalaverib, ola-quroq bo‘lib ketgan, o‘rog‘liq holda yaksoni chiqqan polkning yaloviga o‘xshardi
Asardagi tabiat tasviri berilgan o‘rinlarni toping. Ularning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini matn asosida dalillang.		Chol qorong‘ida tong yaqinlashayotganini sezdi, eshkak urarkan, qulog‘iga titroq tovush chalindi – uchar-baliqlar suvdan chiqar va temirdek qanotlari bilan havoni kesib allaqayoqlarga g‘oyib bo‘lardi. Okean gohida shu qadar ham berahm bo‘lar ekan, nima uchun qushlarni mana bu dengiz qaldirg‘ochlari singari nozik va shikasta qilib yaratganlar? Qizdirgandan qizdirib borayotgan quyosh ensasini kuydirib o‘tayotganini chol sezib turardi.

Muallif asarga bola (Manolin) obrazini olib kirishdan qanday maqsadni ko‘zlagan deb o‘ylaysiz? Nega chol har gal mashaqqat ustida uni eslaydi?		U bilan qirq kun bola birga bo‘ldi. ... Ehtimol, bola undan ketgandan keyin, yolg‘iz qolgach, o‘zi bilan o‘zi gaplasha boshlagandir. ... Erta bilan bola kulbaga ko‘z tashlagani kirganda u uxlab yotardi. ... Bola kulbaga qaynoq kofe solingan bankani keltirib qo‘ydi va to chol uyg‘onmaguncha uning yonida o‘tirdi. ... – Ahamiyati yo‘q. Kecha men ikkita baliq ushlab berdim-ku. Ammo endi biz ikkovlashib baliqchilik qilamiz, chunki men hali juda ko‘p narsani o‘rganishim kerak. ...

ASAR VA UNING KINO TALQININI SOLISHTIRISH

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va jadvalni to‘ldirish vazifasini bering. Har bir guruh o‘z jadvalini sinfda taqdimot qiladi. Bunda asar va uning kino talqini o‘rtasidagi farqlar va bu farqlarning asar g‘oyasiga ta’siriga e’tibor qaratishni so‘rang.

Misol uchun, kino talqinida Santyagoning o‘tmishi haqidagi asarda mavjud bo‘lmagan tafsilotlarning berilishi mazkur obraz haqidagi tasavvurimizni o‘zgartiradimi? Asarni o‘qishda tasavvur qilganimiz Santyago kinodagi Santyagoga qay darajada o‘xshash yoki farqli? Kinoda tabiat manzaralari, dengiz qanday berilgan? Kinoga asarda mavjud bo‘lmagan ziddiyatlar (konfliktlar) kiritilganmi? Asar va kino yakunlaridagi farqqa ham o‘quvchilar e’tiborini qaratish mumkin.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Chol va dengiz” filmini tomosha qiling. Asar va uning kino talqini o‘rtasidagi asosiy farqlarni quyidagi jadval asosida daftaringizga izohlab yozing.

	Asarda	Kinoda	Nimaga xizmat qilmoqda?
Tabiat tasviri			
Chol portreti			
Ziddiyatlar (konflikt)			

LOYIHA

Tasavvur qiling, siz jurnalistsiz. Santyago dengizdan qaytib kelgandan keyin intervyu olishingiz kerak. Intervyu siz ishlaydigan gazeta (jurnal, vebsayt) o‘quvchilariga qiziq bo‘lishi uchun nimalarga e’tibor qaratasiz, Santyagoga qanday savollar berasiz?

O‘quvchilar asar qahramoniga berishi mumkin bo‘lgan savollar:

Siz maqsadingizga yetdim deb o‘ylaysizmi? Akulalarga yengilishingiz ham mumkinmidi? Nima uchun ov paytida xayolingizga yoningizda bolaning yo‘qligi kelaverdi?

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHANI O‘RGANISH: RAMZ

O‘quvchilarga ramz nimaligini tushuntiring. Ramzda bir obraz orqali boshqa bir tushuncha ifodalanishiga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Misol uchun, Manolin (bola) yosh, u cholni samimiy yaxshi ko‘radi, chol uni besh yoshligidan dengizga olib chiqqan, ko‘p narsani o‘rgatgan. Asar chol va bola bilan boshlanadi va tugaydi. Bola obrazi orqali muallif qanday tushuncha(lar)ni ifodalayotgan bo‘lishi mumkin? *(hayotning davomiyligi, avlodlar almashinuvi, kelajak, orzu-umidlar...)*

O‘quvchilarga jadvalni to‘ldirish vazifasini bering. Har bir o‘quvchi o‘z jadvalini sinfda taqdimot qiladi.

Ramziy obraz	Bu obraz orqali muallif nimani ifodalamoqchi?	Ramzning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyati

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHANI O‘RGANISH: MUALLIF USLUBI

O‘quvchilarga har bir ijodkorning o‘z uslubi bo‘lishini tushuntiring. Uslubning voqealar bayoni, obrazlar tasviri, dialoglarning ishlatilishida o‘z aksini topishiga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ernest Heminguey uslubiga xos eng muhim xususiyatlarni (realistik detallar, ortiqcha tafsilotlardan xolilik, tagma’noning kuchliligi) o‘quvchilarga ochib bering.

O‘quvchilarga asardan bir parchani tanlab, uni tahlil qilish vazifasini bering. Bu topshiriqni guruhlarda bajarish tavsiya qilinadi.

“Chol va dengiz” qissasi matnidan parcha tanlang. Ushbu parcha asosida muallif uslubiga xos xususiyatlarni tahlil qiling.



FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TABIATSHUNOSLIK

Bu mavzuda biz:
– adabiyot va san'atda hayvonlar yoki o'simliklar obrazini tadqiq qilamiz.

Har bir faslning oxirida berilgan "Fanlararo aloqa" darslari adabiyot va fanning biron sohasi yoki san'atning bir turi aloqasini ko'rsatish orqali o'quvchilarda badiiy matnni tushunish va tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur darsda o'quvchilar adabiyot va san'atda hayvonlar yoki o'simliklar obrazini tadqiq qilish orqali majoziy obrazlar haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Darsning samarali o'tishi uchun maktab kutubxonasidan o'simliklar va hayvonlar tasvirlangan ensiklopediyalarni olib kelish yoki darsni internet tarmog'iga ulanish imkoniyati bo'lgan kompyuter xonasida o'tkazish tavsiya qilinadi.

1. O'quvchilardan badiiy adabiyot va san'atda hayvonlar orqali insonlarga xos xususiyatlar aks ettirilishiga misollar keltirishni so'rang. O'quvchilar mustaqil o'qigan asarlarida (xususan, ertak va masallarda), tomosha qilgan multfilm yoki badiiy filmlarida bunday obrazlar uchragan bo'lishi mumkin. O'quvchilarning javoblarini yozuv taxtasiga qayd qiling va ular tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtiring.

Badiiy adabiyot va san'atda hayvonlar orqali insonlarga xos xususiyatlar aks ettirilganini kuzatganmisiz? Misollar keltiring.

2. O'quvchilarga "Ninachi va chumoli" masalini mustaqil o'qib, unda chumoli va ninachi obrazlari orqali insonlarga xos qanday xususiyatlar ifodalanganini topishlari uchun vaqt bering. So'ng o'quvchilarning javoblarini eshiting. Fikrlar matndan misollar bilan dalillanishiga alohida e'tibor qarating.

Masalni o'qing. Chumoli va ninachi obrazlari orqali insonlarga xos qanday xususiyatlar ifodalangan?

3. O'quvchilardan ninachi haqida nimalarni bilishlarini, masalda nima uchun aynan shunday tasvirlanganini so'rang. So'ng ensiklopediyadan olingan ma'lumot bilan tanishib chiqish va darslikda berilgan savolning javobini o'ylab ko'rish uchun vaqt ajrating. So'ng o'quvchilar fikrlarini eshiting va umumlashtiring.

Ensiklopediyadan olingan ma'lumot bilan tanishib chiqing. Ushbu ma'lumot va shaxsiy kuzatishlaringiz asosida o'ylab ko'ring-chi, ninachining qaysi xususiyatlari berilgan masaldagi obraz uchun asos bo'lib xizmat qilgan?

Ensiklopediyadan olingan matnda ninachining "mechkay"ligi, o'lja izlab katta masofani bosib o'tishi, tutganini yeb, yana o'lja qidirishiga e'tibor qarating – ularda, chumolilardan farqli ravishda, g'amlash xususiyati yo'q.

4. O‘quvchilar e’tiborini Xitoy rassomi Syan Syuan ishlagan rasmga qarating. Unda Xitoyga bostirib kirgan mo‘g‘ul istilochilari ninachilar sifatida tasvirlangan. O‘quvchilardan buning sabablari haqidagi fikrlarini so‘rang.

O‘rta asrlar Xitoy rassomi Syan Syuan o‘z yurtiga bostirib kirgan mo‘g‘ul istilochilarini o‘tloqni egallab olgan ninachilar tarzida tasvirlagan. O‘ylab ko‘ring-chi, rassom bosqinchilarni nega aynan ninachi tarzida ifodalagan?

Istilochilarning aynan ninachilar tarzida tasvirlanishiga sabab ularning yo‘lda uchraganlarni “yeb”, yana o‘lja qidirishda davom etgani bo‘lishi mumkin. Ninachilarga xos yana bir qiziq xususiyat – ba’zan ular ulkan to‘da bo‘lib harakatlanishadi. Misol uchun, 1980-yillarda Shimoliy Qozog‘istonda kuzatilgan to‘da, olimlarning hisoblashicha, 100 million ninachidan iborat bo‘lgan.

5. O‘quvchilardan masal va suratdagi ninachi obrazlaridagi o‘ziga xoslik va umumiylikni so‘rang. Fikrlarni umumlashtirib, adabiyot va san’atda mavhum tushunchalar (yaxshilik, yomonlik, dangasalik, mehnatsevarlik va hokazo) konkret obrazlar (hayvonlar, o‘simliklar, insonlar) vositasida ifodalanishi mumkinligiga e’tibor qarating.

Masalda ninachi sho‘x, beparvo, ertasini o‘ylamaydigan obraz sifatida, suratda esa o‘tloqni egallab olgan, yo‘lda uchragan o‘ljasini yeydigan bosqinchi sifatida tasvirlangan. Har ikkala holda ninachining bunday tasvirlanishiga mazkur hasharotga xos ma’lum bir xususiyatlar asos qilib olingan, deyishimiz mumkin.

6. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. Adabiyot va san’atda ko‘p qo‘llanadigan jonzot yoki o‘simliklardan birini tanlab, mazkur obraz orqali asosan qanday xususiyatlar, his-tuyg‘ular tasvirlangani haqida taqdimot qilish vazifasini bering. Bunda o‘quvchilar tanlangan o‘simlik yoki jonzot haqida ensiklopediyalarda yoki internet manbalarida berilgan ma’lumotlarni o‘rganib, uning qaysi xususiyati (yoki xususiyatlari) adabiyot va san’atdagi obraziga asos bo‘lganini ochib berishlari lozim.

TAKRORLASH

Takrorlash darslari o‘quvchilarning badiiy matnni tushunish va tahlil qilish, shuningdek, chorak davomida o‘rganilgan adabiy-nazariy tushunchalarni badiiy matn tahlilida qo‘llay olish kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. Bu darslarga 2 soat ajratish tavsiya etiladi.

Birinchi soatda o‘quvchilar darslikda berilgan topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriqlar javoblari alohida daftarda yoki darslikning tegishli betlaridan ko‘chirilgan kseronusxalarda qayd qilinishi mumkin. O‘quvchilar egallagan kompetensiyalarga obyektiv baho berish maqsadida ularning bir-birlari bilan gaplashmasliklari, sinfdoshlari yoki o‘qituvchidan yordam olmasliklarini ta’minlash tavsiya qilinadi.

Ikkinchi soatda o‘quvchilar bilan topshiriqlar javoblarini muhokama qilib, xatolar ustida ishlash mumkin.

Mazkur takrorlash darsi topshiriqlari Bahodir Murod Alining “Oqto‘sh” hikoyasidan olingan parcha va Asqad Muxtorning “Umid” she’ri asosida shakllantirilgan.

Topshiriq	*Javob*	*Izohlar*
1	B	Bostirma, undagi it, ayvon va kalishlar parchada tasvirlangan voqeaning qishloq hovlisida kechayotganiga ishora qilmoqda.
2	C	“Poyabzallar bor-yo‘g‘i to‘rtta: poylari doimo og‘ib turadigan, qo‘nji kalta etik, bog‘ichsiz ikki juft tufli va chelak yonidagi keda. Bular itga begona. Unga qarashlilari uch juft kalish. Kalishlar hozir ayvonda yo‘q. Tong-sahar tarqalishadi”. Matndan xonadon egasi uch kishi ekani (xo‘jayin, beka, qizi) va kalishlarning shu uch kishiga tegishliligi oydinlashadi.
3	A	Matndan hasharchilarning saranjomlikka rioya qilmasligi itning g‘ashiga tegishini anglash mumkin: “O‘sha kuni it qo‘nimini yo‘qotdi. Qancha oyoq kiyim ko‘paysa, itga shuncha yaxshi. Axir, uyga kirib ketganlardan qoladigan birdan bir nishona shular. Shular yolg‘izlikni bilintirmaydi. Biroq hasharchilarning poyabzallari dastlabki kunlardanoq palapartish yechiladigan, hatto ichkariga kirib ketadigan bo‘ldi. Gohida qo‘nji kalta etik bilan keda kalishlar ustiga chiqib qoladi. Bu – itning g‘ashiga tegadi”.
4	B	“Xo‘jayin avval dalaga etik kiyardi. Oyog‘i shishib ketib, kalish kiyadigan bo‘ldi. Etigi ulkan edi, qo‘nji uzun, keng edi. It kuchukligida bolalardan qochib, ana shu etik ichida necha martalab jon saqlagan. U paytlarda itning ko‘ksidagi oqi bilinmasdi. Yunglari hozirgidek tim qora emas, qizg‘ish, mushuknikidek mayin edi. Bolalar tortqilashganida yulinib ham ketardi. Dumi bilan quloqlari bus-butun edi”.
5	C	“Lekin baxt o‘tkinchi, Umid – abadiy... ... Boboning ko‘zida umid yaltirar, Ko‘chatni ko‘tarib shoshib boradi”.
6	B	*Namgarchilik, xazon biqsib, zirqiraydi eski yaralar* – mazkur so‘zlar va so‘z birikmalari tushkunlik kayfiyatini hosil qilmoqda (o‘quvchilar bu so‘zlardan istalgan ikkitasini yozishlari mumkin).
7	B, D	Berilgan misralarda metafora va jonlantirish qo‘llangan *(hayot dengizi ... ming-ming iplar bilan bog‘lar seni)*.
8	Bobo – yosh ko‘chat; qish – bahor; baxt o‘tkinchi – umid abadiy.	
9	C	Ertangi kunga, avlodlar yangilanishiga bo‘lgan umid. “Keksa qo‘llardagi mana shu daraxt – Ertaga kimningdir toleyi kabi”.



MAVZULAR USTIDA ISHLASH BO‘YICHA TAVSIYALAR

2-fasl.
KO‘ZIM QAROG‘IDASAN, OTAYURT!

Muhammad Ali. “Gumbazdagi nur”
Hamza. “Jonlarni jononi Vatan”
Sirojiddin Sayyid. “Vatanni o‘rganish”
Nabi Jaloliddin. “Ota”
Sergey Yesenin.
“Shahinam, o, mening Shahinam…”
Rasul Hamzatov.
“Qushqanotli, hoy karvon…”

Adabiy tushunchalar:
– doston
– barmoq tizimi

Fanlararo aloqa:
adabiyot va musiqa



MUHAMMAD ALI.
“GUMBAZDAGI NUR”

Bu mavzuda biz:
– “Gumbazdagi nur” dostonida ilgari surilgan g‘oyalarni tahlil qilamiz;
– doston janri haqida bilib olamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (muallif bilan tanishish, “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Asar matni bilan ishlashni boshlash	1 soat
Asar matni bilan ishlashni davom ettirish	1 soat
Mutolaadan keyingi bosqich savol va topshiriqlari bilan ishlash, adabiyot nazariyasiga oid tushunchani (doston) o‘rganish	1 soat

KIRISH


1. O‘quvchilarga Muhammad Alining “Gumbazdagi nur” dostonini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting. Bu muallif haqida oldin eshitganlari yoki uning biron-bir asarini mutolaa qilganlari haqida so‘rang.

2. Muallif haqida o‘quvchilarga ma’lumot bering. Muallifning hayoti va faoliyatiga oid qaysi ma’lumot ularning e’tiborini tortganini so‘rang.

3. O‘quvchilar e’tiborini “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi inshootlar suratlariga qarating. Bu inshootlar qayerda joylashganini, ularni kim qurganini so‘rang.

ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ

Siz bilan Muhammad Alining “Gumbazdagi nur” dostonini mutolaa qilamiz. Unda vatanimizdagi ayrim mashhur inshootlarning qurilishi tarixi, mashaqqatlari, millatimizning buyuk siymolari haqida hikoya qilinadi.



Rasmlardagi inshootlarga e’tibor bering. Ular qayerda joylashgan? Ularni kim qurganini bilasizmi? Agar sizga o‘z shahringiz uchun imorat qurish imkoniyati berilsa, nima qurgan bo‘lardingiz?

Birinchi inshoot: Go‘ri Amir maqbarasi, Samarqandda joylashgan, Amir Temur buyurug‘iga binoan bevaqt vafot etgan suyukli nevarasi, valiahd (taxt vorisi) Muhammad Sulton uchun qurilgan. Keyinchalik bu maqbaraga Amir Temur, uning o‘g‘illari va nevaralari, shuningdek, ustozi Mir Said Baraka dafn etilgan.

Ikkinchi inshoot: Farhod gidroelektr stansiyasi (GES), Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan. Qurilishi 1943-yilda umumxalq hashari bilan boshlangan.

Uchinchi inshoot: Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri, Toshkentda joylashgan. 1940–1947-yillarda qurilgan. Bino bezaklarida O‘zbekistonning turli viloyatlari me’morchilik maktabiga xos uslublarni ko‘rish mumkin.

Agar o‘quvchilar mazkur inshootlar haqida ma’lumotga ega bo‘lmasalar, o‘qituvchi ular haqida qisqa ma’lumot berib, “Gumbazdagi nur” asarida bu inshootlar haqida ham so‘z ketishini aytishi mumkin.

4. O‘quvchilarni juftliklarga yoki kichik guruhlarga bo‘ling va “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi ikkinchi savol (Agar sizga o‘z shahringiz uchun imorat qurish imkoniyati berilsa, nima qurgan bo‘lardingiz?) ustida ishlashni topshiring. O‘quvchilar o‘z tasavvurlaridagi imorat suratini chizib, bu imorat qanday maqsadga xizmat qilishi, o‘z shahar yoki qishloqlarining qayerida barpo etilishi va nima uchun aynan shu imorat tanlangani haqida taqdimot qilishlari mumkin.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Asar matniga havola

Izoh: darslikda doston matni qisqartirib berilgan. Asarning to‘liq matni bilan Muhammad Alining “Saylanma”si orqali tanishishingiz mumkin.

Matbuotda e’lon qilingan suhbatlarda muallif asarning yozilishi haqida shunday eslaydi:

“1967-yilda yozilgan “Gumbazdagi nur” dostonimda xalqimizning mehnatini, uning bunyodkor, quruvchi ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘ldim. Vosita qilib Samarqanddagi Amir Temur maqbarasi qurilishi tarixi olindi. Yoritish asnosida dostonga Amir Temur obrazi ham tabiiy ravishda kirib keldi va to‘siqqa uchramadi. Shu bilan qahramonimiz taqdirini ham ko‘rsatish imkoni yaratildi. “Tarix tilga kiradi bir kun, Buguncha men aytay bilganim” satrlari ko‘p takrorlangan edi dostonda. “Yana keldim, ey Tarix bobo, Yana senga da’vo qilurman. O‘z haqqimni qilmoqni da’vo, Haqiqatning yo‘li bilurman!” satrlari dostonning leytmotivini yaqqol ko‘rsatib turardi. Lekin o‘z haqimizni da’vo qilishga qo‘ymasdilar. Bu paytlar tarixiy asar yozgan adib “o‘tmishni ideallashtiryapti” deb ayblanadigan, tarixni badiiy yoritish ochiqdan ochiq qoralanadigan zamonlar edi. Oybekning “Navoiy”, keyinroq Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy romanlari taqdiri bunga misoldir. Akademik Ibrohim Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida o‘rni va roli” risolasini ham eslab o‘tish joiz.

Shunisi g‘aroyibki, “Sharq yulduzi” jurnalining 1968-yil 11-sonida e’lon qilingan “Gumbazdagi nur” dostonida Oktyabrning “o”, Leninning “l” harfi ham yo‘q ekan! Menimcha, dostonning mazmun-mohiyati, badiiy haqiqat buni talab etmagan, mezonga sig‘dirolmagan ko‘rinadi”.

(“Yoshlik” jurnalining 2011-yil 7-sonidan)

“Talabalik yillarimda bir rus yozuvchisining “Ustalar” dostoni mashhur bo‘lib og‘izdan og‘izga o‘tib yurar edi. Men ham undan ruhlanib “Gumbazdagi nur” dostonini yozgandim. Qarangki, o‘sha davrda ustozlar tomonidan yaxshi kutib olindi. Iliq munosabatlar

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

esa meni yana va yana yozishga undagan. Rosti, o‘sha davrda Sohibqiron haqida asar yozish, uni to‘g‘ri talqin qilish juda qiyin ish edi. Shu davrlarda bobomiz tilidan yozilgan to‘rtligim yodimga tushib ketdi:

Ey muarrix, etma umrni taroz,
Bas, bunday gaplarga emasman muhtoj.
Tori uzilsa ham, soz atalar soz,
Boshdan tushganda ham, toj atalur toj.

O‘sha davr ziddiyatli zamonlarida alam bilan yozilgan to‘rtlik.

... Yana bir narsadan faxrlanaman – “Gumbazdagi nur” dostoni 1967-yil, o‘sha oktyabr to‘ntarilishining 50 yillik yubileyi vaqtida chop etilgan. O‘sha davrni ko‘rgan kishilar yaxshi bilishadi. Shu damda nima chop etilsa, “oktyabr” so‘zi yoki “Lenin” ismi bo‘lishi kerak edi. Hatto fabrikalarda sovun, gugurt ishlab chiqarilsa ham, tepasida 50 raqami bo‘lar edi. So‘zga e’tiqodim bor, o‘zim shu narsalardan g‘ururlanaman, o‘sha dostonimda na oktyabr, na Lenin ismi bor”.

(O‘zA, 2018-yil)

Asarni o‘qish davomida o‘quvchilar bilan I–II bo‘limlar oxirida muhokama uchun va III–IX bo‘limlarda matn orasida berilgan savollar ustida ishlang.

Savollar		*O‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar va izohlar*
Bolani qanday tasavvur qildingiz? Nega doston “mittigina bola”ning ulkan binolar haqidagi hayratlari, qiziq xayollari bilan boshlangan? Nega bu xayollar Go‘ri Amir oldida turganida paydo bo‘ldi?		– Sodda, qiziquvchan, ishonuvchan; – o‘qituvchisi o‘tmishni doim yomonlagan, ajdodlarimizni qoloq insonlar sifatida tasvirlagan, shuning uchun bola bu muhtasham imoratni ajdodlar qanday qurganidan hayratda. *Parchadagi kontrastlarga (“mitti bola – ulkan bino”, “tiriklar – qabr” va “o‘tmish – hozir”) o‘quvchilar e’tiborini qarating.*
Keltirilgan parchada qaysi davrdagi Samarqand haqida gapirilmoqda? Qaysi badiiy tasvir vositalari o‘quvchiga Samarqandni yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi?		Parchada Amir Temur davridagi Samarqand tasvirlangan. *Tasvirdagi sifatlashlar, o‘xshatishlar va jonlantirishlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating.*
Amir Temur me’morlarni nima maqsadda chorladi? Nega u nabirasi uchun quriladigan daxmaning shohona bo‘lishini istamoqda?		Amir Temur suyukli nevarasi, saltanat valiahdi Muhammad Sulton sharafiga maqbara qurdirmoqchi, suyukli nabirasiga shohona daxma qurdirishga Amir Temur xazinasi bemalol yetadi.
Nega shoir har bir me’morning vazifasiga alohida-alohida to‘xtalmoqda? Nega ularni turli joylar vakillari sifatida tasvirlamoqda?		Go‘ri Amir singari durdonalarni bir kishi emas, mamlakatning turli burchaklaridan yig‘ilgan, o‘z ishiga usta xalq vakillari yaratgan.

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollarini muhokama qilishda ham o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashiga, o‘z xulosasini matn, hayotiy tajribasi va boshqa fanlardan olgan bilimlari asosida dalillay olishiga alohida e’tibor qarating.

Doston matni bilan ishlashda Amir Temurga xos qarama-qarshi xususiyatlar (“jang-jadal deb tug‘ilgan inson” – “me’morlikka mehring tushmagi”, “qahr-u gumonlar aro guldan nozik ko‘ngil yashaydir”), turli davrlarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari (Katta Farg‘ona kanali, Farhod GES, Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri, 1966-yil zilzilasidan keyin Toshkentning tiklanishi), Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari buyuk ajdodlarimizning tilga olinishi sabablariga, shuningdek, asar yozilgan davrda tariximizga bo‘lgan munosabatga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
“Gumbazdagi nur” dostonida qanday g‘oya (yoki g‘oyalar) ilgari surilgan? Gumbazdagi nur nimaning yoki kimning ramzi deb o‘ylaysiz? Amir Temur, Boyazid, Mirzo Ulug‘bek kabi tarixiy obrazlar hamda mo‘ysafid, bola kabi zamonaviy timsollar asar g‘oyasini ochishda qanday ahamiyat kasb etmoqda? Fikringizni matn asosida dalillang. Sizningcha, dostonning qaysi bobi asar umumiy g‘oyasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda? Nega?		asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyalarini aniqlash
Tarix, ulkan inshootlar, o‘n ikki me’mor haqida so‘ylayotgan shoirning bir paytning o‘zida ham shod bo‘lishi va ham g‘amgin kulishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz? Fikringizni dalillang. Dostonning “Yur, ukam, qani, yur! Oldinda xayollar... Ortda maqbara...” kabi satrlar bilan tugashida qanday mazmun yashiringan? “Oftobni yamlayotgan” ufqda yana qanday “zavollar”, “savollar” bo‘lishi mumkin?		asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘ash, asardan xulosalar chiqarish va bu xulosalarini asoslab berish, asarda qo‘llangan badiiy tasvir va ifoda vositalaridan ko‘zlangan maqsadni hamda ularning o‘quvchiga ta’sirini aniqlash.

Mutolaadan keyingi ijodiy ish uyga vazifa sifatida beriladi.

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHANI O‘RGANISH: DOSTON

O‘quvchilarga doston haqida qisqacha ma’lumot bering. O‘quvchilar yuqori sinflarda doston janri (to‘g‘rirog‘i, “doston” nomi bilan yuritiladigan turli janrlar) bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirishlarini inobatga olib, bu sinfda faqat poemaga xos xususiyatlarga to‘xtalish tavsiya qilinadi. “Gumbazdagi nur”da dostonga xos xususiyatlarni topishni so‘rang.

HAMZA. “JONLARNI JONONI VATAN”
SIROJIDDIN SAYYID. “VATANNI O‘RGANISH”

Bu mavzuda biz:
– “Jonlarni jononi Vatan” va “Vatanni o‘rganish” she’rlarini qiyoslaymiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**2 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (mualliflar bilan tanishish, “Mutolaaga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Jonlarning jononi Vatan” she’rini o‘qib, tahlil qilish	1 soat
Sirojiddin Sayyidning “Vatanni o‘rganish” she’rini o‘qib tahlil qilish va Hamza she’rlari bilan qiyoslab o‘rganish	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Hamza va Sirojiddin Sayyidning vatan haqidagi she’rlarini qiyoslab tahlil qilishingizni ayting.

2. “Mualliflar bilan tanishamiz” ruknidagi har ikki ijodkorning tarjimayi holini o‘qib bering yoki o‘quvchilar mustaqil o‘qib chiqishlari uchun vaqt ajrating. O‘quvchilarga Hamza va Sirojiddin Sayyid faoliyati, ijodidagi yetakchi mavzular haqida tushunchalarga ega bo‘lishga yordam beradigan savollar bilan murojaat qiling.

Namunaviy savollar va javoblar		*Matn bilan ishlash va tavsiyalar*
Siz do‘stingiz yoki kichik uka-singillaringizga ta’lim olishlarida ko‘maklashganmisiz? O‘sha paytda ruhiyatingizda qanday o‘zgarishlar bo‘lgan? *Shu xotira asosida Hamzaning yoshlarni savodli qilishni eng muhim vazifalaridan biri deb bilganini tushuntirishga harakat qiling. Hamza nima uchun aynan nochor oila farzandlarini savodli qilishga intilgan deb o‘ylaysiz?*		Siz ta’lim berish jarayonida his qiladigan baxtingizni o‘quvchilar bilan bo‘lishishingiz, ularga Hamza yashagan davrda yaxlit ta’lim tizimining mavjud bo‘lmagangi, ta’lim beruvchilar pullik xizmat ko‘rsatgani bois, bolalar, ayniqsa, qizlar o‘qish – yozishni bilmay, savodsiz holda ulg‘aygani haqida faktik ma’lumotlar berishingiz mumkin.
Milliy ruh biror millatning, xalqning o‘ziga xos bo‘lgan, uning xususiyatlarini ifodalovchi kayfiyati hisoblanadi. Qaysi ma’lumotlar asosida Sirojiddin Sayyid ijodida milliy ruh ustuvor, degan fikrni aytishimiz mumkin?		Bolaligida eshitgan matallar, dostonlar, ertak va afsonalar, ayniqsa, onasi aytib bergan xalq qo‘shiqlari unda adabiyotga mehr-muhabbat uyg‘otdi.

		Yuqorida aytib o‘tilgan janrlarda millatimizga xos bo‘lgan hayot tarzi, milliy xarakterlar, qadimdan shakllanib kelgan an’analar, urf-odatlar o‘z aksini topadi.
Vatanparvar bu – vatanini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi deganidir. O‘ylab ko‘ring-chi, Hamza va Sirojiddin Sayyidni siz tanishgan matn asosida vatanparvar shaxslar deb tasavvur qilish mumkinmi?		Ha, chunki Hamza xalq bolalarini savodli qilish uchun maktablar ochib, u yerda o‘zi dars berdi, shuningdek, vatanimiz taraqqiyotiga turtki beruvchi ishlarni amalga oshirdi, ya’ni musiqa, rejissyura jurnalistika, pedagogika, adabiyot, ilm-fan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Ha, chunki Sirojiddin Sayyid aynan milliy ruh ustuvor bo‘lgan asarlar tufayli adabiyotga mehr qo‘ydi. Bu uning xalqimizni, Vatanimizni sevishini ko‘rsatuvchi dalil bo‘la olishi mumkin.
“Vatanparvar” so‘zini qanday tushunasiz? O‘zingizda vatanparvarlik xususiyatlari bor deb o‘ylaysizmi?		O‘quvchilar javobga qiynalsa, quyidagicha yo‘l tutishingiz mumkin: Vatan bu – xalqdir. Bir kishiga bo‘lsa ham, astoydil yordam berishni vatanparvarlik belgisi desa bo‘ladi. O‘quvchilardan shu ta’rifga e’tibor qaratishini va hayotda kimgadir chin dildan yordam berganlari haqida eslashlarini so‘rang (javob berishlari shart emas). Agar ular o‘zlarida vatanparvarlik sifatini topishsa, bu shoirlar va ular orasidagi tutash nuqta ekanini eslating.

3. “Mutolaaga tayyorlanamiz” ruknida “Vatan” deganda ko‘z oldilariga kim yoki nima (tug‘ilib o‘sgan uyi, ko‘chasi, mahallasi, qishlog‘i, shahri, ota-onasi, oilasi, do‘stlari...) kelishini, uni tasvirlab berishni, nima uchun Vatanni shunday tasavvur qilishlarini so‘rang.

Siz Vatanni qanday tasavvur qilasiz? Vatan siz uchun kim yoki nima?

O‘quvchilarga quyidagi ko‘rinishdagi jadval tarqating. O‘quvchilar vatanparvarlik nima ekanini tushunishsa, Vatanni teranroq anglay olishadi. Jadvallarni ko‘rib chiqing, sizga original bo‘lib ko‘ringan javoblarni o‘qiting va rag‘batlantiring.

Vatan men uchun ...	**Sababi**	**Vatanparvar**	**Sababi**
Oilam / qishlog‘im / maktabim...	Men oilam bag‘rida yashayman	Otam / onam / men / ustozim	Otam bizni o‘stirish uchun tinmay mehnat qiladi va bizga doim: “El-yurtga, qarindosh-urug‘ga foydasi tegadigan inson bo‘linglar”, deydi.

O‘zbekiston	Men O‘zbekistonda tug‘ilganman	Men / tanish insonlar / olimlar / tarixiy shaxslar ...	Akam o‘rmon xo‘jaligida ishlaydi, xalqimiz toza havodan nafas olishi uchun yangi o‘rmonlar o‘stiradi.

SHE’RLARNI MUTOLAA VA TAHLIL QILISH

Birinchi soat

1. She’rning avval o‘zingiz, so‘ng nisbatan uyatchan o‘quvchilaringiz tayyorlagan audio variantini qo‘yib eshittiring. Audio variantni tayyorlab kelishni oldindan topshiriq qilib berish o‘rinli, chunki matn biroz qiyin, o‘quvchi yozib olish jarayonida matn bilan qayta-qayta ishlaydi va she’r mazmuni haqidagi tasavvurga qisman ega bo‘ladi.

2. Sinfni to‘rt kishilik guruhlarga ajrating. Ularga she’rning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lgan yozma shaklini yaratishni topshiring. Naqarotning yozma shaklini o‘zingiz doskaga yozib bering, guruhlar yetti baytning dastlabki ikki misrasini yozma shaklga o‘tkazishadi. Birinchi guruhga birinchi bayt tartibida o‘qiting, yozma bayonning boshqa guruhlarnikiga mos ekanini kuzatib borishlarini so‘rang. Farqlilik kuzatilsa, to‘g‘ri variantni tanlash uchun yo‘nalish bering.

3. O‘quvchilarga Rossiya istilosi haqida qisqa ma’lumot bering. Mavjud guruhlar bilan ishlashda davom eting, tarix darslaridan, tarixiy filmlardan olgan saboqlari asosida vatanning mustamlaka holiga tushishiga sabab bo‘ladigan omillarni zanjir sifatida yozishini so‘rang, asar matnidan uning aksini aniqlating. Guruhlarga “Muhokama qilamiz” ruknidagi savollarni bo‘lib bering, bajarilgan ishlar muhokamani chuqurroq, teranroq amalga oshirish uchun qilinganini tushuntiring. Mantiqiy dalillar va javoblarga ega bo‘lgan guruhlarni yuqori baholang, avvalgi topshiriqlardagi natijalarni ham inobatga oling.

O‘quvchilarga darslikning “Mustaqil mutolaa va tahlil uchun” qismida berilgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Qalam” va Sirojiddin Sayyidning “Mensiz yasholmaydi” she’rlarini quyidagi jadval asosida taqqoslash topshiriladi. Shakl so‘ralgan qismda o‘quvchi band, kupletning farqini, qofiyadosh so‘zlarni aniqlay olsa, jadvalga kiritishi mumkin.

	Hamza Hakimzoda Niyoziy “Qalam”	Sirojiddin Sayyid “Mensiz yasholmaydi”
She’rning asosiy g‘oyasi		
Bu g‘oyalarni ochib berishda ishlatilgan kalit so‘zlar va obrazlar		
Badiiy tasvir vositalari		

Ikkinchi soat

Darsning ikkinchi soatida Sirojiddin Sayyidning “Vatanni o‘rganish” she’rini o‘qib tahlil qilishingiz va dars jarayonida she’rlarni qiyoslashingizni ayting.

She’rning tashabbuskor o‘quvchilaringiz tayyorlab kelgan video variantini qo‘yib bering. Sinfni guruhlarga ajrating. Faol o‘quvchilaringizni ekspertlar guruhi etib tayinlang. Guruhlar she’rning o‘ziga topshirilgan bandiga sarlavha qo‘yadi yoki bandning asosiy

g‘oyasini bir gap bilan ifodalaydi. Ekspertlar guruhlarning sarlavhalariga yoki javoblariga o‘z munosabatini bildiradi. Guruhlar va ekspertlar ishini kuzatib, lozim o‘rinlarda yo‘nalish yoki tavsiyalaringizni bering.

So‘ngra darslikdagi savollarni muhokama qiling.

Muhokama asosida she’rning mazmuni anglashilgach, guruhlarga o‘zlari sarlavha qo‘ygan bandni shu sarlavhaga mos tarzda yozma shaklda qayta yaratishni topshiring. Gap konstruksiyalari va tasvir vositalari (o‘xshatishlar, ramzlar) she’r matnidan farqli bo‘lishi kerak. Yaratiqlarni eshiting.

Birinchi jadvalni mulohaza uchun taqdim eting.

	Shoirlarning hayot yo‘lidagi farqlar	She’rlardagi kayfiyatda farqlar
Hamza	Mustamlaka davrida yashadi	Achinish, qayg‘urish kayfiyati ustun
Sirojiddin Sayyid	Mustaqillik havosidan nafas oldi. Ikki davrni (mustamlaka va mustaqillik) ko‘rdi va solishtira oldi.	Vatanning borligini his qilish va Vatanga yaqinlik ruhi ustun

Ikkinchi jadval asosida o‘quvchilar she’rlarni yakka tartibda og‘zaki yoki yozma qiyoslaydilar.

	“Jonlarni jononi Vatan” va “Vatanni o‘rganish” – o‘xshash jihatlar	“Jonlarni jononi Vatan” va “Vatanni o‘rganish” – farqli jihatlar
She’rning asosiy g‘oyasi		
Sarlavhaning she’r g‘oyasini ochishdagi ahamiyati		
She’rdagi kalit so‘zlar, obrazlar		
She’rning badiiy xususiyatlari		

Yakuniy fikrni bering yoki mantiqiy asoslarga ega javoblarni e’tirof eting. Quyidagi talqinlarni e’tiborga oling.

Jonning mahbubasi qalbning tubida saqlanadi. U – jon ichidagi jon. Bu jon – Vatandir. Nega Vatan qalbga yashirildi, chunki uni oshkor etish “Jonlarni jononi Vatan” yaratilgan zamonda muallif fojiasiga sabab bo‘lishi mumkin edi. Shunday bo‘lsa-da, shoir uni tilidan qo‘ymaydi, u uchun kurasha olmaganidan nadomat chekadi. Vatanini yotlarga berganlarni aybsitadi. O‘zini-da gunohkor his etadi. Gunohini yuvish uchun shoir o‘z faoliyatida xalqning saviyasini ko‘tarishga, shu asosda mustaqil davlat qura oladigan mustaqil fikrlilarni yaratishga urinadi.

“Vatanni o‘rganish” she’rida Vatan tadqiq etiladi. Biror tushuncha noma’lum bo‘lganda u o‘rganiladi. Demak, Vatan lirik qahramon uchun notanish edimi? Mustamlakadan qutulib, yangidan bunyod bo‘lganida Vatanni o‘rganish ehtiyoji tug‘ildimi yoki Vatan shu Vatanning bag‘rida o‘sgan katta-kichik farzand uchun balandparvoz, mavjud bo‘lmagan

tushunchaga aylanib qolmoqdami? Shunday bo‘lsa, bunga sabab nimada? Vaholanki, Hamza dilini tubida saqlagan Vatan hayot yuzini ko‘rdi, ammo biz unga, mahallaga, qo‘shnichilikka, qarindoshchilikka va endilikda oilaga ham bepisandmiz. Balki shu sababli shoir Vatanni o‘rganish zarurligini bizga eslatmoqchidek. Shoir tadqiqoti Vatanning har makoni, har zarrasi, har insoni Vatanligini, ularning bari bir butun Vatan ekanini ko‘rsatadi. Shoir o‘zi ham Vatanning bir bo‘lagi ekanini his etadi va bu hisni o‘quvchiga ham tuydirishga harakat qiladi.

O‘quvchilar Hamzaning “Salom ayting” va Sirojiddin Sayyidning “Onamning kalishlari” she’rlarini uyda o‘qib, har ikki she’rning g‘oyasi va badiiy xususiyatlarini solishtiradilar.

Mutolaadan keyingi bosqichdagi ijodiy ishni ham uyga vazifa qilib bering. O‘quvchilar ishga reja asosida yondashsinlar. Esseni yozib bo‘lgach, ota-onasi yoki boshqa qarindoshlaridan uni ko‘rib chiqishini so‘rasin, ularning esseda aytilgan fikrlarga munosabatini audio, video yoki yozma shaklda sizga taqdim etsin. Keyingi darsda ishlarni partadoshlar bilan almashtirib o‘qishlarini va ish haqida fikr bildirishini so‘rang. Ikki “taqriz” asosida esseni baholang, bunda ishning taqrizchiga fikriy va emotsional ta’sir eta olganiga e’tibor qarating. O‘quvchining oila a’zolariga, do‘stlariga va o‘zlariga minnatdorchilik bildiring, original fikrlar aks etgan esse mualliflarini rag‘batlantiring.

IJODIY ISH

“Vatan mening nigohimda” mavzusida esse yozing. Quyidagi rejaga tayaning:

– “Vatan” deganda ko‘z o‘ngingizda birinchi bo‘lib kim yoki nima gavdalanadi?

– Bu obraz va Vatan o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

– Bu obraz bilan bog‘liq eng yorqin xotirangiz.



“O‘rik gulladi”. Rassom Dilorom Mamedova ishlagan surat (2017-yil)

NABI JALOLIDDIN. “OTA”

Bu mavzuda biz:
– hikoyada ochiq aytilgan va aytilmagan g‘oyalarni tahlil qilamiz;
– badiiy asarda zidlantirishga doir bilimlarimizni mustahkamlaymiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (muallif bilan tanishish, “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Asar matni bilan ishlashni boshlash	1 soat
Asar matni bilan ishlashni davom ettirish	1 soat
Mutolaadan keyingi bosqich savol va topshiriqlari bilan ishlash, loyiha taqdimoti	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Nabi Jaloliddinning “Ota” hikoyasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknidagi ma’lumotlarni berish jarayonida yozuvchi hayotidagi eng muhim nuqtalarga, ijodkor bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillarga ahamiyat qarating.

3. Asar sarlavhasidan kelib chiqib o‘quvchilarning ota haqidagi fikrlarini bilishga harakat qiling va ularning qarashlarini umumlashtirib, asarni tushunishga tayyorlang. Bunda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

4. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savollar bilan murojaat qiling.

Otalar obrazi ishtirok etgan qanday asarlarni o‘qigansiz yoki tomosha qilgansiz? Bu asarlarda otalar qanday tasvirlangan?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar o‘zlari bilgan, otalar obrazi ishtirok etgan asarlarni eslaydilar. Bunda oldin savolning birinchi qismiga *(Otalar obrazi ishtirok etgan qanday asarlarni o‘qigansiz yoki tomosha qilgansiz?)*, keyin esa ikkinchi qismiga *(Bu asarlarda otalar qanday tasvirlangan?)* e’tibor qarating. O‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish maqsadida ularni sinf taxtasida o‘zingiz qayd qilib borishingiz yoki buning uchun o‘quvchilardan birini ko‘ngilli sifatida jalb qilishingiz mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, ota obrazi ishtirok etgan bir asarni tanlab, mazkur asardagi ota obrazi haqida qisqa og‘zaki taqdimot qilish vazifasini berish mumkin. Agar ayrim o‘quvchilar ota haqida kitob o‘qimagan yoki kino ko‘rmagan bo‘lsa, ulardan o‘z otasi haqida fikr bildirishni so‘rash mumkin.

5. Ikkinchi topshiriqda esa mashhur golland rassomi Vinsent Van Gog (XIX asrning ikkinchi yarmi) ishlagan “Ilk qadamlar” surati berilgan. O‘quvchilardan surat asosida savollarga javob berishni so‘rang. Aynan shu qismda ularning ijodkorligini oshirish maqsadida “Mening otam” mavzusida rasm chizish yoki kichik esse yozishni uyga topshiriq sifatida berishingiz mumkin.



Ushbu rasmda qanday manzara tasvirlangan? Farzandning hayotdagi qadamlarida otaning o‘rni qanday? Otalarning oila, jamiyat, millat hayotidagi ahamiyati nimada? Misollar keltiring.

“Ilk qadamlar”. Mashhur golland rassomi Vinsent Van Gog ishlagan surat

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

“Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarda matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asardagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Hikoyada kim haqida gap ketmoqda? Nega u bolaligidagi xotiralarni esladi? Ushbu parchada bolalik va keksalikka xos xususiyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar nimaga xizmat qilmoqda? *– Inson keksayganda bolaligini sog‘inib eslaydi;* *– yoshlikning qadriga yetmaganidan afsuslanadi.*		Hov naridagi ko‘prik ustida qiy-chuv qilib o‘ynayotgan bolalarning ovozi xayolini bo‘ldi. Daryo uzra yo‘l solgan bu ko‘prik uning bolalik paytlarida hali qurilmagandi, odamlar-u ot-ulovlar kechuvdan o‘tishardi. Yillarning shitobini qarangki, qirq yilning nari-berisida qurilgan mana shu ko‘prik ham go‘yo azaldan bor bo‘lganday tuyuladi. Tinmay qiyqirayotgan anovi tirmizaklar bu haqda o‘ylab ham o‘tirishmaydi, ularga o‘yin topilib tursa bas. Nima, sen bola bo‘lmaganmisan, deya yandi o‘zini o‘zi, o‘ynamaganmisan? O‘ynagandayam barchani besaranjom qilib o‘ynarding – sho‘x eding-da.
Chol, kampir va ularning farzandlari sizda qanday tasavvur uyg‘otdi?		U so‘ritok ostidagi ulkan so‘rining bir chetiga kelib o‘tirdi. U yoq-bu yoqqa qarab, kalta oqish-kulrang soqolini siladi. Shunday katta dargohda hech kim qolmadimi, nima balo?.. Zum o‘tmay, chetroqdagi uydan kampiri chiqib keldi. – Nimcha hammayoq huvullab ketibdi? Churvaqalaring qani? – dedi u kampiri yoniga yetib kelmasidan, go‘yo hozir bolalarning shovqin-suroni bo‘lmasa nafasi qisib qoladiganday betoqatlanib. Kampiri ham kelib, so‘riga o‘tirdi. – Ikkita tirmizagingiz ko‘chada o‘ynayapti. Kelin jijisiminan uyda, ish tikyapti, – derkan yuziga yarashiqli jilmaydi.

		Uning yetti o‘g‘il, bir qizi bor. Eng kenjasi qiz. Hamidullo degani oltinchi o‘g‘li. O‘zi haydovchi, kirakashlik qiladi.. To‘ng‘ich o‘g‘li mana shu xo‘jalikda rais, ota kasbini qilib, yer bilan oshno tutindi. Ikkinchi o‘g‘li katta odam – vazir, Toshkentda yashaydi. Keyingi ikki o‘g‘li – muallim. (Ularning biri maktab direktori.) Undan keyingisi gazetada ishlaydi – jurnalist. Kenjasi bo‘lsa, g‘irt bekorchi, otasi olib bergan mashinada ko‘cha kezgani-kezgan.
Ota va o‘g‘il o‘rtasidagi munosabatlarga qanday baho berasiz? Fikringizni matn asosida dalillang. *– O‘g‘li noto‘g‘ri ish qilgan bo‘lsa ham otasi unga muloyimlik bilan munosabatda bo‘ldi;* *– o‘g‘il qilgan ishidan pushaymon, otaning yuziga tik qarolmay, uning savollariga faqat imo-ishoralar bilangina javob qaytarmoqda.*		Chol nevaralarining yetovida mayda qadamlab darvozaxonadan kirib borarkan, peshvoz chiqqan Hamidullo bilan ko‘rishdi. – Bormisan-e, bolam? Nima, bu bizikida ko‘rinmay ketding? O‘g‘il yuz-ko‘z-u boshi bilan qandaydir ishoralar qildi-yu, ammo biron so‘z aytolmadi. U otasiga ham hadik bilan, ham xijolatli mo‘ltirab qo‘yardi. So‘riga o‘tirdilar. Uydan so‘lg‘in qiyofadagi kelini chiqib kelib, ko‘rishdi. Yuzlariga fotiha tortdilar. – Tinchlikmi, o‘g‘lim? – deya so‘z boshladi chol birpas jim turgach muloyim ovozda.
Nega chol faqat o‘g‘liga tanbeh berish bilan chegaralandi? *– Chunki xato o‘g‘lidan o‘tgandi;* *– aslida xato kelindan ham o‘tgandi, ammo u birovning farzandi bo‘lgani uchun ozor berishni istamadi;* *– o‘g‘liga berilgan tanbehdan kelinining xulosa chiqarishini bildi, chunki otada katta hayot tajribasi bor edi.* Otaning farzandlar oldida janjallashish noma’qul, deyishi sabablarini qanday izohlaysiz? *– Urush-janjal bo‘ladigan uylarda ulg‘aygan bolalar jahldor, qo‘rqoq, mehrsiz bo‘lib qoladilar;* *– qush uyasida ko‘rganini qiladi.*		– Unda urishmaynar. Xudoga shukur deb yashaynar. Bo‘lmasa, uyinardan baraka qochadi. – O‘g‘lim, yana bir marta xotiningga qo‘l ko‘tarsang, men sendan qattiq ranjiyman, bo‘ptimi? …Ayniqsa, manovilarning oldida. – U ikki yonboshida yuz-qo‘llarini shilta qilib, konfet so‘rayotgan nevaralariga ishora qildi.

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollariga javob berishda ham o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir fikr matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va darslikdagi loyihani uyga vazifa qilib bering. Keyingi darsda loyiha bo‘yicha ularning taqdimotlari tinglanadi.

LOYIHA

Guruhlarda ishlang. Oilangiz yoki mahallangizdagi yoshi ulug‘ bobolarning biridan intervyu oling. Intervyu asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Yoshlarga maslahati	Bunday maslahat berishining sababi	Hayotidan misol

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
“Ota” hikoyasida qanday g‘oya ilgari surilmoqda? Sizningcha, asar nima uchun “Ota” deb nomlangan?		asarning asosiy g‘oyasini aniqlash
Sizningcha, asarning qaysi o‘rinlarida otalarga xos xususiyatlar yaxshi ochib berilgan? Qaysi o‘rinlarda esa ota obrazini yanada kuchaytirish mumkin edi? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.		obrazlarga baho berish
Asarning boshi hamda so‘ngidagi keksalik va bolalik, chol va bola, o‘lim va hayot kabi qarama-qarshi tushunchalarning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini matn asosida dalillang.		asarda qo‘llangan badiiy tasvir va ifoda vositalaridan ko‘zlangan maqsadni hamda ularning o‘quvchiga ta’sirini aniqlash
Asarda ota, ona, farzandlar nutqiga xos qanday jihatlarni kuzatdingiz? Bu o‘ziga xoslik orqali qanday maqsad ko‘zlangan deb o‘ylaysiz?		muallif tiliga xos ayrim leksik xususiyatlarni topish va ulardan ko‘zlangan maqsadni, o‘quvchiga ta’sirini tahlil qilish

O‘quvchilarning javoblarini eshitgach, o‘z xulosalaringiz bilan ularning fikrlarini umumlashtirishingiz, o‘ziga xos fikr bildirgan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratishingiz lozim. Xulosa chiqarishda quyidagi talqinlar ham sizga yordam berishi mumkin:

1-talqin: *asardagi zidlantirish (mumtoz adabiyotda tazod) asar syujeti rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif bu zidlantirish orqali umrning o‘tkinchiligi, inson umrining har bir davrini faqat foydali ishlarga sarf qilishi, hayotdan zavqlanib yashashi va keyin afsus qilmasligiga ishora qilmoqda.*

2-talqin: *asar so‘ngida ota suvda oqib ketayotgan bir yosh bolani qutqarib qoladi, o‘zi esa halok bo‘ladi. Boshqalar uchun jon fido qilgan keksa insonlar, otalar umri boshqalar, xususan, bolalarning qonida, ruhida yashashda davom etadi.*

4-savol *(Asarda ota, ona, farzandlar nutqiga xos qanday jihatlarni kuzatdingiz? Bu o‘ziga xoslik orqali qanday maqsad ko‘zlangan deb o‘ylaysiz?)* muhokamasini “Guruhlarda ishlaymiz” ruknidagi topshiriq bilan birlashtirish mumkin.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Ota” hikoyasi qahramonlari nutqiga e’tibor bering. Muallif qahramonlar nutqini adabiy tilda emas, shevada berish orqali qanday maqsadni ko‘zlagan?

Siz yashaydigan hudud shevasini asar qahramonlari shevasi bilan solishtiring. Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Asar qahramonlari shevasi va men yashaydigan hudud shevasida o‘xshash so‘zlar	Asar qahramonlari shevasi va men yashaydigan hudud shevasida farq qiluvchi so‘zlar

Shevangizdagi qaysi so‘zlar adabiy tilga kirishi kerak deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

Mazkur topshiriqni berishdan oldin o‘quvchilardan sheva nimaligini so‘rang. Agar ona tili darslarida hali sheva tushunchasi o‘tilmagan bo‘lsa, qisqa tushuntirish berib, bir-ikki misol keltirishingiz mumkin. Shundan so‘ng asar qahramonlari nutqining shevada berilishi sababini so‘rang (asar qahramonlarini ishonarli va jonli tasvirlash, qahramon va u yashaydigan hudud nutqiga xos xususiyatlarni ko‘rsatish). Shundan so‘ng o‘quvchilar jadvalni to‘ldiradilar.

O‘quvchilar oldingi darsda berilgan uyga vazifa (intervyu asosida jadval to‘ldirish) asosida taqdimot qilishlari uchun vaqt ajrating. Har bir guruh taqdimotidan keyin boshqalar taqdimot qilayotgan guruhga savol berishlari uchun vaqt ajratish tavsiya qilinadi. Barcha guruhlar taqdimot qilib bo‘lgach, ulardagi umumiy va farqli jihatlarni qayd qilib, o‘z xulosalaringizni ayting.

SERGEY YESENIN. “SHAHINAM, O, MENING SHAHINAM...” RASUL HAMZATOV. “QUSHQANOTLI, HOY KARVON...”

Bu mavzuda biz:
– “Shahinam, o, mening Shahinam...” va “Qushqanotli, hoy karvon...” she’rlaridagi Vatan obrazini qiyoslaymiz;
– barmoq tizimiga xos xususiyatlar haqida bilib olamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**2 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (mualliflar bilan tanishish, “Mutolaaga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Sergey Yeseninning “Shahinam, o, mening Shahinam” she’rini o‘qib, tahlil qilish	1 soat
Rasul Hamzatovning “Qushqanotli, hoy karvon” she’rini o‘qib tahlil qilish va Sergey Yesenin she’rlari bilan qiyoslab o‘rganish	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Sergey Yesenin va Rasul Hamzatov she’rlarini qiyoslab tahlil qilishingizni ayting.

2. Yozuv taxtasiga quyidagi iqtiboslarni yozing:

“Yonar bo‘lsang – gurullab yongin”. (Sergey Yesenin)

“Tillar o‘rtasida chegaralar bordir, lekin qalblar o‘rtasida chegaralar yo‘q”. (Rasul Hamzatov)

O‘quvchilardan ushbu iqtiboslarni sharhlashni, ijodkorlarni qanday tasavvur qilganlarini so‘rang. O‘quvchilarning iqtibos mualliflari haqidagi fikrlarini umumlashtirib vatman qog‘oziga qayd qilish va ikkinchi soat so‘ngida, har ikki shoir she’rlari bilan tanishib bo‘lgandan keyin ularga qaytib, o‘quvchilarning oldingi va keyingi tasavvurlarini solishtirish mumkin.

2. “Mualliflar bilan tanishamiz” ruknida berilgan ma’lumotlar bilan tanishish uchun o‘quvchilarga vaqt ajrating. So‘ngra har ikki ijodkor hayotidagi qanday o‘xshashliklarni payqashganlari haqida so‘rang.

Har ikki ijodkor bolaligidan she’riyatga mehr qo‘ygan, she’rlar mashq qilgan, ko‘p joylarga sayohat qilgan.

3. O‘quvchilarga “Mutolaaga tayyorlanamiz” ruknidagi savol bilan murojaat qiling. Fikrlarini asoslashni so‘rang.

Tasavvur qiling, o‘z uyingizdan uzoqda yashashga to‘g‘ri kelib qolsa, ko‘proq nimalarni sog‘inasiz, qo‘msaysiz? Nega?

O‘quvchilar javoblarini yozuv taxtasiga qayd qilib boring. So‘ngra ulardan qaydlarni ko‘zdan kechirib, javoblarda biron-bir umumiy jihatlar bor yoki yo‘qligini so‘rang. Fikrlarni umumlashtirib, munosabat bildiring.

SHE’RLARNI MUTOLAA VA TAHLIL QILISH

Birinchi soat

1. She’rni ifodali o‘qib bering. Bu paytda o‘quvchilardan she’rni diqqat bilan tinglashni, so‘ngra she’rni tinglash paytida xayollaridan nimalar o‘tganini so‘rash mumkin.

2. “Muhokama qilamiz” ruknida berilgan savollar asosida she’rni o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qiling. Bunda she’rdagi obrazlarga (oy nur sochgan boshoqlar, “yuz bora ulkan” oy, Vatan “bug‘doyidan rang olgan” soch, Vatanda qolgan va shoirni o‘ylayotgan nozanin), she’rning o‘quvchida (tinglovchida) qanday kayfiyat uyg‘otishiga va she’rning kompozitsiyasiga (birinchi banddagi har bir misraning keyingi bandlarga asos bo‘lib xizmat qilishi) e’tibor qaratish tavsiya qilinadi.

“Shahinam, o, mening Shahinam” she’ri haqida qisqacha

“Shahinam, o, mening Shahinam” she’ri Yeseninning 1920-yillarda yaratilgan “Fors taronalari” turkumiga kiradi. Fors-tojik mumtoz she’riyatiga qiziqqan Yesenin 1920-yilda Kavkazga, 1921-yilda Toshkent va Samarqandga, 1924-yilda yana Kavkazga sayohat qiladi. Uning Eronni ko‘rish orzusi amalga oshmaydi, biroq sayohatlari natijasida bir qancha go‘zal she’rlarni o‘z ichiga olgan turkum dunyoga keladi.

“Shahinam, o, mening Shahinam” she’ri fors qizi Shahinaga murojaat tarzida bitilgan. Lirik qahramon Vatanini sog‘inadi, uning oy nurida jilvalanadigan bug‘doy dalalarini, Vatanda qolgan va ehtimol uni sog‘inayotgan go‘zal yorni qo‘msaydi. She’rda bot-bot eslanadigan bug‘doyzor dala – Vatan timsoli, metafora. Hatto lirik qahramon sochining rangi unga o‘sha Vatandagi bug‘doyzorni eslatadi – og‘riqli sog‘inch, shuning uchun ham fors go‘zali dalalardan so‘z ochmagani ma’qul. Buyuk shoir Hofizning Vatani Sheroz qanchalik go‘zal bo‘lmasin, lirik qahramon Vatanidagi oy yuz bora ulkan (bu o‘rinda mubolag‘a qo‘llangan).

She’rning kompozitsiyasi ham o‘ziga xos: birinchi banddagi har bir misra keyingi bandlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan, ya’ni keyingi bandlar birinchi banddagi misralar bilan boshlangan va tugagan. Bu bilan birinchi banddagi g‘oyalar keyingi bandlarda rivojlantirilgan.

O‘quvchilarga Sergey Yeseninning “Ona ibodati” va “Bizlar asta ketayotirmiz...” she’rlarini uyda o‘qib, tahlil qilish vazifasini topshiring.

Ikkinchi soat

Ikkinchi soatda Rasul Hamzatovning “Qushqanotli, hoy karvon...” she’rini o‘qib bering va tahlilga torting. Bu she’rda Vatan sog‘inchi motivi lirik qahramonning olisdan kelgan qanotli karvon bilan savol-javobi orqali ifodalangan. “Muhokama qilamiz” ruknidagi savollar yordamida she’r tahlilga tortiladi.

Shundan so‘ng o‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va “Solishtiramiz” ruknida berilgan savol va topshiriqlarga tayangan holda har ikki ijodkor lirikasiga xos xususiyatlarni, ulardagi Vatan bilan bog‘liq obrazlarni solishtirish vazifasini bering. Bunda o‘quvchilar Sergey Yesenin va Rasul Hamzatovning “Mustaqil mutolaa va tahlil uchun” ruknida berilgan she’rlariga ham tayanishlari mumkin. Belgilangan vaqt tugagach, har bir guruh o‘z xulosasini sinfga taqdim qiladi. Guruhlar xulosalarini umumlashtiring hamda ulardagi o‘xshash va farqli jihatlarga e’tibor qarating.

Ma’lumot uchun:

Rasul Hamzatovning “Turnalar” she’ri Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan vatan himoyachilariga bag‘ishlangan, lekin muallifning ta’kidlashicha, she’rni barcha urushlarda halok bo‘lganlar xotirasi uchun yozilgan deb ham qabul qilish mumkin.

Yaponiyaning Xirosima shahrida Ikkinchi jahon urushi qurbonlaridan biri – yapon qizi Sadako Sasaki haykali bor. Bu haykalda qizaloq qo‘lida qog‘oz turnacha bilan tasvirlangan. Xirosimaga tashlangan atom bombasidan nurlanib leykemiya (qon saratoni) kasaliga chalingan qizaloq origami uslubida qog‘ozdan mingta turnacha yasasa, tirik qolishiga ishongan va kasalxonada qog‘ozdan turnalar yasashni boshlagan. Sadako haykali va u haqidagi hikoyadan ta’sirlangan Rasul Hamzatov “Turnalar” she’rini yaratadi.

Toshkent viloyati Chirchiq shahrida “Turnalar” monumenti o‘rnatilgan va Hamzatovning she’rining dastlabki bandi (Zulfiya tarjimasida) o‘yib yozilgan:

Mening nazarimda, qonli janglardan
Uyiga qaytmagan el farzandlari
Ona tuproqqa bosh qo‘ygan yerida
Oppoq turnalarga aylangan bari.

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHANI O‘RGANISH: BARMOQ VAZNI

O‘quvchilardan she’r nasrdan qaysi xususiyatlari bilan farq qilishini so‘rang. Ularning fikrini eshitgach, she’rning asosiy xususiyatlaridan biri – vazn ekanini ayting va barmoq vazni haqida qisqacha ma’lumot bering. “Shahinam, o, mening Shahinam” va “Qushqanotli, hoy karvon...” she’rlarining birinchi bandlarini turoqlarga ajratish va shu asosda ifodali, pauzalarga rioya qilgan holda o‘qishni so‘rang.

Yur-tim, sen-ga / she’r bit-dim bu kun, **4+5=9**
4 bo‘g‘inli turoq 5 bo‘g‘inli turoq

Qi-yo-sing-ni / top-ma-dim as-lo. **4+5=9**
Sho-ir-lar bor, / o‘z yur-tin bu-tun – **4+5=9**
O-lam a-ro / a-ta-gan tan-ho. **4+5=9**

Abdulla Oripov

FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA MUSIQA

Bu mavzuda biz:
– musiqaning she’r mazmunini ochib berishdagi ahamiyatini tadqiq qilamiz.

Mazkur integratsiya darsida o‘quvchilar bir she’r asosida yaratilgan turli qo‘shiqlarni solishtirish orqali musiqaning she’r g‘oyasi, she’rda ifoda etilgan tuyg‘ularni yetkazishdagi o‘rnini tadqiq qiladilar. Darsning muvaffaqiyatli o‘tishi uchun qo‘shiqlarni eshittirish imkonini beradigan qurilma (kompyuter, televizor, smart-doska) kerak bo‘ladi.

1. O‘quvchilardan qanday qo‘shiqlarni yoqtirib tinglashlarini, ularning kayfiyatiga qaysi qo‘shiq qay darajada ta’sir qilishini so‘rang. Bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, xulosalang.

2. O‘quvchilarga Abdulla Oripovning “O‘zbekiston – vatanim manim” she’ridan berilgan parchani mustaqil o‘qib chiqish uchun vaqt bering. She’r ularda vatanga nisbatan qanday tuyg‘ularni uyg‘otganini muhokama qiling.

3. Uch xonandaning (Sherali Jo‘rayev, Bahrom Nazarov, Umarjon Mahkamboyev) she’r asosida ijro etgan qo‘shiqlarini eshittiring (vaqtni tejash maqsadida qo‘shiqlarning birinchi naqarotgacha bo‘lgan qismini eshittirish mumkin). Qaysi musiqa (qo‘shiq, ijro) she’r o‘quvchilarda uyg‘otgan hislarga yaqinroq ekanini muhokama qiling.

4. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va Abdulla Oripovning darslikda berilgan “Meni olib keting o‘z diyorimga” she’rini musiqaga solish vazifasini topshiring (albatta, o‘quvchilardan professional musiqa bastalash talab qilinmaydi. Ular mobil qurilmalariga tegishli dastur o‘rnatib, musiqa bastalab ko‘rishlari yoki ovoz yordamida musiqa ohangini yaratib ko‘rishlari mumkin). Guruhlar ijrosini sinf bilan eshitib ko‘ring va muhokama qiling. Darsni xulosalang.

TAKRORLASH

Mazkur takrorlash darsi topshiriqlari rus shoiri va yozuvchisi Mixail Lermontovning “Mtsiri” dostonidan olingan parchalar asosida tuzilgan.

Topshiriq	*Javob*	*Izohlar*
1	C	Asar boshida Aragva va Kura daryolari qo‘shilgan joy hamda bu joydagi monastir tasvirlangan.
2	B	“Asta, mag‘rur berardi jonni. ... Bir rahmdil monax u zamon Bola uchun tiladi omon. Do‘stlik mehri saqlagan bemor ...”
3	A	“Kezar edi indamay, yakka, Sharqqa boqar edi oh sochib, Yurti tomon tikilar edi, Yuragini g‘am tilar edi”.
4	C	“... Meni o‘sha tomonga qo‘ydir, O‘sha yerda nurlar moviydir, So‘ng bor to‘yib olayin nafas, O‘sha yerdan ko‘rinar Kavkaz!”
5	C	
6		Ozodlikdagi bir necha kun tutqunlikdagi uzoq umrdan afzaldir.
7		
8		
9		
10	A	



MAVZULAR USTIDA ISHLASH BO‘YICHA TAVSIYALAR

3-fasl.
O‘TMISHDAN SADOLAR

Alisher Navoiy. Qit’alar va fardlar
Jahon otin Uvaysiy. G‘azallar va chistonlar
Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon”
Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar”

Adabiy tushunchalar:
– qit’a, fard, g‘azal
– chiston
– epik tur va janrlar
– konflikt

Fanlararo aloqa:
adabiyot va tarix



ALISHER NAVOIY.
QIT’ALAR VA FARDLAR

Bu mavzuda biz:
– Alisher Navoiy qit’alari va fardlaridagi g‘oyalarni tahlil qilamiz;
– fard va qit’a haqidagi tushunchalarga ega bo‘lamiz;
– mumtoz adabiyotdagi kichik janrlarni solishtiramiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan tanishish, mutafakkir shaxsiga xos xususiyatlarni ochib berishga qaratilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash). Navoiy qit’alarini o‘qishga tayyorlanish	1 soat
Navoiy qit’alari tahlil qilish va lug‘at bilan ishlash	1 soat
Alisher Navoiy fardlari va kichik janrlarning qiyosiy tahlili	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga o‘zbek adabiyotining buyuk vakili Alisher Navoiyning qit’a va fardlarini qiyoslab tahlil qilishingizni ayting.

2. Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotining buyuk vakili sifatida ma’lum va mashhur, qolaversa, Navoiy ruboiylari quyi sinflarda o‘tilganini inobatga olib, o‘quvchilarning ijodkor haqidagi avvalgi bilimlarini faollashtiring: buyuk mutafakkir haqida eshitganlari, uning qaysi asarlarini o‘qiganlari (yoki asarlari asosida ishlangan filmlarni ko‘rganlari) haqida so‘rang. “Aqliy hujum” metodi yordamida o‘quvchilarning Alisher Navoiy nega buyuk hisoblanishi haqidagi fikrlarini yozuv taxtasiga qayd qiling.

3. O‘zbekiston televideniyesida Oybekning “Navoiy” romani asosida ishlangan “Alisher Navoiy” telefilmidan (3-qism) yosh Alisher va mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o‘rtasidagi suhbat aks etgan lavhani qo‘yib bering. Mazkur lavhada Alisherga xos qanday xususiyatlar aks etganini so‘rang. Ali Yazdiyning o‘giti (“Shunday ish qilginki, insonlar undan adabiy foydalanib, seni eslab yursinlar”) ma’nosini so‘rang.

“Navoiy” telefilmi

4. O‘quvchilar darslikdagi Alisher Navoiy hayotiga oid ma’lumotni o‘qib chiqishlari uchun vaqt ajrating. Matndan keyin berilgan savolni o‘quvchilar bilan muhokama qiling. Alisher Navoiyning buyuk ijodkor bo‘lib yetishishiga sabab bo‘lgan omillar haqida o‘quvchilar fikrini so‘rang va yozuv taxtasiga qayd etilgan fikrlar bilan solishtirib, umumlashtiring.

ALISHER NAVOIY QIT’ALARINI TAHLIL QILISH

1. O‘quvchilarga qit’a haqida ma’lumot bering. Qit’a janriga xos asosiy xususiyatlarga (muallifning turli mazmundagi fikr-mulohazalari ifodalanishi, ikki misra yoki undan ortiq bo‘lishi, har ikkinchi misra qofiyalanishi) e’tibor qarating.

2. O‘quvchilarning qit’a haqidagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida darslikda berilgan “Yuqori o‘lturur kim tilasa...” qit’asida janrga xos xususiyatlarni (mazmuni, hajmi qofiyalanish tartibi) topishni so‘rang. Qit’a mazmunini o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qiling.

3. Navoiyning darslikda berilgan qit’alarni tahlil qilishni boshlang. Darslikda shoirning 9 ta, tushunish u qadar murakkab bo‘lmagan qit’alari berilgan, hoshiyada esa qit’ada uchraydigan, o‘quvchilarga notanish so‘zlar izohi qayd etilgan. O‘quvchilarni juftliklarga bo‘lib, har bir juftlikka qit’alarni darslikda berilgan jadval asosida tahlil qilish vazifasini topshiring. Agar ulgurilmasa, o‘quvchilar mazkur vazifa ustida ishlashni keyingi darsda davom ettirishlari mumkin.

4. Har bir juftlik bittadan qit’a tahlilini sinfda taqdimot qiladi. Qolgan juftliklar taqdimot qilayotgan juftlik tahliliga o‘z munosabatlarini bildiradilar: o‘z tahlillari qay darajada bu tahlilga yaqin yoki yaqin emasligi haqida gapiradilar. Shu tarzda har bir qit’a tahlili muhokama qilingach, fikrlarni umumlashtirib, o‘z xulosalaringizni bering.

Qit’alarning namunaviy tahlili:

1-qit’a. Har qachon to‘g‘rilik yo‘lini tanla, shundagina ishing baroridan kelaveradi. Aks holda har zamon oldingda, yuzlab, minglab mushkulot paydo bo‘ladi. Zotan, kotib bitta tik (to‘g‘ri) turgan qalam bilan yuz varaqni yozsa, cho‘pon bir hassa bilan butun bir podani boshqarishi mumkin.

2-qit’a. Tabiatan nokas, yaramas odamlarni tarbiya qilaman deb zahmat chekkaning bilan kasofat olami yaxshi tomonga o‘zgarib qolmaydi. Zero, kuchuk bilan bilan xo‘tikni qancha tarbiya qilsang ham, biri it, ikkinchisi eshak bo‘ladi, ammo odam bo‘lmaydi.

3-qit’a. Kamolotga erishishni o‘zingga maqsad qil, chunki dunyodan (olam uyidan) g‘amgin o‘tish shart sanalmaydi. Dunyodan kamolga yetmasdan o‘tmoq xuddi hammomga kirib, to‘liq tozalanmasdan nopok chiqib ketish bilan barobardir.

4-qit’a. Manfaat sabab bandasiga (maxluq, yaratilgan) xizmat qilishga bel bog‘lagan kishining beli singani (shikastlangani) yaxshiroq. Qo‘l qovushtirib, qulluq qilgandan ko‘ra yelkasi chiqib, qo‘li singani afzalroq. Tili bilan xushomad qilishga oshiqsa, nafasi tutilib, tili kesilgani tuzukroq.

5-qit’a. Bu qit’ada Navoiy o‘ziga murojaat qilib, dahr (dunyo) ishlaridan afsuslanmaslik uchun tilini ehtiyot qilishni so‘ramoqda. O‘qning uchiga nazar solsang, u tilsiz bo‘lgani uchun ham podshohlarga yaqin bo‘ldi (ular bilan qo‘lma-qo‘l ko‘rishish sharafiga muyassar bo‘ldi). Xo‘roz qanchalik tojdor bo‘lmasin, bemahal qichqirgani uchun boshi kesiladi.

6-qit’a. Ilm o‘rganishni odat bil, naf, manfaat uchun ilm olma, balki dunyo mushkulotlari yechimi uchun ilm o‘rgan. Agar o‘rgangan ilming dunyo mushkullari, muammolarini hal qilishga yaramasa, u foydali ilm bo‘lmaydi. Yana o‘rganganlaringga amal qilmasang ham, ular foydasizdir.

7-qit’a. Manmanlik imoratini buzgan kimsaga mukofot bordir, komillik yo‘liga kirgan (komillikni maqsad qilgan) kishi manmanlik imoratini buzmasdan turib bunday mukofotga sazovor bo‘la olmaydi.

8-qit’a. Ko‘p oltin, kumushga qo‘l uzatmagin, uzatsang kaftingni qora qiladi, ko‘nglingda ham kumush, oltinga bo‘lgan istakni saqlab yurmaki, ko‘nglingni ham zanglatadi.

Darsning so‘ngida o‘quvchilarga tahlil qilingan har bir qit’a mazmuniga mos maqollar, hikmatli gaplar (aforizmlar) yoki hadislar topib kelishni vazifa qilib berish mumkin. Bunday shakldagi vazifa mavzuni mustahkamlash, xususan, darslikda berilgan qit’a namunalari mohiyatini to‘laroq tushunish imkoniyatini beradi.

ALISHER NAVOIY FARDLARINI TAHLIL QILISH. KICHIK JANRLARNI SOLISHTIRISH

1. O‘quvchilarga fard janri haqida ma’lumot bering. Fard haqida darslikda berilgan ma’lumotlarni tahlil qilishda janrga xos asosiy xususiyatlarga e’tibor qaratish tavsiya qilinadi. Agar o‘quvchilarning fard janri haqidagi qarashlarini boyitishga xizmat qiladigan ma’lumotlar bermoqchi bo‘lsangiz, ularning sodda, 7-sinf o‘quvchisi anglashi qiyin bo‘lgan ilmiy terminlardan xoli bo‘lishi lozimligini, berilayotgan ma’lumotni misollar bilan izohlash kerakligini unutmang.

2. Darslikda berilgan “Yuqar yamonlig‘” fardini o‘quvchilar bilan birga tahlil qiling. Bunda fardning mazmuniga, janrga xos xususiyatlariga va tuzilishiga e’tibor qarating. Berilgan maqollardan qaysi biri fard mazmuniga mosligini so‘rang (to‘g‘ri javob – C).

3. O‘quvchilarni juftliklarga bo‘ling. Darslikdagi fardlarni hoshiyadagi lug‘atlar yordamida o‘qib tahlil qilish, har bir fardning mazmunini bir gap bilan ifodalash yoki mos maqol topish vazifasini bering. Vazifani bajarish uchun vaqt belgilang.

Belgilangan vaqt tugagach, guruh a’zolaridan berilgan fardlarning mazmunini navbat bilan so‘rang. Bunday yondashuv o‘quvchilar o‘z fikrini mustaqil, erkin, hech qanday tashqi ta’sirlarsiz bildirishiga, ularda fikr bildirish ko‘nikmasini shakllantirishga rag‘bat beradi. Agar o‘qituvchi o‘quvchilardan avval muayyan matn haqidagi shaxsiy xulosalarini berib qo‘ysa, bolalarda “o‘qituvchimdan yaxshiroq fikr ayta olmayman” yoki “demak, men o‘ylagan fikr noto‘g‘ri ekan” kabi qarashlar paydo bo‘ladi va o‘ylaganlarini ham aytmaslikka harakat qiladi.

Juftliklarning fardlar mazmun-mohiyati haqidagi fikrlarini eshitganingizdan keyin ularning har biriga alohida to‘xtalib, tahlillarni xulosalang. Bolalar yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni matn asosida ko‘rsatib bering. Siz taxmin qilgan mazmundan tashqarida yangi fikr aytganlarni rag‘batlantiring.

4. O‘quvchilardan ruboiy haqida eslashlarini so‘rang. Ularga mashhur “G‘urbatda g‘arib...” ruboiysi asosidagi yo‘naltiruvchi savollar yordamida janrga xos xususiyatlarni eslatish mumkin.

Ruboiy, fard va qit’a bir-biridan qanday farq qilishini so‘rang. O‘quvchilar darslikdagi kichik janr namunalarini jadval asosida tahlil qilishlari uchun vaqt bering. Belgilangan vaqt tugagach, o‘quvchilar navbatma-navbat yozuv taxtasiga chiqib, jadvalni to‘ldirishlari, qolganlar esa javoblarga munosabat bildirishlari mumkin.

O‘quvchilarning javoblarini eshitgach, o‘z xulosalaringiz bilan ularning fikrlarini umumlashtirishingiz, o‘ziga xos fikr bildirgan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratishingiz lozim.

JAHON OTIN UVAYSIY. G‘AZALLAR VA CHISTONLAR

Bu mavzuda biz:
– Uvaysiy g‘azallarining g‘oyaviy yo‘nalishlarini tahlil qilamiz;
– chistonga xos xususiyatlarni bilib olamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Jahon otin Uvaysiy hayoti va ijodi. G‘azal janri haqida tushuncha. “Sog‘indim” g‘azali tahlili	1 soat
“Mendin o‘rgandi” va “Dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi” g‘azallari tahlili	1 soat
Uvaysiy chistonlari tahlili. Loyiha	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Jahon otin Uvaysiy hayoti va ijodi haqida gaplashishingizni, g‘azallarini va chistonlarini o‘qib tahlilga tortishingizni e’lon qiling.

2. O‘quvchilar “Muallif bilan tanishamiz” ruknida berilgan ijodkorning tarjimayi holini mustaqil o‘qib chiqishlari uchun vaqt bering, so‘ngra matndan kelib chiqib shoiraning ijodkor bo‘lishiga turtki bergan omillar va o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni haqida savollar bering.

Tavsiya: shu o‘rinda o‘quvchilarga Uvaysiy hayoti haqida hikoya qiluvchi qisqa hujjatli film qo‘yib berib, shu asosda ijodkor shaxsiyatini tushunishga qaratilgan savollar berish mumkin. Bunda film so‘ngida keltirilgan g‘azalda “mehnat” so‘zi mumtoz adabiyotda “mashaqqat, qiyinchilik” ma’nosida qo‘llangani haqida izoh berish lozim.

Uvaysiy haqida “Milliy TV” kanali tomonidan ishlangan film

G‘AZALLARNI MUTOLAA VA TAHLIL QILISH

Birinchi soat

1. G‘azal janrining mumtoz adabiyotdagi o‘rni, tuzilishi va mavzulariga qisqacha to‘xtalib o‘ting. O‘quvchilarda g‘azallar faqat ishqiy mavzularda yoziladi, degan noto‘g‘ri tushuncha shakllanmasligi uchun turli mavzulardagi g‘azallardan misollar keltirish mumkin.

2. Uvaysiyning “Sog‘indim” radifli g‘azalini avval o‘zingiz (ohangga solib), keyin yana bir o‘quvchi ifodali o‘qib berishi tavsiya qilinadi. G‘azalni ifodali o‘qib bo‘lgach, baytma-bayt o‘qib, o‘quvchilardan avval nimani tushunishganini eshitib, xulosani umumlashtiring.

G‘azalda yolg‘iz o‘g‘lini askarlikka kuzatgan onaning sog‘inchli iztiroblari aks etgan. Birinchi baytdagi “jonon” so‘zining “jon” ekaniga, bu so‘z “jonga yaqin”, “suyukli” ma’nosida qo‘llanganiga e’tibor qaratish tavsiya qilinadi. Ikkinchi baytni sharhlashda shoira nima uchun o‘zini musofir sanayotganini uning tarjimayi holidan kelib chiqib izohlashni so‘rash mumkin (shoira Qo‘qon xoni Umarxonning rafiqasi, shoira Nodirabegim va boshqa ijodkor

ayollarga she’riyat ilmidan dars bergan, Qo‘qonda yashagan). “Tilimning zikri-yu ko‘nglimni fikri” so‘zlari kecha-yu kunduz farzandini o‘ylayotgan, uning ismini tilidan qo‘ymayotgan, dunyo ko‘ziga qorong‘i ko‘rinayotgan ona holatini ifodalashiga e’tibor qarating.

3. “Muhokama qilamiz” ruknidagi savollar asosida g‘azalni umumiy tahlil qilish bosqichiga o‘ting. G‘azalning umumiy mazmuni, kimga atalgani, qanday tasviriy vositalar qo‘llanganini, xususan, “gado” – “shoh”, “dard – darmon” singari zidlantirishlarning g‘azal umumiy g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini aniqlashga e’tibor qarating. G‘azal matni va mazmuni bilan tanishgan o‘quvchilarning javoblarini baholashda fikrini hayotiy misollar bilan yoki matn asosida dalillash ko‘nikmasiga egaligiga e’tibor qarating.

Ikkinchi soat

Darsning ikkinchi soatida Uvaysiyning “Mendin o‘rgandi” va “Dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi” radifli g‘azallarini, ulardagi o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilishingizni ma’lum qiling.

Sinfni guruhlarga bo‘ling. O‘quvchilar darslikdagi savollar va lug‘atga tayangan holda “Mendin o‘rgandi” va “Dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi” radifli g‘azallardan birini tahlil qilishadi va tahlillarini vizual tarzda (rasm, chizma yoki grafik organayzerlar yordamida) A4o‘lchamdagi yoki vatman qog‘ozga qayd qilishadi. Guruhlar ishlayotgan paytda ularning ishini kuzatib, kerakli o‘rinlarda yo‘l-yo‘riq yoki yordam ko‘rsatishingiz mumkin. Belgilangan vaqt tugagach, guruhlar o‘z tahlillarini taqdimot qilishadi. Taqdimot paytida aynan bir g‘azalni tahlil qilgan guruhlarning tahlillaridagi farqlarga va bu farqlarning sabablariga e’tibor qarating. Fikrlarni umumlashtirib, xulosalang.

Darslikdagi “Sog‘indim”, “Mendin o‘rgandi” va “Dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi” radifli g‘azallariga oid savol va topshiriqlar quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
“Tilimning zikri-yu ko‘nglimni fikri, yaxshi farzandim” deb boshlanadigan bayt qanday g‘oyaviy maqsadga xizmat qilmoqda? G‘azal nima haqida? Sizningcha, uning umumiy g‘oyasini qanday so‘zlar bilan ifodalash mumkin?		asarning asosiy g‘oyasini aniqlash
Lirik qahramon nima uchun farzandiga nisbatan “darmonim”, “ko‘z-u ko‘nglum ziyosi, mohi tobonim” singari so‘zlarni ishlatmoqda? Mazkur baytlarda shoira qanday badiiy tasvir vositasini qo‘llagan? Qaysi so‘zlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish orqali muallif o‘z fikrini yanada ta’sirchanroq ifodalagan? G‘azalning oxirgi baytida “Sadaf ham durri g‘alton aylamakni mendin o‘rgandi” deganda shoira nimani nazarda tutmoqda? Sadaf va durning qanoatga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin? Lirik qahramon zamonaning qanday kulfatlari haqida gapirmoqda? Uning ko‘nglini dog‘ qilgan, jarohatlagan narsa(lar) nima bo‘lishi mumkin? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.		asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tag-ma’nolarni) tushunish asardan xulosalar chiqarish

“So‘zimdan xayolingga yomon gumonlar kelmasin” deb lirik qahramon kimga murojaat qilmoqda? Murojaat qilinayotgan inson lirik qahramon ko‘nglini qanday shod qilishi mumkin?		fikrini matn asosida dalillash
G‘azalda farzandga yana qanday so‘zlar bilan nisbat berilmoqda? Bu so‘zlarning g‘azal umumiy g‘oyasini ochib berishdagi ahamiyatini matn asosida izohlang. Nima uchun lirik qahramon o‘zini “gado”, farzandini esa “shohi davron” deb atamoqda? Nima uchun lirik qahramon o‘zini bulbulga o‘xshatmoqda? Lirik qahramon va bulbul o‘rtasida qanday umumiylik bo‘lishi mumkin? G‘azaldagi tabiat hodisalari tasvirlangan o‘rinlarni toping. Ular g‘azalning umumiy g‘oyasini ochib berishda qanday ahamiyat kasb etmoqda?		asarda qo‘llangan badiiy tasvir va ifoda vositalaridan ko‘zlangan maqsadni hamda ularning o‘quvchiga ta’sirini aniqlash
Onaning farzandi sog‘inchi haqidagi mazkur g‘azal sizda qanday tuyg‘ularni uyg‘otdi? Siz lirik qahramon – onani qanday tasavvur qildingiz? Lirik qahramon izlayotgan yorni siz qanday tasavvur qildingiz? Bunda sizga qaysi so‘zlar yordam berdi? Siz “ko‘ngli dog‘” insonni qanday tasavvur qilasiz? Bu dog‘dan qutulishning qanday yo‘li yoki usullari bor deb o‘ylaysiz?		obrazlarga baho berish

CHISTONLARNI TAHLIL QILISH

Chistonlar bilan tanishishdan oldin chiston haqida qisqacha ma’lumot bering. Keyin darslikda keltirilgan anor haqidagi chistonni berilgan savollar asosida muhokama qiling. Anorning gumbazga, uning qizil donalari – “gulgunpo‘sh” – qizil kiygan, “bag‘ri qon” qizlarga o‘xshatilishi sabablari haqida o‘quvchilarning fikrlarini so‘rang. Uvaysiy o‘z davridagi xotin-qizlar ahvoli, saroy ichki muhitini tasvirlaganiga o‘quvchilar e’tiborini qarating.

Chistonni berilgan topishmoqlar bilan solishtirib, ayni bir narsani tasvirlash uchun tanlangan obrazlardagi o‘xshashlik va farqlarni muhokama qiling.

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va chistonlarni o‘qib, javobini topish vazifasini bering. Chistonlar javobini muhokama qilishda ulardagi qaysi belgi va ishoralar javobni topishda yordam berganini, ularda qanday badiiy tasvir vositalari ishlatilganini so‘rang.

Chistonlarning javoblari: 1 – suv, 2 – kun va tun, 3 – yong‘oq, 4 – qaychi.

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. Har bir guruh chiston yozadi va sinfga o‘qib eshittiradi. Qolgan guruhlar chistonning javobini topishga harakat qilishadi.

ABDULLA QODIRIY. “MEHROBDAN CHAYON”

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**5 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1 soat
“Chayonning namoyishi” bobi tahlili	1 soat
“Ikki xil sadoqat” va “Barimta” boblari tahlili	1 soat
“Xayr endi, Ra’no” va “Qo‘rqunch bir jasorat” boblari tahlili	1 soat
“Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Maktub yozish. Loyiha. Epik tur va janrlar	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting.

2. “Muallif bilan tanishamiz” rukni asosida o‘quvchilarga muallif haqida ma’lumot bering. Ma’lumot berish jarayonida yozuvchi hayotidagi eng muhim nuqtalarga, jadidchilik davri adabiyotidagi tutgan o‘rni, o‘zbek adabiyotidagi ilk romannavis ekaniga ahamiyat qarating.

Abdulla Qodiriy haqida “Milliy TV” kanali tomonidan ishlangan film

Tavsiya: shu o‘rinda o‘quvchilarga Abdulla Qodiriy hayoti haqida hikoya qiluvchi qisqa hujjatli film qo‘yib berib, shu asosda adib shaxsiyatini tushunishga qaratilgan savollar berish mumkin.

3. Asar voqealari XIX asr o‘rtalarida sodir bo‘lishini ayting va bu davr haqida nimalarni bilishlarini so‘rang. (Bu davr tarixi bilan o‘quvchilar qisman 5-sinfda “Tarixdan hikoyalar” darslari orqali tanish bo‘ladilar.) O‘quvchilarning bu davr haqidagi tasavvurlari bilan tanishgach, “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknida berilgan ma’lumot bilan tanishish uchun vaqt ajrating. Shuningdek, o‘quvchilar e’tiborini darslikda qayd etilmagan ayrim jihatlarga qaratish mumkin:

– xonlar cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lishgan, ya’ni ularning hukmi bajarilishi majburiy bo‘lgan;

– din vakillarining davlat siyosati va qarorlariga ta’siri kuchli bo‘lgan;

– jamiyatda tabaqalanish – boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi farq kuchli bo‘lgan.

Asar kontekstini – voqealar sodir bo‘ladigan zamon va makonni tasavvur qila olish asarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savollar bilan murojaat qiling.

O‘ylab ko‘ring: nima uchun asar “Mehrobdan chayon” deb nomlangan bo‘lishi mumkin? Sizningcha, muallif “mehrobdan chiqqan chayon” deb kimni nazarda tutmoqda?

Ushbu savolning muhokamasini ikki bosqichda amalga oshirish mumkin.

Dastlab o‘quvchilarning mehrob haqidagi tushunchalarini (u qayerda bo‘ladi, qanday vazifani bajaradi) aniqlab olish, o‘quvchilarda bu istiloh haqida yetarlicha tushuncha bo‘lmasa, qisqa ma’lumot berish tavsiya etiladi. Bunda vizual (rasmli) yondashuvdan foydalanish ham samara beradi.

Shundan so‘ng “Mehrobdan chayon” deganda muallif qanday kishilarni nazarda tutgan bo‘lishi mumkinligini muhokama qilish mumkin. Bunda “Chayon qanday jonivor?”, “U badiiy adabiyotda odatda qanday tasvirlanadi (misol uchun, “Toshbaqa va chayon” masalida)?”, “Chayonga xos qanday xususiyatlar Qodiriy nazarda tutgan insonlarga xos bo‘lishi mumkin?” singari yo‘naltiruvchi savollar bilan o‘quvchida mavjud, asar sarlavhasini tushunishga yordam beradigan bilimlarni faollashtirib olish tavsiya qilinadi.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Darslikning “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asar parchasidagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr berish ko‘nikmasini rivojlantirishga ahamiyat bering.

“Chayonning namoyishi” bobi

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Sizningcha, muallifning masjid hujrasidagi tokchaga qo‘yilgan “Sharhi mullo Jomiy”, “Aqoidi ma’-alhavoshiy”, “Hikmatul-ayn”, “Al-viqoya”, “Siyari sharif” kabi kitoblarga ishora qilishdan maqsadi nima? *– Masjid hujrasida yashovchi muftiylarning bu kitoblarni o‘qiganliklariga yoki o‘qishlari kerakligiga ishora bor (ya’ni shu davrning ilmli insonlari sifatida bu kitoblar bilan tanish bo‘lishlarini ko‘rsatmoqchi)* *– muftiy musulmonlarda oliy lavozim, fatvo berish (qaror chiqarish) huquqiga ega ruhoniy ekaniga asoslanadigan bo‘lsak, shu davrdagi muftiylarning fatvolari yuqorida nomi keltirilgan kitoblardagi ma’lumotlarga asoslangan deyish mumkin* ; *– mazkur bobda muftiylar, din peshvolari haqida gap ketyapti, obrazga xos xususiyatlarni ochishda ushbu detal – kitoblar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.*		Hujraning to‘rdagi toqchasig‘a besh-olti dona qalin muqovaliq kitoblar terilgan, ularning varaq taxida – “Sharhi mullo Jomiy”, “Aqoidi ma’-alhavoshiy”, “Hikmatul-ayn”, “Al-viqoya”, “Siyari sharif” kabi so‘zlar yozilg‘an edi. Kunbotish toqcha devorig‘a gul ravishida tushirilgan duo yoki shuning kabi muqaddas kalimalar yozig‘liq bir qog‘oz yopishtirilg‘an. Sirlar bilan turlangan qoziqlarning biriga beva xotinning dekchasidek bir salla ilingan edi.

Mulla Abdurahmon, Shahodat mufti va Kalonshoh mirzoning suhbatidan nimalarni uqdingiz? Shahodat muftining Sultonali haqidagi taxminlariga ishonasizmi? Sultonali o‘z do‘stiga xiyonat qilishi mumkinmi? *– Sultonalining Anvarga xoinlik qilganidan darg‘azab bo‘lishganini;* *– Sultonalining bunday qilishini kutmaganlarini;* *– Sultonali sotqinlik qilishi mumkin, zotan buning uchun asosli sabab bu – xon ishonchiga kirish edi;* *– Sultonali aytmasa ham undan shubhalanishlari mumkinligini bilardi, shuning uchun o‘zi borib aytib bergan.*		Shu oqpadarning qo‘l ostida ishlagandan devonni tashlab ketkan behroq. Va lekin Sultonalidek bema’niga bosh ekkandan, har ro‘z o‘n tayoq yegan yaxshi. Kichkina xovoncha boshidag‘i oq tepchima to‘ppi va qora uzun soqoli uni hindilarning savdogari qiyofatiga qo‘yg‘an edi. Qochirish bo‘lsa, qochirdiq va lekin qordan qutulib yomg‘urg‘a tutildiq, mulla Abdurahmon. Men Anvar bilan Sultonali mojarosini faqat kecha mirzo Boisdan eshitdim. Havodis shulki, Anvar borasig‘a sizning olg‘an nishoningiz jiddan to‘g‘ri tushib, biz kutkandin ham ziyodaroq samaraga erishkan, ya’ni mag‘rur go‘dagimiz qizni olib qochqan... Chamasi, Sultonali ablahlik qilib, Anvarni bad oldirib qo‘yg‘an va tong vaqti, ular uyquda ekan choqda g‘oyib bo‘lib, yana shubhani ortdirg‘an bo‘lsa kerak.
Abdurahmon sizda qanday taassurot qoldirdi? Nega Shahodat mufti unga rahmat aytdi, aqliga tasannolar o‘qidi? *– Uzoqni o‘ylab ish qiladigan, aqlli va mushohadali, og‘ir vazmin inson;* *– chunki Abdurahmon aytayotgan gaplarda jon borligini Shahodat muftiy sezib turar edi;* *– Shahodat muftiy Abdurahmonning boshqalardek voqeaning ko‘rinib turgan qismiga qarab baho bermasdan, aslida qanday bo‘lganini mushohada qilib, asosli tahlil qilgani uchun rahmat aytdi.*		Bu hammasi Sultonali bilan Anvarning o‘yunidir, deb o‘ylayman... Bu andishamga bir necha sabablar ham bor. Janoblardin maxfiy emasdirkim, biz o‘zaro qanday yaqin bo‘lsaq, Sultonali bilan Anvar ham o‘zaro shunday qalin do‘st edilar. Masalan, xon olmoqchi bo‘lg‘an qizni qochirg‘uchi Anvar ikki boshdanku, qaytib sarmunshiy bo‘lolmaydir, boshqa tarafdan, xiyonatkor do‘sti bo‘lib tanilg‘an Sultonalining ham hayoti tahlika ostida turadir...

“Ikki xil sadoqat” bobi

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Qobilboy kim? Safar kim? Ularning Sultonali huzuriga borishdan maqsadi nima edi?		Anvar sizga og‘alik da’vo qilg‘uvchining ismi Qobilboy, tusi sizga o‘xshab kelsa ham, o‘zi to‘la, pahlavon yigit va har uchavi ham zabardast ko‘rindilar.

– Qobilboy inisi Anvarni qidirib kelgan; *– Safar Anvar va Sultonali o‘rtasida xat tashuvchilik qiladi, shu yo‘sinda Anvar shahardagi vaziyatdan voqif bo‘lib turadi.*		Ma’lumdirkim, ertasi kun har kim o‘z rolini yaxshi ado qilib, ish juda silliq o‘tdi, hatto bu o‘rtada Solih maxdum ham oqlanib qoldi. Sultonali shu kun kechqurun Toyir akani Safar bo‘zchig‘a yubordi. Chunki bu ishda sirdon bo‘lish va Sultonaliga ko‘maklashish uchun eng muvofiq, ham ishonchlik kishi birdan bir Safar bo‘zchi edi.
Sultonalining Anvarga yozgan xatidan nimalarni uqdingiz? *– Hammasi rejalashtirilganidek bo‘layotgani va hammaning yaxshiligini;* *– xatning biroz kechikishi sababi – shubhali uch kishi Anvarni qidirib yurgani (ulardan biri Qobilboy, Anvarning inisi);* *– Anvar avvalgi maktubida Sultonalining sarmunshiy bo‘lganidan xavotirda ekanini, dushmanlari unga ziyon-zahmat yetkazishlaridan xavfsirayotganini aytgani, Sultonali xon oldida buni rad etolmaganini asoslab Anvarga javob beradi;* *– Ra’noning oilasi ham yaxshi ekani, bu voqealardan keyin keltirilgan sovg‘alar qaytarib olinganini yozadi va o‘ta ehtiyotkor bo‘lishini tayinlab maktubni yakunlaydi.*		

“Barimta” bobi

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Nega bob musofirga o‘xshagan bu uch yigitning bozorda uxlab yotishi tasviri bilan boshlanadi? Ular asar syujeti rivojida qanday o‘rin tutmoqda? *– U davrlarda xon farmon va buyruqlari hamma birdek eshitsin deb odamlar gavjum bo‘lgan joylar: bozorlar, markaziy ko‘chalarda jarchilar tomonidan e’lon qilingan. Aynan uchala yigit ham Sultonalining ertaga qatl etilishi xabarini bozordagi jarchidan eshitadi va buni Anvarga yetkazishadi;* *– bu obrazlarning kiritilishidan maqsad:* *a) Anvarga xon saroyida, xususan, do‘sti Sultonaliga aloqador ma’lumotlarni yetkazib turish;*		Kun choshkohdan oshib, Chorsuda xalq olag‘oviri boshlansa ham, shundagi bo‘sh do‘konlarning birida uch nafar yigit hanuz dong qotib uxlar edi. Chorsuda bo‘lib turg‘an tarsto‘polon go‘yo bu uch yigitni allalar edi. Boshig‘a bittadan shaparak kir yostiq qo‘yib, ostig‘a yalanqavat taqir ko‘rpacha yozg‘an va ustiga guppi choponini yopib, yana shu holda bahuzur xurrak otib uxlag‘an bu uch yigit musofirga o‘xshar edilar.

b) Rahim obrazi orqali adolatsizlikka murosasiz, haqiqat qaror topishi uchun hatto biror marta ham uchrashmagan, tanimagan insonlariga jon fido qilishga tayyor millat o‘g‘lonlarini tasvirlash.		
Qobil, Sharif va Rahimning Anvarga yoki Sultonaliga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin? Nega ular Anvarga yordam bermoqchi? *– Qobil Anvarning inisi, Sharif va Rahim Qobilning do‘stlari;* *– ular Sultonali bilan Anvarni izlab yurishganlarida uchrashishgan bo‘ladi (bor-yo‘g‘i bir marta);* *– Qobilning do‘stlari Anvarni juda yaxshi odam deb bilishar edi (ko‘rishishmagan bo‘lsa ham, mehmon qila olmadim deb ikkalasiga ham tilla tanga berdirib yuborganida Anvarning odamgarchiligiga qoyil qolishgan edi);* *– Qobilning (eng yaqin do‘stining) inisi boshiga tushgan kulfatga befarq bo‘la olishmas edi;* *– bu uch obraz o‘zida adolatparvarlikni akslantiradi, zotan ular xonning bu ishi juda adolatsiz ekanini yaxshi bilishar va adolatsizlikka qarshi kurashishmoqchi edi (o‘zlariga tanish bo‘lmagan boshqa biror insonga shunday adolatsizlik qilinganda ham, ular aynan shunday yo‘l tutishar edi);* *– ularning yo‘qotadigan hech narsalari yo‘q edi (na boylik, na oila).*		San otang o‘g‘li emassan, agar otang o‘g‘li bo‘lsang, mirzo Anvardek mehmondo‘st bo‘layding. Mirzo Anvar mehmonning betini ko‘rmay, boshidan tillo nisor qilg‘anda, san pala’nat bizni tukonxonaga qamab qo‘yasan. Burodaring bo‘lmasa, Qo‘qonjoningni ko‘tarib og‘zingga uraydik, muruningdin mag‘zi saring oqib tushaydi! Jar ma’nosiga endi tushungan yigitlarning yuzida birdan o‘zgarish ko‘rildi, ko‘zlarida g‘azab, nafrat o‘ti yondi: – Bu xon yo‘q, bu dayus! – dedi Rahim. – Akun saning labingga kesakni man surtay, o‘rtog‘im Sharifni o‘ldir? Bu xon yo‘q, bu dayus. Azbaroyi xudo, dayus! Qobil labini tishlab, sekinroq ishoratini qildi. Chunki xuylanib ketkan Rahim butun do‘konxonani boshig‘a kiyib baqira boshladi. – Bu xon yo‘q, bu dayus! Voy dar dahanat xonasha!.. – Sekin-sekin! – dedi qo‘rquvliq Qobil va o‘rnidan turib ketdi, – bir foydasi bormi, jinni! Rahimning eskidan shuning singari asabiy og‘rig‘i bor edi. Sharif bilan Qobil uning fe’liga yaxshi tushunar, ul birar haqsizlikka duch kelsa, garchi masalaning o‘ziga taalluqi bo‘lmag‘anda ham shuning singari jinni bo‘lib olar edi.
Bozorda jarchining Anvar va Sultonali haqida aytgan qo‘shig‘i qanday g‘oyaga xizmat qilmoqda? Uning xalq ichida bunday jar solib yurishi sabablarini qanday izohlaysiz?		

– Sultonalining qatlini eshitgan Anvarning o‘z oyoqlari bilan xonga taslim bo‘lishi maqsad qilingan edi; *– eshitganlar Anvarga aytishi uchun.*		
Sizningcha, bob nega “Barimta” deb atalgan? *– Chunki xon Anvarni qo‘lga tushirishda Sultonalidan foydalanadi.*		

“Xayr endi, Ra’no” bobi

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
“Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa, ayamga ham ishonib bo‘lmas”. Nega Anvar Ra’noga bu holatda o‘z onasiga ham ishonish xatarli ekanini aytmoqda? Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun? *– Chunki Ra’no ota-onasining roziligisiz Anvar bilan qochib ketgan va ota-onasi undan qattiq ranjishgan deb o‘yladi;* *– onasi qizi o‘z ixtiyori bilan qaytishini, buni oqibati o‘ylanmay, Anvar ta’sirida qabul qilingan noto‘g‘ri qaror sifatida qabul qilib, uni kechirishlarini aytib, olib qolishga urinishi mumkin edi;* *– onasi Ra’noni tutib berib, “Uni Anvar olib qochgan, qizim qochmagan, balki o‘g‘irlangan”, deyishi mumkin edi;* *– ona qizining qochoq tamg‘asi ostida sarson-sargardon bo‘lib yurishini istamas edi, shuning uchun yuqorida keltirilgan sabablar bilan Ra’noni Anvar bilan qochib ketishiga ruxsat bermasligi mumkin edi.*		Hissiyotka qattig‘ berilibsan, Ra’no... Har qadaming-da seni bir falokat kutadir, menga qolsa, ayamga ham ishonib bo‘lmas. – Paranji ichida borg‘an Ra’noni tanish uchun hech kimda karomat yo‘q; ayamga nega ishonib bo‘lmasin? – Sen qochqan, ayangning obro‘sini to‘kkan qizsan...
Sultonalining Anvarga yordam berganini kim qay tarzda fosh qilgan deb o‘ylaysiz?		Bu hammasi Sultonali bilan Anvarning o‘yunidir, deb o‘ylayman... Bu andishamga bir necha sabablar ham bor. Janoblardin maxfiy emasdirkim, biz o‘zaro qanday yaqin bo‘lsaq, Sultonali bilan Anvar ham o‘zaro shunday qalin do‘st edilar. Masalan, xon olmoqchi bo‘lg‘an qizni qochirg‘uchi Anvar ikki boshdan-ku, qaytib sarmunshiy bo‘lolmaydir, boshqa tarafdan, xiyonatkor do‘sti bo‘lib tanilg‘an Sultonalining ham hayoti tahlika ostida turadir...

– Avvalboshdan bu voqealar Anvarning rejasidir degan gumon yo‘q emasdi. Buni Abdurahmon bilan Shahodat mufti amalga oshirgan bo‘lishi mumkin. Chunki ularning har ikkisi Anvarga va Sultonaliga nisbatan g‘arazliklari bor edi. Bu fikr ulardan chiqqan va xon bunga ishongan, chunki xon ikki holatda ham zarar ko‘rmas edi, ya’ni agar Sultonalini qatlga hukm qilsa-yu, Anvar kelmasa bu harakatini shunchaki o‘z do‘stiga vafo ko‘rsatmagan bir xoinning munosib jazosi o‘laroq ko‘rsatar edi. Agar Anvar uni qutqarishga kelsa, nur ustiga nur, Sultonalini jinoyatchini yashirib, yolg‘on guvohlik berishda, Anvarni esa qiz o‘g‘irlashda ayblab qatl ettirar edi.		Shahodat mufti uning aqlig‘a tahsin o‘quy-o‘quy, nos chakib o‘z joyig‘a o‘lturdi. Sultonali Anvarga suiqasd qilmag‘anda ham unga hech gap yo‘q edi. Ammo ul xong‘a qarobat hosil qilish uchun aztahidil Anvarning qasdig‘a tushkankim, bunda shubha yo‘q. Kalonshohning qarshi chiqish fe’li bor edi. Bas, Sultonalining hamma harakati to‘g‘ri, Anvarga xiyonat qilishi mansab umidida ekanligi shubhasiz. Sultonalining Anvar bilan ati-qatilig‘i o‘rdadan har kimga ma’lum-ku, domla. Kalonshoh juda qizishib ketdi, “shar’an so‘zingizning to‘rt pullik qiymati yo‘q, uka” tahqiri bilan mulla Abdurahmon ham bo‘zarib oldi.
Anvarning do‘stiga qattiq ishonishi sabablarini avvalgi boblarga tayanib izohlashga harakat qiling. *– Sultonali bundan oldingi boblarida Anvarga yo‘llagan maktubida boshiga tushishi mumkin bo‘lgan fojialar haqida yozgan va bu uni zarracha tashvishga solmasligi, buni shunchaki taqdir bitigi o‘laroq ko‘rishini aytib, Anvarni tashvish chekmaslikka undaydi. Mana shu maktubdan Sultonalining Anvarga sadoqatini anglash mumkin;* *– Anvar bilan Sultonalining shunchaki do‘st emas, sinalgan do‘stlar ekanidan uchun bir-birlariga qattiq ishonishar edi.*		Agar men xong‘a “sadoqatlik qul” ekanman, bu “sadoqat” zamirida bir manfaatim bo‘lmog‘i lozimdirkim, ulam o‘z do‘stimni olog‘i “sadoqatimg‘a” qurbon qilib, evaziga sarmunshiylik masnadini olishimdir. Basharti shu masnaddin bosh tortsam, menga ishonchsizlik tug‘ulishi shubhasiz edi. Bas, shu majburiyatda men bu vazifani qabul qildim. Menga zahmat yetishi to‘g‘risida siz tashvish cheka ko‘rmangiz, modomiki, taqdirim shu ekan, tag‘yiri mumkin emasdir. Bu yo‘lda anchali zahmat chekmayin va hatto boshim ham ketmasin, menim uchun qiymatlirog‘i insonga sadoqat va shu sadoqatni to o‘lguncha qo‘ldin bermaslikdir..
Kuchli irodaga ega, jasur Anvar nega o‘ksinib yig‘ladi? *– Shu joygacha hech oson bo‘lmagan, bundan keyin ham noma’lum bo‘lgan qismatiga achinib yig‘ladi;* *– Ra’nodan ayrilayotgani uchun yig‘ladi;* *– Ra’noni qayta ko‘rmasligi mumkinligini, bu so‘nggi uchrashuv bo‘lishi mumkinligini bilar edi.*		– Xayr endi, Ra’no! Ra’no ham, xayr, degandek bosh irg‘adi va shoshib hujradan chiqdi. Ra’no ayvondagilar bilan xayrlashar ekan, hujrada qolg‘an Anvarning ikki ko‘zi jiq yoshqa to‘lib, ko‘kragi kuchlik-kuchlik silkindi va gavdasi o‘ziga og‘irliq qilg‘andek devorg‘a borib suyadi...
Anvar do‘stini qutqargani boradi deb o‘ylaysizmi?		Safar bo‘zchi boya Sultonalining xotini kelganda Qobilboyning niyatini eshitib xotirjam bo‘lg‘anini so‘zladi.

		– Juda yaxshi qiling‘an, rahmat... Hali uning uyiga kishi yuborsangiz, yana uqdirish, xotirjam qilish kerak, shunday ishontirilsinki, erta peshingacha eri-ning ozod bo‘lishig‘a shubhasi qolma-sin, hatto uni bu yo‘sun aldansa ham bo‘ladir. Erta bilangacha qutqarilsa, xo‘b, qutqarilmasa Anvarning o‘zi borib qutqarar emish, agar sen shungacha sabr qilmasang, eringning yana jazo tortishig‘a sabab bo‘lasan, deyilsin. – Xo‘b, mirzam, xo‘b.

“Qo‘rqunch bir jasorat” bobi

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
“Darhaqiqat, Anvarning qayerg‘a ket-kanini bilmasa, qanday qilsin? Bas, bu holda Sultonali qatl qilinadir, gunohsiz o‘ldiriladir... Bunga kim sabab, uning qoni kimni tutadir? Men shunisiga hay-ronman-da”. Nega Kalonshohning bu gapiga Abdurahmon va Shahodat mufti javob topa olmay qoldilar? Kalonshoh-ni hamtovoqlariga qaraganda vijdon-liroq deyish mumkinmi? Nima uchun?		– Uning uchun ikki yo‘l, – der edi Shahodat mufti, – yo ammazodasini topib berish, yo o‘lim, faqat ikki yo‘l. – Albatta shunday, – deb uning so‘zini tas-diq qilar edi mulla Abdurahmon. – Topib berganda ham yana jazo bor, bu tarafi ham unutilmasin. – Yana qanday jazo? – deb ajablanar edi mulla Kalonshoh. – Topib berishni bo‘ynig‘a oldimi, bas, bu so‘z Anvarni qochirg‘an ham o‘zim, degan iqrordir. Bu biyron javob mulla Kalonshohga yoqinqiramas edi.
Nega xon Anvarning “Sizda adolat bormi, janob?!” degan hayqirig‘idan qo‘rqib ketdi? Anvarning Sultonaliga “istehzoli” aytgan gaplaridan maqsadi nima edi? *– Chunki xon ich-ichida adolatsizlik qil-ganini his qilib turar edi;* *– bu savolning javobini o‘zi ham bilmas edi, xon bunday savol berishga had-di sig‘gan Anvarning yanada og‘irroq gaplarni gapirishi mumkinligi bilar edi;*		Gunohsizni menim ko‘z o‘ngimda banddan ozod qilinmas ekan, Anvarni bu yerdan chiqara olmaslar, qiblayi olam, – dedi va o‘zini tashqarig‘a torta boshlag‘an jallodlar-ni arslonlarcha siltab yubordi, – sizda ado-lat bormi, janob?! Qo‘rqunch bu hayqiriq Xudoyorni insofka keltirdi. Jallodlarni to‘x-tashqa va hudaychini Sultonalini hozirlash-ga buyurdi. Ko‘zi qonlang‘an Anvar ikki qo‘lini yonig‘a tashlab Xudoyor qarshisida turib qoldi. Hamma sukutda... Shunday fursatlarda gunohkorni adabsiz so‘zlar bi-lan so‘kib turg‘uchi Xudoyor ham jim.

– atrofdagi ayonlari va o‘z xizmatchilari oldida obro‘sizlantirilishdan qo‘rqdi; *– Sultonalidan gumonlarni, ayblovlarni olib tashlash uchun shunday qildi;* *– Sultonalining xonga “sadoqati”ni xalq oldida isbotlash, uni keyin kutilishi mumkin bo‘lgan fojialardan qutqarish uchun.*		Chunki a’yon nazarida har bir adabsizligiga Anvar tarafidan kuchlik bir haqorat olish ehtimoli bor. Shayxi Sa’diy aytkancha, dunyoda hayotidan qo‘l yuvg‘uchidek tili uzun kishi bo‘lmas.
Anvarning jasoratini qanday baholaysiz? “Iflos vijdon bilan g‘olib, sof vijdon bilan mag‘lub” bo‘lish nima degani? Fikrlaringizni hayotiy misollar bilan dalillang. *– Vijdonsiz odam turli hiyla-nayranglar bilan g‘olib bo‘lishi mumkin, lekin vijdonga yetkazilgan zarar uni bir umr qiynaydi;* *– vijdoni pok inson mag‘lub bo‘lishi mumkin, ammo uning ko‘ngli xotirjam bo‘ladi.*		– Kulishka haqqingiz bor, domla, chunki o‘ch olasiz, – dedi Anvar. Birdan hammaning ko‘zi Abdurahmonga tushdi. – Faqat siz iflosliq natijasida kulasiz, men... men to‘g‘riliq samarasini o‘raman, siz iflos vijdon bilan g‘olibsiz, men sof vijdon bilan mag‘lubman... Meni dor ostig‘a kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir?! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi. Iflosliq emasmi, taqsir?!

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollariga javob berishda ham o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir bildirilgan xulosasini matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

“Mehrobdan chayon” romani bo‘yicha yakunlovchi darsdan oldin asar asosida suratga olingan “Zulmatni tark etib” filmini o‘quvchilarga uyda ko‘rib kelishni topshirish tavsiya qilinadi.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
Berilgan boblardan Qo‘qon xonligining so‘nggi yillari haqida qanday tasavvurlarga ega bo‘ldingiz? Xulosalaringizni matn asosida dalillang.		asarning asosiy g‘oyasini aniqlash; asarning ikkilamchi g‘oyalarini aniqlash; fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltirish; boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda asar g‘oyalariga o‘z munosabatini bildirish.

Asardagi “chayon” kim? Nega ularni muallif aynan chayonga o‘xshatmoqda? Fikrlaringizni matn asosida izohlashga harakat qiling.		asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘ash; obrazga baho berish.
Sizningcha, qaysi bob va unga qo‘yilgan sarlavha asarning umumiy g‘oyasini ochishda ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda? Sizda bob nomlarini almashtirish imkoni bo‘lganda, ularga qanday nom bergan bo‘lardingiz? Nega?		asarning asosiy g‘oyasini aniqlash, asardan xulosalar chiqarish
Bugungi kun yoshlarida Anvar va Ra’noga xos qanday xususiyatlar yetishmaydi deb o‘ylaysiz? Siz ulardan nimalarni o‘rganishni istagan bo‘lardingiz?		obrazlarga o‘z bahosini berish, asardan xulosalar chiqarish

MAKTUB YOZISH

O‘quvchilardan Anvar va Ra’noning Toshkentdagi hayotini qanday tasavvur qilishlarini so‘rang. (Shu o‘rinda Anvar va Ra’noning nega Toshkentga qochib ketganligi haqida izoh berish mumkin – Toshkent bu vaqtga kelib Rossiya tomonidan bosib olingan va Xudoyorxonning “qo‘li yetmas” edi, ya’ni Anvar va Ra’no boshqa davlatga qochib ketgandek edi.)

Shundan so‘ng o‘quvchilardan “Ikki xil sadoqat” bobidagi Sultonalining Anvarga maktubi uslubi va umuman Qodiriy davri, bu tilning hozirgi o‘zbek tilidan farqlari haqidagi fikrlarini so‘rang. Albatta, yettinchi sinf o‘quvchilaridan chuqur tarixiy-lingvistik tahlil talab qilinmaydi. Ular asar tilidagi yaqqol ko‘zga ko‘rinib turgan jihatlarga (ayrim so‘zlar va qo‘shimchalar talaffuzining hozirgi adabiy tilda qabul qilingan talaffuzdan farqlanishi, hozirgi tilda ishlatilmaydigan so‘zlar, xususan, arabcha va forscha so‘zlarning ko‘pligi) e’tibor qarata olsalar, yetarli.

O‘quvchilarni juftliklarga bo‘ling va ularga Anvar va Ra’noning Toshkentdagi hayoti, kechinmalarini tasvirlab Anvar nomidan Sultonaliga yoki Ra’no nomidan onasiga maktub yozishni topshiring. Bunda maktub uslubi va tilini imkon qadar asarda tasvirlangan davrga yaqinlashtirishga harakat qilishlari lozim. Maktub hajmini oldindan belgilab bergan ma’qul.

O‘quvchilar yozgan maktublarini yig‘ib oling va baholang. Bunda maktub tili va uslubi, shuningdek, mazmunining asar mantig‘iga, obrazlar xarakteriga mosligiga e’tibor bering. Keyingi darsda ayrim maktublarni o‘qib, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish mumkin.

LOYIHA

Sinfni guruhlarga bo‘ling. Qahramonlar soniga qarab sinfni besh guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq. Har bir guruh asosiy obrazlardan (Anvar, Ra’no, Sultonali, Abdurahmon, Xudoyorxon) birini tanlaydi va berilgan jadval asosida obrazni tahlil qiladi. Agar o‘quvchilar “Zulmatni tark etib” filmini tomosha qilishgan bo‘lsa, mazkur obrazni gavdalantirgan aktyor ijrosiga ham munosabat bildirishlari, roli ijro etish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berishlari mumkin. O‘quvchilar tayyorlagan ishlarini guruh bo‘lib doskada himoya qiladilar.

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHANI O‘RGANISH: EPIK TUR VA JANRLAR

O‘quvchilarga badiiy asarlar uch turga bo‘linishini tushuntiring va har bir turning o‘ziga xos xususiyatlari haqida, epik turdan roman va hikoyaga xos eng muhim jihatlar haqida qisqacha ma’lumot bering. Bunda imkon qadar o‘quvchilar ilgari o‘qigan asarlarga tayanib misollar keltirish, tushunish qiyin bo‘lgan ilmiy terminlardan foydalanmaslik tavsiya etiladi. Berilgan ma’lumotlar asosida “Mehrobdan chayon” asari nima uchun roman hisoblanishini so‘rang.

– Qahramon hayotining kattaroq davri (Anvar tug‘ilishidan boshlab xon saroyida lavozimga tayinlanishi va Ra’no bilan birga Toshkentga qochib ketishigacha bo‘lgan davr) tasvirlangan;

– undagi voqealar va ishtirok etadigan obrazlar soni ham ko‘p (har bir bobda bir tugal voqea mavjud, asosiy qahramonlardan tashqari, bir qancha ikkinchi darajali obrazlar ham ishtirok etadi).

O‘quvchilar yuqori sinflarda roman janri bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirishlarini inobatga olib, bu yerda romanning faqat mana shu xususiyatlariga to‘xtalish tavsiya qilinadi.

EPIK TUR VA JANRLAR HAQIDA BILIB OLAMIZ

Badiiy adabiyot uch asosiy turga bo‘linadi. Har bir tur, o‘z navbatida ko‘plab janrlarni o‘z ichiga oladi.

Epik tur	Lirik tur	Dramatik tur
– asosan **voqealar** bayon qilinadi; – **janrlar**: hikoya, qissa, roman va boshqalar.	– asosan **his-tuyg‘ular, kechinmalar** tasvirlanadi; – **janrlar**: she’r, g‘azal, ruboiy, qit’a, fard va boshqalar.	– asosan **harakat** tasvirlanadi – bunday asarlar **sahnada** ijro etishga mo‘ljallanadi.

Roman va hikoya epik turning keng tarqalgan janrlaridan hisoblanadi. Romanda qahramon hayotining kattaroq davri tasvirlanadi, undagi voqealar va ishtirok etadigan obrazlar soni ham ko‘proq bo‘ladi. Hikoyada esa qahramon hayotidan bitta yoki bir-biriga bog‘langan bir necha qisqa voqealar aks etadi.

O‘ylab ko‘ring: “Mehrobdan chayon” asari nima uchun roman hisoblanadi?

PIRIMQUL QODIROV. “YULDUZLI TUNLAR”

Bu mavzuda biz:
– “Yulduzli tunlar” romanida Bobur obraziga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz;
– konfliktlarning obrazlarga xos xususiyatlarni ochib berishdagi ahamiyatini tadqiq qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**5 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” romanidan bob. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1 soat
Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” romanidan bob. Asar matni bilan ishlash	1 soat
Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” romanidan bob. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash.	1 soat
Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” romanidan bob. Loyiha	1 soat
Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” romanidan bob. Konflikt	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidan boblarni birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknida berilgan muallif, uning hayotidagi eng muhim nuqtalar, ijodkor bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillar haqidagi ma’lumotlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Kitobsevar o‘quvchilardan Pirimqul Qodirovning qaysi asarlarini bilishlarini so‘rang.

3. Asar sarlavhasidan kelib chiqib o‘quvchilarning Bobur haqidagi fikrlarini bilishga harakat qiling va ularning qarashlarini umumlashtirib, asarni tushunishga tayyorlang. Bunda o‘quvchilardan Bobur hayotiga oid tarixiy faktlarni keltirishlarini so‘rang, berilgan ma’lumotlarning asarda keltirilish tartibiga to‘xtaling.

4. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savollar bilan murojaat qiling.

Bobur haqida yana nimalarni bilasiz? Unga bag‘ishlangan qanday asarlarni o‘qigansiz yoki ko‘rgansiz? Bu asarlarda Bobur qanday shaxs sifatida namoyon bo‘lgan?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar Boburga bag‘ishlangan asarlarni eslaydilar. Savolning birinchi qismiga javob berishda Boburning shoh va shoir sifatida bosib o‘tgan hayot yo‘liga to‘xtaladilar. Bobur deganda ko‘z oldilariga kim kelishini, uni ko‘proq qanday inson o‘laroq ko‘rishlarini aniqlashga qaratilgan savollar berib, ochiq suhbat o‘tkazing. O‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtiring.

Shuningdek, o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, Bobur portretini chizishlarini so‘rang va Bobur bilan bevosita aloqasi bor deb hisoblagan narsa, joy, kishilarni ham tasvirlashlarini ayting. Keyin ulardan chizganlarini sharhlab berishlarini so‘rang.

Yozuvchining Bobur haqida asar yozishiga nima turtki bergan bo‘lishi mumkin? Sizningcha, asar nega “Yulduzli tunlar” deb nomlangan?

5. Ikkinchi savolga javob berishda o‘quvchilarning erkin, tahliliy fikr yuritishlariga yordam bering. (Kutiladigan taxminiy javoblar: a) yozuvchining Bobur ijodi va shaxsiga katta qiziqishi bo‘lgan; b) yozuvchi yashagan mustamlaka davrida Bobur to‘g‘risida turli asossiz ma’lumotlar ko‘payib ketgan va yozuvchi temuriylar avlodidan bo‘lgan Boburning pok nomini tiklash va asossiz ayblovlarni bartaraf etish uchun bu asarni ancha yillar, chuqur izlanishlar asosida yozgan) Yozuvchi umrining 10 yili bag‘ishlangan bu asarning badiiy qiymatigagina emas, balki ilmiy qiymatiga ham to‘xtaling. Savolning ikkinchi qismiga javob berishdan oldin o‘quvchilardan “yulduzli tunlar” birikmasi qanday ma’noni anglatishini, asarning bunday nomlanishi va Bobur bilan yulduzlarning qanday aloqasi borligini so‘rang. O‘quvchilar bu savolga javob berishda tasavvurlariga erk berishi lozim bo‘ladi.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Darslikning “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asar parchasidagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Muallif nega malika Baydaning ko‘zlaridagi ifodani “po‘lat tig‘ning sovuq jilosi”ga o‘xshatmoqda? Malika bu vaziyatda nimani o‘ylagan bo‘lishi mumkin? *– Po‘lat eng mustahkam bo‘lgan temir va boshqa elementlar qorishmasidir, yozuvchi bu o‘rinda po‘lat tig‘i derkan, po‘latdek mustahkam (qat’iy, o‘zgarmas), sinmaydigan sovuqlik (bir yovuzlik, yomonlik)ni nazarda tutyapti;* *– farzand dog‘ida o‘rtanayotgan onaning farzandi qotiliga nisbatan nafrat va g‘azabga to‘la po‘latdek tosh qotgan, sovuqqon yuragi akslantirilgan;* *– onaning yoshli bo‘lsa ham, mungli va tushkun emas, balki nafrat bilan to‘lgan keskin, tig‘day o‘tkir, temirday (sovuqda qolgan) muzdek nigohi tasvirlangan;*		Mulozimlar bu topshiriqni ta’zim bilan qabul qildilar. Malika ham bosh egib, minnatdorchilik bildirgan bo‘ldi. Ammo uning yig‘idan namlangan ko‘zlari po‘lat tig‘ning sovuq jilosini eslatib nafrat bilan yaltirab ketganini hech kim ko‘rmadi.

– o‘g‘lining qotilidan o‘ch olishni; *– qo‘rg‘on darvozalari kalitlarini qaytarib olishini.*		
Baydaning nabirasi Bahodir nega Boburni maqtadi? *– Bahodir o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan narsalarni gapirdi, u Boburning saroy ichkarisida olib borayotgan siyosatini, odamlarining unga o‘ta itoatkor ekanliklarini va o‘zi ham so‘zga usta notiqligini aytdi (issiqdan qiynalib bu yurtdan ketmoqchi bo‘lganlarni yig‘ib, nutq so‘zlaganini nazarda tutmoqda);* *– Bahodir unga qo‘shib yuborilgan navkarlarning Bayda bilan bo‘lgan suhbatlarini eshitishayotganidan shubhalanar va shohni yomonlashga jur’at etolmas edi, aytgan gaplarining Bobur qulog‘iga yetib borishidan hadiksirardi.*		– Podshohlari ketgani qo‘ygaymi? Ko‘pchilik uning izmidan chiqmas ekan. O‘zi ham juda gapga usta notiq odam ekan. “Ketamiz”, deb yurganlarni saroyga to‘plab, shunday bir gaplashdiki, hammasi jim bo‘lib qoldi. – Sen otangning qotilini... maqtayapsanmi?
Nega Bobur o‘lja olingan boyliklarni obodonchilik yo‘lida sarflamoqchi bo‘ldi? Me’mor Fazliddinga Andijonda, Hirotda qila olmagan ishlarini Agraga kelib amalga oshirishiga imkon berishida Boburga xos qanday xususiyatlarni ko‘rdingiz? *– Chunki u hind elini o‘z elidek, hind diyorini o‘z diyoridek ko‘rar edi;* *– xalq ishonchiga kirish uchun;* *– issiqdan aziyat chekayotgan xalqqa yordam berish uchun;* *– Agrani ham o‘zi tug‘ilib o‘sgan Andijon-u Samarqanddek go‘zal qilish va shu orqali biroz bo‘lsa ham yurt sog‘inchini kamaytirish uchun;* *– bunyodkorlikni sevuvchi, islohotlarni qo‘llabquvvatlovchi va yangiliklarga intiluvchi inson sifatida gavdalanadi;* *– tadbirli inson (begona yurt, tabiiy sharoitga moslashib, qulayliklar yaratishga urinyapti).*		– Yana shahar-u qishloqlarga maxsus tavochilar yuboring. Biz Ibrohimdan o‘lja olingan boyliklarni obodonchilik yo‘lida sarflamoqchimiz. Shuni barcha viloyatlarga ma’lum qiling. Qurilishlarda ishlash uchun sizga o‘n besh ming korgar yetarlimi, mavlono? – Qalay, mavlono, issiq o‘zingizni ko‘p qiynamadimi? – dedi. – Qiynasa ham chidaymiz-da. Mana shunday katta obidalarni Andijonda quramen deb, qurolmadim. Hirotda quramen deb, qurolmadim. Chizgan tarhlarim o‘ttiz yil sarg‘ayib yotdi. Qarangki, butun umr qilgan orzularim uzoq Agraga kelganimda ro‘yobga chiqadigan bo‘lib turibdir. Taqdir-u nasibam shuni taqozo qilsa, issig‘i ko‘zimga ko‘rinurmi? Hindistoniy ustalar salqin tutadigan meva sharbatlari-yu yengil taomlar yeyishar ekan. Men ham shunga o‘rgandim. Ertalab salqinda turib bir paxra ishlaymen. Kun qizigan-da bir paxra yotib dam olgaymen. Issiqning tafti pasaygach, yana bir paxra ishlagaymiz.

Bobur Xo‘ja Kalonni qilgan ishi uchun shu tarzda “jazo”lashi to‘g‘ri edimi? Siz Boburning o‘rnida qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz? *– Boburning o‘z izohicha, bu voqeaga ortiqcha e’tibor yanada ko‘pchilikning diqqatini tortar, muhokamalar bitmas edi, shuning uchun ham u she’rga she’r bilan munosib javob bergan edi;* *– ko‘pchilikning e’tiborini tortmasdan, ishni kattalashtirmay, men ham Bobur qilgan ishni qilar edim;* *– Agraga qaytartirgan va she’rida aytganidek, Hindga qaytsam, yuzim qora bo‘lsin degan ontining ustidan chiqolmaganini o‘ziga va atrofdagilarga ko‘rsatgan bo‘lar edim, zotan, u o‘z ixtiyori bilan keltirilmagani kabi o‘z ixtiyori bilan ketmaganini (ma’lum vazifa yuzasidangina ketganini) eslatar edim va bu boshqalar uchun dars bo‘lar edi.*		– Bu bayt devorga yozilganicha turibdimi? – so‘radi Bobur Hindubekdan. – O‘chirtirib tashladim. – Bekor qilibsiz, bek. Siz o‘chirganingizdan so‘ng bu bayt odamlarning xotirasiga yanada mahkamroq o‘rnashur, she’rning ta’sirini faqat she’r bilan kesmoq mumkin. Bobur badiha ohangida gapirdi: *– Yuz shukr de Boburki, Karim-u G‘affor* *Berdi senga Sind-u Hind-u kishvari bisyor.* “Kishvar” so‘zi vaznga tushmay saktalik berganini sezdi-da, ikkinchi satrni boshqacha qilib takrorladi: *Berdi senga Sind-u Hind-u mulki bisyor.* *Issiqlig‘iga gar senda yo‘qdur toqat,* *Sovuq yuzin ko‘ray desang, G‘azni bor.* Mushoiraning nozik qoidalariga moslab birpasda yaratilgan bu badiha Hindubekning zavqini keltirdi. U devorga sovuq gap yozib ketgan Xo‘ja Kalonbekning basharasi ham Boburga nechog‘liq sovuq ko‘ringanini o‘zicha tasavvur etib, beixtiyor kulib yubordi. Bobur otgan o‘qining nishonga tegganini shu zavqli kulgidan sezdi-yu, yengil bir so‘lish olib, munshiga buyurdi.
Malika Bayda boshliq fitnachilar Bobur o‘ldirilsa, fotihlar Hindistonda turolmay, ketib qolishlariga ishonardilar. Sizningcha, agar Bobur zahardan vafot etsa, uning mulozimlari Hindistonni tark etgan bo‘larmidi? Bu holatda asar voqealari qanday rivojlangan bo‘lardi? *– Agar Bobur o‘ldirilsa ham, hamma ketmas edi, chunki issiq bo‘lishiga qaramasdan hind yurtida ham o‘zlari uchun sharoit yaratib, moslashib olganlar bor edi;*		To‘rt buklangan oq qog‘oz ichida ziravorga o‘xshab turgan zahar ikki misqolgina bo‘lsa ham, Bahlulga zo‘r bir po‘lat quroldek og‘ir tuyulardi. U jangda vatanini himoya qilib jon bergan inisining o‘chini shu qurol yordamida olishni va fotihlarni bu yerdan tezroq quvishni istar edi. Agar Bobur o‘ldirilsa, fotihlar Hindistonda turolmay, ketib qolishlariga Ahmad choshnigir Bahlulni ishontirgan edi.

– Bobur o‘lgach, o‘g‘li Humoyun taxtga o‘tirar edi, u ham otasining yo‘lini tutgan bo‘lar edi (ketishlariga izn bermasdi); *– ketishar edi, o‘lkani talon-toroj qilib, qaytib ketishgan bo‘lardi;* *– nafaqat iqlimi noqulay, balki aholisi ko‘p bo‘lgan begona o‘lkada yo‘lboshchi (Bobur) o‘limidan keyin turish xatarli edi, chunki hindlar qo‘zg‘olon qilishi va hammasini bitta qoldirmay qirib tashlashi mumkin edi.*		
Malika Baydani qanday tasavvur qildingiz? U to‘g‘ri yo‘l tutdimi? Nega Bobur uni o‘limga hukm qilmadi? Boburning qaroridan keyin malika pushaymonlik hissini tuyadi deb o‘ylaysizmi? *– Mag‘rur, kibor, qasoskor, atrofdagilardan (fotihlardan, jumladan, Boburdan) alamzadalardan biri;* *– nafrat ko‘zini ko‘r qilgan edi, Bobur uni “mo‘tabar onamiz” maqomiga ko‘tarishiga qaramasdan, u farzandi qotiliga ona bo‘lishdan og‘irroq jazo yo‘qligini aytib, o‘z-o‘zini shu qadar ishontirgan ediki, bir hind bo‘la turib, shu hind xalqining onasi bo‘la turib, bu elga Bobur bilan kelgan ziyoni, ro‘shnolikni ko‘rmas edi;* *– chunki Bobur o‘tmishda shunga o‘xshash vaziyatlarda berilgan hukmlar oqibatlarini yaxshi bilardi, Bayda uchun haqiqatdan ham eng og‘ir jazo uddasidan chiqolmagan ishining mahsuli (Boburning tirikligi), kamolini ko‘rmaklik edi;* *– malika pushaymon bo‘ldi, chunki hukm o‘qilgach, u o‘pkasi to‘lib yig‘lagani tasvirlanadi. “Shu paytgacha u ajali yetganiga shubha qilmas edi. Endi birdan yana yashash umidi paydo bo‘ldi. Malikaning o‘lim sovug‘idan muzlagan qalbiga hayotning iliq nafasi tegdi-yu, ko‘nglini bo‘shashtirib yubordi. Malika yuzini qo‘llari bilan to‘sib, yelkalari silkina-silkina yig‘lay boshladi”.*		Kampir hali ham boshdan oyoq oq kiyib, o‘g‘li Ibrohimga aza tutib yurar edi. Faqat qaddi avvalgidan biroz bukchayganroq. Lekin ko‘zlari Boburning yuziga tushganda uning og‘ir kasalga o‘xshab sarg‘ayib qolganidan qanoat hosil qilganday mamnun yiltiradi. – Bu malikaning barcha mol-u dunyosini musodara qilib, Jamna bo‘yida bir buq’ayi xayr qurdiring. Barcha xizmatkorlari o‘sha buq’ada xizmat qilsin, malikaning butun boyligi, mol-u dunyosini yetim-yesirga xayr-ehson qilib ulashsinlar. Malika bizning bundan keyingi zafarlarimizni ham ko‘rsin. Yomonlikka yaxshilik qilish mard kishining qo‘lidan kelishiga amin bo‘lsin. Agar malikada vijdon bo‘lsa, o‘g‘li qilmay ketgan ishlarni biz qilganimizni ko‘rib, vijdoni azoblansin. Agar vijdoni bo‘lmasa, ichida faqat baxillik chayonlari bo‘lsa, bu chayonlar o‘zini chaqib yotaversin. Malikaga bundan o‘zga jazo munosib emasdir!

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollariga javob berishda ham o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir bildirilgan xulosasini matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH
SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
“Yulduzli tunlar” romanidan tanlangan mazkur bob nega “Agra: yo hayot, yo mamot” deb nomlangan? Bob sizda romanning umumiy g‘oyasi haqida qanday tasavvurlar uyg‘otdi?		asarning asosiy g‘oyasini aniqlash, asosiy g‘oyasiga o‘z munosabatini bildirish
Bobda Boburga xos qanday xususiyatlarni kashf etdingiz? Fikringizni matn asosida dalillang.		obrazga baho berish, fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltirish
Pirimqul Qodirov Bobur haqida shunday yozadi: “Amir Temur tajribasini eng chuqur o‘rgangan va davom ettirgan temuriyzoda, menimcha, Boburdir. Bobur butun hayoti davomida Amir Temurning tuzuklaridagi purma’no so‘zlardan juda ko‘p ibrat olgan. Daho darajasidagi talant nuqtayi nazaridan qaraganda, Amir Temurga irsiy voris va yaqin avlod Bobur Mirzo deb aytish mumkin”. Muallifning Bobur haqidagi qarashlari asardagi Bobur obraziga qanday ta’sir qilgan? Sizningcha, Bobur obrazida insonga xos kamchiliklarni ham kuzatish mumkinmi?		asardan xulosa chiqarish, fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltirish

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va mutolaadan keyingi bosqichdagi loyihani uyga vazifa qilib bering. Keyingi darsda xohlovchi o‘quvchilardan yozib kelgan esselarini o‘qib berishni so‘rang va esselarni yig‘ib olib, tekshiring. Baholashda esse mazmuni va o‘quvchi fikrlarining asosli ekaniga diqqat qiling, kamchiliklarni belgilang va keyingi darsda tarqating. Toki o‘quvchilar o‘z xato va kamchiliklarini bilib olishsin.

LOYIHA

“Yulduzli tunlar” romani asosida ishlangan “Bobur” videofilmidan Darveshgovning o‘limga hukm qilinishi lavhasini tomosha qiling. Darveshgovning o‘ldirilishiga rozilik bergan Bobur va malika Baydani o‘limga hukm qilishdan bosh tortgan Boburni solishtirib esse yozing.

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: KONFLIKT

Badiiy asar odatda **konflikt** (ziddiyat, qarama-qarshilik) asosiga quriladi. Konflikt har xil bo‘lishi mumkin:

– bosh qahramonning boshqa qahramon (yoki qahramonlar) bilan ziddiyati;

– qahramonning tabiat kuchlariga yoki o‘zini o‘rab turgan muhitga nisbatan ziddiyati;

– qahramonning o‘ylari, his-tuyg‘ulari o‘rtasidagi ziddiyat.

Konflikt syujetdagi voqealarni harakatga keltiradi va asar g‘oyasi, qahramonlar xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy asar bir emas, bir necha konflikt asosida qurilishi ham mumkin.


Misol uchun, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida asar voqealari Anvar va Abdurahmon o‘rtasidagi ziddiyat asosida rivojlanadi va bu voqealar orqali o‘quvchi Anvar, Ra’no, Abdurahmon singari qahramonlarning xarakterini bilib oladi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida esa Hoshimjonning “o‘qimasdan odam bo‘lish” istagi real voqelik bilan konfliktga kirishadi va natijada Hoshimjon turli kulgili vaziyatlarga tushib qoladi.

“Yulduzli tunlar” romanidan olingan bobda Boburning kim (yoki kimlar) bilan konfliktini kuzatish mumkin? Bu konfliktlar Bobur xarakterini ochib berishda qanday ahamiyatga ega?

Konflikt haqida nazariy ma’lumotlar berilgach, o‘quvchilar egallagan bilimlarni mustahkamlash maqsadida o‘tilgan mavzular (asarlar)dagi konfliktlarning (bosh qahramonning boshqa qahramon yoki qahramonlar bilan ziddiyati; qahramonning tabiat kuchlariga yoki o‘zini o‘rab turgan muhitga nisbatan ziddiyati; qahramonning o‘ylari, his-tuyg‘ulari o‘rtasidagi ziddiyat) turlariga misollar keltiring. “Yulduzli tunlar” asaridagi qahramonlar o‘rtasidagi konfliktni (qahramonlarning xususiyatlarini) aniqlashda Venn diagrammasidan foydalaning.

“Yulduzli tunlar” asaridagi Bobur va Shayboniyxon obrazlarining xususiy va umumiy jihatlarini toping.





FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TARIX

Bu mavzuda biz:
– tarixchi, yozuvchi va shoirning tarixiy voqealarga yondashuvidagi farqlarni solishtiramiz.

Mazkur integratsiya darsida o‘quvchilar tarixchi, yozuvchi va shoirning tarixiy voqealarni tasvirlashdagi yondashuvlarini solishtirish orqali badiiy adabiyotning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq qiladilar.

1. O‘quvchilarning adabiyot va ilm-fan (tarix, geografiya, tabiiy fanlar va hokazo) farqlari borasidagi fikrlarini so‘rang. Ularning fikrlarini yozuv taxtasiga qayd qiling, lekin hozircha munosabat bildirmang.

2. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. Berilgan uch matnni o‘qib, matnlardan keyingi savollar yordamida solishtirish vazifasini topshiring. Belgilangan vaqt tugagach, guruhlarning fikrlarini eshiting va muhokama qiling. Bunda quyidagilarga e’tibor qarating:

– adabiyotda badiiy to‘qima mavjudligi (voqealar tafsilotlarining muallif to‘qimasi mahsuli ekanligi, ularda tarixda mavjud bo‘lmagan shaxslarning “ishtirok etishi” mumkinligi);

– voqea-hodisaning ilmiy bayoni obyektiv bo‘lishi lozimligi, badiiy asarda esa subyektivlikka yo‘l qo‘yilishi, muallifning obrazga nisbatan subyektiv munosabati aks etishi;

– badiiy asarning emotsionalligi (o‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qilishi).

Shuningdek, nasriy (Xayriddin Sultonov) va she’riy (Xurshid Davron) matnlarni solishtirishda o‘quvchilarning adabiy turlar haqidagi bilimlariga suyanib, epik va lirik turning asosiy farqlarini muhokama qilish tavsiya qilinadi.

3. O‘quvchilarga o‘zlari ko‘cha-ko‘yda, maktabda guvoh bo‘lgan biron voqeani avval “tarixchi”, so‘ng esa “yozuvchi” yoki “shoir” sifatida tasvirlab ko‘rish vazifasini topshiring. O‘quvchilar mazkur topshiriq ustida guruhlarda ishlaydilar va har bir guruh ikkita (bitta “tarixiy” va bitta “badiiy” – nasrda yoki nazmda) matn yaratadilar. Guruhlarning matnlarini sinf bilan eshiting va muhokama qiling. “Tarixiy” va “badiiy” matnlarda ularga xos xususiyatlarning qay darajada aks etganiga e’tibor qarating.

TAKRORLASH

Mazkur takrorlash darsi topshiriqlari Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanidagi “Abdulatifning ilk isyoni” bobidan olingan parcha hamda Abdulla Qodiriy, Zulfiya, Alisher Navoiy va Uvaysiy asarlaridan parchalar asosida tuzilgan.

Topshiriq	*Javob*	*Izohlar*
1	C	“– Noxosdan emas, ataylab tig‘ urdingiz! – dedi Alauddavla va momosiga yuzlandi. – Menga devonda katta lavozim berilgani uchun baxilligi kelib yurgan edi. Mana, alamini oldi!”
2	C	“Avvalo, siz chaqimchilik qilishdan uyaling!.. Ilkiga qilich urib yarador qilganingiz ustiga yana bunday beodob gaplar!”
3	A	“Tug‘ilgan shahri Samarqandni sog‘inib, ota-ona mehrini qo‘msab yurgan, Hirotda o‘zini garovda ushlab turilganday sezadigan Abdulatif ...”
4	A	“Unda siz mening sohibixtiyor eshikog‘am, birinchi amirim bo‘lursiz! Bunday katta lavozimlar oldida qish sovuqlari ham Junaid Bo‘taning ko‘ziga ko‘rinmay qoldi”.
5	C	“Agar... mening so‘zlarimga isbot talab qilinsa... Xo‘p, ijozat bering, hozir qish chillasi bo‘lsa ham, Samarqandga yo‘l olay. Onalik mehrim qandaylig‘ini Mirzo Ulug‘bek oldida isbot etay, Abdulatifni Hirotga olib qaytay”.
6	C	
7	B	
8	A	
9	C	Asosiy mazmuni: hayvonsifatlardan sovg‘a (in’om) kutish ahmoqlikdir.
10	A	Asosiy mazmuni: umr qishi (qarilik) keldi, endi safar (narigi dunyoga ketish, o‘lim) tayyorgarligini ko‘rish kerak.
11	B	Asosiy mazmuni: dushmandan, hatto chiroyli so‘zlasa ham, ehtiyot bo‘lmoq lozim.
12	makkajo‘xori	



MAVZULAR USTIDA ISHLASH BO‘YICHA TAVSIYALAR

4-fasl.
TURFA QIYOFALAR

O‘lmas Umarbekov. “Qiyomat qarz”
Qamchibek Kenja. “Baliq ovi”
Saida Zunnunova.
“Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh…”
Iqbol Mirzo. “Daraxtlar”
Anton Chexov. “Xameleon”

Adabiy tushunchalar:
– badiiy asarda detal
– yumor va satira

Fanlararo aloqa:
adabiyot va tasviriy san’at



O‘LMAS UMARBEKOV.
“QIYOMAT QARZ”

Bu mavzuda biz:
– hikoyadagi milliy xarakterning badiiy talqinini muhokama qilamiz;
– badiiy tasvir vositalariga oid bilimlarimizni mustahkamlaymiz;
– asar syujetini tahlil qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**4 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (muallif bilan tanishish, “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Asar matni bilan ishlashni boshlash	1 soat
Asar matni bilan ishlashni davom ettirish	1 soat
Mutolaadan keyingi bosqich savol va topshiriqlari bilan ishlash	1 soat
Loyiha taqdimoti	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga O‘lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” hikoyasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknidagi muallif haqida ma’lumotlarniyetkazish jarayonida yozuvchining adabiyot haqidagi fikrlariga, ijodkor bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillarga ahamiyat qarating.

3. Asar sarlavhasidan kelib chiqib o‘quvchilarning qarz haqidagi fikrlarini bilishga harakat qiling va ularni asarni tushunishga tayyorlang. Buning uchun o‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savollar bilan murojaat qiling. Lozim bo‘lsa, “qiyomat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi va “qiyomat qarz” birikmasidagi ma’nosiga qisqacha izoh berish mumkin.

Siz “qarz” so‘zini qanday tushunasiz? Nega “qarz” va “qiyomat” so‘zlari birga qo‘llanyapti? Bu so‘zlar orasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?


Ushbu savollarga javob berishda o‘quvchilar atrofdagilardan eshitgan tayanch bilimlariga asoslanib turli fikr va xulosalar berishlari mumkin. Bu o‘rinda o‘qituvchi ularning fikrlarini umumlashtirish bilan bir qatorda qarz beruvchi va qarz oluvchi munosabatlarining shartlarini (qarzga berilgan narsa ma’lum muddatda qaytarilishi) va qarz oldi-berdisida rozi-rizochilikning ahamiyati haqida aytib o‘tishi, hayotiy vaziyatlardan misollar keltirgan holda tushuntirishi mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilar yuqoridagi so‘zlar ma’nosini qanchalik yaxshi tushunganlarini tekshirish maqsadida ularga qo‘shimcha savollar berish ham mumkin. Masalan: “Faqat pul qarzga beriladimi?”, “Qarz nega so‘raladi?”, “Siz kimdandir qarz so‘rasangiz, u sizga qarz berishga majburmi?” kabi o‘ylash va tahlil qilishga undovchi savollar berish mumkin. Javoblarni umumlashtirishda qarz (yordam) so‘ragan muhtojlarga imkon qadar qarz (yordam) berish insoniy fazilat ekanligiga urg‘u qaratish tavsiya qilinadi. Bu orqali esa

o‘quvchilarning faqat ilmiy salohiyatini emas, balki insoniy sifatlarini ham shakllantirishga erishish mumkin.

O‘quvchilarning fikrlarini umumlashtirishda “T-sxema” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchilar qarzning salbiy va ijobiy tomonlarini umumlashtirib, bu mavzuga nisbatan tushunchalarini yanada mustahkamlab olishadi.

Qarzning ijobiy va salbiy tomonlarini izohlang.



4. Keyingi topshiriqda muammoli vaziyat berilgan bo‘lib, u o‘quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bu o‘rinda omonatga xiyonatning oqibatlari, aldagan va aldangan kishilarning ko‘nglidan qanday kechinmalar o‘tishi mumkinligini ham so‘rash mumkin. O‘quvchilarning berilgan vaziyatga munosabatlari tinglangach, o‘qituvchi tomonidan umumlashtirib, xulosalovchi fikr berish tavsiya etiladi.

Tasavvur qiling, do‘stingiz siz bergan omonatga xiyonat qildi. Bu holatda siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Darslikning “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asardagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Savollar, o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar va izohlar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Sarsonboy ota nima uchun: “Ha, tuzuk, bu gal kechikmadim. Avji bozor”, – dedi? U bozorga nima maqsadda keldi deb o‘ylaysiz? Nima uchun otaning hikoyadagi ilk nutqi mana shu jumla bilan boshlandi? *– To‘riq olish uchun;* *– do‘sti bilan uchrashish uchun;* *– odamlarni kuzatib, “vaqt o‘ldirish” uchun;* *– biror zaruriy narsani xarid qilish uchun.*		Sarsonboy ota rayon markaziga kelganda quyosh yerdan endigina cho‘giri tilimidek ko‘tarilgan edi. Kim biladi, hali erta bo‘lgani uchunmi yo sovuq tushib, bozor-o‘char qiladiganlar kamayib qolganidanmi – odam siyrak, bozor kunlari bo‘ladigan g‘ala-g‘ovur, to‘polon yo‘q. Chol ichida xursand bo‘lib qo‘ydi: “Ha, tuzuk, bu gal kechikmadim. Avji bozor”.

Sarsonboy ota nima uchun doim singan deraza yoniga o‘tiradi? Uning bozorga kelishdan maqsadi oydinlashdimi? *– Sarsonboy ota bozordagi va ko‘prikdan o‘tayotgan odamlarni kuzatmoqchi, demak, u kimnidir izlayotgan bo‘lishi mumkin.*		Sarsonboy ota katta ko‘zi singan deraza yoniga cho‘kkaladi. Choyxona qurilibdiki, shu joy uniki. Birov o‘tirgan bo‘lsa ham, u kelganda bo‘shatib beradi. Shu yerdan bozor maydoni yaxshi ko‘rinadi, ko‘prikdan o‘tayotgan biror odam ham xato ketmaydi, hammasi ko‘zdan o‘tadi.
Sarsonboy ota va Madumar aka o‘rtasidagi suhbatdan nimalarni angladingiz? Madumar aka aytganidek, otaning holati chindan ham achinarli edimi? Nima uchun? *– Sarsonboy ota Madumar aka choyxonasiga ko‘p keladi;* *– ular qalin do‘st (do‘st achitib gapiradi) va ancha yillik tanish (bir-biriga qattiq gapirishga haddi sig‘adi);* *– Madumar aka hatto qoraxat (urushda halok bo‘lganligi haqida xabar) kelgan o‘g‘lini uzoq vaqt kutgan, shuning uchun ham Sarsonboy otaning vaziyatini yaxshi tushunadi, uning ezilishini istamaydi, “Kutgandan yomon narsa yo‘q”, “Kerak odam o‘zi topib oladi seni” deb do‘stini bu ishdan qaytarmoqchi;* *– Madumar aka Sarsonboy otaning holiga achinishini aytar ekan, u shu o‘rinda o‘z vaziyatini ham nazarda tutadi;* *– “kutish” bilan “sog‘inch” so‘zlarining ko‘pincha birgalikda qo‘llanishining sababi, inson sog‘ingan odamlarining (damlarining) qaytishini kutadi. Sarsonboy ota ham kutar edi, kelishi aniq bo‘lmagan kimnidir umidvorlik bilan kutar edi.*		– Ha, Sarsonboy, omonmisan? – dedi choyxonachi choy keltirib qo‘yar ekan. – Yana kelibsan-da? – Nima, senga og‘irligim tushdimi? – to‘ng‘illadi Sarsonboy ota oftob sarg‘aytirgan siyrak qoshlarini chimirib. – Jazillama. Azbaroyi achinganimdan gapiraman. Kutgandan yomon narsa yo‘q. ... – Jazillama, – iljaydi Madumar aka. – Har bozor basharangni ko‘rsam, ko‘nglim ayniydigan bo‘lib qolibdi. Qir-piringda podangni boqib yuravermaysanmi? Kerak odam o‘zi topib oladi seni. Tag‘in o‘zing bilasan. Menga desa, shu yerda yotib ol. Yo‘lda yakka o‘zingsan, tag‘in o‘lib-netib qolmagin deyman-da, betamiz!
Zebi kim bo‘lishi mumkin? Nima uchun ikkalasi ham bu ayol haqida gapirmoqda? Nima uchun Zebi Sarsonboy otaning bozorga kelishini istamaydi? *– “Bugun zo‘rg‘a yubordi”, “So‘kmadingmi?” “Men ham achinaman unga. Yolg‘izlik yomon” jumlalaridan Zebi Sarsonboy otaning yaqin kishisi ekanini, ular birga yashashlarini, Zebining Sarsonboy otadan boshqa hech kimi yo‘qligini anglash mumkin.*		– Zebi qalay? Yuribdimi? – Tuzuk, – dedi Sarsonboy ota derazaga bir qarab qo‘yib. – Bugun zo‘rg‘a yubordi. Bu yoqqa kelishimni bilib, yarim kechada otni dalaga haydabdi. – So‘kmadingmi? – xavotirlanib so‘radi Madumar aka. – Yo‘q, u sho‘rlikka ham qiyin. Endi so‘kmayman. – So‘kma. Bechoraning sendan boshqa kimi bor? ... – Men achinmaymanmi? Men ham achinaman unga. Yolg‘izlik yomon. Buni o‘zing ham bilasan. ...

Yozuvchi ko‘prikni lapanglagan tuyaga o‘xshatishida qanday ma’no bor deb o‘ylaysiz? Nega o‘shanda ko‘prikdan hamma bir tomonga qarab yurgan? *– Ancha eski va liqillab qolgan, yog‘ochlari eski ko‘prik bo‘lgani uchun;* *– urushga ketayotgan odamlarni tasvirlagan, shuning uchun urushga kelib qaytganlar bu ko‘prikdan o‘tdi, urushdan qaytmaganlar esa…* *– ko‘prik urushga, qaytib kelishi dargumon manzilga ketayotgan qadamlardan charchagan, tuyadek og‘ir harakatlanadi, urishga borar yo‘llarning biri ekanidan og‘rinadi.*		Sarsonboy ota yana derazaga tikildi. Ko‘prik o‘tgan-ketganning ko‘pligidan xuddi tuyadek lapanglardi. O‘shanda ham shunday lapanglab turgan edi. ...O‘g‘lini kuzatganda ham, Haydaralini kuzatganda ham... Lekin unda odamlar bir tomonga qarab yurgan edilar. O‘shalardan ko‘pi shu ko‘prikdan qaytib o‘tmadi, biri o‘ldi, biri bedarak ketdi.
Zebi xola fojiasi sizda qanday tasavvurlarni uyg‘otdi? Uning dahshatli yig‘isi va tog‘ning aks sadosida qanday uyg‘unlik bor deb o‘ylaysiz? *– Tog‘lar ham uning dardini his qilib, unga qo‘shilib faryod chekayotgandek;* *– ulkan tog‘larni zabt etgan, ulardan-da buyukroq, ulkanroq dard sohibasini akslantirgandek.*		Kun tik kelganda tushlik qilmoqchi bo‘lib, xurjundan suzma olganini biladi, qishloq tomondan ayol kishining uvvos solib yig‘lagani eshitildi. Yig‘i tog‘dan aks sado berib, shunday qattiq jarangladiki, Sarsonboy ota cho‘chib ketdi. O‘rnidan turib, pastga qaradi. Sochlari to‘zg‘igan bir ayol soy yoqalab, yuzini yumdalab kelardi. – G‘ofur... G‘ofurjon... – Zebi xola gapirolmadi, ho‘ngraganicha qo‘lidagi qog‘ozni eriga uzatdi. Sarsonboy ota kichkina ko‘k qog‘oz parchasini ko‘rib, hammasiga tushundi. Madumar aka ham o‘g‘lidan shunday xat olgan edi... Sarsonboy ota o‘qimadi, qo‘l-oyog‘i muz bo‘lib, turgan joyida qotib qoldi. Xudo unga bir farzand bergan edi, shuni ham ko‘p ko‘rdi.
Sarsonboy ota nima uchun Haydaralidan Stalingraddagi o‘g‘lining qabrini ziyorat qilishni so‘radi? *– O‘g‘lidan bir yil oldin qoraxat kelgan va uning jasadi begona yurtga dafn qilingan, Haydarali ham shu joyga ketyapti;* *– o‘g‘lining qabrini sog‘inganida ziyorat ham qila olmaydi, hech bo‘lmaganida uning nomidan Haydaralining borib ziyorat qilishini istayapti.*		Jo‘naydigan kuni Haydarali eshakaravaga ortib, ikkita qo‘y olib keldi. Unda G‘ofurdan qoraxat kelganiga yil bo‘lgan edi. – Imkoni bo‘lsa, G‘ofurning mozorini bir ziyorat qilib o‘t. Istalingradda.

Haydarali nima uchun aynan Sarsonboy otaga ikkita qo‘yni omonat qoldirdi? Har ikkisi ishongan va umid qilgan narsa nima edi? *– Haydarali urushdan qaytishiga umid qilmoqda;* *– Haydaralining otasi urushga ketgan (“Dadam qo‘yni yaxshi ko‘rar edilar. Qaytganlarida to‘y-po‘y qilardik”.), qo‘ylarni ishonib tashlab ketadigan boshqa kishisi yo‘q (“Kuzatadigan uning biron kimsasi ham yo‘q edi”.), Sarsonboy ota esa o‘rtog‘ining otasi.*		Jo‘naydigan kuni Haydarali eshakaravaga ortib, ikkita qo‘y olib keldi. Unda G‘ofurdan qoraxat kelganiga yil bo‘lgan edi. – Amaki, shular sizda tursin, – dedi iymanib. – Dadam qo‘yni yaxshi ko‘rar edilar. Qaytganlarida to‘y-po‘y qilardik... Agar malol kelmasa...
Kaklik oviga kelgan yigitlar sizda qanday taassurot qoldirdi? Ular nima uchun qo‘yni olib ketish fikridan qaytishdi? *– Yigitlar o‘zlarini noto‘g‘ri tutishdi, otaga nisbatan behurmatlik qilishdi;* *– yigitlar xatolarini tushunib uzr so‘rashdi;* *– yigitlar Sarsonboy otaning nima uchun qo‘ylarni bermaganini tushunishmadi;* *– Sarsonboy otaning “Musulmon bolasimisizlar, meniki emas, dedim-ku!” gaplari yigitlarga qattiq ta’sir qildi, ular qo‘ylardan birini otadan kuch bilan tortib olishga jur’at qilishmadi.*		Yigitlar Toshqal’a tomon yo‘l olishdi. – To‘xtang! – qichqirdi Sarsonboy ota. – Musulmon bolasimisizlar, meniki emas, dedim-ku! Egasi yo‘q bu qo‘ylarning. Urushda bedarak ketgan, yigirma yildan beri boqib yuribman... Insof bormi? Yigitlar to‘xtab qolishdi, keyin bittabitta orqaga qaytishdi. – Kechiring, ota, bilmadik, – dedi kimdir. Sarsonboy ota indamadi. Uning rangida qon qolmagan, lablari titrardi.
“To‘riq tanish yo‘ldan ildam yo‘rg‘alab ketdi. Uning yurishida ham egasining dilidagi kabi bir umid bor edi”. Sizningcha, hikoya nega aynan shu jumlalar bilan yakunlanyapti? *Ushbu savolni o‘quvchilar bilan muhokama qilishda asardagi Sarsonboy aka va to‘riqning munosabatlari tasvirlangan boshqa o‘rinlarga ham e’tibor qaratish tavsiya qilinadi: to‘riq egasi yuradigan yo‘llarni, uning odatlarini yaxshi biladi, bu detal orqali u anchadan beri egasi bilan Haydaralini qidirishga kelishini anglash mumkin.*		U shunday deb otning jilovini tortdi. Quloqlarini osiltirib tin olayotgan to‘riq xuddi shuni kutib turgandek pastga, daryo tomonga yo‘rg‘aladi. Bu joylarni u egasi kabi yaxshi biladi. Ulg‘ayib, ustiga egar urilibdiki, har yakshanba kuni butun Hisorni oshib, shu yerga keladi. ... Sarsonboy ota endi uni bog‘lamaydi ham. Otning o‘zi shunday ustun tagiga kelib, uning tushishini kutadi-da, ko‘zlarini yumib, keyingi bir oyog‘iga dam berganicha, joyidan qimirlamay turaveradi... To‘riq tanish yo‘ldan ildam yo‘rg‘alab ketdi. Uning yurishida ham egasining dilidagi kabi bir umid bor edi.

Matn bilan ishlash bosqichi savollariga javob berishda o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir bildirilgan xulosasini matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
Sizningcha, hikoya nima uchun bozor tasviri bilan boshlanadi? Asar voqealari rivojida va hikoyaning umumiy g‘oyasini ochishda bozor qanday ahamiyat kasb etmoqda?		tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib berish
To‘riq otning holati tasvirlangan o‘rinlar Sarsonboy otaning xarakterini tushunishga qanday yordam beradi?		tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib berish, obrazga baho berish
“Qiyomat qarz” so‘zini birinchi bo‘lib aytgan obraz kim edi? Nega bu so‘z ilk bora aynan shu obraz tilidan aytildi?		matndagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni tushunish, fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltirish
Sarsonboy ota va kaklik ovlashga kelgan yigitlar o‘rtasidagi ziddiyat nimaga xizmat qilmoqda?		asarning asosiy g‘oyasini aniqlash, matndagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni tushunish, obrazga baho berish
Nima uchun “Qiyomat qarz” hikoyasida muallif retrospektiva usuliga murojaat qilgan? Asar voqealari xronologik tartibda bayon qilinsa, nima o‘zgarardi?		asar syujetini tushunish, asar qurilishiga munosabat bildirish
Umidvorlik hissining yaxshi va yomon tomonlarini qanday izohlagan bo‘lardingiz? Fikrlaringizni hikoyadagi obrazlar misolida isbotlashga harakat qiling.		asardan xulosa chiqarish

2–4-savollarni va “Guruhlarda ishlaymiz” ruknida berilgan jadvalni muhokama qilishda Sarsonboy otani omonat qoldirilgan qo‘ylarni qaytarish ilinjida yigirma yildan beri boqib yurishga, qo‘ylarning egasini qidirib muttasil bozorga chiqishga majbur qilayotgan jihatlarga alohida e’tibor qaratish tavsiya qilinadi. Sarsonboy ota tilidan aytilgan “Qiyomat qarz bu. Qarz bilan go‘rga kirmoqchi emasman” jumlalari ham otaga xos xususiyatlarni ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Qiyomat qarz” hikoyasidagi voqealar orqali Sarsonboy otada milliy xarakterga xos qanday xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin? Bu voqealar orqali muallif nima demoqchi? Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Voqea	Bu voqea orqali Sarsonboy otaga xos qanday xususiyatni ko‘ramiz?	Muallif nima demoqchi?
Sarsonboy otaning Haydaralini qidirib har hafta bozorga kelishi		
Sarsonboy ota va Madumar aka suhbati		
O‘g‘lidan qoraxat olishi		
Haydaralining Sarsonboy otaga qo‘ylarini tashlab ketishi		
Kaklik ovlashga kelgan yigitlar bilan bo‘lgan voqea		

Yuqoridagi jadvalni to‘ldirish o‘quvchilarning matnni o‘qib tushunishi, kontekstdan anglashilgan ma’noni ilg‘ashini rivojlantirishga qaratilgan. Jadvalni to‘ldirishda asar tahlilidan chiqarilgan xulosalarga ham tayanish mumkin.

O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘ling va mutolaadan keyingi bosqichdagi loyihani uyga vazifa qilib bering. O‘quvchilar keyingi darsda to‘ldirgan jadvallari asosida ularning taqdimotlari tinglanadi. Suhbatni daftarlariga yoki uyali telefonga yozib olishlari mumkin.

LOYIHA

Guruhlarga bo‘lining. Mahallangizdagi yoshi ulug‘ bobo yoki buvilar bilan qarz, omonatga xiyonat qilmaslik mavzularida suhbatlashing. Ular aytgan fikrlarni quyidagicha jadval tarzida daftaringizga yozib oling. Ularning qaysi fikrlari siz uchun kutilmagan bo‘ldi? Nima uchun?

Guruhimiz suhbatlashgan bobo yoki buvining ismi, yoshi	**Mavzu haqidagi fikrlari**	**Nima uchun bunday xulosaga kelgan?**

QAMCHIBEK KENJA.
“BALIQ OVI”

Bu mavzuda biz:
– hikoyada ko‘tarilgan muammolarni tahlil qilamiz;
– badiiy asarda portret yaratish to‘g‘risidagi bilimlarimizni mustahkamlaymiz.


Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (muallif bilan tanishish, “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Asar matni bilan ishlashni boshlash	1 soat
Asar matni bilan ishlashni davom ettirish	1 soat
“Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Loyiha	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Qamchibek Kenjaning “Baliq ovi” hikoyasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting.

2. O‘quvchilarga “Muallif bilan tanishamiz” ruknidagima’lumotlarni berish jarayonida yozuvchi hayotidagi eng muhim nuqtalarga ahamiyat qarating.

3. O‘quvchilardan inson odatda nima uchun baliq oviga chiqishini so‘rang (baliqni tutib yeyish uchun, sportning bir turi sifatida, tashvishlarini unutib, hordiq chiqarish uchun... – o‘quvchilarning javoblari turlicha bo‘lishi mumkin). “Baliq ovi” ularda qanday tushunchalar bilan bog‘liqligini umumlashtirishda klaster usulidan foydalanishingiz mumkin. Klasterdagi so‘zlarning ko‘proq qanday ma’no tashishiga (ijobiy yoki salbiy) o‘quvchilar e’tiborini qarating.



“Baliq ovi” klasteri namunasi

4. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savol bilan murojaat qiling.

Hikoyaning kirish qismini o‘qing. Voqea kimning nomidan bayon qilinyapti? Asar davomida qanday voqea sodir bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

“Asar voqealari kimning nomidan bayon qilinyapti?” Bu savolga javob berish uchun bevosita matnga murojaat qilish talab etiladi *(“Men birinchi sinfga qatnardim. Akam yettida o‘qirdi. ... Mehmon kelsa, akam ikkimiz, albatta, baliq oviga jo‘nardik” – voqealar taxminan yetti yashar o‘g‘il bola nomidan hikoya qilinmoqda).* Bu savolga javob berish orqali o‘quvchi asardagi hikoya qiluvchi personaj kim ekaniga e’tibor qaratishga va hikoyachi (roviy) nutqining asar mohiyatini ochishdagi o‘rnini aniqlashga harakat qiladi.

“Asar davomida qanday voqea sodir bo‘ladi deb o‘ylaysiz?” Savolning bu qismi esa o‘quvchilarning “Kirish”dan chiqarilgan xulosalari, asar sarlavhasi asosidagi farazlarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar bu savolga javob berishda o‘zlarining tasavvurlariga, avvalgi bilim va tajribalariga suyanishadi. Ularning javoblari turli xil va ayni paytda asar syujeti bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Mazkur savolning berilishidan maqsad o‘quvchilarning muayyan voqeani tasavvur qilish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat.

“Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” qismidagi berilgan ma’lumotni ham eslatib o‘ting. Bunda “baliq ovi” klasteridagi so‘zlarning ko‘proq ijobiy yoki salbiy bo‘yoqqa egaligiga hamda hikoya “baliq ovi sabab fojiaga yuz tutgan aka-ukalar taqdiri haqida” ekanligiga e’tibor qarating. Bu qanday fojia bo‘lishi mumkinligini so‘rang. O‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish maqsadida berilgan barcha yangi fikrlarga e’tibor qarating va eng yaxshi fikr egalarini rag‘bantlantirishni unutmang (boshni qimirlatib ma’qullash, qo‘l harakatlari, “balli”, “barakalla”, “rahmat”, “juda soz” kabi so‘zlar orqali).

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Darslikning “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asar parchasidagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr bildirish, o‘z-o‘zini monitoring qilib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Bolalarning baliq oviga zavqi, ayniqsa, akasining “baliq ovlashga usta”ligi sabablarini qanday izohlaysiz? Yon atrofingizda ham bolaning akasiga o‘xshagan baliq ishqibozlarini uchratganmisiz? *– Akasining “baliq ovlashga usta”ligini uning uzoq vaqtdan beri va ko‘p marta baliq ovlashi bilan izohlash mumkin. Buni bola nutqidagi “uyga tez-tez mehmon kelar edi va har mehmon kelganda biz baliq oviga ketar edik” jumlasidan ham bilish mumkin;*		Men akamning baliq tutishini ko‘rishga ishqiboz edim. U baliq ovlashga usta edi. To‘rdayam, sanchiqdayam bir zumda bir paqirini ilintirardi. Hatto qo‘ldayam. Suv ostiga sho‘ng‘ib, baliqlarni o‘z kamaridan tutib chiqardi. Hech narsadan, ilondan ham qo‘rqmasdi. Ilon ko‘rdimi, tamom, uni dumidan ushlab aylantirib-aylantirib otib yubormaguncha ko‘ngli joyiga tushmasdi. Qirg‘oqda kulcha bo‘lib mudrayotgan ilonlar sharpamizni sezdi deguncha jilib qolishar yo o‘zlarini suvga urishardi.

– bola baliq ovlashni bilmaydi, chunki akasi unga suvga tushishiga ruxsat bermas edi. U qirg‘oqda turib akasi otgan baliqlarni tutar, chelakka solar edi. Bolaga baliq ovi yoqishining sababi – akasining baliq ovining ustasi ekanligi, uning har bir sirini ipidan ignasigacha bilishi va jasurligi; *– bola baliq ovini emas, baliq ovlovchi akasini kuzatishni yaxshi ko‘rar edi.*		
Sizningcha, akaning ilonlarga munosabatini qanday baholash mumkin? Bu jasurlikmi yoki shafqatsizlik? *– U ilonlar bilan o‘ynashdan zavqlanardi, uni shafqatsizlik deb bo‘lmaydi;* *– u ilonlarni shunchaki qo‘liga olib uzoqqa uloqtirmas edi, aylantirib-aylantirib, chirpirak qilib uloqtirar edi, bu, menimcha, shafqatsizlik. Biz tabiatning bir bo‘lagimiz, shunday ekan, hayvonlarga bunday munosabatda bo‘lish yaxshi emas. Akaning bu harakatlarini oqlab bo‘lmaydi;* *– u atrofidagi bolalarning zavqini oshirib, o‘zining jasur, hech narsadan qo‘rqmasligini isbotlamoqchi bo‘lardi. Buning esa shafqat yoki shafqatsizlikka hech qanday aloqasi yo‘q.*		Ilon ko‘rdimi, tamom, uni dumidan ushlab aylantirib-aylantirib otib yubormaguncha ko‘ngli joyiga tushmasdi. Qirg‘oqda kulcha bo‘lib mudrayotgan ilonlar sharpamizni sezdi deguncha jilib qolishar yo o‘zlarini suvga urishardi. Ilon o‘ttiz-qirq qadam nariga shaloplab tushgach, o‘sha yoqqa chopishar, sulayib yotgan gazandaning o‘lganiga ishonch hosil qilishgandan so‘nggina unga yaqinlashishardi.
Nima uchun bolaga har doim otasi bilan birga keladigan “gavdasi beso‘naqay, rangi sovuq” kishi yoqmasdi? *–Tashqi ko‘rinishi sababli;* *– ko‘p tashriflari sababli;* *– qo‘pol fe’l-atvori sababli;* *– uni “Qoravoy“ deb atashi sababli;* *– bola mana shu “rangi sovuq” kishi sabab qandaydir noxushlikni sezgan bo‘lishi mumkin va shuning uchun ham bolada unga nisbatan iliqlik hissi bo‘lmagan.*		U menga doim hissiz, dag‘al ovozda: “Ha, Qoravoy, yuripsanmi?” deb qo‘yar, peshanamga tushgan kalta, tartibsiz pat-sochimni qo‘yning junini chamalab ko‘rganday g‘ijimlab, erkalagan bo‘lardi. Boshim zirqirab, ko‘zlarimdan yosh chiqib ketay derdi.

Bu notanish mehmon sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning xarakterini ochishda qaysi so‘zlar muhim ahamiyat kasb etmoqda? Nima uchun? *– Qo‘pol, farosatsiz va o‘zbeklarga xos madaniyatdan butkul begona shaxs;* *– yoqimsiz harakatlaridan uning uy egasiga nisbatan bepisandligini ham kuzatish mumkin;* *– unga nisbatan hech qanday iliqlik kuzatilmaydi, chunki uning asardagi har bir harakati kishida faqat yoqimsiz taassurotlarni uyg‘otadi;* *– uning yoqimsiz, qo‘pol va o‘ta madaniyatsiz qiliqlari qandaydir fojia sodir bo‘lishi va u mana shu fojianing sababchilaridan biri ekaniga ishora qilayotgandek;* *– tashqi ko‘rinishidan uning ot minib uzoq safar qilishini anglash mumkin;* *– qamchiniga moy surtganiga qaraganda ot minishni yaxshi ko‘radi;* *– o‘ta xudbin va ochko‘z inson…*		Baliqdan keyin palov ham yeyilib bo‘lgach, u meni chaqirardi: “Qoravoy, qani, qamchinni opke-chi”. U panjalari orasidan sizib tushayotgan yog‘ni qamchin dastasiga surtib-surtib, yana menga qaytarib bergach, kaftini charm etigining qo‘njiga ishqalay boshlardi. So‘ng tovoqqa choy quyardi-da, aylantirib-aylantirib bir ko‘tarardi va xo‘rda ichganday xo‘rillatib, simirib yuborardi. Hammasidan ham uning baliq yeyishini tomosha qiladigan edi. U baliqni ko‘p va juda tez yer, biroq kam nishxo‘rd chiqarardi. Nima balo, qiltanog‘ini ham yutib yuborarmikin, deb hayron bo‘lardim.
Nima deb o‘ylaysiz, oila a’zolarining “baliqxo‘r kishi”ga munosabati qanday edi? Otasi uni nima uchun tez-tez mehmonga chaqirardi? *– Oiladagilarning hammasi u kishiga otasining xo‘jayinlaridan biri bo‘lgani uchungina mulozamat ko‘rsatishar edi;* *– akasi va opasi uni yoqtirmasligini yashirmas edi (“Akamning-ku, uni ko‘rishga ko‘zi yo‘q edi-ya, hatto opam ham: “Yana kepti baliqxo‘r kishi”, – deb qo‘yardi”);* *– onasi mehmondo‘st edi, u hamma mehmonga “mehmon atoyi Xudo” deb qaruvchi bag‘rikeng va mehribon ayol edi.*		Akamning-ku, uni ko‘rishga ko‘zi yo‘q ediya, hatto opam ham: “Yana kepti baliqxo‘r kishi”, – deb qo‘yardi. O‘choq boshidan jilmaydigan onam xursandmi yo xafami – buni bilolmasdim, to‘g‘risi, endi eslasam, qiziqmagan ekanman. Faqat bir marta opam g‘udranib tandirga o‘t qo‘yayotganida uning: “Qovog‘ingni och, Salomat, otang sezib qolsa, hali hammamizni qaqshatadi, u otangning xo‘jayinlaridan”, degani qulog‘imga chalingan.

Nega ota sovuqqa qaramay, o‘g‘illarini baliq tutishga jo‘natmoqchi bo‘ldi? O‘sha paytda akaning xayolidan nimalar kechgan bo‘lishi mumkin? *– Ota boshliqlarining ko‘nglini ko‘tarish uchun farzandlarini ham ayamadi. Aslida bu millatimizning qon-qoniga singib ketgan, ammo noto‘g‘ri tutum edi;* *– otasini shafqatsiz va xudbin deb o‘yladi;* *– o‘zini sevimsiz farzanddek his qildi, chunki farzandini yaxshi ko‘rgan qaysi ota dilbandini sovuqda baliq ovlashga jo‘natadi?* *– “Baliqlar bormi-yo‘qmi? Qanday tutaman? To‘rga ilinarmikan?” kabi xayollar o‘ylarini band etgandi;* *– otasining bunday shafqatsiz qarori xayoliga biror-bir fikr kelishiga imkon bermagan ham bo‘lishi mumkin.*		Akam angrayib otamga, keyin ko‘zlarini mo‘ltillatib onamga qaradi. – Shunday sovuqda-ya?.. – Onam akamdan ko‘z uzmay, yurak yutib, ammo jur’atsizgina dedi. – Hech narsa qilmaydi, to‘rda ovlashadi. Ataylab baliqxo‘rlikka kelishgan. Qani, nonni opke, choyni tezlashtir! – Otam onamning oldiga bordi-da, uning qulog‘iga bir narsalar deb shivirladi. Bu gap onamga yoqmadi shekilli, peshanasini tirishtirdi. Akam hamon joyidan qimir etmas, ko‘zlarini o‘choqda guvullab yonayotgan olovga qadagancha kiprik qoqmay turardi. O‘sha paytda uning xayolidan nimalar kechgani menga hozirgacha qorong‘i.

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollariga javob berishda ham o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir bildirilgan xulosasini matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
Hikoyada qanday muhim g‘oya (g‘oyalar) aks ettirilgan? Hikoya nima uchun “Baliq ovi” deb nomlangan? Bu sarlavha asar g‘oyasini qay darajada ochib beradi deb o‘ylaysiz? Siz hikoyaga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?		asarning asosiy g‘oyasini aniqlash
Komronning baliq oviga va otaning “baliqxo‘r kishi”ga munosabatining o‘zgarishi sabablarini matn asosida izohlang.		asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘ash, fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltirish

Oila boshiga tushgan musibatning asosiy sababchisi kim yoki nima? Fikringizni asar matni asosida dalillang.		asardagi obrazlarni tahlil qilish, ularga munosabat bildirish hamda munosabatini matndan dalillar keltirib asoslash
Asardagi qaysi o‘rinlardan ko‘proq ta’sirlandingiz? Nima uchun?		muallif qo‘llagan tasviriy vositalarni (o‘xshatish, metafora, jonlantirish) topish, ushbu tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib berish

Yo‘naltiruvchi savollar orqali portret nimaligini, uning asardagi obrazlarni va umuman asar mohiyatini tushunishdagi ahamiyatini eslating. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va mutolaadan keyingi bosqichda berilgan “Guruhlarda ishlaymiz” qismidagi topshiriqqa e’tibor qarating. O‘quvchilarning guruhlardagi faolligini oshirish uchun berilgan ikki obraz tahlilini bahsli savollarni o‘rtaga tashlash bilan boshlang. Shundan so‘ng guruhlarga topshiriqni bajarish uchun vaqt bering.

Guruhlarning topshiriq yuzasidan taqdimotini eshitayotganda bildirilgan asosli fikrlarni qo‘llang, xato talqinlarga asosli dalillar bilan o‘z izohingizni berib keting. Fikrlarni umumlashtirib, xulosa bering. Yaxshi fikrlar bergan, tahlil qilgan faol o‘quvchilarni rag‘batlantiring.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Guruhlarga bo‘lining. Matndan “baliqxo‘r” va Komil obrazlari tasvirlangan o‘rinlarni toping. Ularning qahramon xarakterini ochishdagi ahamiyatini aniq detallar misolida tushuntiring. Sizningcha, muallifning portret yaratish mahorati qaysi obraz tasvirida ko‘proq namoyon bo‘lgan?

LOYIHA

O‘quvchilarga eydos konspekt nimaligini tushuntiring. Eydos konspekt asardagi g‘oya yoki obrazning o‘quvchi tomonidan talqinini yoki unga nisbatan munosabatini ko‘rsatuvchi rasm va bu rasmning qisqa izohidan iborat bo‘ladi. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va asardagi to‘rt obrazdan birini tanlab, u asosida eydos konspekt yaratishni topshiring. Keyingi darsda chizilgan rasmlar va izohlar asosida o‘quvchilarning taqdimotlari tinglanadi.

LOYIHA ISHI

Guruhlarda ishlang. To‘rt obrazdan (Komil, Komron, Bo‘ronbek aka – Komilning otasi, “baliqxo‘r kishi”) birini tanlang. Tanlagan obrazingiz va unga munosabatingiz asosida “eydos konspekt” yarating.

SAIDA ZUNNUNOVA. “ASFALTNI QOQ YORIB UNIBDI GIYOH…” IQBOL MIRZO. “DARAXTLAR”

Bu mavzuda biz:
– “Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh...” va “Daraxtlar” she’rlarini qiyoslab tahlil qilamiz;
– badiiy tasvir vositalari yuzasidan olgan bilimlarimizni mustahkamlaymiz;
– badiiy matnda ramzlarni topishni o‘rganamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**2 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Saida Zunnunova va Iqbol Mirzo hayoti va ijodi bilan tanishish. Saida Zunnunovaning “Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh” she’rini tahlil qilish	1 soat
Iqbol Mirzoning “Daraxtlar” she’rini tahlil qilish va Saida Zunnunova ijodi bilan qiyoslab o‘rganish	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Saida Zunnunova va Iqbol Mirzoning tabiat lirikasiga oid she’rlarini birgalikda qiyoslab tahlil qilishingizni ayting.

2. “Mualliflar bilan tanishamiz” ruknidagi Saida Zunnunova va Iqbol Mirzo hayoti va ijodiga oid muhim ma’lumotlarni, har bir ijodkorga xos xususiyatlarni o‘quvchilaringiz bilan muhokama qiling.

3. “Mutolaaga tayyorlanamiz” ruknidagi savollar orqali o‘quvchilarni tabiat lirikasini tushunishga tayyorlang. Ularning o‘simliklar haqidagi fikrlarini tinglang. Bildirilgan fikrlarning mantiqan asoslanganiga alohida e’tibor bering. Muhokama so‘ngida o‘quvchilarning qarashlarini xulosalab, eng yaxshi fikr egalarini rag‘batlantirishni unutmang.

Uyingiz atrofida yoki bog‘ingizda qanday o‘simliklar o‘sadi? Ularni kuzatganingizda xayolingizdan nimalar kechadi?

O‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini oshirish maqsadida “She’riy sinkveyn” metodini qo‘llab ko‘rish tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari yaxshi ko‘radigan bir o‘simlikni tanlab, u haqida besh qatorli she’r yozadilar. Quyida she’rni tuzish qoidasi va namuna keltirilgan.

	Tuzilishi	*Namuna*
1-qator	1 ta ot	Tabiat
2-qator	2 ta sifat	Musaffo, sokin;
3-qator	3 ta fe’l	Ilhomlantiradi, tinchlantiradi, hayratlantiradi.
4-qator	4 ta so‘z, so‘z birikmasi yoki gap	Quchog‘ingga talpinaman men mudom,
5-qator	1-qatordagi so‘zga sinonim bo‘lgan, shu bilan birga sinkveynning g‘oyasini ifodalaydigan ot	Go‘zallik.

SHE’RLARNI MUTOLAA VA TAHLIL QILISH

Birinchi soat

1. Saida Zunnunovaning “Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh” she’rini avval o‘qituvchi ifodali o‘qib berishi tavsiya qilinadi. She’rni ifodali o‘qib bo‘lgach, darslikda berilgan savollar asosida tahlil qilishni boshlang. O‘quvchilarning javoblarini baholashda fikrini hayotiy misollar bilan yoki matn asosida dalillash ko‘nikmasiga egaligiga e’tibor bering.

She’rni tahlil qilish jarayonida Saida Zunnunova turmush o‘rtog‘i Said Ahmad qatag‘on yillarida “xalq dushmani” sifatida nohaq qamoqqa olinganida ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirgani, bu qiyinchiliklarni sabot bilan yenggani haqida qisqacha ma’lumot berib, bu ma’lumot shoira ijodini, xususan, “Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh” she’rini tushunishga qanchalik yordam berishini so‘rash mumkin.

She’r tahlili yakunida shoiraning mazkur ijod namunasi nega darslikning aynan “Turfa qiyofalar” rukniga kiritilgani sabablarini so‘rang va o‘quvchilarning javoblari va matn mohiyati asosida bildirilgan fikrlarni umumlashtiring.

She’rning qisqacha tahlili:

Badiiy adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biri – obrazlilik. Asfaltni yorib ungan giyoh obrazi she’rda har qanday mashaqqatni yengib o‘tadigan, yo‘lida duch kelgan qiyinchiliklarga bardosh berib, o‘z maqsadidan kechmaydigan kuchli irodaga ega kishilarga nisbatan qo‘llanmoqda. Shu sabab ham unga har qanday yo‘lovchi, bag‘ritosh ham, mehrli yoki mehrsiz ham hayrat bilan boqmoqda, sabriga, matonatiga qoyil qolib, nigohini undan uzolmaydi.

Oyog‘i ostidagi maysalarni (maysalar endi unib kelayotgan iqtidorli yoshlar timsoli deb ham qarash mumkin) shafqatsizlarcha ezib yuboradigan bag‘ritoshlar ham asfaltdagi giyohni toptashga jur’at qilolmaydi, uning jasoratidan, buyuk intilishidan hayiqadi.

Demak, hayot kurashlardan iborat, kurashlarga bardosh berib, intilishda davom etadigan sabrli insonlar vaqti kelib maqsadlariga erishadilar va o‘z intilishlari bilan hatto bag‘ritoshlar ko‘nglida ham mehr, shafqat urug‘ining ko‘z ochishiga sababchi bo‘ladilar.

Dars yakunida Saida Zunnunovaning mustaqil mutolaa uchun berilgan she’rlarini o‘qib kelishni tayinlang. Bu vazifa shoira olami, ruhiyati, ijodiga xos xususiyatlarni yaxshi tushunishga yordam beradi va kelgusi darsda Iqbol Mirzo ijodi bilan solishtirish uchun zamin yaratadi.

Ikkinchi soat

Iqbol Mirzoning “Daraxtlar” she’rini tahlil qilishdan avval o‘quvchilarning daraxt, uning badiiy adabiyotdagi vazifasi haqidagi fikrlarini so‘rang. Masalan:

– Daraxt deganda ko‘z oldingizda nima gavdalanadi?

– Daraxtga xos qanday xususiyatlarni bilasiz?

– Siz daraxt haqida avval ham she’rlar o‘qiganmisiz? Ularni eslay olasizmi? Bu she’rlarda daraxtlar qanday tasvirlangan, bu orqali qanday g‘oyalar ochib berilgan?

O‘quvchilarning fikrlarini umumlashtiring va o‘z xulosalaringiz bilan ularni Iqbol Mirzo she’ri tahliliga tayyorlang.

“Muhokama qilamiz” ruknidagi savollar asosida she’rni tahlil qilish bosqichiga o‘ting. O‘quvchilarning javoblarini baholashda fikrini hayotiy misollar bilan yoki matn asosida dalillash ko‘nikmasi mavjudligiga e’tibor bering.

Shu o‘rinda o‘quvchilar Iqbol Mirzo she’riyatini teranroq tushunishlari uchun uning darslikda berilgan “Go‘yo” va “Horg‘in rohat” she’rlarini o‘qib chiqishlari uchun vaqt ajratish tavsiya qilinadi. O‘quvchilar she’rlarni o‘qib chiqishgach, ularning g‘oyasini tushunganlarini tekshirish maqsadida savollar bering.

“Horg‘in rohat” she’ri namunaviy tahlili

Yashash kurashdan iborat, ammo tinimsiz kurashishning imkoni yo‘q, insonga keyingi kurashlar uchun tinim kerak, ruhiy, ma’naviy ozuqa kerak. Shoirga kurashlardan paydo bo‘lgan horg‘inlik rohat bag‘ishlaydi. Chunki uning kurashlari bejizga emas, bu kurashlarda ulkan haqiqatlar bor, ko‘ngilga, qalbga taskin, rohat berguvchi adolat bor, hur fikr bor, erkin, ozod so‘z bor.

“Kapalakdek uchar rangin xayollar... Kapalaklar badiiy adabiyotda odatda hayot ramzi, qayta tug‘ilish, ruhan poklanish, umidga ishora sifatida qo‘llanadi. Imkonsiz istaklar xayollarda in’ikos etadi, lirik qahramonning ruhan poklanish istagi uning kapalakdek go‘zal rangin xayollarida reallik kasb etmoqda, bu kamalakdek rangin xayollardan (garchi ular aldamchi va lahzalik bo‘lsa ham) gullar, tabiat, butun borliq qayta tug‘ilish nashidasini surmoqda, atrofida qayta tug‘ilish, hayot ramziga ishora – beshiklar o‘smoqda. Shoir ana shu o‘zi istagan rangin xayollar og‘ushida ruhan yuksaladi va tiriklik shukronasini “ne baxt bu – yotmoqlik yerdan yuqori” kabi satrlarda aks ettiradi.

“Horg‘in rohat” Iqbol Mirzoning eng go‘zal she’rlaridan biridir…

Tahlil qilib bo‘lgach, Saida Zunnunova va Iqbol Mirzo she’rlaridagi o‘xshash va farqli jihatlarni ko‘rib chiqishingizni ma’lum qiling.

Sinfni guruhlarga bo‘ling. Darslikdagi “Solishtiramiz” ruknida berilgan savol va topshiriqlar yordamida she’rlarni muhokama qilishni boshlang. Bunda:

– har ikki ijodkorda qo‘llangan tabiat manzaralarining qiyosiy tahliliga;

– badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi mahoratning qiyosiy tahliliga;

– shoir va shoira tuyg‘ularining badiiy ifodasidagi o‘ziga xosliklarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

“Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh...” va “Daraxtlar” she’rlariga oid savol va topshiriqlar quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
Har ikki she’rni o‘qiganda nimalarni tasavvur qildingiz? Ko‘nglingizdan nimalar o‘tdi? Har ikki she’rga xos umumiylik va o‘ziga xoslik nimada deb o‘ylaysiz?		asarning asosiy g‘oyasini aniqlash
Har ikki she’rning mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan obrazlar, so‘z va so‘z birikmalarini toping va izohlang.		asarda qo‘llangan badiiy tasvir va ifoda vositalaridan ko‘zlangan maqsadni hamda ularning o‘quvchiga ta’sirini aniqlash
O‘ylab ko‘ring: har ikki she’rdagi “giyoh” va “daraxt” kimning yoki nimaning ramzi? Nima uchun ijodkorlar tuyg‘ularini o‘simliklar vositasida ifodalamoqda?		asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) tushunish, asardan xulosalar chiqarish, fikrini matn asosida dalillash

Mutolaadan keyingi bosqichdagi ijodiy ishni uyga vazifa qilib bering. Sinfni uch guruhga bo‘lib, ularga darslikdagi rasmlarni bering. Vazifaning uy topshirig‘i sifatida o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib berilishi ularning darsdan tashqari ham bir-biri bilan o‘zaro hamjihatlikda ishlashini ta’minlaydi. Uyga vazifani keyingi dars boshlanishidan avval guruhlarga doskada og‘zaki taqdimot qildirib, ularning loyiha ishlarini baholab, eng yaxshi fikr egalarini rag‘batlantiring.

IJODIY ISH

Guruhlarda ishlang. Quyida tasvirlangan o‘simliklardan birini tanlang. Siz bu o‘simlikni kimning yoki nimaning ramzi sifatida ifodalagan bo‘lardingiz? Tanlagan o‘simligingiz asosida ramz ishtirok etgan kichik matn (hikoya, ertak, she’r) tuzing.







ANTON CHEXOV. “XAMELEON”

Bu mavzuda biz:
– “Xameleon” hikoyasidagi obrazlar xatti-harakatlarini tahlil qilamiz;
– yumor va satira o‘rtasidagi farqlarni o‘rganamiz;
– badiiy asarda detalning ahamiyatini tahlil qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (muallif bilan tanishish, “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash). Asar matni bilan ishlashni boshlash	1 soat
Asar matni bilan ishlashni davom ettirish. Mutolaadan keyingi bosqich savol va topshiriqlari bilan ishlash	1 soat
Satira va yumor. Detal. Ijodiy ish taqdimoti	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Anton Chexovning “Xameleon” hikoyasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni ayting.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknidagi muallif haqida ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazing. Ma’lumot berish jarayonida yozuvchi hayotidagi eng muhim nuqtalarga ahamiyat bering.

O‘quvchilarning adabiyot darslari orqali Abdulla Qahhor hikoyalari bilan tanishligini hisobga olib, mavzuni Abdulla Qahhor Chexovni o‘ziga ustoz hisoblagani bilan boshlash ham mumkin. Buning uchun yo‘naltiruvchi savollardan foydalanish tavsiya qilinadi. Misol uchun: “Abdulla Qahhorning qaysi hikoyalarini o‘qigansiz? Bu hikoyalardagi o‘ziga xos jihatlar nimalardan iborat edi? Abdulla Qahhor o‘zining ustozi deb bilgan adiblardan biri Anton Chexov ekanini bilasizmi?” Shundan keyin muallif haqidagi ma’lumotlarga o‘tish mumkin.

3. O‘quvchilardan xameleon (buqalamun) haqida o‘qigan yoki eshitganlari, umuman, bu so‘z ularga tanish ekani haqida so‘rang. Ensiklopediyadan olingan ma’lumot bilan tanishish uchun vaqt bering. So‘ng bu ma’lumotdagi ularni hayratga solgan jihat haqida so‘rang *(tana rangini o‘zgartira olishi)*.

Shundan so‘ng o‘quvchilarning hikoya mazmuni haqidagi farazlarini so‘rang. Bunda voqea joyi *(Rossiya, bu mamlakatda xameleonlar yashaydimi?)* va bosh qahramoniga *(jinoyatlarni tergov qilish bilan shug‘ullanadigan politsiya xodimi)* o‘quvchilar e’tiborini qaratish tavsiya qilinadi. Bu farazlarni asarni o‘qib bo‘lgandan keyingi fikrlar bilan solishtirish uchun yozuv taxtasi yoki vatman qog‘oziga qayd qilish mumkin.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

“Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asardagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Darslikdagi QR kodda hikoyaning O‘zbekiston xalq artisti Amin Turdiyev o‘qigan audio variantiga havola berilgan. O‘quvchilarga mazkur audioni eshittirish, tegishli o‘rinlarda audioni to‘xtatib, savollarni muhokama qilib olish mumkin.

Savollar va o‘qituvchining munosabati		*Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar*
Bozor tasvirini yana bir marta o‘qing. Bu tasvir sizda qanday taassurot qoldirdi? Nima uchun? *Bozor deganda odatda gavjum, odamlar doim ko‘p bo‘ladigan joyni tushunamiz. Bu yerda esa bozor jimjit, “qimirlagan jon ko‘rinmaydi”, “hatto gadoy ham yo‘q”. O‘quvchilar e’tiborini shu jimjitlikka qaratish tavsiya qilinadi. Bu jimjitlikning sababi Ochumelov bo‘lishi mumkinmi? Ochumelov qo‘lidagi tuguncha, uning qo‘l ostida ishlaydigan gorodovoy qo‘lidagi musodara qilingan g‘alvir ham bu jimjitlik sababini tushunishga yordam beradimi?*		Ustiga yangi shinel kiygan, qo‘lida tuguncha, politsiya nazoratchisi Ochumelov bozor maydoni o‘rtasidan yurib kelmoqda. Uning orqasidan qo‘lida musodara qilingan krijovnik to‘la g‘alvir ko‘tarib aft-angori sap-sariq gorodovoy qadam tashlab kelayotir. **Tevarak jimjit...** Bozor maydonida **qimirlagan jon ko‘rinmaydi...** Do‘kon va qovoqxonalarning eshiklari och yirtqichning og‘ziday ochilib, **huvullab** turar edi; ularning oldida **hatto gadoy ham yo‘q.**
Hozirgina jimjit bo‘lgan joyda nega birdaniga xaloyiq to‘planib oldi? *Uch oyoqlab, orqa-o‘ngiga qarab qochayotgan it, uni quvlayotgan kishi – voqeaning kichkina shaharchada bo‘layotgani, bunday “mudroq bosgan” shaharchalarda e’tiborga molik voqealar kam bo‘lishi hisobga olinsa, birpasda olomon to‘plangani sababi yanada oydinlashadi.*		Do‘konlardan **mudroq** bosib o‘tirgan kishilar kallalarini chiqarib qarashdi va bir dam o‘tinxonaning oldiga, xuddi **yer ostidan chiqqandek**, xaloyiq yig‘ildi.
Itning tasviriga e’tibor bering. Qaysi so‘zlar hayvonning holatini tasavvur qilishga yordam beradi? Yozuvchi nima uchun aynan shu so‘zlardan foydalangan deb o‘ylaysiz? *Bu o‘rinda itning holati va Xryukin vajohati o‘rtasidagi kontrastga o‘quvchilar e’tiborini qaratish mumkin. Itning holatini tasvirlash orqali muallif Xryukinga va maydondagi odamlarga o‘z munosabatini ifodalamoqda deyish mumkinmi?*		O‘rtada oldingi oyoqlarini kerib, **vujudi titrab**, to‘polonning sababchisi – tumshug‘i uzun ola tozi turardi. Uning **yoshlangan ko‘zlari javdirardi.**

Ochumelov itning kichkinaligini avval sezmagan deb o‘ylaysizmi? *Hozirgina kuchukni yo‘qotishni, egasini topib bayonnoma tuzishni buyurgan Ochumelov it general Jigalovniki ekanligini eshitib, itning kichkinaligini, Xryukinga bo‘yi yetmasligini “ko‘rib qoldi”.*		– Lekin men bir narsaga tushunolmadim, u seni qanday qilib tishlab oldi? – deb Ochumelov Xryukinga murojaat qildi. – Qanday qilib barmog‘ingga bo‘yi yetdi? **U kichkina, sen bo‘lsang kap-katta odamsan!**
Xryukin nega birodarini eslab qoldi? *Xryukin o‘zining ham “kichkina odam” emasligiga, birodari “kerakli joyda” ishlashiga ishora qilmoqda.*		Hozir hamma barobar... Mening birodarim jandarmada ishlaydi. Agar bilgingiz kelsa...
Ochumelovning Xryukinga munosabati nega yana o‘zgarib qoldi? *Gorodovoy it generalniki emas, deganidan keyin Ochumelovning itga ham, Xryukinga ham munosabati yana o‘zgarib qoldi.*		O‘zim ham bilaman. **Generalning itlari qimmatbaho, zotli itlar,** shu ham itmi? Buning aftini qara... Rasvo bir narsa... Shuni ham it deb saqlaydimi kishi?! Sizda aql bormi o‘zi? Bundaqa it Peterburg yoki Moskvada ko‘rinib qolsa, bilasizlarmi, nima bo‘lar edi? U yerda qonunga qarab o‘tirmasdan, o‘ldirib qo‘ya qolar edilar. **Sen Xryukin, ancha azob ko‘ribsan,** bu ishni shunday qo‘yib ketaverma!.. Adabini berish kerak! Vaqt keldi...
Matnning avvalrog‘ida Ochumelov paltosini yechtirishi va keyin yana kiydirishi qanday-dir sabablar bilan bog‘liq deb o‘ylaysizmi? *Itning generalniki yoki generalniki emasligi haqidagi taxminlar hamda Ochumelovning paltosini (to‘g‘rirog‘i, shinelini – paltoga o‘xshagan harbiy ustkiyimini) yechtirishi va kiydirishi o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor bering.*		Ustiga **yangi shinel** kiygan, qo‘lida tuguncha, politsiya nazoratchisi Ochumelov bozor maydoni o‘rtasidan yurib kelmoqda. ... – General Jigalovniki? Himm... Yeldirin, qani **paltomni yechib ol**: juda ham kun isib ketdi! ... – Albatta, generalniki bo‘lsa kerak, – dedi kimdir. – Himm... Yeldirin, birodar, **paltoni yelkamga tashla**... Shamol turgandek bo‘ldi... Badanim uvushib ketdi... – Shoshmay tur, men senga ko‘rsatib qo‘yaman! – deb Ochumelov Xryukinga do‘q qiladi va **shineliga o‘ranib**, bozor maydonidan yo‘lda davom etadi.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH
SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar		*Rivojlantiriladigan kompetensiyalar*
Hikoya davomida Ochumelovning itga va Xryukinga munosabati necha marta o‘zgardi? Bu o‘zgarishlarga sabab nima va muallif ularni tasvirlashda qanday vositalardan foydalangan?		asar syujetini, muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini tushunish
Xryukin sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning, o‘zi aytganday, “hech kimga tegmaydigan”, “zahmatkash” kishi ekaniga ishonish mumkinmi? Hikoyada xaloyiq (olomon) qanday rol o‘ynaydi?		obrazga baho berish, muallif qo‘llagan tasviriy vositalarni va ulardan ko‘zlangan maqsadni tushunish
Hikoya nima uchun “Xameleon” deb nomlangan? Muallif xameleon deb kimni (yoki kimlarni) nazarda tutgan? Hayotda ham “xameleon”larga duch kelganmisiz?		asarning asosiy g‘oyasini tushunish

Muhokama jarayonida Ochumelov va Yeldirinning kasbiga ham e’tibor qaratish mumkin. Ular – politsiya xodimlari, ya’ni qonun himoyachilari, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishi, jinoyatchilikka qarshi kurashi kerak bo‘lgan shaxslar. Ular qonunni qanday “himoya” qilishmoqda?

Asarda olomon ham muhim rol o‘ynaydi. Jimjit bozorda tomosha ilinjida birpasda yig‘ilgan olomon o‘zini qanday tutadi? Uning itga va Xryukinga munosabati hikoya davomida qanday o‘zgarib boradi?

Asar voqealari uchinchi shaxs tilidan bayon qilingan. “Guruhlarda ishlaymiz” ruknida o‘quvchilar voqealarni ishtirokchilardan biri nomidan bayon qilib ko‘radilar. Topshiriqdan oldin voqealar birinchi shaxs nomidan bayon qilingan asarlarni eslashni so‘rang (misol uchun, “Sehrli qalpoqcha”, “Shum bola”, “Lobo”, “Baliq ovi”). Voqealarning kim tomonidan bayon qilinishi asarning o‘quvchi tomonidan qabul qilinishiga ta’sir qiladimi? Qanday qilib?

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Hikoyadan o‘zingizga yoqqan bir epizodni (lavhani) tanlang. Bu lavhani Ochumelov, Xryukin yoki Yeldirin nomidan bayon qilib yozing. Voqealar bayonida nimalar o‘zgardi?

Agar darsda ulgurilmasa, mazkur topshiriqni uyga vazifa sifatida berish ham mumkin.

IJODIY ISH

O‘quvchilarga rollarni bo‘lib bering va tayyorlanish uchun vaqt ajrating. O‘quvchilarga tayyorlanish davomida ovoz ohangi va xatti-harakatlar yordamida qahramonlar xarakterining ochib berilishiga alohida e’tibor qaratish kerakligini eslating. Misol uchun, Ochumelovning ovoz ohangi asar davomida qanday o‘zgarib boradi? U qaysi

o‘rinlarda buyruq ohangida, qaysi o‘rinlarda esa tavoze bilan gapiradi? Bu o‘quvchilarning asarni yanada sinchiklab o‘qishiga, qahramonlarni tushunishi va tasavvur qilishiga yordam beradi.

IJODIY ISH

Asarni sahnalashtiring. Qahramonlarning xarakterini ularning ovoz ohangi va xatti-harakatlari yordamida ochib berishga harakat qiling.

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHANI O‘RGANISH: YUMOR VA SATIRA

Yo‘naltiruvchi savollar va oldingi sinflarda o‘rganilgan asarlarni (masalan, “Shum bola”) yodga solish orqali yumor nimaligini eslating. So‘ng satira haqida ma’lumot bering. Yumor va satira o‘rtasidagi farqqa (yengil kulgi, hazil-mutoyiba – o‘tkir tanqid, ayrim kishilarga xos kamchiliklar – jamiyatdagi illatlar) e’tibor qarating.

O‘quvchilardan “Xameleon” hikoyasi satirik yoki yumoristik asarligini so‘rang. Bunda quyidagilarga e’tibor berish tavsiya qilinadi:

– Hikoya nima uchun “Xameleon” deb nomlangan?

– “Xameleon”lik faqat Ochumelovga xos xususiyatmi? Hikoyada boshqa “xameleonlar” ham bormi?

– Muallif ohangidan nimani sezyapsiz: hazil-mutoyibami yoki keskin tanqid? Asardagi qaysi vositalar buni tushunishga yordam beradi?

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHANI O‘RGANISH: DETAL

O‘quvchilarga detal haqida ma’lumot bering. Buning uchun quyidagicha usuldan foydalanish mumkin.

O‘quvchilardan ko‘zlarini yumib, biron yaqin kishilarini tasavvur qilishni so‘rang. Bu kishini tasavvur qilganda ko‘z oldiga birinchi bo‘lib nima keladi? Misol uchun, bobo yoki buvilarini tasavvur qilganda hassa, onani tasavvur qilganda ro‘mol, akasi yoki do‘stini tasavvur qilganda uning yoqtirgan kiyimi xayollarida gavdalanishi mumkin. Kishini tasavvur qilishga yordam beradigan kiyimi, unga tegishli buyum, xatti-harakatlari yoki nutqidagi o‘ziga xoslik detal bo‘lib xizmat qiladi. Bu detal bizga kishini (obrazni) tasavvur qilishdan tashqari, uning xarakterini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, bir kishi muloqot davomida qo‘lidagi mashina kalitini o‘ynayapti. Bu detal bizga uning xarakteri haqida qanday ma’lumot beradi?

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va jadvalni to‘ldirish vazifasini topshiring. Bunda har bir guruhdan bitta obrazga xos detallarni topib, izohlashni ham so‘rash mumkin.

Hikoyani detallarga e’tibor bergan holda yana bir marta o‘qib chiqing. Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Hikoyadagi obraz	Obrazni tasvirlovchi detallar	Detallardan maqsad
Ochumelov		
Xryukin		
Yeldirin		

Hikoyadagi eng yorqin detal – Ochumelovning shineli, ya'ni paltoga o'xshagan harbiy ustkiyimi. U hikoya boshida "yangi shinel" kiygan holda gavdalanadi. Orqasidagi gorodovoy musodara qilingan krivojnik ko'tarib ketmoqda. Krijovnik yozda (iyul–avgust oylarida) pishishini hisobga olsak, Ochumelovga yilning bu paytida yangi shinel kiyish nima uchun zarur bo'lib qoldi? U lavozimga endi tayinlangan, shu munosabat bilan unga yangi shinel berilgan, u esa yangi mansabini bildirish uchun shinelini kiyib yurgan bo'lishi mumkinmi?

O'quvchilarning taqdimotini tinglagach, fikrlarni umumlashtiring. Eng yorqin detallarni topishga, ularning asardagi maqsadini ochib berishga muvaffaq bo'lgan guruhlarni rag'batlantiring.




FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TASVIRIY SAN’AT

Bu mavzuda biz:
– adabiyot va tasviriy san’atdagi portretlarni solishtiramiz.

Mazkur integratsiya darsida o‘quvchilar adabiyot va tasviriy san’atdagi portretlarni solishtirish orqali portretning obraz tashqi qiyofasi va ichki dunyosini ochib berishdagi ahamiyatini o‘rganadilar va so‘zlar yordamida portret yaratishni mashq qiladilar.

1. O‘quvchilardan portret nimaligini so‘rang. Ularning badiiy adabiyot va tasviriy san’atdagi portretlarning o‘xshash va farqli jihatlari haqidagi fikrlarini eshiting va umumlashtiring. Bunda “Venn diagrammasi” metodi yoki jadvaldan foydalanish mumkin.

Eslang: badiiy adabiyotda portret deb nimaga aytiladi? O‘ylab ko‘ring-chi, badiiy adabiyot va tasviriy san’atdagi portretlarning qanday o‘xshash va farqli jihatlari bo‘lishi mumkin?



Yo‘naltiruvchi savollar yordamida o‘quvchilar e’tiborini quyidagi jihatlarga qaratish tavsiya qilinadi:

– badiiy adabiyotda muallif obrazning ichki kechinmalari, o‘y-xayollarini ham so‘zlar yordamida ifodalashi mumkin;

– muallif tomonidan tanlangan so‘zlar, ularning ijobiy yoki salbiy bo‘yoqdorligi o‘quvchining obrazga munosabatiga ta’sir qilishi mumkin;

– badiiy asarda muallif odatda obraz tashqi ko‘rinishidagi eng muhim detallarga e’tibor qaratadi.

2. O‘quvchilar Oybekning “Navoiy” romanidan olingan parchani o‘qib chiqishlari va topshiriqni bajarishlari uchun vaqt ajrating. Parchada ulug‘ shoirning kiyinishi (uchli ko‘k taqyaga silliq o‘ralgan ko‘rkamgina salla, odmi shohi to‘n, yalang qo‘ng‘ir movut chakmon), tashqi ko‘rinishining ayrim jihatlari (yoshi ulug‘lardek ko‘rinardi, qomati o‘rtadan baland, ingichka, gavdasi pishiq, barmoqlari uzun va nafis; soqoli qora va qisqa, miyiqlari xushbichim, tekis va silliq; yonoqlari chiqiq, yuzi kenggina, qovoqlari qabariqroq, ko‘zlari

qiyg‘och) hamda ichki dunyosi (doimiy tafakkur, ma’naviy qudrat, yengil va go‘zallashtiruvchi bir horg‘inlik, tafakkur va xayol, iroda kuchi) aks etgan.

Mazkur topshiriqni bundan oldingi topshiriq bilan bog‘lash maqsadida qo‘shimcha ravishda quyidagi savollarni berish mumkin:

– Muallifning obrazga nisbatan subyektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabati mazkur parchada aks etganmi? Qaysi so‘zlar muallif munosabatini tushunishga yordam beradi?

– Muallif obrazning tashqi qiyofasidagi qaysi jihatlarni tasvirlayapti? Nega aynan shu jihatlarni tasvirlayapti deb o‘ylaysiz?

3. Keyingi bosqichda o‘quvchilar Alisher Navoiyning turli rassomlar tomonidan ishlangan portretlarini solishtiradilar va qaysi portret Oybek tasvirlagan portretga yaqinroqligini aniqlaydilar.

Alisher Navoiyning turli rassomlar tomonidan ishlangan portretlarini solishtiring. Bu portretlar qaysi jihatlari bilan bir-biriga o‘xshash va qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Ularda shoirning ichki dunyosi qay darajada ochib berilgan? Qaysi portret yuqoridagi Oybek tasvirlagan portretga yaqinroq deb o‘ylaysiz?

O‘zbekiston xalq rassomi Vladimir Kaydalov tomonidan Navoiy portreti shoirning 500 yillik yubileyiga atab yaratilgan. Ayrim xotiralarga qaraganda, rassom mazkur asarini yaratishda taniqli olim va davlat arbobi Alixonto‘ra Shokirxo‘ja o‘g‘li Sog‘uniy siymosidan foydalangan.

Ikkinchi portret O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi Alisher Aliqulov tomonidan 2008-yilda ishlangan.

Uchinchi portret Samarqand va Toshkentda yashab ijod qilgan rassom Georgiy Nikitin tomonidan 1938-yili ishlangan. Mazkur asar Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat san’at muzeyida saqlanadi.

4. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. Har bir guruh berilgan portretlardan birini tanlaydi va uni so‘zlar yordamida tasvirlaydi. Topshiriqni bajarish davomida o‘quvchilar tashqi qiyofa bilan birgalikda kishilarning ichki kechinmalarini ham ochib berishga harakat qilishlari lozim. Guruhlar yaratgan portretlarini o‘qib berayotganlarida nega aynan shunday tasvirlaganliklarini so‘rang. Bir xil tasviriy san’at asarlarini tanlagan guruhlarning portretlaridagi o‘xshash va farqli jihatlarga e’tibor qarating.

Darslikda berilgan portretlar mualliflari haqida qisqacha ma’lumot:

Pavel Benkov – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, O‘zbekistonning mumtoz me’moriy obidalari va manzaralariga bag‘ishlangan asarlari, shuningdek, ko‘cha va bog‘lari, bozor va hovlilari, maydon va choyxonalari, ulardagi hayotning o‘ziga xos go‘zalligini yorqin va hayotiy ifodalovchi asarlari bilan mashhur.

Rahim Ahmedov – O‘zbekiston xalq rassomi, yaratgan portretlari bilan o‘zbek tasviriy san’atida portret janrining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Nikolay Pak – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, Seul rassomlar va haykaltaroshlar birlashmasining faxriy a’zosi, portret janrida barakali ijod qilgan rassom.

TAKRORLASH

Mazkur takrorlash darsi topshiriqlari Said Ahmadning “Qoplon” hikoyasidan olingan parcha asosida shakllantirilgan.

Topshiriq	*Javob*	*Izohlar*
1		Insonning gap-so‘zlari, xatti-harakatlari har doim ham uning asl qiyofasini ochib bermaydi. O‘zini do‘st qilib ko‘rsatayotganlarning asl qiyofasi boshga tashvish tushganda bilinadi. *(Hikoyada ikkiyuzlamachilik, laganbardorlik, subutsizlik singari illatlar fosh qilinadi. O‘quvchilarning yuqoridagi namunalarga o‘xshash hikoyaning mazmunini ochib beradigan javoblari qabul qilinadi.)*
2		Hikoyadagi voqealarning to‘g‘ri ketma-ketligi: 1) Tillayev yuqori lavozimga tayinlandi; 2) Qurbonboy Tillayevga ko‘chishga yordam berdi; 3) Qurbonboy Tillayevga it olib kelib berdi; 4) Tillayev va Qurbonboy do‘stlashishdi; 5) Tillayev Qurbonboyni yuqoriroq lavozimga tayinladi; 6) Tillayev nafaqaga chiqdi; 7) Qurbonboy itni aylantirishga olib ketib, qaytib kelmadi; 8) Tillayev Qurbonboyni yangi direktorning ziyofatida ko‘rib qoldi.
3	B	“Qurbonboy xotinlarning hayhaylashiga qaramay, polni ham o‘zi yuvdi, gilamni ham o‘zi ko‘chaga olib chiqib, qoqib keldi. – Iya, iya, biz turganda nega endi siz pol yuvarkansiz, opa? O‘zimiz qotirib tashlaymiz. Men gilam qoqayin-u, siz tomosha qiling”.
4	B	“– Nechta shifer yetmayapti? – dedi Tillayev beparvo. – Yo‘q, xo‘jayin, so‘ramang, skladga yuz ellikta shifer yozib bersangiz ham olmayman. Siz bilan shu maqsadda oshna bo‘lmaganman. Bunaqa gapni aytsangiz, uyingizga ikkinchi qadam bosmay ketaman”. Qurbonboy anchadan beri qurilishini yakunlay olmayapti, buning uchun unga qurilish mollari yetmayapti. Qurbonboy oldin Tillayevning xotiniga, keyin Tillayevning o‘ziga gap orasida shu haqida aytadi.
5	C	“Darvozadan kirishlari bilan yo‘lakda yotgan Qoplon ularni ko‘rib, dumini likillatib erkalandi. – Bizning it qalay? – dedi yangi direktor”.

6		xushomadgo‘y, laganbardor, ikkiyuzlamachi, ayyor, subutsiz, oriyatsiz *(o‘quvchilar shu yoki shunga yaqin mazmundagi sifatlardan ikkitasini keltirishlari mumkin. Ularning javobi asoslanganiga e’tibor qarating).*
7	it (Qoplon)	Qurbonboy itni xo‘jayinlarga sovg‘a qilish orqali ularning ishonchiga kirib, o‘z maqsadlariga erishadi. Odatda it vafodorlik ramzi sifatida tasvirlanadi, bu yerda esa Qoplonni Qurbonboyning ikkiyuzlamachiligi, subutsizligi ramzi sifatida talqin qilish mumkin.
8	B	Yangi direktor va Tillayev dialogida “it” so‘zini turlicha talqin qilish mumkin: yangi direktor “bizning it” deganda Qoplon haqida gapirgan bo‘lsa, Tillayev “bu it” deganda Qurbonboyni nazarda tutgan deyish mumkin (“– Bu itni taniyman, – dedi Tillayev va nariroqda yangi direktorning charm to‘nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi”).
9	A	Hikoyada hazil-mutoyiba emas, illatlarni keskin tanqid qilish, fosh qilish yetakchilik qiladi.

ADABIYOT O‘QITISH METODIKASINING UMUMNAZARIY MASALALARI

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari. “O‘quvchi – faol” yondashuvi

Hozirga qadar badiiy asar mutolaasi, uni san’at asari sifatida o‘rganishning samarali usullari tahliliga oid ko‘plab salmoqli tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ta’limdagi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari bugun kechagi fikrdan-da teranroq, istiqbolli mulohazalar, yangidan yangi qarashlar aks etgan tadqiqotlarni talab etmoqda. Chunonchi, virtual olamda tug‘ilib, voyaga yetayotgan yoshlar ongini toza adabiy muhitda shakllantirish harakati nafaqat o‘zbek, balki butunjahon ta’limiga daxldor bo‘lgan global muammoga aylanib ulgurgan. Ta’limi rivojlangan G‘arb mamlakatlarida o‘quvchilarni badiiy asar mutolaasiga qiziqtirish bilan bog‘liq masalalar tadqiqi o‘tgan asrning 90-yillaridanoq boshlangan edi.[1] Xalqaro miqyosdagi tajribali olimlar, pedagoglar o‘quvchida badiiy asar o‘qishga rag‘bat uyg‘otishning samarali usullaridan biri **konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari** hamda **pragmatik yondashuv** ekanini ta’kidlaydilar.

Konstruktivizm va **ijtimoiy konstruktivizm** nazariyalari rivojlangan davlatlar maktab ta’limida asosiy yondashuv sifatida muvaffaqiyatli qo‘llanayotgan nazariyalardir. Bu nazariyalarning eng asosiy g‘oyalari quyidagicha:

– o‘quvchilar bilimni tayyor holda, passiv qabul qilmasliklari kerak;

– bilimlar, ta’lim jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish o‘quvchilar tomonidan **“yaratilishi”, “kashf qilinishi”** lozim;

– bunda o‘quvchilarning **o‘zaro muloqoti** muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu nazariyalarga ko‘ra, darsning maqsadi ma’lumotlarni o‘quvchilarga singdirish emas, balki ularga bilimni o‘zlari hosil qilishlariga imkon yaratib berishdir. O‘qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so‘zlab berish emas, balki o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi. Zero, XX asrning taniqli pedagog va psixolog olimi, konstruktivizm nazariyasining asoschilaridan biri Jan Piaje *(Jean Piaget)* aytganidek:[2] “Maktabning asosiy vazifasi oldingi avlodlar yaratgan narsalarni shunchaki takrorlash emas, balki o‘zlari **yangi narsalar yaratishga, kashfiyotlar qilishga qodir, kreativ, tanqidiy fikrlay oladigan shaxslarni** tarbiyalashdan iboratdir”.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida ta’limda **“o‘quvchi – faol” yondashuvi** *(student-centered learning)* yuzaga kelgan. Ushbu yondashuvning muhim xususiyatlari o‘qitishda o‘rganuvchi faolligini oshirish va ta’lim jarayonlarini individuallashtirishdan iboratdir. “O‘quvchi – faol” yondashuvida keraksiz qog‘ozlar, ahamiyatsiz ta’limiy manbalarning kamayishi va eng muhimi – o‘rganuvchilarga allaqachon ma’lum bilimlarni qayta bayon qilish orqali vaqtni bekorga sovurish muammosi bartaraf etiladi.

---

[1] Darlington Sonja Pfister. Literature as Visual Response And Aesthetic Experience: An Alternative Approach. A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Dotor of Philosophy. Iowa State University, Iowa, USA, 1990.

[2] Qarang: Kohn, A. (2000) The Schools Our Children Deserve: Moving Beyond Traditional Classrooms and Tougher Standards, New York, NY: Houghton Mifflin Company.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga asoslangan ta’limning an’anaviy ta’limdan farqlarini quyidagi jadval va diagrammada ko‘rish mumkin:

An’anaviy ta’lim	Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizmga asoslangan ta’lim
O‘quvchilar asosan **o‘qituvchidan** va **darsliklardan** o‘rganishadi	O‘qitish uchun **turli materiallardan** (plakatlar, real hayotdan olingan obyektlar va hokazo) foydalaniladi
Darsda asosiy rolni **o‘qituvchi** o‘ynaydi	Darsda **o‘quvchilar** faol, o‘qituvchi esa o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qiladi
O‘quvchilar asosan o‘qituvchidan va darslikdan o‘rganganlarini **qaytarishadi**	O‘quvchilar turli vazifalarni **bajarish** va loyihalar ustida **ishlash** orqali o‘rganishadi
Mashqlar asosan o‘rganilgan ma’lumotlar, qoidalarni **mustahkamlashga** qaratiladi	Topshiriqlar asosan real hayotda uchraydigan **muammolarni yechishga** qaratiladi
Odatda, berilgan vazifalarning (mashqlarning) **yagona to‘g‘ri javobi** mavjud	Vazifalarga (topshiriqlarga) turlicha yondashish va **har xil yechimlar** taklif qilinishi mumkin
O‘quvchilar asosan **individual** ishlashadi	O‘quvchilar asosan **juft-juft** bo‘lib va **guruhlarda** ishlashadi
O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasi odatda hisobga **olinmaydi**	O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari **faollashtiriladi**, ularning hayotiy tajribasiga **suyaniladi**

Adabiy ta’limga pragmatik yondashuv. “Kitobxon javobi” nazariyasi plyuralistik tafakkur omili sifatida

“Pragmatizm”, “pragmatika”, “pragmatik kompetentlik” adabiyotshunoslik ilmida yoki adabiy ta’limda bugun paydo bo‘lgan yangi tushunchalar emas. Adabiyot fani bilan bog‘liq ta’lim standartlarida **badiiy asar va o‘quvchining hayotiy tajribalari** o‘rtasidagi munosabatlar(pragmatika)ga qaratilgan kompetensiyalar mavjudligini ham ta’kidlash zarur. Ammo pragmatik ta’lim asosidagi ko‘nikmalar o‘quv dasturlarida, darsliklarda yoki o‘qitish jarayonlarida qay darajada aks etmoqda? Pragmatik ta’limning mazmun-mohiyati, prinsiplari, uni yuzaga chiqaruvchi konsepsiyalar, tamoyillar, yondashuvlar integratsiyasi, pragmatika va adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik, uning badiiy asarni o‘rganishdagi o‘rni kabi masalalar, bizning nazarimizda, hali atroflicha tahlil qilinmagan.

Pragmatik ta’lim tahliliga qaratilgan xorijiy manbalarda asosan uning quyidagi **xususiyatlariga** e’tibor qaratiladi:

1. Pragmatik ta’lim real hayot mohiyati, undagi o‘zgarishlar va rivojlanishlar bilan bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganuvchi ta’lim falsafasidir.

2. Pragmatik ta’lim asosida quruq g‘oyalardan iborat bo‘lmagan, real hayot dasturlariga, o‘quvchilarning amaliy va kundalik tajribalariga asoslangan o‘quv jarayonlarini tashkil etish prinsipi yotadi.

3. Pragmatistlar asli tabiatan plyuralistlar bo‘lib, ular asosan fikr turfaligiga e’tibor qaratadilar. Ular pragmatik yondashuvga “tafakkur inqilobi”ga rag‘bat sifatida qaraydilar.

Demak, yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, pragmatikaning muhim elementlaridan biri amaliy faoliyatning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni, o'quvchilar shaxsiy tajribalari va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatda o'z bilimlarini rivojlantirib borish ko'nikmasidir. Ta'kidlash kerakki, konstruktivizm vakillari, xususan, mashhur pedagog olimlar Piaje[3] va Vigotskiy[4] ham ta'limda pragmatizmning ijobiy jihatlari xususida maxsus tadqiqotlar olib borishgan edi.

Adabiyot o'qitishga pragmatik yondashuv ko'p holatlarda lingvistik kompetensiyalar orqali amalga oshiriladi, chunki "badiiy matn to'laligicha so'z, so'z birikmasi va gaplardan iborat bo'lib, ular o'z holicha global miqyosdagi makronutq faoliyatini tashkil etadi"[5]. Ayni paytda badiiy adabiyot real olam, voqelik va shaxslarning yozuvchi dunyoqarashi, tafakkuri, ijodiy tajribasi asosida qayta sintez qilingan badiiy talqinidagi nusxasi ekan, bu talqinlar, tabiiyki, real nutqlar vositasida amalga oshiriladi. Demak, mana shu nuqtayi nazardan badiiy asar ham o'z holicha pragmatik xususiyat kasb etadi.

Xo'sh, adabiy ta'lim jarayonlarida badiiy asarning pragmatik funksiyalarini yuzaga chiqarish, o'quvchilarning muayyan badiiy asardan olgan nazariy tushunchalarini amaliy ko'nikmalari bilan parallel rivojlantirishda qanday tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi?

1. O'rganuvchining **hayotiy tajribasi** (ularni o'rab turgan atrof-muhitdagi voqea-hodisalar, aurasiga xos hissiy va intellektual munosabatlar hamda mazkur munosabatlarning shakllanish jarayonlari) adabiy ta'lim markazida bo'lishi talab etiladi. "O'quvchining hayotiy tajribasidan tashqarida tashkillashtirilgan ta'lim vaqtni bekor o'tkazish"[6] bilan bir qatorda ularni tafakkur jihatdan cheklash, badiiy asarga yuzaki munosabatda bo'lish va oqibatda ta'limda kutilgan maqsadga erisha olmaslik kabi salbiy oqibatlarga olib keladi.

Badiiy asarni pragmatik yondashuvda o'rganish ko'plab rivojlangan mamlakatlarda uzoq yillardan beri qo'llanib kelayotgan samarali usul hisoblanadi. Xususan, Angliyada va Amerikada nashr qilingan adabiyot darsliklarining deyarli barchasida asarning hayot bilan bog'liqligi (Connect to life) kabi bo'limlari mavjud bo'lib, ularda aks etgan savol va topshiriqlar o'quvchining badiiy asardan olgan bilimlarini hayotga bog'lashga va badiiy matnning yangicha talqinlarini yaratishga xizmat qiladi[7].

Chindan ham, fan dasturlarida, darsliklarda mavjud adabiy figuralar, Navoiy, Bobur yoxud Mashrab g'azallarini, Fitrat, Qodiriy kabi jadid namoyondalari asarlarini zamonaviylik prinsipida (badiiy asarni tushunishga xizmat qiladigan boshqa yondashuvlarni ham unutmagan holda, albatta), vizual tahlilda o'quvchini o'rab turgan muhitga, uning ruhiy, ma'naviy ehtiyojlariga bog'lab o'rgatish ko'proq samara bermaydimi? Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani tahlillarida "Tasavvur qiling, Zebini sudda himoya qiluvchi advokatsiz. Zebi himoyasiga nutq tayyorlang", "Jadid savdogari tilidan aytilgan "Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo'lmaydi, uni milliy maktablarga

---

[3] Piaget Jean. The Equilibration of Cognitive Structures: The Central Problem of Intellectual Development. Chicago, "University of Chicago Press", 1985.

[4] Vygotsky L. S. Educational Psychology. Florida, "CRC Press", 1997

[5] Van Dijk. Studies in the Pragmaticof Discourse.1981. The Hague, "Monton Publishers", 1981. P. 249

[6] Darlington Sonja Pfister. Literature as Visual Response And Aesthetic Experience: An Alternative Approach. A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Dotor of Philosophy. Iowa State University, Iowa, USA, 1990, P.24-25.

[7] Bu haqda qarang: Applebee Arthur N., Bermuder Abdrea B., etc. World Literatur. Illinois, "Evanston", 2008.

berish kerak. O‘z millatini tanitgandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni o‘qisin” degan fikrini bugungi kun nuqtayi nazaridan to‘g‘ri deya olasizmi?”, “Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida tasvirlangan biror-bir voqeani tanlab, bu voqealar sizning hayot yo‘lingizda qay darajada saboq bo‘lganligi haqida yozing. Fikrlaringiz asosida partadoshingiz yoki yaqin do‘stingizga tavsiyalar bering”, “Siz ham hayotingizda Miryoqub kabi ichki ziddiyatlarga duch kelganmisiz? Bunda qanday yo‘l tutganingizni ayta olasizmi?” kabi savollarning o‘rtaga tashlanishi “Mirtemir hayoti va ijodi haqida so‘zlab bering”, “Shoirning birinchi she’ri va to‘plami qanday nomlanadi?”, “Ular qachon e’lon qilingan?” singari o‘quvchining badiiy didi va saviyasiga zang tushiradigan savollardan ko‘ra qiziqroq, o‘quvchining adabiy ta’limdagi faollashuviga rag‘bat berishda va badiiy asarni turli xil aspektlarda tushunishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmaydimi? Zotan, adabiyotni pragmatik yondashuvda o‘rgatishning muhim xususiyatlaridan yana biri o‘rganuvchining ta’lim olishdagi faollashuviga e’tibor qaratilishi bilan ham belgilanadi.[8]

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining fanlarga bo‘lgan munosabatini tasdiqlovchi so‘rovnomalarda ular adabiyot fanidan ko‘ra ko‘proq ingliz tili, mehnat, jismoniy tarbiya, matematika yoki psixologiya fanlariga qiziqishi va mazkur fanlardan berilgan uy vazifalarini ishtiyoq bilan bajarishlari aks etgan edi. Sababi yuqorida qayd etilgan fanlarda o‘rganuvchilarning kundalik hayotdagi amaliy tajribalari ma’lum ma’noda in’ikos etadi. Shu nuqtayi nazardan o‘quvchilarda badiiy asarni o‘rganish rag‘batining sustligi, bizningcha, adabiy ta’lim va pragmatik kompetentlik o‘rtasidagi aloqaning uzilib qolganligi hamda badiiy asarni o‘rganish ularning individual tajribalaridan butunlay tashqarida olib borilayotganligi bilan belgilanadi.

2. Pragmatik yondashuvni yuzaga chiqaruvchi navbatdagi tamoyil – **“o‘quvchi – faol” (student–centered) tendensiyasini** kuchaytirish. O‘qitishda o‘rganuvchi faolligini oshirish, ta’lim jarayonlarini individuallashtirish, “nimani”, “qanday” va “nima uchun” o‘rganish, badiiy asar talqinida o‘quvchi fikrlarining hokimlik kasb etishi “o‘quvchi – faol” yondashuvining muhim xususiyatlari hisoblanadi. Edvort ta’biri bilan aytganda, “o‘quvchi faol” yondashuvida keraksiz qog‘ozlar, ahamiyatsiz ta’limiy manbalarning kamayishi va eng muhimi – o‘rganuvchilarga allaqachon ma’lum bilimlarni qayta bayon qilish orqali vaqtni bekorga sovurish muammosi bartaraf etiladi”.[9]

Adabiyotshunoslikdagi **“kitobxon javobi”** (ayrim manbalarda “reseptiv estetika” deb yuritiladi) nazariyasining[10] adabiy ta’limga tatbiqi ham badiiy asarning pragmatik xususiyatini yuzaga chiqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. “Kitobxon javobi” nazariyasi *(*inglizcha *reader-response theory)*ni olib kirgan olimlardan biri, nemis adabiy tanqidchisi Volfgang Izer (Wolfgang Iser, 1926–2007) fikriga ko‘ra, asar **yozilgan** va **yozilmagan** qismlardan iborat. Kitobxon asarni o‘qish jarayonida muayyan savollarga javob kutadi, ammo ko‘p holatlarda kitobxon badiiy asardan kutgan narsasini to‘liq olmaydi, boshqacha qilib aytganda, muallif savollarga javoblarni ochiq qoldiradi, ochiq qolgan bo‘shliqlarni, asarning yozilmagan qismlarini esa kitobxonning o‘zi to‘ldiradi. Asarning “yozilmagan qism”larini qanday “yozish” retsipiyentning o‘ziga bog‘liq. Bu jarayonni Izer yulduzlar turkumiga qarash bilan solishtiradi: “Tunda yulduzli osmonga qaragan ikki kishi bir xil yulduzlar turkumiga

[8] Van Dijk. Studies in the Pragmatic of Discourse. The Hague, “Monton Publishers”, 1981.

[9] Edwards, R. Meeting Individual Learner Needs: Power, Subject, Subjection. In: Paechter C., Preedy M., Scott D., and Soler J. (Eds.) Knowledge, Power and Learning. London: “Sage”, 2001, p.37.

[10] Kitobxon javobi – reseptiv estetika adabiyotshunoslikda nazariya, adabiy ta’limda yondashuv sifatida qayd qilingan

qarayotgan bo‘lishi mumkin, lekin biri omochni ko‘rsa, ikkinchisi esa cho‘michni tasavvur qiladi”.[11]

Aslida ham badiiy asar mutolaasi **faol jarayon** bo‘lib, o‘quvchi o‘z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib badiiy asardagi yashirin ma’nolarning yangi talqinlarini yaratadi. Masalan, 18–20 yoshlardagi kitobxonda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani qahramonlari Kumush yoki Otabek “ideal shaxs” sifatida tasavvur uyg‘otsa, yillar o‘tib oila, muhabbat, nafrat, rashk kabi tushunchalarda anchayin tajribaga ega bo‘lgan 30–35 yoshli ayni kitobxon-retsipiyent (qabul qiluvchi) endi Kumushni xudbinlikda ayblashi, Zaynabni esa “chorasiz zaifa, muhabbat qurboni” sifatida ko‘rib, uning harakatlarini, hatto oqlashi ham mumkin bo‘ladi. Yoki O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi onaning harakatlarini o‘quvchi o‘z hayotiy vaziyatlaridan kelib chiqib oqlamasligi, Umri xolani hatto fojianing asosiy sababchisi sifatida ko‘rsatishi ham mumkin. Demak, “kitobxon javobi” yondashuvi yozuvchi estetikasi emas, **kitobxon (retsipiyent) qarashi, tafakkur hosilasi** sifatida diqqat markazida bo‘ladi. O‘quvchi adabiy aloqaning yakunlovchi bo‘g‘iniga aylanadi.[12] O‘quvchi o‘z fikrlari bilan asarning “yozilmagan qism”larini yaratadi.

“Kitobxon javobi” nazariyasi o‘quvchi va matn munosabatlariga, matnni estetik-emotsional qabul qilishning psixologik asoslarini kuzatish orqali har bir o‘quvchiga xos individual badiiy sezgilarni kashf qilishga qaratiladi. Matnni idrok etgan o‘quvchi uni o‘z uslubida qabul qiladi, **yaratadi va qayta yaratadi.**

Demak, kitobxon javobi” yondashuvining adabiy ta’limda qo‘llanishi:

– adabiyot darslarida o‘quvchining **faolligini** oshiradi;

– o‘quvchilar darslikdagi “asar haqida” kabi **qoliplangan** fikrlar yoki o‘qituvchining magistral qarashlariga bog‘lanib qolmaydi;

– o‘quvchilarga asar haqidagi **o‘z talqinlarini** yaratish imkoniyati beriladi;

– o‘quvchida **mustaqil va erkin fikrlash** qobiliyatini shakllantiradi;

– darsda o‘qituvchining aralashuvi cheklangan holda, o‘quvchilarning o‘qilgan asar yuzasidan fikrlarini **erkin** ifodalash, kitobxonning izohlari orqali badiiy matn ma’nosini konkretlashtirish, kitobxon tasavvurlari orqali badiiy matnning bugungi zamon uchun ahamiyatini aniqlashtirishga yordam beradi.

“Kitobxon javobi”ning muhim asoslaridan bo‘lgan o‘quvchi hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, avvalgi bilimlari majmui va o‘qish jarayonidagi emotsional holatlari badiiy asar tahlilida muhim faktorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. “Kitobxon javobi” perspektiv talqinlarni yuzaga chiqarishi bilan birga badiiy asar tahliliga individual hayotiy tajriba, bilim, tafakkur, ma’naviy ehtiyoj orqali kirib kelish tamoyilini ham shakllantiradi. Badiiy matnga shunchaki mutolaa obyekti sifatida emas, balki yozuvchi, badiiy matn va kitobxon o‘rtasidagi aloqa faoliyati sifatida qarashga rag‘bat beradi. Badiiy matnni kitobxon javobi yondashuvida tahlil qilish o‘quvchilarni adabiy muzokaralarga yo‘naltirishda, o‘qituvchining an’anaga aylangan magistral huquqini cheklashda, badiiy san’atni idrok qilish kuchini namoyish etishda ahamiyatlidir.

Demak, “kitobxon javobi” yondashuvi asosida ham o‘quvchi faolligi yotadi. Shu nuqtayi nazardan ko‘plab metodist olimlar badiiy asarni turli rakurslarda tushunish va badiiy asar anglovining muvaffaqiyatli kechishida aynan “kitobxon javobi” nazariyasi asosidagi

---

[11] Iser W. The Reading Process: a Phenomenological Approach. // New Literary History, 1972, Vol. 3, No. 2, p. 287.

[12] А. Н. Ковылкин. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки // Омский научный вестник, № 2 (54) 2007, стр. 153.

yondashuvlarni ko‘proq samara berishini ta’kidlaydilar. “Mazkur nazariyaning adabiyot darslarida tatbiq etilishi adabiy ta’limda yangicha yo‘nalishlarni yuzaga chiqarish barobarida badiiy asar tahlilida o‘quvchi rolini qayta kashf etishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”.[13]

“Kitobxon javobi” nazariyasini ta’lim jarayonida qo‘llash, o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish va darslarni o‘quvchilar uchun qiziqarli qilish vositalaridan biri bo‘lmish **“O‘qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish”** texnologiyasi 1980-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlarida Piaje, Vigotskiy va boshqa pedagog olimlarning nazariy qarashlari asosida yuzaga kelgan. Ushbu texnologiya asosida quyidagi fikrlar yotadi:

– har bir bola tabiatan **qiziquvchan** bo‘lib, dunyoni o‘rganishni istaydi hamda bu o‘rganish jarayonida **murakkab muammolarni** ko‘rib chiqib, original fikrlar berishga tayyor;

– o‘qituvchining vazifasi – o‘quvchining **fikrlash** jarayoniga yordam berish;

– tanqidiy fikrlash birinchi navbatda **bahs-munozara**, **matn bilan faol ishlash va yozish** orqali shakllanadi.

Texnologiya mualliflarining fikricha, tanqidiy fikrlar alohida olingan ko‘nikma emas, balki ko‘nikma va malakalar majmui bo‘lib, qiziquvchanlikni namoyish qilish, o‘z oldiga savollar qo‘yib, bu savollarga tadqiqot yo‘li bilan javoblar qidirish, sabab va oqibat bog‘lanishlarini tahlil qilishdir.

O‘rganish – **yangi** bilimlarning **mavjud** bilimlar bilan bog‘lanishidir. O‘rganish jarayoni samarali bo‘lishi uchun u o‘quvchida mavjud bilimlar asosida qurilishi lozim.

Ushbu texnologiya asosida o‘rganish uch bosqichda tashkil qilinadi:

1) Muammo qo‘yish: bu bosqichda quyidagilar maqsad qilinadi:

– o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha mavjud bilimlarni faollashtirish va tahlil qilish;

– muammoga nisbatan qiziqish uyg‘otish;

– o‘quv materialini o‘rganishni strukturalashtirish.

2) Anglash: bu bosqichda quyidagilar maqsad qilinadi:

– yangi ma’lumotni olish;

– yangi ma’lumotni anglash;

– yangi ma’lumot va mavjud bilimlar o‘rtasida bog‘lanishlar hosil qilish.

3) fikrlash: bu bosqichda quyidagilar maqsad qilinadi:

– yangi g‘oya va fikrlarni o‘z so‘zlari bilan ifodalash;

– o‘zaro muloqot orqali yangi materialni yaxlitligicha tushunish va umumlashtirish;

– yangi materialni o‘rganish jarayonini tahlil qilish;

– yangi materialga nisbatan o‘z munosabatini shakllantirish.

Ushbu texnologiya asosida darsni tashkil qilishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

– asosiy maqsad – o‘quvchiga ma’lumot yetkazish emas, balki tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– texnologiyaning samarasida ta’limiy muhit katta rol o‘ynaydi – bu muhitda har bir o‘quvchi fikr bildirish huquqi va imkoniga ega bo‘lishi lozim;

---

[13] Darlington Sonja Pfister. Literature as Visual Response And Aesthetic Experience: An Alternative Approach. A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Dotor of Philosophy. Iowa State University, Iowa, USA, 1990, p.56.

– o‘quvchilar erkin bo‘lishlari lozim: o‘zgalarning fikrini tinglash va fikr bildirish darsda qo‘llab-quvvatlanadi.

Darsdan oldin o‘quvchi badiiy matnni bir necha mantiqiy qismlarga bo‘lib, har bir qism bo‘yicha muhokama uchun savollar tayyorlab qo‘yadi. O‘quvchilarning badiiy matn bilan bevosita ishlashi darsning “anglash” bosqichida amalga oshadi. Bu bosqichda o‘qituvchi tayyorlab qo‘ygan savollar o‘quvchilar bilan muhokama qilib olinadi hamda o‘quvchilar asarning keyingi qismida nimalar sodir bo‘lishi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar.

Misol uchun, Alfons Dodening “So‘nggi saboq” asari bilan ishlashda “muammo qo‘yish” bosqichida quyidagi savollarni o‘rtaga tashlash mumkin:

– Ona tili siz uchun nima?

– Insonni ona tilidan mahrum etish mumkinmi? Bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

“Anglash” bosqichida muhokama uchun quyidagi savollarni o‘rtaga tashlash mumkin:

– O‘sha kuni maktabdagi vaziyat boshqa kunlardagidan qanday farq qilardi?

– “Mana shu ikki og‘izgina so‘z meni larzaga soldi”. Nega ikki og‘iz so‘z bolani larzaga soldi? Fransning xayolidan nimalar o‘tdi?

– “Men seni koyimayman, Frans, o‘g‘lim, shundoq ham jazolanganingni bilsang kerak”. Mosye Amel qanday jazo haqida gapirmoqda?

– Hikoya oxirida Mosye Amelning rangi nega oqardi?

“Fikrlash” bosqichida “muammo qo‘yish” bosqichida qo‘yilgan savollarga yana qaytish va hikoya mazmunidan kelib chiqib yana bir marta muhokama qilib olish mumkin. Yakuniy topshiriq sifatida “Ona tilim” mavzusida ijodiy insho yozishni taklif qilish mumkin.

Adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi. Biz nimaniki o‘ylamaylik, bajarmaylik, buning negizini ma’naviyatga bog‘lab tushunadigan xalqmiz. Qalbimizdagi ana shu yuksak ma’naviy kuchning anglanishi, tanlanishi va hayotda o‘zini namoyon etishiga ona tilimiz va milliy adabiyotimiz betimsol quvvat baxsh etadi. Aslida ham o‘z hayotini umummilliy qarashlar tizimi asosida barpo etgan, ajdodlardan meros muqaddas buloqlardan suv ichib, tomir yozgan avlodlarni esa hech qanday kuch yengolmaydi.

Gardner nazariyasi va adabiy ta’lim integratsiyasi

Bugungi jahon adabiy ta’limida keng foydalanilayotgan nazariyalardan biri Gardner nazariyasidir. Amerikalik olim Govard Gardner 1991-yilda yaratgan **“turfa zakovatlar”** (multiple intelligence) nazariyasi asosida o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini turli xil zakovatlar vositasida yuzaga chiqarish tamoyili yotadi. Gardnerning turfa zakovatlarga asoslangan nazariyasi nafaqat adabiyotda, balki butun bir ta’lim sohasida o‘qitishga integrativ yondashuv bo‘lib, bunday o‘qitish usuli talabalardagi turli xil zakovatlarni yuzaga chiqarishda, biror-bir masalaga individual yondashuvda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik olim Govard Gardnerning ta’kidlashicha, har qanday inson tug‘ma iste’dod egasidir. Har bir insonga xos xususiy holatlar, masalan, mantiqiy fikrlash, muayyan voqelikni turli xil rakurslarda ko‘ra olish, muayyan masalaga yondashuv prinsipi va yana bir qancha individual qobiliyatlar o‘quvchilarda bir xil ko‘rinish, holat yoxud vaziyatlarda namoyon bo‘lavermaydi. Ularni yuzaga chiqarish uchun muayyan vositalar, subyektiv yoki obyektiv sabablar kerak bo‘ladi.

Govard Gardnerning “turfa zakovatlar” (multiple intelligence) nazariyasi yuqorida ta’kidlangan – har qanday inson **individual tafakkur va dunyoqarash** egasi degan qarashlarga asoslangan. Govard dunyoni anglash va bilish (shu bilan birga voqelikka munosabatda) nuqtayi nazaridan bilim olishni sakkiz xil zakovat asosiga quradi:

Lingvistik zakovat (Linguistic Intelligence)

Bunda o‘quvchining qobiliyati matn lingvistikasi vositasida namoyon bo‘ladi. Aniqroq qilib aytganda, o‘quvchilardagi ushbu zakovat turi ko‘proq badiiy adabiyotning ritorik va poetik ifodasiga asoslanadi. Lingvistik zakovat orqali o‘quvchi muayyan badiiy matn yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini ifoda etishi, boshqalarni o‘z g‘oyaviy qarashlariga ishontira olishi mumkin bo‘ladi. O‘quvchilardagi lingvistik zakovatni yuzaga chiqarish va yanada rivojlantirish badiiy matn bilan bog‘liq jarayon. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi misolida) quyidagi topshiriqlar namunasidan foydalanish mumkin:

– Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi haqida qisqa syujetli axborot tayyorlang.

– Hikoya asosida insho yoki bayon yozing.

– Hikoya syujeti asosida biror-bir she’r yoki qisqa hikoya yarating.

– Qahhorshunos olimlardan intervyu oling.

– Qahhor romanlari yoki hikoyalari asosida yaratilgan kinossenariylar (agar mavjud bo‘lsa) haqida axborot tayyorlang va hikoyaning kinotalqinidagi farqlarga alohida urg‘u bering.

– “Dahshat” hikoyasida sizga ta’sir qilgan va hikoyaning badiiy-g‘oyaviy, estetik mazmunida o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan so‘z va so‘z birikmalarini matndan topib belgilang hamda ularni izohlang.

Mantiqiy matematik zakovat (Logical-Mathematical Intelligence)

Bu zakovat asosan **matnning yozilgan qismlari asosida yozilmaganlarini kashf etish,** asarning **ramziy** ma’nolarini **deduksiyaga** (umumiy vaziyatlardan xususiy xulosalar chiqarish) asoslangan holda inkishof etishni taqozo etadi. O‘quvchilardagi bunday qobiliyat asosan ilmiy va matematik tafakkurga asoslanadi.

– Hikoyadagi muammoli vaziyatlarni toping va tahlil qiling.

– Adabiyotshunoslikdagi makon va zamon tushunchasini “Dahshat” hikoyasi misolida izohlang.

– Hikoyaning mantiqiy asosini ishlab chiqing.

– “Dahshat” hikoyasi syujeti dinamikasini jadval asosida tushuntiring.

– Hikoyaga tanqidiy baho bering.

– Hikoyadagi vaqt jadvalini yarating.

Jismoniy harakatga asoslangan zakovat (Bodily-Kinesthetic Intelligence)

Bu – muayyan badiiy matnni, kitobxon fikr-mulohazalarini tana a’zolari vositasida ifodalash usuli. O‘rganishning bu turi inson tana a’zolari harakatiga asoslangan bo‘lib, Gardner ta’rifi bilan aytganda, bunday zakovat egalari jismoniy faoliyat vositasida mu-

loqot qilishni sevadilar, ayni o‘rinda ularga biror-bir badiiy asarni sahna ko‘rinishlari, turli xil harakatlar orqali o‘rgatish ko‘proq samara beradi[14].

– Qahhorning “Dahshat” hikoyasi asosida sahna asari yarating.

– Hikoyadagi Dodxo obraziga xos xususiyatlarni harakatlar orqali ko‘rsatib bering.

– Unsinning qabristondagi holatini jismoniy harakatlar orqali qanday tasvirlagan bo‘lardingiz?

Musiqiy zakovat (Musical Intelligence)

Bu – musiqa vositasida o‘rganish usuli. Musiqiy zakovat egalarida chuqur idrok, ohang va tovushlarga sezuvchanlik qobiliyati namoyon bo‘ladi. Bunday zakovat egalarida musiqaga muhabbat alohida ahamiyat kasb etadi va ular atrofidagi tovushlarga nisbatan o‘ta sezuvchan bo‘ladilar. Bunday iste’dod egalariga badiiy matnni musiqa, musiqiy nutq, tovushlar, ohanglar orqali o‘rgatish ijobiy natijalar beradi.

– “Dahshat” hikoyasi ruhiga mos musiqa yarating.

– Hikoyadagi Unsinning his-tuyg‘ulari, iztiroblarini qanday ohanglarda ifodalash mumkin? Rejissyorga tavsiyalar bering.

– Hikoya asosida she’r yarating va unga musiqa bastalang.

Voqelikni tashqi belgilar orqali ko‘rish zakovati (Visual-Spatial Intelligence)

Bunday qobiliyatga ega o‘quvchilarga muayyan badiiy matnni kartalar, suratlar, illyustratsiyalar, uch o‘lchamli modellar, videolar, videokonferensiyalar, televideniye, grafiklar va chartlar orqali o‘rgatish tavsiya etiladi. Bunday zakovat egalarining o‘zlari ham asarni mana shunday tashqi omillar orqali o‘rganishga xayrixoh bo‘ladilar. Gardner nazariyasiga asoslangan bunday yondashuv uslubida bir paytning o‘zida ham ko‘rish, ham eshitish va ham tafakkur qilish orqali muayyan badiiy asar mohiyati, muallifning poetik tasvirlash mahoratini chuqur idrok eta olish imkoniga ega bo‘ladilar.

– Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi syujetini ranglar orqali ifodalang.

– Hikoya asosida multfilm yarating.

– “Dahshat” hikoyasidagi Dodxoh, Unsin va maymun obrazlarini ranglar bilan tasvirlang va yaratgan asaringizni matn bilan qiyoslab izohlang.

– Hikoyani grafik organayzerlar orqali tahlil qiling.

– Abdulla Qahhor yashagan va “Dahshat” hikoyasida tilga olingan hududlarning geografik xaritasini yarating.

– Asardagi siz uchun eng ta’sirli epizodni rangtasvir orqali ifodalashga harakat qiling.

[14] G. Gardnerning mazkur nazariyasi butun dunyo tajriba sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan va o‘qitishning eng samarali metodlaridan biri sifatida jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridagi ta’lim dargohlarida o‘qitilmoqda. Ushbu nazariyaning mazmun-mohiyati, ta’limdagi ahamiyati xususida yuzlab tadqiqotlar yaratilgan. Qarang: https://www.multipleintelligencesoasis.org/.

O‘zaro muloqotga asoslangan zakovat (Interpersonal Intelligence)

O‘zaro muloqotga asoslangan zakovatda o‘quvchilar asosan guruhlarda ishlash orqali o‘z qobiliyat va zakovatlarini namoyon qiladi. Bunday zakovatga ega o‘quvchilar badiiy matn anglovida boshqalarning qarashlari, fikr-mulohazalariga ham tayanadilar. Atrofidagilarning fikri ularda yangi g‘oyalarning tug‘ilishiga rag‘bat berishi mumkin. O‘zaro muloqotga asoslangan zakovat turida guruhlar bilan ishlash, muayyan badiiy asardagi muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish, badiiy asar asosida guruh loyihalarini yaratish, qahramonlar nutqi asosida dialoglar tuzish tavsiya etiladi.

– Guruhlarga bo‘lining. O‘z dunyoqarashingiz, fikrlashingiz va ijodkorlik qobiliyatingizdan kelib chiqib Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasini yakunlang. Hikoya asosidagi yakunlaringizni asar yaratilgan davr, o‘sha paytdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, xalq turmush tarzidan uzoqlashmagan holda izohlang. Fikr isbotida aniq dalillarga tayanishga harakat qiling.

– Unsinning fojiasiga kim aybdor?

A) Dodxoh B) ijtimoiy tuzum C) Unsinning o‘zi D) maymun

– Guruhlarga bo‘lining. Har bir guruh o‘z javoblarini matn, hayotiy tajribasi, avval olgan bilimlariga tayanib asoslashga harakat qiladi. Keng mantiqiy xulosalarga asoslangan fikrlar, qarashlarni bildirgan o‘quvchilar g‘olib deb topiladi.

Ichki muloqotga asoslangan zakovat (Intrapersonal Intelligence)

Bunday zakovatga ega o‘quvchilar o‘z ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulariga quloq tutishni, o‘zlari bilan “muloqot qilishni” afzal biladilar.

– “Dahshat” hikoyasi asosida reja tuzing.

– Hikoya asosida biror-bir jurnal yoki gazetaga maqola yozing.

– Hikoya xususida ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarga taqriz yozing.

– Asar yozilgan o‘tmish bilan vizual bog‘laning hamda asar muallifi yoki qahramonlariga qiziqtirgan savollaringiz bilan murojaat qiling. Hikoya yaratilishining tarixiy, ijtimoiy omillarini topishga harakat qiling.

– O‘zingizdagi hikoya bilan bog‘liq metakognitiv jarayonlarni izohlang (masalan, sizning “Dahshat” hikoyasini tushunishingizga qanday faktorlar yordam berdi? Nima uchun aynan mana shu omillarga tayandingiz?).

Tabiiy-ilmiy zakovat (Naturalistic Intelligence)

Tabiiy-ilmiy zakovat egalari atrof-muhitni kuzatish va tabiatni o‘rganish orqali borliqni idrok qilishni xush ko‘radilar. Badiiy matn bilan ishlayotganda bunday zakovat egalari uchun asardagi tabiat (bu o‘rinda real voqea-hodisalarga asoslanib o‘rganish ham nazarda tutiladi), muhitni tahlil qilish, tabiiy fanlardan (geografiya, fizika, kimyo, biologiya) olingan bilimlar bilan bilan bog‘lash samara beradi.

– “Dahshat” hikoyasidagi g‘oyani tabiat bilan bog‘lab tahlil qiling.

– Asarda Unsin obraziga xos qaysi jihatlar tabiat bilan uyg‘un tasvirlangan?

Gardnerning turfa zakovatlarga asoslangan nazariyasi, nafaqat adabiyotda, balki butun bir ta’lim sohasida o‘qitishga integrativ yondashuv bo‘lib, bunday o‘qitish usuli talabalardagi turli xil zakovatlarni yuzaga chiqarishda, biror-bir masalaga individual yondashuvda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun adabiyot fanlarini o‘qitishda **integrativ yondashuv** ham ta’lim sifatini yuqori bosqichlarga olib chiqishda muhim faktor bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, Bugun xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati integrativ yondashuv konsepsiyasi, uning mazmun-mohiyati, shakl-shamoyili, tamoyillari, konsepsiyasi kabi masalalarga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarni kuzatish mumkin. Yanayam aniqroq qilib aytganda, integrativ yondashuv ta’lim oluvchilarning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokiga asoslangan (o‘quvchi ta’lim markazida turadigan muhitning yaratilishiga sabab bo‘ladigan), ularning muvaffaqiyatlari, ijodiy, tanqidiy fikrlashlariga, adabiyotga, badiiy asarga munosabatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladigan yondashuvlardan biridir. Bunday yondashuvda talabalarda adabiyot o‘qitishda fanlarning o‘zaro bog‘liqligi, o‘zaro munosabatlar haqida tasavvur uyg‘onadi.

Hind metodist olimlaridan biri Anisha Munavvarning ta’kidlashicha, adabiyot fanlarini ikki bosqichli tizimda o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Bular – o‘qishdan oldingi loyiha (pre-teaching project) va o‘qishdan keyingi loyiha (post-teaching project).

O‘qishdan oldingi loyiha (darsni tashkil etish loyihasi) o‘qituvchining adabiyot darslarini tashkil etish, o‘quvchini badiiy asarlar mutolaasiga qiziqtira olish mahorati masalalari asosiga quriladi. Dastlabki o‘qitish loyihasining muhim shakllaridan biri – badiiy matnga **geografik aspektda yondashuv loyihasidan** iboratdir.

Badiiy matnni chuqur tushunish, uning ichki hayotiga yashiringan ayrim ma’no qatlamlarini idrok etishda geografik yondashuv usulidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Aytaylik, talabalarga XX asr o‘zbek adabiyotidan dars beradigan o‘qituvchi Cho‘lpon ijodini o‘rgatish jarayonida u tavallud topgan shahar, tuman yoki qishloq (masalan, Andijonning Qatorterak mahallasi), ushbu shahar yoki qishloqqa chegaradosh hududlar, o‘sha joyning geografik joylashuvi, bugungi holati, ijodkor yashagan hudud bilan bog‘liq konstruktiv o‘zgarishlar, muayyan manzilning badiiy asardagi tasviri va yana shunga o‘xshash detallar vositasida mavzuni tushuntiradi.

Natijada o‘quvchi uchun badiiy asardagi voqelikni real epizodlarda ko‘rish va tasavvur qilish imkoni yaratiladi. Shu o‘rinda o‘qituvchi talabalarning o‘zlaridan ham turli xil, xususan, ijodkor yashab o‘tgan joy nomiga aloqador ma’lumotlar, umumgeografik xaritalarni olib kelish va muayyan joy tasvirini daftarlariga qayd qilish vazifasini ham berishi mumkin. Badiiy matnni bu kabi geografik detallar vositasida o‘rganish asar ichki hayotiga yashiringan xos tushunchalarni ham idrok etish imkoniyatini kengaytiradi.

Bizning nazarimizda, badiiy matnni geografik aspektda o‘rganish vositasida muayyan hudud iqlimi, tabiati va uning muallif ruhiyatiga ta’siri kabi masalalarni yanada chuqurroq idrok etish uchun zamin yaratiladi. Zotan, muallif va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muammolari talqini, matndagi tabiat tasvirining ijodkor ruhiyatidagi in’ikosi masalasi zamonaviy tanqidchilikning yetakchi tamoyillariga aylanib ulgurgan.

Aslida ijodkorning individual dastxati uning mana shu kabi muammolarni tasvirlash uslubida ham namoyon bo‘ladi. Adabiyotga geografik yondashuv uslubi asarni turli rakurslarda tushunish va anglash bilan bir qatorda leksik unsurlarning matndagi ahamiyati, ularning etimologiyasi, tarixiy davr bilan bog‘liqlik darajasi kabi masalalarni chuqurroq o‘rganish va eng muhimi, o‘quvchini voqelikka yaqinlashtirish, anglash va tushunishda muhim vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotni o‘rgatishdagi keyingi yondashuv bu – **tarixiy aspektdagi yondashuv loyihasi** bo‘lib, bu usul tarixiy detallarning badiiy asarda aks etishi, real va badiiy voqelik

o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar, tarixiy voqealarning jamiyatga, xususan, ijodkorga ta’siri muammolarini o‘rganishda talabalarga yengillik tug‘diradi. Xorij tajribasida badiiy asarlarni o‘rganishda tarixiy aspektdan foydalanish ko‘p yillardan beri amaliyotga tatbiq qilingan va bunday o‘qitish uslubini g‘arb olimlari matnni reallik bilan ajralmagan holda tushunish va tushuntirishdagi eng maqbul yo‘l sifatida e’tirof etishgan.

Ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat ijodini tarixiy aspektda o‘rganish ijodkorning dunyoqarashi, o‘zi yashayotgan jamiyat psixologiyasi va ijtimoiy-siyosiy muhitga nechog‘liq bog‘liq ekanini aniqlashda; jadid davriga xos yozuvchi psixologiyasidagi fikriy yo‘nalishlar tadrijini belgilashda; davr voqea-hodisalari bilan bog‘liq har bir detal yoki kartinaning yozuvchi poetik tafakkuri hamda estetik idrokida sintezlanishi, adabiy jarayonda aks etishi darajasini aniqlashda hamda yozuvchi shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishi, taraqqiy etishi, ijodidagi o‘sish-o‘zgarishlar, u yoki bu asarining yozilish tarixi haqidagi talqinlarni haqqoniy ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, jadid ma’rifatparvarlari tomonidan yaratilgan har bir ijod namunasida davr voqealari asosidagi ijtimoiy va hatto siyosiy mohiyat kasb etadi. Chunki ularning insoniylik tuyg‘ulari millat taqdiriga mas’ullikdan ajralmagan.

Bugungi kun jahon tajribasidagi adabiyot fanlarini o‘qitishdagi yana bir an’anaga aylangan usul bu badiiy matnni **siyosiy aspektda o‘rgatish yoki o‘rganish usulidir.** Bunday yondashuvda o‘qituvchi talabalarga ijodkor yashagan shahar yoki mamlakat siyosati, asar yaratilishi bilan bog‘liq siyosiy voqealar yuzasidan kichik taqdimotlar tayyorlab kelishni vazifa qilib beradi. Bu yondashuv o‘quvchiga davr siyosiy harakatlari, ularning jamiyatga, xususan, ijodkor tafakkuriga ta’siri, uning badiiy asardagi talqini, real voqelikning ijodkor ongidagi sintezi masalalarini qiyoslab o‘rganishga imkon yaratadi.

Ayrim olimlar bu yondashuv vositasida ijodkor millatiga xos an’analar, urf-odatlar, kiyinish madaniyati va hatto iste’mol qiladigan taomlarini ham o‘rganish zarurligini ta’kidlaydilarki, bu talabalarni badiiy matnga munosabati va qiziqishini yanada oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy asarda aks etgan mifologik detal yoki voqea-hodisani ma’lum bir suratlar yoki diniy qarashlarga asoslangan rivoyatlar suratlari, kolleksiyalar yoki shu asarlarda aks etgan manbalardan foydalanish badiiy matnni tushunish va anglashga rag‘batni kuchaytiradi. Masalan, Muhammad Raufxonning “Etakdagi kulba” asarini mifologik kolleksiyalar usulida o‘rgatish yaxshi samara beradi. Chunki hikoyaning ko‘p o‘rinlarida muallif mifologik detallar yoki mifologik ottenkaga ega bo‘lgan so‘z iboralaridan foydalangan. Bunga misol qilib “jin ko‘chalar” so‘z birikmasini olishimiz mumkin. Ko‘chaning aynan “jin” deb nomlanishi bilan bog‘liq diniy qarashlar, rivoyatlarning o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tushuntirilishi ularning badiiy matn ruhiga kira olish darajasini oshiradi.

Adabiyot fanlarini o‘qitishga qaratilgan xorij dasturlarining deyarli barchasida “Adabiyot va kino” nomli mavzu mavjud bo‘lib, unda talabalar asar va uning kino talqinlaridagi tafovutlar, badiiy matn asosidagi kinossenariyning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyoslab o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar.Qolaversa, obrazlar tizimi, ularga yuklatilgan g‘oyaviy funksiyalarni ko‘rish va tasavvur qilish orqali muayyan asarda aks etgan voqealarni o‘quvchi ongida jonlantirish va anglash imkoniyati kengayadi.

Bugungi globallashuv davrida barcha fanlar qatorida adabiyot fanini o‘qitishning **texnologik usullari** kundan kunga rivojlanib boryapti. Xususan, axborot kompyuter texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, internet va boshqa elektron tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanish ta’lim oluvchilarning badiiy matnni anglashlarida sezilarli natijalarni bermoqda.

Bizning nazarimizda, adabiyot fanini o‘qitishda xorijlik mutaxassislar e’tiboridan chetda qolgan yana bir usul bu – **biografik metoddan foydalanishdir.** Biografik metod ham matnni chuqur anglash, muayyan ijod namunasida aks etgan badiiy va tarixiy voqealar sintezi mohiyatini aniqlashtirish, ulardagi voqelik sabablari, har bir kichik detal mohiyatini ochishda yaxshi samara beradi.

Muallif biografiyasiga alohida e’tibor qaratish, badiiy asarni ijodkor hayot yo‘li kontekstida o‘rganish matnga yuklangan mazmunni oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Zotan, muayyan badiiy asarda uning ijodkori shaxsiyati akslanadi. Shu bois uning aksariyat qirralari aynan biografik yondashuv orqali anglashiladi. Ammo, nazarimizda, muallif ijodini o‘rganishda bu uslubdan foydalanish qoniqarli darajada emas.

Adabiyot darslarida mashhur tanqidchilar, shoir va yozuvchilar, aktyor hamda aktrisalarning suhbatlaridan foydalanish ham muayyan natijalar bera oladi. Bunday usul talabalarda plyuralistik tafakkur imkoniyatlarini kengaytirish, badiiy matnni turli aspektlarda tushunish imkoniyatlarini yaratadi. Qolaversa, suhbat metodi badiiy matnni chuqurroq tushunishga yordam berib, mutolaaga rag‘bat uyg‘otadi.


Xulosa qilish mumkinki, adabiyot o‘qitishga integrativ yondashuv yosh avlodning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi va ta’lim samaradorligiga xizmat qiladi.

BLUM TAKSONOMIYASI VA UNING ADABIYOT O‘QITISHDA QO‘LLANISHI

Bugungi kunda ta’lim standartlari rivojlangan Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika kabi mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini, sinovdan o‘tgan yondashuvlarini milliy ta’limga olib kirish o‘qitish va o‘rganish sifatining o‘sishida, adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda va sohaning jahon standartlariga mos rivojlanishida muhim faktorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Britaniya ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ijodkorlik, faollik, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil nazariya va konsepsiyalardan foydalaniladi. Mana shunday nazariyalardan biri Blum taksonomiyasidir. 1950-yilda Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan mazkur modelning eng muhim jihati turli ehtiyoj va qobiliyat, dunyoqarash, tafakkur egalari bo‘lgan o‘quvchilarni dars jarayonlarida bir xil tarkibda va bir xil faollikda ishtirok etishlarini ta’minlaydi hamda asosiy e’tibor badiiy asarni o‘rganish bosqichlariga qaratiladi.

1956-yilda amerikalik olimlar Benjamin Blum *(Benjamin Bloom)*, Maks Englhart *(Max Engleheart)*, Edvard Furst *(Edward Furst)*, Uolter Hill *(Walter Hill)* va Devid Krasvol *(David Krathvol)* tomonidan yaratilgan **ta’limiy maqsadlar taksonomiyasi** (aksar adabiyotlarda Blum taksonomiyasi deb yuritiladi) fanni o‘qitishda maqsadlarni **soddadan murakkabga** va **aniqdan mavhumga** qarab rejalashtirish uchun xizmat qiladi.

Blum taksonomiyasida **kognitiv** ko‘nikmalar (bilish, tushunish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalar) **quyi darajadagi ko‘nikmalar** va **yuqori darajadagi ko‘nikmalarga** bo‘linadi. Bilish, tushunish va qo‘llash – quyi darajadagi ko‘nikmalar, tahlil, sintez va baho berish – yuqori darajadagi ko‘nikmalar hisoblanadi. Yuqori darajadagi ko‘nikmalar quyi darajadagi ko‘nikmalarga qaraganda murakkabroq jarayonlarni o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarda ularni shakllantirish uchun o‘qituvchidan kreativ yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birga, quyi darajadagi ko‘nikmalarni shakllantirmasdan turib, yuqori darajaga o‘tish mumkin emas.



Benjamin Blum taksonomiyasida kognitiv ko‘nikmalar ketma-ketligi

Blum taksonomiyasidagi kognitiv ko‘nikmalarning asosiy xususiyatlarini va har bir bosqichda ishlatilishi mumkin bo‘lgan savol va topshiriqlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Bilish

Bu bosqichda o‘quvchidan ma’lumotni **eslab qolish** va uni **qaytarish** talab qilinadi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

– kim, nima, qachon, qayerda, qaysi, nega singari faktual savollarga javob bera olish;

– nomini aytish, ajratib olish, topish, moslashtirish, ro‘yxatini tuzish, qayta so‘zlab berish, tasvirlash singari amallarni bajara olish.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlar namunalari:

– Asar qahramonlarini sanang.

– Asar qahramonlari va ularning ta’riflarini moslashtiring.

– Quyidagi gaplarni asarda kim aytganini toping.

– Asar voqealari qachon, qayerda kechishini ayting.

– Asardagi voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri toping.

– Asarning syujetini qisqacha bayon qiling.

2. Tushunish

Bu bosqichda o‘quvchi ma’lumotni **tushuntira oladi,** boshqa shaklga sola oladi, talqin qila oladi va tasniflay oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

– o‘rganilayotgan hodisalarni solishtirib, o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsata olish;

– o‘z talqinini bera olish;

– fikrini isbotlash uchun matndan misollar keltira olish;

– keyin nima bo‘lishi mumkinligini bashorat qila olish.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlar namunalari:

– Asarning janrini aniqlang.

– Asar nega shunday nomlanganini izohlang.

– Asardagi muammo nimadan iborat va bu muammoning qanday yechimi bor?

– Asar qahramonlarini solishtiring.

– Asar qahramonlari o‘zlarini qanday his qilishganini tasvirlang.

– Asardagi misralarni sharhlang.

– Asarda qo‘llangan badiiy san’atlarning maqsadini tushuntirib bering.

– Asarda tabiat manzarasi nima uchun ishlatilganini tushuntiring.

– Yozuvchining bu asarni yozishdan maqsadi nima deb o‘ylaysiz?

– Asar voqealari kechayotgan joy tasvirini chizing.

– Asar (asardagi bir epizod) asosida rasm chizing.

3. Qo‘llash

Bu bosqichda o‘quvchidan ma’lumotni **yangi hayotiy vaziyatlarda** qo‘llay olish talab qilinadi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

– muammoli vaziyatlarni yecha olish;

– asar qahramonlarini boshqa vaziyatlarga solib ko‘ra olish;

– asarga o‘zgacha (alternativ) yakun bera olish.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlar namunalari:

– Asardagi muammoga boshqacha yechim toping.

– Tasavvur qiling, siz asar qahramonlaridan birisiz. Hayotingizdagi bir kunni tasvirlab kundalik yozing.

– Asardagi bir voqea o‘zgarsa, boshqa voqealar qanday rivojlangan bo‘lardi?

– Asar qahramoni boshqa vaziyatda qanday yo‘l tutgan bo‘lardi?

– Asardagi voqealar boshqa zamonda (makonda) sodir bo‘lsa nimalar o‘zgargan bo‘lardi?

– Asarga boshqacha yakun yozing. Nega aynan shunday yakunlaganingizni izohlang.

– Asardagi voqealarga o‘xshash voqealar sizning hayotingizda sodir bo‘lganmi?

– Qahramon o‘rnida bo‘lganingizda nima qilardingiz?

– Asar qahramonidan (muallifidan) intervyu oling.

4. Tahlil

Tahlil bosqichida o‘quvchi murakkab tushunchani kichikroq qismlarga **ajrata oladi** va qismlar orasidagi bog‘liqliklarni izohlab bera oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

– asarni qismlarga yoki tarkibiy elementlarga (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajrata olish;

– asarning asosiy g‘oyasini aytib bera olish;

– yashirin (ochiq aytilmagan) fikrlarni topa olish.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlar namunalari:

– Asardan uning asosiy g‘oyasini ochib bera oladigan uchta so‘z toping.

– Asar qahramonlarining asosiy xususiyatlarini toping.

– Asarni qismlarga bo‘ling. Har bir qismga sarlavha toping.

5. Sintez

Bu bosqichda o‘quvchi o‘rgangan narsalari asosida **yangi** narsa **yarata oladi**. Asarga yangi obraz qo‘shish, yangi sarlavha qo‘yish, asar asosida ssenariy (hikoya, she’r va hokazo) yozish, musiqa bastalash, asarga plakat yaratish, asar asosida savollar (testlar) tuzish, sahna asari qo‘yish, video suratga olish singari topshiriqlar bu bosqichga misol bo‘la oladi.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlar namunalari:

– Asarga sikvel (prikvel) yozing.

– Asar asosida beshta suratdan iborat komiks yarating.

– Tasavvur qiling, asarni sahnalashtirmoqchisiz. Asar qahramonlariga qanday kiyimlar tanlardingiz?

6. Baho berish

Bunda o‘quvchi mezonlar asosida biron-bir voqea-hodisaga o‘z **munosabatini** bildira oladi. Asar qahramonlari xatti-harakatlarini oqlash (qoralash), asarga baho berish, taqriz yozish, asarni birovga tavsiya qilish uchun fikrlar bildirish bu bosqichga misol bo‘la oladi.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlar namunalari:

– Asardagi sizga eng yoqqan (yoqmagan) epizod qaysi? Nima uchun?

– Asar sizga yoqdimi? Nima uchun?

– Asarni do‘stingizga tavsiya qilib xat yozing.

– Asardagi qaysi qahramon bilan do‘st tutingan bo‘lardingiz?

Ma’lumki, o‘quvchilarning fanga qiziqish darajasi, fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi turlicha bo‘lishi mumkin. Ta’lim jarayonining, xususan, adabiyot darslarining samarasi o‘quvchilar motivatsiyasiga, o‘qituvchining o‘quvchilardagi motivatsiyani boshqarish va to‘g‘ri yo‘naltira olishiga ham bog‘liq. **Motivatsiya** – insonning biron-bir ishga, faoliyat turiga, xatti-harakatga, fanga bo‘lgan doimiy qiziqishini ta’minlab turadigan, insonni ma’lum bir maqsadga erishish yo‘lida kuch sarflashga undaydigan ichki va tashqi omillar yig‘indisi. Motivatsiya quyidagi faktorlarning o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi:

– xohish yoki talabning kuchliligi;
– maqsadga erishilgandan keyin qo‘lga kiritiladigan mukofotning qiymati;
– shaxsning va atrofidagilarning kutganlari.

Motivatsiya ta’lim jarayoniga quyidagicha ta’sir qiladi:

– o‘quvchini ta’limiy maqsad va vazifalar sari yo‘naltiradi;
– kutilgan maqsad va vazifalarga erishish yo‘lida ko‘proq kuch sarflashga undaydi;
– kognitiv jarayonlarga ijobiy ta’sir qiladi;
– o‘rganish jarayonining samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘QUVCHILARNI FANGA QIZIQTIRISH (MOTIVATSIYA). DARSNI REJALASHTIRISH

Motivatsiya intrinzik (ichki) va ekstrinzik (tashqi) bo‘lishi mumkin. **Intrinzik (ichki)** motivatsiya o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishi, o‘rganish jarayonidan zavq olishi yoki o‘rganilayotgan narsalarni o‘zi uchun kerakli, muhim, ahamiyatli deb hisoblashdan kelib chiqadi. Amerikalik taniqli psixolog, motivatsiya hodisasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olima Syuzan Harter *(Susan Harter, 1939)* tadqiqotlariga ko‘ra,[15] 3–9-sinflarda o‘quvchilarda intrinzik motivatsiya susayadi. **Ekstrinzik (tashqi)** motivatsiya o‘quvchining tashqi rag‘batlar (yaxshi baho olish, o‘qituvchisi yoki ota-onasi maqtoviga sazovor bo‘lish, mukofotga erishish) ta’siridagi xohishidir. Ekstrinzik motivatsiya qisqa muddatlarda samarali bo‘lib ko‘rinsa ham, uzoq muddatli maqsadlarga erishish va o‘qish-o‘rganish jarayonining o‘quvchilarga foydali bo‘lishini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri ularda intrinzik motivatsiyani shakllantirishdir. Darsga qiziqmagan o‘quvchi dars oldiga qo‘yilgan vazifalarga erishmaydi va erishishga harakat qilmaydi, shu bilan birga, dars jarayoniga xalaqit berishi mumkin. O‘quvchilarda motivatsiya uyg‘otish uchun o‘qituvchi:

– o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishi (nafaqat baho, balki so‘zlar, dalda berish orqali);

– o‘quvchilarni darsning passiv kuzatuvchisi emas, faol ishtirokchisiga aylantirishi;

– dars jarayonida bir xillikdan qochishi;

– darsni o‘quvchi hayoti bilan bog‘lashi lozim.

Intrinzik motivatsiyani kuchaytirish quyidagi **strategiyalarga** tayanadi:

1. O‘quvchida o‘rganiladigan materialga nisbatan **qiziqish** uyg‘otish, o‘rganiladigan material yoki shakllantiriladigan ko‘nikmani **o‘quvchi hayoti** bilan bog‘lash (hayotda qanday kerak bo‘lishini ko‘rsatish).

2. Materialni taqdim qilishning **turli shakllaridan** (ma’ruza, savol-javob, o‘yin, multimedia vositalari) o‘z o‘rnida foydalanish.

3. O‘quvchilarning o‘z oldilariga **konkret va realistik maqsadlar** qo‘yishlariga yordam berish.

O‘quvchilarda motivatsiyani ushlab turish uchun quyidagi **tamoyillarga** amal qilish lozim:

1. O‘quvchilardan **nima kutilayotgani** haqida ularga **aniq** ma’lumot berish.

O‘quvchilar o‘quv yili, semestr (chorak) va dars davomida nimalarni o‘rganishlarini hamda qanday baholanishlarini aniq bilsalar, bu ularning fanga bo‘lgan munosabatiga ijobiy ta’sir qiladi. Shuningdek, dars yoki nazorat paytida o‘quvchilarga topshiriq berayotganda ulardan nima kutilayotgani, bu topshiriq qanday mezonlar asosida baholanishi haqida aniq ma’lumot berilishi lozim. Amerikalik olimlar Grehem, Makartur va Shwarts (Graham, MacArthur and Schwartz) o‘tkazgan bir tajribada o‘zlashtirishi sust bo‘lgan beshinchi va oltinchi sinf o‘quvchilariga insholarini qaytadan yozish topshirilgan va bir guruh o‘quvchilarga “yaxshiroq yozinglar”, ikkinchi guruhga esa “inshongizga mavzu bo‘yicha kamida uchta ma’lumot qo‘shing” deyilgan. Ikkinchi guruh qaytadan yozib kelgan insholar yaxshiroq bo‘lgan, chunki ular nima qilish kerakligini aniq bilishgan.

---

[15] Qarang: Harter, Susan. A New Self-Report Scale of Intrinsic versus Extrinsic Orientation in the Classroom: Motivational and Informational Components. Denver, University of Denver, 1981.

2. Aniq **fidbek** berish.

Fidbek (inglizcha *feedback*) – birovning mehnati, xatti-harakatlari natijalari to‘g‘risida ma’lumot. Fidbek aniq bo‘lishi lozim, masalan, o‘quvchiga inshosi haqida fidbek berayotganda “Yaxshi yozibsan, inshoing menga yoqdi”, degandan ko‘ra “Yaxshi yozibsan, inshoing menga yoqdi, Kumush va Zaynab obrazlarini solishtirib, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini ochib beribsan, fikrlaringni asoslash uchun asardan misollar keltiribsan”, deyish o‘quvchiga yaxshiroq ta’sir qiladi va u aynan nima uchun inshosi yaxshi baholangani to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ularning dars davomida yoki darsdan tashqari bajargan mashq va topshiriqlari yuzasidan aniq, o‘z vaqtida va tez-tez ma’lumot bersa, o‘quvchilar o‘zlarining yutuq va kamchiliklari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lsalar, bu ularning motivatsiyasiga ijobiy ta’sir qiladi.

3. Ekstrinzik motivatsiya beruvchi faktorlarning **qiymatini** oshirish.

O‘quvchilar harakatlari uchun rag‘batlantirilishi lozim, shu bilan birga, eng yuqori rag‘batga erishish hech qaysi o‘quvchi uchun oson bo‘lmasligi kerak. Ayrim o‘qituvchilar a’lo baho olib yurgan o‘quvchiga sifatsizroq bajargan ishi uchun ham a’lo baho qo‘yishga moyil bo‘ladilar, bu holat o‘quvchida “nima qilsam ham, a’lo baho olaverar ekanman” degan xulosaning shakllanishiga olib keladi va o‘quvchining o‘z ustida ishlashga bo‘lgan motivatsiyasiga salbiy ta’sir qiladi.


O‘quvchilar motivatsiyasiga va pirovardida adabiyot darslarining samarasiga ta’sir qiluvchi muhim faktorlardan biri darsning to‘g‘ri rejalashtirilishidir. **Dars rejasi** – dars oldiga qo‘yilgan vazifalar, bu vazifalarni samarali amalga oshirish yo‘llari (usullar va vositalar) hamda bu vazifalarning qay darajada bajarilganligini tekshirish yo‘llari aks etgan o‘qituvchi uchun “yo‘l xaritasi”dir. Darsni samarali rejalashtirish uchun quyidagilar aniqlab olinishi lozim:

– dars oldiga qo‘yilgan vazifalar;

– darsda qo‘llanadigan metodlar;

– o‘quvchilarning tushunishini tekshirish strategiyalari.

Dars oldiga qo‘yiladigan vazifalar (o‘quvchilar dars jarayonida egallashi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar, rivojlantirilishi ko‘zda tutilgan kompetensiyalar) aniqlashtirib olingandan keyin bu vazifalarni amalga oshirishga yordam beradigan metodlar tanlanadi va dars oldiga qo‘yiladigan vazifalarga qay darajada erishilganini tekshirish yo‘llari belgilab olinadi. Umuman olganda, **ta’limiy vazifalar, o‘qitish metodlari va baholash usullari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash** ta’lim jarayonining muhim shartlaridan biridir.



Darsning tarkibiy elementlari

Darsni rejalashtirish quyidagi **bosqichlardan** iborat:

1) Darsning oldiga qo‘yilgan vazifalarni aniqlashtirib olish.

Darsni rejalashtirishda darsning oldiga qo‘yilgan vazifalarni, ya’ni o‘quvchilar darsning oxirida egallashi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmuini aniq belgilab olish juda muhimdir, chunki darsda qo‘llash uchun tanlanadigan metodlar va o‘quv materiallarining barchasi aynan shu vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Shu o‘rinda, **maqsad** va **vazifalarning** farqini aniqlashtirib olish lozim. Maqsad – fanni yoki uning qismini o‘qitish natijasida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar yoki o‘quvchilarda rivojlantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar yig‘indisidir, vazifa esa maqsadga erishish yo‘lidagi kichik bir qadam bo‘lib, konkret kognitiv jarayonlarga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan murakkab ko‘nikma va kompetensiyalar kichik konkret kognitiv malakalarga bo‘linishi va har bir malaka izchil rivojlantirilishi talab qilinadi. Masalan, o‘quvchilarga she’riy vaznlarni ajrata olishni o‘rgatish maqsad sifatida qo‘yilgan bo‘lsa, bu maqsadga erishishni “o‘quvchi barmoq vaznida yozilgan she’rlarni aniqlay oladi”, “o‘quvchi aruz vaznida yozilgan she’rlarni aniqlay oladi” singari vazifalarga bo‘lish mumkin.

Amerikalik psixolog va pedagog olim, ta’limga “mezonlarga asoslangan ta’lim” *(criterion-referenced instruction)* yondashuvini olib kirganlardan biri Robert Meyjerning *(Robert Mager, 1923)* ta’kidlashicha, dars oldiga qo‘yilgan vazifa quyidagi **uch komponentdan** iborat:

– o‘quvchi dars oxirida **nimani bajara** olishi – bu fe’l orqali ifodalanadi va dars oxirida o‘quvchi bajara oladigan, o‘qituvchi esa kuzatib, baho bera oladigan konkret xatti-harakatdan iborat bo‘ladi;

– o‘quvchi bu narsani **qanday sharoitda** bajara olishi;

– o‘quvchi bu narsani muvaffaqiyatli bajargan yoki bajarmaganligi **qanday mezonlar** asosida baholanishi (bu komponent yozilmagan bo‘lishi mumkin, lekin o‘qituvchi mezonlarni o‘zi uchun aniqlashtirib olishi kerak).

Masalan: “Darsning oxirida o‘quvchilar berilgan hikoyadagi ekspozitsiyani topa oladi va uning ahamiyatini asoslab bera oladi”. Ushbu vazifada: o‘quvchi dars oxirida nimani bajara oladi (birinchi komponent) – ekspozitsiyani topa oladi va uning ahamiyatini aytib bera oladi; qanday sharoitda bajara oladi (ikkinchi komponent) – berilgan hikoya asosida, o‘quvchining xatti-harakati qanday mezonlar asosida baholanadi (uchinchi komponent) – ekspozitsiyani to‘g‘ri topa oladi va uning ahamiyati haqida asoslangan fikr bera oladi.

Demak, darsni rejalashtirishning birinchi bosqichi aniq, kuzatib, baho berish mumkin bo‘lgan vazifalar qo‘ya olishdan iboratdir. Agar vazifalar mavhum ifodalangan bo‘lsa, tegishli o‘qitish metodlari va baholash usullarini tanlash qiyin yoki imkonsiz jarayonga aylanadi. “Agar siz qayerga bormoqchi ekaningizni aniq bilmasangiz, ko‘zlagan joyingizga emas, boshqa joyga borib qolishingiz hech gap emas”, deydi Meyjer.[16]

2) Mavzuga kirish usullarini tanlash.

Darsni rejalashtirishning bu bosqichida o‘qituvchi o‘tiladigan mavzuga o‘quvchilarni qanday **qiziqtirishni** (motivatsiya uyg‘otishni) va qanday qilib uni o‘quvchilarning **oldingi bilimlari bilan bog‘lashni** aniq belgilab olishi lozim.

3) Darsning oldiga qo‘yilgan vazifalarga erishish metodlarini tanlash.

Bu darsni rejalashtirishning asosiy qismidir. O‘qituvchi darsda ishlatiladigan metodlarni tanlar ekan, quyidagi **tamoyillarni** hisobga olishi lozim:

[16] Mager, Robert F. Preparing Instructional Objectives a Critical Tool in the Development of Effective Instruction, 3rd ed. Atlanta, “Center for Effective Performance”, 1997. P.5.

– tanlash va bo‘lish tamoyili: o‘qituvchi darsda o‘tiladigan material hajmini aniq belgilab olishi va bu materialni mantiqiy qismlarga bo‘lgan holda o‘quvchilarga taqdim qilishi lozim. Shu bilan birga, materialning qaysi qismini berishda induktiv metoddan va qaysi qismini berishda deduktiv metoddan foydalanishini aniqlashtirib olishi zarur.

Deduktiv metod – o‘qituvchi yangi tushuncha yoki qoidani o‘quvchilarga tushuntiradi va ular bu tushuncha yoki qoidani mashqlar yordamida mustahkamlaydilar.

Induktiv metod – o‘quvchilar berilgan misollarni umumlashtirib, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan tushuncha yoki qoidani o‘zlari “kashf qiladilar” va so‘ngra uni mustahkamlaydilar.

Darsning maqsadi: o‘quvchilar dramatik asarda solilokviy va monologni ajrata olishadi	
Deduktiv metod	***Induktiv metod***
O‘qituvchi solillokviy va monologga ta’rif keltiradi, ularning farqini tushuntiradi. O‘quvchilar dramatik asardan solillokviy va monologlarni topadilar.	O‘qituvchi solillokviy va monologga misollar keltiradi. O‘quvchilar ularni solishtirib, solillokviy va monologning farqlarini topadilar, so‘ng dramatik asardan solillokviy va monologlarni topadilar.
Darsning maqsadi: o‘quvchilar lirik asarda qofiya va radifni farqlay olishadi	
Deduktiv metod	***Induktiv metod***
O‘qituvchi qofiya va radifga ta’rif keltiradi, ularning farqini tushuntiradi. O‘quvchilar lirik asardan qofiya va radifni topadilar.	O‘qituvchi qofiya va radifga misollar keltiradi. O‘quvchilar ularni solishtirib, o‘qituvchi qo‘ygan yo‘naltiruvchi savollar yordamida qofiya va radifning farqini aniqlaydilar, so‘ng lirik asardan qofiya va radifni topadilar.

Induktiv va deduktiv metodning darsda qo‘llanishiga misol

– Ketma-ketlik tamoyili: o‘quvchilar o‘rganilayotgan tushuncha va qoidalar oldin o‘rganilgan va keyin o‘rganiladigan tushuncha va qoidalarga qanday bog‘liqligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim.

– O‘zlashtirish va integratsiya tamoyili: qismlarga bo‘lib o‘rganilgan tushuncha va qoidalar dars so‘ngida birlashtirilishi va o‘quvchilar yaxlit kartinani ko‘ra olishlari lozim.

Darsda ishlatiladigan metodlar tanlashda o‘qituvchi o‘qish va o‘qitish nazariyalariga suyangan holda quyidagi savollarga javob bera olishi lozim:

– Benjamin Blumning *(Benjamin Blum, 1913–1999)* ta’limiy maqsadlar taksonomiyasi *(taxonomy of educational objectives)*: o‘quvchilarda qaysi ko‘nikmalarni qay darajada rivojlantirish ko‘zda tutilgan va o‘quvchilarni bu darajaga olib chiqish uchun qanday metodlar samara beradi?

– Lev Vigotskiyning *(Lev Vygotsky, 1896–1934)* “yaqin rivojlanish zonasi” *(zone of proximal development)* nazariyasi: o‘quvchilar bajara oladigan ko‘nikmalar (o‘quvchilarning aktual rivojlanish zonasi) va men ularga o‘rgatmoqchi bo‘lgan ko‘nikma orasidagi masofa haddan tashqari katta emasmi?

– Jerom Brunerning *(Jerome Bruner, 1915–2016)* “havoza” *(scaffolding)* nazariyasi: o‘quvchilarda ko‘nikmalarni shakllantirish uchun yetarlicha ko‘mak berilyaptimi?

– Hovard Gardnerning *(Howard Gardner, 1943)* “turfa zakovatlar” *(multiple intelligences)* nazariyasi: dars uchun tanlangan metodlardan turli qobiliyatga ega o‘quvchilar bahramand bo‘ladilarmi va bu metodlar o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini namoyish qilishga imkon beradimi?

4) O‘quvchilarning dars oldiga qo‘yilgan vazifalarga qay darajada erishganini tekshirish usullarini tanlash.

Bu bosqich darsning oldiga qo‘yilgan vazifalar bilan bevosita bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchilarning darsdan ko‘zlangan ko‘nikmalarni bajara olishlarini qanday usulda (og‘zaki, yozma) va qanday vositalar yordamida (savol-javob, test, amaliy topshiriq) tekshirishini oldindan aniq va puxta rejalashtirib olishi lozim. Bunda shuni hisobga olish kerakki, tekshirish usuli **valid**, ya’ni tekshiriladigan ko‘nikmaga mos bo‘lishi kerak. Masalan, agar o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘rganilgan hikoyada ishlatilgan badiiy san’atlarni topib, ularning nima uchun ishlatilganini izohlab bera olishini tekshirmoqchi bo‘lsa, bu ko‘nikmani hikoya syujetini qayta hikoya qildirish orqali tekshirib bo‘lmaydi.

5) Darsni xulosalash usullarini tanlash.

Bu bosqichda o‘quvchilar darsda nimani o‘rganganlari va nima uchun o‘rganganlari xulosa qilinadi. Xulosani o‘qituvchining o‘zi qilishi yoki o‘quvchilarga qildirishi mumkin. Shu bilan birga, darsda o‘rganilgan material bunday keyin o‘rganiladigan material bilan bog‘lansa, o‘quvchilarda qiziqish kuchayadi va fanda mavzular orasidagi bog‘liqlikni ko‘rish imkonini beradi.

ADABIYOT DARSLARI VA DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR UCHUN BADIIY ASAR ASOSIDA DARS ISHLANMASI YARATISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Adabiyot bo‘yicha Milliy o‘quv dasturida variativlik imkoniyati ko‘zda tutilgan: ayrim o‘rinlarda o‘rganilishi va tahlil qilinishi tavsiya qilingan bir necha asardan asarlardan birini tanlash imkoni berilgan. Bir asarni boshqa bir asar bilan almashtirishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

– asarlarning o‘quvchilarning yoshi, kognitiv rivojlanish darajasi va qiziqishlariga mosligi;

– asarning badiiy qiymati va unda ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlar;

– badiiy matnning dasturda mazkur sinf uchun ko‘zda tutilgan kompetensiyalarni shakllantirilishga imkon berishi.

Adabiyot darslari, darsdan tashqari mashg‘ulotlar va to‘garaklar uchun badiiy matn asosida dars ishlanmasi yaratishda quyidagilarga e’tibor qaratish tavsiya qilinadi:

1. Asar asosida qaysi **kompetensiyalarni** rivojlantirmoqchisiz va qaysi **axloqiy sifatlarni** shakllantirmoqchisiz? Asardagi qaysi o‘rinlar bunga xizmat qilishi mumkin? Mashg‘ulot (yoki mashg‘ulotlar, agar asar bilan bir necha soat davomida ishlanadigan bo‘lsa) **maqsadini** aniqlashtirib oling.

2. O‘quvchi badiiy matnni o‘qishga qiziqishi (**motivatsiya** – rag‘bat uyg‘onishi) va matnni **tushunishi** uchun undagi mavjud qaysi bilimlarni **faollashtirish** va qanday yangi **bilimlar** berish kerak? Shu asosda **mutolaadan oldingi topshiriqlarni** ishlab chiqing. Bunda quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

– asar sarlavhasini yoki asarda ko‘tarilgan muammoni o‘quvchilar bilan muhokama qilish;

– asarni tushunishga yordam berishi bo‘lgan bilimlarni (asar yaratilgan yoki unda tasvirlangan davr, asarning yozilish tarixi, asarda qahramonlari mansub xalqlarning madaniyati va turmush tarzi, asardagi kalit so‘zlar izohi va hokazolar) faollashtirish (agar o‘quvchida bular haqida tasavvur bo‘lsa) yoki yangi bilimlar berib, ularni mustahkamlab olish;

– bashorat (gipoteza) qilish: asarda nima haqida gap ketishi, qanday voqealar tasvirlanishi mumkinligini muhokama qilish.

3. O‘quvchiga badiiy matnni tushunishga yordam beradigan **o‘qish davomidagi topshiriqlarni** ishlab chiqing. Bunday topshiriqlar badiiy matnni **mikro darajada** tahlil qilish imkonini beradi. Bunda quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

– obrazlarning xatti-harakatlari sabab va oqibatlarini muhokama qilish;

– matndagi badiiy tasvir vositalarining ahamiyatini tahlil qilish;

– asardagi muhim detallarni muhokama qilish;

– matndagi o‘quvchiga ta’sir qilgan o‘rinlarni ajratib olish va muhokama qilish;

– voqealarning keyingi rivojini bashorat qilish.

4. O‘quvchiga badiiy matnni **makro darajada** tahlil qilishga yordam beradigan **mutolaadan keyingi topshiriqlarni** ishlab chiqing. Bunda asarning g‘oyasi va unda ko‘tarilgan axloqiy muammolarni muhokama qilish, asarning badiiy xususiyatlari

va obrazlar tizimini tahlil qilish, asarni o‘quvchi hayoti bilan bog‘lash, asarning turli talqinlarini (masalan, tasviriy san’atda, kinoda) solishtirish mumkin. Shuningdek, asar asosida **mahsulot yoki loyiha** yaratish (ijodiy yoki tahliliy ish yozish, asarning boshqacha talqinini yaratish singari) topshiriqlari ham asarni chuqurroq tahlil qilishga, unga boshqacha rakursdan qarashga yordam beradi.

Quyida Anton Chexovning “Garov” hikoyasi asosida mutolaadan oldingi, o‘qish davomidagi va mutolaadan keyingi topshiriqlar namunalari berilgan. Mazkur topshiriqlar qaysi strategiyalarga tayanilgani, ulardan qanday maqsad ko‘zlanganini tahlil qiling. Umid qilamizki, bu sizga Adabiyot darslari, darsdan tashqari mashg‘ulotlar va to‘garaklar uchun qiziqarli va samarali dars ishlanmalari yaratishga yordam beradi.

ANTON CHEXOVNING “GAROV” HIKOYASI ASOSIDA NAMUNAVIY TOPSHIRIQLAR

Biz o‘qiydigan hikoya **“Garov”** deb nomlanadi. Hikoya dastlab e’lon qilinganda uch qismdan iborat bo‘lgan va “Ertak” deb nomlangan. Keyinchalik muallif hikoyani qayta ishlab, uchinchi qismini olib tashlaydi va asar nomini o‘zgartiradi.

Muhokama qilamiz: Garov nima uchun o‘ynaladi? Hech garov o‘ynaganmisiz? Hikoyani o‘qish davomida garovning har ikki ishtirokchi hayotiga qanday ta’sir qilganini kuzating.

Hikoyaning audio variantini tinglang

GAROV

I

Qorong‘i kuz oqshomi. Keksa bankir xonada u yoqdan bu yoqqa borib kelar, bundan o‘n besh yil ilgari mana shunday kuz oqshomida ziyofat berganini eslardi. Ziyofatga ko‘plab aqli salim, orif mehmonlar tashrif buyurishgan va ko‘p maroqli suhbatlar bo‘lgandi.

salim – sog‘lom; tiniq

Darvoqe, kechada o‘lim jazosi haqida bahslashdilar. Mehmonlar orasida ancha-muncha olimlar va muxbirlar ham bor edi, ularning aksariyati o‘lim jazosiga norozilik bildirishdi. Ular jazoning bu usulini eskirgan, nasoro diniga e’tiqodda bo‘lgan xalqlar uchun badaxloq hamda shармandalik deb topishdi. Kechada yig‘ilganlarning ayrimlari o‘lim jazosi umrbod qamoq jazosiga almashtirilishi lozim deyishdi.

nasoro – nasroniy, xristian

– Fikringizga qo‘shila olmayman, – dedi bank sohibi. – Kamina na o‘lim, na umrbod qamoq jazosini boshidan o‘tkazgan, vaholanki, agarda apriori mulohaza yuritadigan bo‘lsak, qatl umrbod qamoq jazosidan axloqiy va insoniyroqdir. Jallod mahkumning jonini bir necha daqiqada tanidan judo qilsa, umrbod tutqunlik uzoq-uzoq yillar davom etadi. Ay-

apriori – tajribaga ega bo‘lmay turib

ting-chi, ularning qaysi biri insoniyroq – bir necha soniyada o‘ldiradiganimi yoki yillar davomida jonini zulukdek so‘rib yotadiganimi?

– Jazoning har ikkalasi ham insoniylik tamoyillariga to‘g‘ri kelmaydi, – ta’kidladi mehmonlardan biri, – chunki ularning har ikkalasi ham inson hayotini so‘ndirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Hukumat – Xudo degani emas. Modomiki, u istagan taqdirda ham, tortib olgan narsani egasiga qaytarib berolmaydi-ku!

Mehmonlar orasida yigirma besh yoshlardagi huquqshunos ham bor edi. Bu borada u o‘z fikrini shunday bayon etdi:

– O‘lim jazosi ham, umrbod qamoq jazosi ham bir xilda badaxloq choralardandir, biroq basharti ulardan bittasini tanla deyishsa, men, albatta, ikkinchisini tanlardim. Har holda, yashamoq – o‘lmoqdan afzalroqdir!

Davrada qizg‘in bahs boshlanib ketdi. O‘sha kezlari birmuncha yosh, shu bois serdiqqat bo‘lgan bankir quyushqondan chiqib ketib, stolni mushtlagancha yosh huquqshunosga tashlandi:

– Bekorlarni aytibsiz! Hoynahoy, siz umrbod qamoq jazosini yengil hisoblayotgandirsiz. Keling, garov o‘ynaymiz: siz kazematda besh yil ham o‘tira olmaysiz!

kazemat – bir kishilik zindon

– Buni jiddiy aytyapsizmi? – keskin javob qildi yosh huquqshunos. – Bo‘pti, o‘ynaganim bo‘lsin. Men u yerda besh yil emas, o‘n besh yil o‘tira olaman!

– O‘n besh yil! Nahotki? Siz-a? – xitob qildi bankir. – Janoblar, men garovga ikki million tikaman!

– Roziman! Siz millionlaringizni, men bo‘lsam o‘z erkimni tikaman! – dedi huquqshunos.

Shunday qilib, aqlga sig‘maydigan ahmoqona garov o‘ynaldi. U paytlari millionlarining hisobiga yetmayotgan bemulohaza taqdir arzandasining garovdan boshi osmonda edi. Ziyofatda bankir huquqshunosning ustidan kulgancha dedi:

Siz ham bu garovni “aqlga sig‘maydigan ahmoqona” deb hisoblaysizmi?

– Hoy yigitcha, es-hushingizni yig‘ib oling. Haliyam kech emas. Kamina uchun ikki million pul shunchaki arzimagan narsa, siz bo‘lsangiz zindonda hayotingizning eng gullab-yashnagan uch-to‘rt yilini yelga sovurasiz. Zero, kazematda siz undan ortig‘iga chiday olmaysiz! Yanayam aytaman – umringizning uch-to‘rt yilini yo‘qotasiz. Shuniyam unutmangki, ey notavon banda, o‘z inon-ixtiyori bilan o‘zni mahkum etish majburiy qamoq jazosiga qaraganda, nihoyatda mashaqqatli kechadi. Xohlagan paytingizda ozodlikka chiqish huquqi sizda saqlanib qolayotganligi bandilikda kechadigan hayotingizga muttasil og‘u solib turadi. Sizga rahmim kelganidan aytyapman bu gaplarni!

Shu topda bankir xonada betinim u yoqdan bu yoqqa borib kelar, shularni eslab, o‘zini savolga tutardi:

– Garovning nima keragi bor edi o‘zi? Huquqshunosning o‘n besh yil umrini yo‘qotishi, kaminaning ikki millionini ko‘kka sovurishidan kimga foyda-yu kimga ziyon? Bu narsa odamlarga o‘lim jazosining beshafqatligini anglatadimi yoki umrbod qamoq jazosining afzalliginimi? Yo‘q, aslo unday emas! G‘irt bema’nilik bu. Bu narsa kamina tomonidan badavlat kishining shunchaki to‘qlikka sho‘xligi bo‘lsa, huquqshunos tomonidan – pulga o‘chlik, boylikka hirs qo‘yish, tamom-vassalom...

Shundan so‘ng u o‘sha oqshom tag‘in nimalar bo‘lganini xotiriga keltira boshladi: o‘shanda barcha mehmonlarning guvohligida garov o‘ynalib, uning shartlariga ko‘ra,

yosh huquqshunos bankirning chorbog‘idagi xilvat go‘shada qamoq muddatini qattiq nazorat ostida o‘tashi lozim edi. Huquqshunos o‘n besh yil davomida ostona hatlab chiqmasligi, odamlar bilan uchrashmasligi va ular bilan muloqot qilmasligi, yaqinlari va do‘stlaridan xat-xabar olmasligi kerak edi. Ammo-lekin uning cholg‘u chalib xirgoyi qilishiga, xohlagancha kitob o‘qib, yozib-chizishiga, musallas ichib, tamaki chekishiga ruxsat berilardi. Tashqi dunyo bilan esa devordan ataylab ochilgan chog‘roq deraza orqali, unda ham lom-mim demasdan aloqa o‘rnatishi, ehtiyojlarini bir enlik qog‘ozga yozib, talab qilishi mumkin edi, xolos. O‘ziga kerakli barcha kitoblar-u musiqa notalari, musallas-u tamaki, yemag-u ichmak va hokazolarni istagancha so‘rashga haqqi bor edi. Garovda qamoq muddati 1870-yil 14-noyabr kunduz soat 12 dan 1885-yil 14-noyabr kunduz soat 12 gacha belgilanib, huquqshunosning garov shartlarini ozgina buzishi, aytaylik, muddat tugashiga ikki daqiqa qolganda kazematni tark etishi bankirning unga ikki millionni to‘lash majburiyatidan soqit qilar edi.

Huquqshunosning yozma talabnomalaridan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, tutqunlikning dastlabki yilida u uzlatda qattiq iztirob chekkan. U bandilikka solingan xonadan kecha-yu kunduz musiqa ovozi eshitilib turgan. Bandi musallas va tamakidan bosh tortadi. “Sharob, – deb yozadi u, – ishtiyoqni battar alangalatadi. Zotan, ishtiyoq mahbusning ashaddiy dushmanidir. Zero, xushbo‘y va xushta’m musallasdan so‘ng kimsasizlikda zerikib o‘tirishdan-da rasvo holat bo‘lmasa kerak. Tamaki bo‘lsa, katalakday xonaning havosini buzib yuboradi”.

Tutqunlikning birinchi yilida huquqshunosga, asosan, yengil-yelpi mazmundagi kitoblar – chigal syujetli ishqiy romanlar, jinoiy va fantastik ruhdagi hikoyalar, komediyalar va shunga o‘xshagan narsalar yetkazib berib turildi.

Ikkinchi yili musiqa va qo‘shiq sadolari tinib, yurist mukka tushib olib, nuqul mumtoz asarlar mutolaa qila boshladi.

Beshinchi yilga borib qamoqxonadan yana ohang va navolar taraladigan, endi mahbus sharob berishlarini so‘raydigan bo‘ldi. Uning uzlatdagi hayotini zimdan kuzatganlar u yil bo‘yi faqat yeb-ichgani, to‘shakka uzala tushib yotib olib, dam-badam homuza tortib qo‘ygani, dilgirlikdan o‘zi bilan o‘zi tillashib o‘tirganini aytishdi.

homuza tortish – esnash

Endi u mutlaqo mutolaa qilmay qo‘ygandi.

Ba’zan kechalari u tuni bilan uxlamasdan allanimalarni yozib chiqar va tongga yaqin bitiklarining hammasini mayda-maydalab yirtib tashlardi. Goho uni yig‘lab o‘tirgan holda ko‘rishardi.

Oltinchi yilning ikkinchi yarmidan boshlab tutqun falsafa, tarix hamda xorijiy tillarni o‘rganishga qat’iy bel bog‘ladi. U mazkur fanlarni o‘zlashtirishga shunchalik jidd-u jahd bilan kirishib ketdiki, hatto bank sohibi unga qo‘llanma va darsliklarni yetkazib berib turishga ham ulgurolmay qolardi. Keyingi to‘rt yil mobaynida huquqshunosning talabiga muvofiq olti yuz jilddan iborat har xil kitoblar xarid qilindi. Ushbu fanlarni o‘rganish jarayonida bankir undan quyidagi mazmunda noma oldi:

“Birodari aziz! Ushbuni sizga olti xorijiy tilda yozmoqdaman. Ularni o‘z sohasining zarshunoslariga ko‘rsatishingizni so‘rayman. Yaxshilab o‘qib chiqishsin. Basharti ular nomalarimdan xato va kamchilik topa olishmasa, unda chorbog‘ingizda miltiqdan ikki marta o‘q uzib, ma’lum qilishsin. Bu kaminaning sa’y-harakatlari besamar ketmaganligini anglatadi. Qadimda buyuk daholarimiz turli tillarda ijod qilishgan, biroq ularning qalblarida yagona maslak o‘t bo‘lib yongan. Kamina daho insonlar

bilan hamfikr, hammaslak bo‘lish maqomiga yetganidan o‘zini arshi a’loda his etmoqda!”

Huquqshunosning xohish-istagiga binoan, bankirning chorbog‘ida miltiqdan ikki marta o‘q uzildi.

Bandilikning o‘n birinchi yilidan boshlab huquqshunos Muqaddas Kitobni o‘qishga tushdi. Qiyin tushuniladigan olti yuz jildlik kitobni to‘rt yilda tushirib tashlagan ziyolining bir yildan beri risolani o‘qib chiqolmayotganidan bankir taajjubda edi. Muqaddas Kitobdan so‘ng u “Dinlar tarixi” va “Ilohiyot”ni qo‘lga oldi.

Muqadas Kitob – Injil (Bibliya) nazarda tutilgan

So‘nggi ikki yil mobaynida huquqshunos nihoyatda ko‘p mutolaa qildi – qo‘liga nima tushsa o‘qiyverdi. Bir qarasang, u tabiiy fanlarni o‘rgana boshlagan, bir qarasang – Bayron va Shekspir asarlariga yopishib olgan. Ba’zan u bir vaqtning o‘zida kimyo va tibbiyotga oid darsliklarga qo‘shib bironta roman yoki bo‘lmasa falsafa va ilohiyot qo‘llanmalarini keltirib berishlarini so‘rardi.

Huquqshunosning mutolaasi halokatga uchragan kema parchasiga yopishib olgan kishi holatiga o‘xshardi.

Vaqt o‘tishi sayin huquqshunos so‘ragan kitoblardagi o‘zgarishlarga e’tibor bering. Bu o‘zgarishlar huquqshunos shuuridagi qanday evrilishlardan (o‘zgarishlardan) dalolat beradi? Tutqunlikning oxirgi besh yilidagi kitoblarga alohida e’tibor bering.

II

Shularni eslab bank sohibi teran xayolga cho‘mdi:

“Ertaga choshgohda u ozodlikka chiqadi. Shartga ko‘ra, kamina unga ikki million to‘lashim lozim. Agar garovda yutqazib qo‘ysam, rasvoyi jahon bo‘laman”.

O‘n besh yil ilgari u yiqqan sarmoyasining hisobiga yetmas, pulni po‘choqcha ko‘rmasdi, endi bo‘lsa u o‘zidan “Pullarim ko‘pmi yoki qarzlarim?” deb so‘rashga yuragi dov bermasdi. Gardkam birja o‘yinlari, qaltis oldi-sotdi operatsiyalari hamda keksayganda ham qutula olmayotgan, salga tutab ketish odati bora-bora hamma ishlarini chaparasta qilib tashladi va bebok, o‘ziga bino qo‘ygan kalondimog‘ boyvachcha birja qog‘ozlarining har ko‘tarilib tushishidan dag‘-dag‘ titraydigan o‘rtamiyona bankirga aylandi.

gardkam – tavakkal

bebok – qo‘rqmas

– Ming la’nat o‘sha garovga! – tushkunlikdan boshini changallagancha o‘zidan yozg‘irib oldi u. – Shu paytgacha nega o‘la qolmadi-a? U endigina qirqqa kirdi. Bor-budimdan ayirib, mening davlatimga uylanib oladi-da, rohat-farog‘atda yashab, meni har ko‘rganida: “Iqbolimni sarbaland etdingiz, endi sizga yordamlashishni burchim deb bilaman!” – deb qitig‘imga tegadi. Yo‘q, bunga toqat qilolmayman! Xonavayron va sharmisor bo‘lishdan qutulishning birdan-bir yo‘li – huquqshunosning o‘limidir!

Sizningcha, bankirni faqat ikki millionni yo‘qotish tashvishga solyaptimi?

Soat tungi uchga jom urdi. Bankir jim qoldi: butun boshli uy orom og‘ushida, faqatgina chorbog‘dan daraxt yaproqlarining so‘lg‘in shitirlashi quloqqa chalinadi. Qariya sas-sadosiz po‘lat sandiqdan o‘n besh yildan buyon qulflog‘lik turgan eshik kalitini oldi-da, paltosini kiyib tashqariga chiqdi.

Chorbog‘ qorong‘i va sovuq edi. Yomg‘ir yog‘ardi. Shiddat-la esayotgan rutubatli shamol vahimali shovullab, daraxt shoxlarini silkitib o‘ynardi. Bankir chor-atrofga zingil qarash qildi, biroq u na oyoqlari ostidagi yerni, na oppoq haykalchalarni, na chekkadagi ovloq uyni ko‘rardi. U huquqshunos hibsda saqlanayotgan binoga yaqinlashib, qorovulni ikki marta chaqirdi – javob eshitilmadi. Aftidan, qorovul yomg‘irdan qochib o‘choqboshigami, gulxonagami kirib olib uyquni urardi.

rutubatli – nam, zax

zingil – sinchiklab

Tabiat tasviriga e’tibor bering. Muallif nega aynan shunday manzarani tanlagan deb o‘ylaysiz?

“Basharti yovuz niyatimni amalga oshira olsam, – deya o‘yladi bank sohibi, – shubha daf’atan qorovulga tushadi”.

U zim-ziyo tun qorong‘ida pillapoyalarni bir-bir bosib tushib, asta dahlizga kirib bordi. So‘ng gugurt chaqib, chog‘roq yo‘lakka o‘tdi. U yer ham kimsasiz edi. Yalang karavot hamda cho‘yan pechkadan bo‘lak hech vaqo yo‘q edi. To‘g‘ridagi eshik qulflog‘ bo‘lib, surg‘ich bilan muhrlab qo‘yilgandi.

Gugurt cho‘pi yonib tugadi, keksa bankir hayajondan dag‘-dag‘ qaltirab, derazadan ichkariga mo‘raladi. Xonani sham shu’lasi xira yoritib turar, huquqshunos bo‘lsa, stoldan bosh ko‘tarmay o‘tirar edi. Bu yerdan uning yelkasi, orqasiga osilib tushgan sochi va uzun qo‘llarigina ko‘rinib turardi, xolos. Stol ustida, uning ikki yonidagi oromkursilarda va gilamda kitoblar tartibsiz sochilib yotardi.

Oradan besh daqiqacha vaqt o‘tdi, biroq tutqun qimir etmayotgandi. O‘n besh yillik qamoq uni tosh qotib o‘tirishga o‘rgatib qo‘ygandi. Bankir derazani chertdi, ammo tutqun bunga javoban loaqal qimirlab ham qo‘ymadi. Shunda bankir qulfning ko‘zidagi muhrni avaylab buzib, kalitni teshikka tiqdi. Zanglab yotgan qulf bo‘g‘iq shiqirlab ochildi. Huquqshunos hozir hayratdan qichqirgancha o‘rnidan turib ketadi, deb o‘ylagandi bank sohibi, lekin oradan uch-to‘rt daqiqa o‘tsa hamki, hech qanday ovoz eshitilmadi. Nihoyat, qariya ichkariga kirib bordi.

Stol yonida oddiy odamlarga mutlaqo o‘xshamagan alomat banda tosh qotib o‘tirardi. Sochlari ayollar sochidek o‘sib, jingala-jingala bo‘lib ketgan, soqol-mo‘ylabi baroqlashib, ustuxonini yupqa teri sirib turgan skeletdangina iborat edi u. Yonoqlari ich-ichiga botib ketgan, rangi murdaday oppoq, belidan yelkalarigacha cho‘zilib kambar tortgan tanasi hamda uzundan-uzun soch-soqolli boshini tutib turgan qo‘llar shunchalik ingichka va qoqshol ediki, unga ko‘zi tushgan kishining qo‘rquvdan yuragi tars yorilishi tayin edi. Sochlariga oq oralab qolgan, zero, butun andomi qarimsiq tus olgan bu odamning endigina qirqqa kirganiga aql bovar qilmasdi. U shu o‘tirishida uyquga ketgandi... Quyi solingan boshi qarshisida mayda harflarda yozilgan bir varaq qog‘oz yotardi.

kambar – eni kichkina, ensiz

andom – qad-qomat, qiyofa

“Sho‘ring qursin! – dedi ichida bankir. – Uxlayapti. Ehtimolki, shu topda tushida garovga tikilgan million-million pullarni ko‘rayotgandir! Bu tirik murdani dast ko‘tarib to‘shakka yotqizaman-da, paryostiq bilan og‘iz-burnini yopib turaman – joni uziladi.

Huquqshunos tashqi qiyofasini va ichki olamini tasavvur qilib ko‘ring. Nima deb o‘ylaysiz, unga garovga tikilgan pul kerakmi?

O‘shanda eng adolatpesha ekspertiza ham u zo‘rlab o‘ldirilganini aniqlay olmaydi. Darvoqe, u nimalar haqida yozganini o‘qib ko‘ray-chi...”

“Ertaga kunduz soat o‘n ikkida kamina ozodlikka chiqib, yana odamlar orasida yashash huquqini qo‘lga kiritaman. Ammo-lekin ushbu zindonni butunlay tark etib, oftobni yana o‘z ko‘zim bilan ko‘rish baxtiga erishishdan oldin sizga quyidagilarni yetkazib qo‘yishni lozim topdim. Pok vijdonim hamda Yaratganning guvohligida sizga shuni aytmoqchimanki, endi men sizlarning minglab jild-jild kitoblaringizda foniy dunyoning noz-ne’matlari-yu rohat-farog‘atlari deya maqtalgan hurlik, sihat-salomatlik, to‘y-u tomoshalar-u, shod-u xurramliklar – hamma-hammasiga tupurdim!

Uzlatda kechgan o‘n besh yil davomida kamina bu o‘tkinchi dunyo hayotini miridan sirigacha o‘rgandim. To‘g‘ri, uzoq yillar men na quyoshni, na odamlarni ko‘rdim, ammo-lekin sizlarning kitoblaringizdan ajoyib musallaslar no‘sh etib, diltortar navolar tingladim, o‘rmon va yo-

g‘izol – ohu

sohir – sehrli
ofarida bo‘lgan – yaralgan

bonlarda ohular-u g‘izollar ortidan quvdim, ofatijon xonimlarning ko‘nglini ovladim... Daho shoirlarning sohir xayolotidan ofarida bo‘lgan hur-u g‘ilmonlar uzoq oqshomlarda huzurimga tashrif buyurishar va aql-u hushimni sarmast etib, tong otguncha menga ertaklar so‘zlab chiqishardi. Sizlarning kitoblaringizdan men Monblan va Elbrus cho‘qqilarini zabt etar; erta-tongda quyoshning ufq ortidan ko‘z uqalab chiqib kelishini, kechga borib osmon-u ummonlarni hamda baland tog‘ cho‘qqilarini lolarangga bo‘yab yuborishini sehrlangancha tomosha qilar edim; yuksak qoyalarga chiqib olib, yildirimning bulutlarni tilkalashini vahima bilan kuzatardim, u yerdan turib yam-yashil o‘rmonlar va o‘tloqlar, daryolar-u ko‘llar, kentlar va qo‘rg‘onlarga zavqlanib boqar, ularning poyimda yastanib yotishidan lol-u musaxxar bo‘lar, pari-paykarlarning sehrli ovozi-yu cho‘ponlarning sibizg‘a sozi ruhimga orom bag‘ishlar va kamina bilan ilohlar haqida suhbat qurgani xonamga uchib kirgan farishtalarning oppoq harir qanotchalarini yaqqol his etardim... Kitoblaringiz sahifalaridan o‘zimni tubsiz jarliklarga otgan bo‘lsam, sabr-qanoatim, chidam-bardoshim bilan mo‘jizalar yaratar, bu ham yetmaganday, o‘zimni bebok va o‘tyurak chog‘lab, kent-u qishloqlarga o‘t qo‘yar, odamkushlik qilar, katta-katta mamlakatlarni zabt etib, xalqini qirg‘inbarot etar, pirovardida yangi-yangi ilohiy ta’limotlarning targ‘iboti bilan shug‘ullanar edim...

Kitoblaringiz aqlimni charxlab, idrokimni o‘tkirladi. Tinim bilmas va yaratuvchan inson zakovati asrlar mobaynida bunyod etgan narsalarning hammasi bosh chanog‘imda ixcham holga kelib yig‘ildi. Endi kamina o‘zimni sizlarning barchangizdan har jihatdan komil va yetuk ekanligimga ishonch hosil qilmoqdaman...

Bundan buyon men bu dunyoning jumla noz-ne’matlaridan nafratlanaman. Ularning hammasi o‘tkinchi, haqir, turgan-bitgani sarob ekan. Sizlar, ya’ni o‘zini ilm-u hikmatda, dunyoni anglab yetishda barkamollikka erishgandek chog‘layotgan mutakabbir bandalar qanchalik kibr-u havoga berilmang, ajal sizlarni yerto‘la va yer ostidagi sichqon-u kalamushlarga qo‘shib, yer yuzidan supurib tashlaydi, ortingizda qolayotgan avlod-u ajdodlaringiz yaratgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar kurrayi zamin bilan birgalikda kunpayakun bo‘ladi...

haqir – qadrsiz

hamoqat – axmoqlik

Boylik, hasad, hirs-u havas barchangizning ko‘zingizni ko‘r, shuuringizni shafaq qilib qo‘ygan. Sizlar yolg‘onni haqiqat, hamoqatni nafosat deyishga o‘rganib qolgansiz. Mabodo falakning gardishi bilan daraxtlarda, olma, po‘rtaxol va nok o‘rniga qurbaqa, kaltakesak va ilonlar osilib tursa; atirgullar firdavs bog‘larining iforlarini emas, balki badbo‘y ter isi taratib turishidan qanchalik irganib-jirkanganingiz kabi, kamina ham Arshi a’loni yolg‘onchi dunyoning hoy-u havaslariga almashtirib o‘tirganingizdan bag‘oyat taxayyuldaman. Endi ichingizda kaminani yo‘q deb hisoblayveringlar!!!

taxayyulda – o‘y-xayolda

Sizlarning hulvo misol botil turmushingizga nisbatan qalbimda uyg‘ongan cheksiz nafrat va jirkanchimning isboti o‘laroq taqdirning buyuk ne’mati va katta omad deb orzu qilgan ikki millioningizdan butunlay bosh tortaman. O‘sha garovga tikilgan pullarga haqdorlik huquqidan o‘zimni mahrum etish maqsadida muddatidan besh soat burun bu yerdan qochib chiqib, o‘rtamizdagi shartni atayin buzaman...”

Nomani yana bir marta o‘qib chiqing. Noma muallifini bir so‘z bilan qanday ta’riflagan bo‘lardingiz?

Bank sohibi nomani o‘qib chiqib, uni joyiga qo‘ydi, so‘ngra huquqshunosning peshonasidan o‘pdi-da, ko‘zlariga g‘ilt-g‘ilt yosh olib, xonadan chiqib ketdi. U ilgari hech qachon, hatto gardkam birja o‘yinlarida yutqizib, katta talafotga uchraganda ham, hozirgidek o‘zidan bunchalik nafratlanmagandi. Bankir uyiga qaytib kelib, o‘zini to‘shakka tashladi, biroq kuchli iztirob va ko‘zlaridan oqayotgan yoshlar unga tinchlik bermasdi.

Ertasiga ertalab uning huzuriga chopa-chopa kelgan qorovul va malaylarning rang-qutlari o‘chgan, sarosimada edilar. Ular bandining derazadan bog‘ga, u yerdan darvoza orqali noma’lum tarafga qochib ketganini aytishdi.

Bank sohibi malaylari bilan darhol chorbog‘ning etagidagi xilvat go‘shaga yetib keldi va huquqshunosning qamoqdan qochganiga ishonch hosil qildi. Ortiqcha gap-so‘zlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun u huquqshunosning garov shartnomasini buzganligi haqidagi qog‘ozni olib uyiga qaytib keldi-da, uni po‘lat sandiqqa solib qulflab qo‘ydi.

Sizningcha, bankir qog‘ozni nega yashirib qo‘ydi? Nega yo‘q qilmadi?

MUTOLAADAN KEYINGI TOPSHIRIQLAR

Asar tahlili:

1. O‘n besh yil davomida bankir va huquqshunosda qanday **o‘zgarishlar** ro‘y berdi? Bu o‘zgarishlarning sabablari nimada?

2. Ayrim adabiyotshunoslarning yozishicha, 1880-yillar oxirida Chexov o‘ta tushkun kayfiyatda bo‘lgan. Hikoyada siz qanday **kayfiyatni** ilg‘adingiz? Sizningcha, Chexovning tushkunligi asarga ta’sir qilganmi?

3. Hikoya dastlab “Ertak” deb nomlanganligi va **uch qismdan** iborat bo‘lganligi haqida o‘qidingiz. Uchinchi qismda bankir oradan bir yil o‘tib yana bir marta, bu safar bir qari millioner bilan uch millionga garov o‘ynaydi va uni yutqizadi. Qizig‘i, bu garovni yutqizishiga birinchi, huquqshunos bilan o‘ynagan garovi sabab bo‘ladi. O‘ylab ko‘ring-chi, ikkinchi garov nima haqida bo‘lishi mumkin? Chexov nega bu qismdan voz kechib, asar nomini ham o‘zgartirgan deb o‘ylaysiz?

4. Hikoyaning uchinchi qismidan voz kechgani sababini Chexov shunday izohlaydi: “Bu yakun menga haddan tashqari **sovuq** ko‘rindi”. Hikoyaning hozirgi yakuni haqida nima deya olasiz?

Adabiyot nazariyasi:

5. Asarda yozuvchining vaqt jihatdan ortga qaytishi, bayon qilinayotgan voqeadan oldingi voqeani eslashi **retrospektiva** deyiladi. Sizningcha, Chexov hikoyada nega garov voqeasini xronologik tarzda bayon qilmay, retrospektiva usuliga murojaat qilgan?

6. Ko‘p adabiyotshunoslar “Garov” hikoyasini **ramziy hikoya (pritcha)** janriga mansub deb hisoblashadi. Ramziy hikoyada biron-bir axloqiy-falsafiy g‘oya majoziy usulda beriladi. “Garov” hikoyasi kim yoki nima haqida? Undagi asosiy g‘oya nima deb o‘ylaysiz?

Asar va o‘quvchi:

7. Huquqshunosning o‘rnida bo‘lsangiz o‘n besh yilni **qanday** o‘tkazgan bo‘lardingiz?

8. Kitob mutolaasi, adabiyot va san’atning insonga **ta’sir kuchi** nimada deb o‘ylaysiz?

Ijodiy topshiriqlar:

9. Bankir huquqshunosni o‘ldirmoqchi bo‘lib chorbog‘ eshigidan kirgan joyidan hikoyani **davom** ettiring.

19. Tasavvur qiling: oradan vaqt o‘tib bankir huquqshunosga maktub yubordi. Bu maktub nima haqda bo‘lishi mumkin? Bankirning huquqshunosga **maktubini** yozing.

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA ADABIYOT FANINI O‘QITISHNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

I. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim fanlari o‘qitiladigan muassasalarda (keyinchalik – ta’lim muassasalari) adabiyot saboqlarini tashkil etishning asosiy masalalari, didaktik tamoyillari, maqsad, vazifalari hamda ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi hamda sohaga oid pedagogik ashyolar hamda kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladigan rasmiy hujjatdir.

Konsepsiya xalq ta’limi tizimida adabiyot o‘quv fanini o‘qitish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Jumladan:

– adabiyot o‘qitishning bosh yo‘nalishi, maqsad va vazifalari, adabiy ta’lim asoslari va didaktik tamoyillarini adabiyotshunoslik hamda metodika ilmining so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda belgilash;

– ta’lim tizimi rivojlangan chet mamlakatlarning tajribasidan mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda xalqimizning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish yo‘llarini tayin etish;

– adabiyot o‘quv fani davlat ta’lim standarti talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablar darajasida bo‘lishini ko‘rsatib o‘tish;

– adabiyot predmeti bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarining real hayot talablariga muvofiq bo‘lishi kerakligini qayd etish;

– adabiyot o‘quv fanining mazmunini sifat jihatidan yangilab, uning o‘quvchilar yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishini ta’minlash. Shuningdek, o‘qitish metodikasini takomillashtirib, ta’lim jarayonining individuallashtirilishi hamda shaxsga yo‘naltirilishini ko‘zda tutish;

– adabiy ta’limda ijodkor yoki u bitgan asarning mavqeyiga qaraganda o‘quvchi shaxsida shakllantirilishi mo‘ljallangan ma’naviy sifatlar ustuvor bo‘lishi kerakligini ko‘zda tutish;

– adabiyot predmetining boshqa umumta’lim fanlari bilan integratsiyasi orqali o‘quvchilarni turli hayotiy vaziyatlarga tayyorlash imkoniyatini oshirish;

– adabiyot o‘quv fanining mazmuni o‘quvchilar o‘z hayotida qo‘llashlarini hisobga olib belgilanishiga erishish;

– adabiyot saboqlarining o‘quvchilarda yozma va og‘zaki savodxonlik, badiiy did, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilishini ko‘zda tutish;

– adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali usullarini joriy etish;

– o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida sinfdan va maktabdan tashqari adabiy ta’limning zamonaviy usullaridan foydalanishni ko‘zda tutish;

– adabiyot o‘qitish jarayoni samaradorligini ta’minlashda innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tatbiq etish;

– o‘quvchilarda nutqiy va badiiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish orqali ularda ezgu sifatlar hamda badiiy-estetik didni shakllantirish;

– adabiyot o‘qitishning barcha bosqichlarida o‘quvchilarda hayotning har bir hodisasi hamda odamlarning har bir xatti-harakatiga mustaqil va asosli baho bera olish ko‘nikmasini shakllantirish;

– adabiyot darslarining turli yoshdagi o‘quvchilarda yaxshini yomondan, go‘zalni xunukdan, haqni nohaqdan ajratish ko‘nikmasi qaror topishiga qaratilishini ko‘zda tutish.

II. ADABIYOT PREDMETINING TA’LIM TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Adabiyot ta’limi o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularda ezgu ma’naviy sifat va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun yoshlarni milliy va jahon madaniyatining eng sara asarlari bilan tanishtirish orqali ularda badiiy asar qahramonlaridagi turli ma’naviy-axloqiy sifatlarga faol hamda asosli mantiqiy va hissiy munosabat uyg‘otish lozim bo‘ladi.

Adabiyot – millatning ma’naviy qiyofasi va ruhiy qudratining ifodasi, ma’rifiy takomil, milliy til imkoniyatlarini namoyon qiladigan va uning boyliklarini saqlab qoladigan hamda boyitadigan vositadir. Badiiy adabiyot estetik va ma’naviy ta’sir orqali o‘quvchilarda odamiylik, halollik, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantiradi, ularning shaxsiyatiga tarixiy xotira, o‘z xalqi va butun insoniyatga daxldorlik tuyg‘ularini singdiradi.

Adabiyot o‘qitish o‘quvchilarda bilish, kommunikativlik, go‘zallik va ezgulikni his etish, undan zavqlanish va yomonlikdan nafratlanish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi. Bu hol umumta’lim o‘quvchilarida to‘la ma’nodagi shaxsiyat sifatlari shakllanishiga olib keladi.

III. KONSEPSIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi umumta’lim maktablarida adabiy ta’limni sifat jihatidan milliy va xorijiy tajriba uyg‘unligida xalqaro standartlarga mos tarzda yangi bosqichga ko‘tarib, samaradorlikka erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlaydigan, adabiyot va hayot hodisalariga ijodiy yondashadigan, badiiy did hamda ezgu ma’naviy sifatlarga ega barkamol shaxslar sifatida shakllanishini ta’minlash yo‘llarini belgilashdan iborat. Bunda pedagogika, psixologiya, metodika hamda adabiyotshunoslik ilmining so‘nggi yutuqlariga tayaniladi.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar**ni bajarish ko‘zda tutiladi:

– umumiy o‘rta ta’limning barcha bosqichlarida adabiyot o‘qitishning uzviyligi va uzluksizligiga erishish;

– o‘quv dasturi, darsliklar, metodik adabiyotlarni ijodiy fikrlaydigan o‘quvchini shakllantirish talabiga muvofiq yangilash, o‘qitish metodikasi va texnologiyalarni modernizatsiya qilishni ko‘zda tutish;

– o‘z ustida ishlash orqali adabiyot o‘qituvchilari faoliyatining samaradorligini oshirishga erishish;

– adabiy ta’limda o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan, o‘quvchilarning bir-birlari bilan hamkorlik qilishi natijadorlik omili ekanini anglatish;

– ta’lim jarayonida pedagoglar va o‘quvchilar faoliyatini qolipga solmaslik, o‘quv vaziyati talabidan kelib chiqib, turli didaktik usul va vositalardan foydalanish imkonini berish;

– o‘quv dasturi, darsliklar hamda qo‘llanmalarning variativ bo‘lishiga erishish;

– adabiyot saboqlari samaradorligini oshirishda elektron axborot vositalaridan muntazam foydalanishni ko‘zda tutish;

– badiiy asarlarni o‘qish va tahlil qilish orqali o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni darslikka kirmagan badiiy asarlarga ham qiziqtirish yo‘llarini belgilash.

IV. ADABIY TA’LIMNING ASOSLARI

Adabiy ta’limning asoslari *maqsad, vazifa* hamda *mazmun* tushunchalarini o‘z ichiga oladi.

Adabiyot o‘qitishning **maqsadi** badiiy asarlar yordamida sog‘lom e’tiqodli, mustaqil fikrli, o‘tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o‘zga insonning tuyg‘ularini anglaydigan, o‘z xatti-harakatlariga xolis baho bera oladigan shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitishning asosiy **vazifasi** o‘quvchilarda**:**

– badiiy so‘zdan ta’sirlanish, uning jozibasini his etish, haqiqiy badiiy asarni tanish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– o‘qilgan badiiy asarni tushunish, undan hayotiy xulosalar chiqarish, badiiy asar o‘qishni hayotiy ehtiyoj hisoblash tuyg‘ularini tarbiyalash;

– yozma va og‘zaki savodxonlik, nutqida adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish hamda adabiyot o‘quv fanining mazmunidan kelib chiqqan holda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;

– uzliksiz ta’lim bosqichlarida badiiy asar mutolaasiga erkin yondashuv tamoyilini shakllantirish;

– ularda turli janrlardagi badiiy asarlarni o‘qish, bitiklarning saviyasini ajrata bilish, qahramonlar tutumlariga aksiologik baho berish ko‘nikmasini qaror toptirishdan iborat.

Adabiy ta’lim **mazmunini** esa:

– badiiy matnlar orqali o‘quvchilarda ezgu ma’naviy fazilatlar hosil qilishga yetarli vaqt ko‘zda tutilgan o‘quv rejasi;

– pedagogika, psixologiya va adabiyotshunoslik ilmlarining so‘nggi yutuqlariga tayangan holda tavsiya etilgan;

– o‘quvchilarning yosh, ruhiy va jins xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olgan holda yaratilgan, o‘quv materiallarini o‘rganish jarayonida ularni ishlash, izlanish, mustaqil fikrlashga undaydigan darsliklar;

– o‘zbek va jahon adabiyotining o‘quvchilarda ezgu ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan badiiy qimmati yuksak namunalari;

– badiiy asarlarni estetik o‘zlashtirishga yordam beradigan, sinflar bo‘yicha oddiydan murakkabga tamoyili asosida taqdim etib boriladigan adabiy-nazariy tushunchalar;

– o‘quvchilarga darsliklardagi asosiy o‘quv materiallariga qo‘shimcha bilim va ma’lumot berish maqsadida yaratilgan o‘quv qo‘llanmalari;

– o‘quv materiallari mohiyatini o‘quvchilarga yetkazib berishda foydalanish uchun o‘qituvchilarga mo‘ljallab yozilgan metodik qo‘llanmalar tashkil etadi.

V. ADABIYOT O‘QITISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Adabiyot o‘qitishda uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan samarali metodik yondashuvlar, zamonbop o‘quv-uslubiy majmualar, ommalashgan ilg‘or tajribalar ulkan ilmiy-metodik boylik sanaladi. Milliy adabiy ta’limda muayyan taraqqiyot bosqichlari kuzatilsa-da, adabiyot o‘qitish metodikasi global ta’lim imkoniyatlari, jahon standartlari bilan muqoyasa qilinganda, taassufki, uning zaif jihatlari oydinlashib qoladi. Mana shu nuqtayi nazardan, mazkur yo‘nalishda hal qilinishi lozim bo‘lgan motivatsion, mazmun-mundarijaga aloqador, metodik hamda kadrlar bilan bog‘liq yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud.

Motivatsion xarakterdagi muammolar. Hozirgi davrda ta’lim oluvchilarning badiiy adabiyotga qiziqishi, kitobxonlik saviyasi sezilarli darajada pasaygan. Bu esa millat intellektual va hissiy qudratining pasayishiga olib keladi. Bu ko‘ngilsiz holatga adabiy ta’limdagi bo‘shliqlar, muammolarning mavjudligi ham ma’lum darajada sababdir. Yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib etishga hukumat darajasida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Maqsad – aholini, xususan, yoshlarni badiiy asar o‘qishga qaytarish.

Yoshlarning badiiy asar o‘qishga qiziqmasliklari sabablari:

– ta’lim oluvchilar badiiy asarlarning jozibasini his etish, ulardan zavqlanish, poetik olamini kashf qilish, estetik o‘ziga xosligini anglab yetish kompetensiyasiga ega bo‘lmay qolmoqdalar;

– umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida badiiy matnlarni o‘zlashtirishga faqat yodlash, tinglab tushunish va qayta hikoyalashdan iborat jarayon sifatida qaralib, o‘rganilgan badiiy asarlar yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlariga kam e’tibor berilayotgani tarbiyalanuvchilarning badiiy asarni his etmasliklariga, binobarin, unga qiziqmasliklariga sabab bo‘lyapti;

– xalq og‘zaki ijodi namunalarining har bir sinfda o‘qitilishi ko‘zda tutilgan holda o‘quvchilarni ko‘p asrlar oldin yaratilgan folklor asarlarining badiiy olamiga olib kirishning samarali yo‘llari belgilab olinmagani sababli bolalar bu bitiklar jozibasini anglay olmayaptilar;

– o‘qituvchilarning o‘qitilayotgan badiiy matnlarga asosan nasihat vositasi tarzida munosabatda bo‘lishi o‘quvchilarni badiiy asardan bezdirmoqda;

– uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida mumtoz badiiy tafakkur tarzidagi janr belgilari, vazn o‘lchovlari va qofiyalanish tartibidagi qat’iy qoliplar hamda asarlarda-

gi ramziylik, majoziylikda namoyon bo‘ladigan o‘ziga xosliklar anglab yetilmaganligi nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham mumtoz asarlarni o‘qish, anglash, ta’sirlanish va tahlil qilishda qiyinchilik tug‘dirmoqda;

– shuningdek, adabiyotda tinimsiz amalga oshirilayotgan ijodiy yangilanishlar ham o‘quvchilarning taqdim etilgan badiiy asarlarni idrok qilish, tushunish va tahlil etishlarida muayyan murakkabliklar keltirib chiqarmoqda;

– adabiyot dastur va darsliklarini yaratishda pedagogik nuqtayi nazar o‘rniga ko‘pincha filologik yondashuv ustunlik qilishi o‘quvchilarni badiiy adabiyotdan uzoqlashtirmoqda;

– o‘quv dasturiga kiritilgan bir talay badiiy matnlarning muayyan sinfdagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelmasligi ham ularning badiiy adabiyotdan begonalashuviga olib kelmoqda.

Mazmun-mundarija bilan bog‘liq muammolar. Amaldagi adabiy ta’lim mazmuni o‘quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirish emas, balki muayyan adabiy mahsulotlarni taqdim etish tamoyiliga tayanib belgilangani uchun ta’lim oluvchilarda kerakli adabiy kompetensiyalarni shakllantira olmaydi. Ta’lim tizimlarining ko‘pchilik bitiruvchilari badiiy asarni o‘qish, tushunish, tahlil qilish, uning badiiy-estetik qimmatini mustaqil baholash ko‘nikmalariga ega emas. Nazariy bilimlarni o‘zlashtirgan holda ularni adabiy matn tahliliga tatbiq qila olmaydilar.

Bu boradagi muammolar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘rganish uchun tavsiya etiladigan adabiy matnlarni tanlash, tizimga solish, taqdim etish va ta’lim tashkilotlariga yetkazish yo‘lga qo‘yilmagan;

– o‘rta ta’limda o‘qitiladigan adabiyot o‘quv fani darsligining mundarijasi bevosita 1–4-sinfdagi o‘qish kitobining davomi sifatida tizimli tashkil qilinmagan, o‘rganiladigan badiiy asarlarning bola yoshiga muvofiqligi darajasi hamma vaqt ham hisobga olinmagan, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadigan topshiriqlar berilmagan;

– fan dasturlari metodist bo‘lmagan mutaxassislar tomonidan tuzilgani uchun ularda pedagogik yondashuvdan ko‘ra filologik yondashuv tarzi ustuvorlik qilmoqda. Bu hol o‘quvchilar o‘rganishlari uchun asar tanlashda bitiklarning bolalarda muayyan ma’naviy sifatlar shakllantirishga qanchalik xizmat qilishi emas, balki muallif yoki asarning mavqeyidan kelib chiqib, yondashilganida ko‘zga tashlanadi. Haligacha pedagogik jihatdan asoslangan, tajribalar bilan sobit bo‘lgan “Adabiyot” o‘quv dasturi yaratilmadi;

– o‘quv dasturlariga kiritilgan ayrim materiallarning o‘quvchilar yosh xususiyatiga mos emasligi, ba’zi asarlarni tushunish chuqur ixtisoslashgan filologik tayyorgarlikni talab qilishi tez-tez uchrab turibdi;

– darsliklarda o‘quvchilarni badiiy matnlarni o‘qish, tushunish, tahlil qilish, asar va uning qahramonlariga mustaqil baho berishga yo‘naltirish o‘rniga matnlarning mazmuni bayon qilinayotgani, tahlil bo‘yicha tayyor maqola berilayotgani adabiyot saboqlarining nursiz, zerikarli, o‘quvchilarning esa fikriy boqimanda bo‘lishiga olib kelmoqda;

– amaldagi “Adabiyot” dasturida xalqimizning milliy mentaliteti, etnik xususiyatlari aks etgan, shuningdek, hozirgi zamon bolalarining hayoti va muammolari yoritilgan asarlarni o‘rganishga e’tibor qilinmagan;

– oliy adabiy ta’limda badiiy asarga hamon ijtimoiy-faktologik tamoyil asosida yondashish yetakchilik qilayotgani bo‘lg‘usi filolog mutaxassislarning asosiy malaka ko‘rsatkichi bo‘lmish badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmayotganiga, natijada adabiyot saboqlari yetarlicha samarali tashkil etilmayotganiga sabab bo‘lmoqda.

Metodik xarakterdagi muammolar. O‘quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan adabiyot o‘quv predmeti ta’limning turlicha metodik yondashuv va shakllaridan foydalanadi. Ta’lim natijalarining zamon talablariga to‘la javob bermayotgani ko‘p darajada o‘qitish metodikasidagi bo‘shliqlarga ham daxldor. Metodik xarakterdagi mavjud muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– maktabgacha ta’lim bosqichida bolalarning nutq faoliyatini yo‘lga qo‘yishning asosiy vositasi bo‘lmish badiiy adabiyot bilan ishlash bo‘yicha tarbiyachilar tegishli metodik yo‘riq, tavsiya va adabiyotlar bilan ta’minlanmagan, natijada bolalar maktabga nutqiy muayyan oqsoqlik bilan kelmoqdalar;

– o‘quv dasturini yaratishda ta’lim oluvchilarning yosh, jins, jismoniy va ruhiy o‘ziga xosligi hamda milliy xususiyatlari ilmiy asosda hisobga olinmagani uchun adabiy ta’limda uzluksiz tadrijiylik ta’minlanmagan;

– mavjud pedagogik ashyolarda o‘quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan innovatsion usullardan foydalanish ko‘zda tutilmagan;

– adabiyot o‘quv fanini o‘qitishda fanlararo integratsiya mexanizmi ishlab chiqilmagan;

– adabiyot predmetini o‘zlashtirish darajasini to‘g‘ri baholashning ilmiy mezoni yaratilmagan;

– adabiyot o‘quv fanini o‘rgatish bo‘yicha o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanmalar, ko‘rsatmali qurollar, multimedia vositalari hamda boshqa didaktik materiallar mutlaqo yetarli emas;

– o‘quvchilarning badiiy asar o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari ishlab chiqilmagan;

– metodika va adabiyotshunoslik tarmoqlaridagi ilmiy yangiliklarni o‘qitish amaliyotiga muntazam joriy qilish mexanizmi yaratilmagan.

Kadrlar bilan bog‘liq muammolar. Kompetentli adabiyot o‘qituvchisini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi talabga to‘la javob bermaydi. Shu sababli bu sohada bir qator muammolar yuzaga kelgan:

– oliy filologik ta’limda asosiy e’tibor bo‘lajak mutaxassislarga adabiyot tarixi, nazariyasi, jahon adabiyoti singari fanlar bo‘yicha bilim berishga qaratiladi. Ularni o‘qitish metodikasiga ikkinchi darajali yumush sifatida qaraladi. Holbuki, metodika bo‘lmagan joyda fan rivojining davomiyligi ta’minlanmaydi. Yosh pedagoglar badiiy asarlarni o‘quvchilarga yetkazish yo‘llarini yetarlicha o‘zlashtirmagan bo‘lishadi;

– oliy ta’limdagi nomukammalliklar tufayli ko‘pchilik bitiruvchilarda nazariy tayyorgarlik hamda badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyalari shakllanmagan. Bu esa ta’lim tizimida sifatsiz kadrlar sonining oshishiga olib kelmoqda;

– pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlarida metodist olim mutaxassislar juda oz, aksariyat markazlarda esa umuman yo‘q. Bu hol tinglovchi o‘qituvchilar metodik tayyorgarligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

– pedagoglar o‘z ustlarida davomli va uzluksiz ishlashga, metodik o‘quv va malakalarini oshirishga o‘rganmaganlar, masofadan o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilmagan;

– o‘qituvchilarning ish sifatini baholash rasmiy tus olgan, ularning tajribalarini chinakamiga o‘rganish va yoyish tizimi shakllanmagan, attestatsiya o‘tkazishda muallimlarning kasbiy uquvi emas, balki qog‘oz tayyorlash mahorati hisobga olinadi;

– o‘qitish jarayonining ko‘p sonli tekshiruvchilari o‘qituvchilar qo‘llaydigan ta’lim usullarining qanchalik samara berishidan ko‘ra qanchalik urf (moda)ga aylanganiga qarab baho beradilar. Bu ta’lim metodlarining mohiyati emas, shakli birlamchi ahamiyatga ega bo‘lishiga olib kelmoqda;

– o‘qituvchilar bilan bevosita kundalik amaliyotda bog‘lanib ishlaydigan ko‘pchilik viloyat, tuman va shahar metodistlarining ilmiy saviyasi, metodik tushunchalari va tashkilotchiligi talab darajasida emasligi kuzatiladi.

VI. ADABIYOT O‘QITISHNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

6.1. Adabiyot o‘qitishni rivojlantirishning strategik maqsadlari

Quyidagilar adabiyot o‘qitishni rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot predmetini o‘qitish samaradorligini oshirish, adabiy ta’limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, usul va vositalarining davr bilan uyg‘unlikda takomillashib borishiga erishish;

– milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini boyitish, ma’naviy-axloqiy qiyofasi va badiiy didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur qilish ko‘nikmalarini hosil etish;

– o‘quvchilarga badiiy adabiyotni o‘rgatish orqali ularda olam va odam tabiatiga qiziqish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usi, sog‘lom e’tiqod va ilmiy dunyoqarash hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;

– badiiy asarlar yordamida o‘quvchilarda sog‘lom e’tiqod, nozik did, ezgulikka muhabbat, halollik, millat va Vatanga sadoqat singari yuksak fazilatlarni qaror toptirish;

– badiiy adabiyotni o‘qitishning yangi usullarini joriy qilish orqali adabiy ta’lim jozibadorligini oshirish, bunda xalqaro ilg‘or pedagogik tajribalardan keng foydalanishdan iborat.

Adabiyot o‘qitishni rivojlantirishning strategik maqsadi quyidagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

– umumiy o‘rta ta’limning barcha bosqichlarida adabiyot o‘quv fanini o‘qitish tizimini tubdan yangilash;

– predmetining ilmiy-metodik ta’minotini tubdan yaxshilash;

– o‘quvchilarning og‘zaki nutqi adabiy til me’yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash, ularning nutqiy kompetensiyasini o‘stirish;

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

– o‘quvchilar yozma nutqida savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglik bo‘lishiga erishish orqali ularda tayanch adabiy kompetensiyalar shakllantirish;

– adabiy ta’limda o‘rganiladigan mavzu tabiatidan kelib chiqqan holda o‘qituvchilarga dars o‘tish metodini erkin tanlash imkonini berish;

– adabiy ta’limga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion yondashuvni shakllantirish;

– umumiy o‘rta ta’limning boshqa fanlari bilan integratsiyasini yo‘lga qo‘yish;

Adabiyot o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlari, turli bosqichdagi o‘quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalardan kelib chiqqan holda aniq baholash tizimini ishlab chiqish;

– intellektual salohiyatning hayotdagi o‘rni haqida haqqoniy tasavvur shakllantirish;

– ta’limning ilg‘or amaliyotini ommalashtirish va adabiyot o‘quv fanini o‘qitishning shakllari xilmaxilligiga imkon berish.

6.2. Adabiyot fanining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish

Adabiyot fanining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

– chet eldagi ilg‘or pedagogik tajribalarni milliy o‘qitish an’analari bilan uyg‘unlashtirgan holda adabiyot o‘quv fani bo‘yicha davlat ta’lim standartini ishlab chiqish;

– adabiyot predmeti bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari tizimini yaratish va takomillashtirish;

– umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasida adabiyot predmetiga ajratilgan o‘quv yuklamasining miqdori hamda uning sinflar bo‘yicha taqsimoti yuzasidan asosli takliflar tayyorlash;

– tayanch o‘quv rejaga muvofiq adabiyot o‘quv fani dasturini sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari aks etgan holda ishlab chiqish;

– ta’limning har bir bosqichidagi o‘quvchilarning yosh, aqliy va jismoniy imkoniyatlari hisobga olingan holda o‘quv dasturlari yaratilishiga erishish. Buning uchun filolog mutaxassislargagina kerak bo‘ladigan asarlarni umumta’lim maktablari o‘quvchilariga taqdim etish tajribasidan voz kechish;

– “Adabiyot” darsliklarining har bir sinf o‘quvchilarida muayyan ma’naviy sifatlarni shakllantirish ko‘zda tutilgan holda yaratilishini yo‘lga qo‘yish;

– har bir o‘quvchining o‘rganilayotgan badiiy matn yuzasidan o‘z mustaqil fikri bo‘lishiga erishish uchun “Adabiyot” darsliklarida o‘rganilgan asar haqida maqola berish tajribasidan voz kechish;

– “Adabiyot” darsliklarida badiiy matn yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlar sonini ko‘paytirish va ularning o‘quvchilar xotirasini kuchaytirishga emas, balki asar jozibasini his etish va matn zamiridagi tagma’nolarni anglashga qaratilishiga erishish;

– o‘quvchilarning tavsiya qilinayotgan badiiy asarlar ustida ko‘proq mustaqil ishlashlariga imkon yaratish uchun 5–8-sinflarda dastur va darsliklarda adiblarning umr yo‘lini berish tajribasidan voz kechish;

– adabiyot bo‘yicha barcha sinflar uchun darslik, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasi kabi o‘quv-metodik yig‘malarni ishlab chiqish va muntazam yangilab borish.

Adabiyot fani bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

– o‘quv-metodik yig‘malar tayyorlashda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga tayanish;

– yig‘malarda o‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, ruhiy xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlarini hisobga olish;

– o‘quv-metodik yig‘malarda o‘quvchilarda adolat, milliy g‘urur va vatanparvarlik hissini shakllantirishga ustuvorlik berilgan bo‘lishi;

– yig‘malarning o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va mantiqiy fikrlash hamda kreativlik qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilganligi;

– o‘quv-metodik yig‘malarni o‘quvchilarning ma’naviy va aqliy ehtiyojlaridan kelib chiqib tayyorlash.

O‘quv-metodik yig‘malarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo‘yiladi:

Didaktik talablar:

– berilgan o‘quv materiallarining o‘quvchi tomonidan to‘liq o‘zlashtiriladigan yo‘sinda bo‘lishini ta’minlash;

– badiiy matnlar axborot berishga emas, balki hayotning mohiyatini anglashga xizmat qilishi;

– o‘quvchilarga taqdim qilinayotgan materiallarning qiziqarli, tushunarli va hayotiy bo‘lishi;

– yig‘malar o‘quvchida ilmiy dunyoqarashni, milliy g‘urur, vatansuyarlik va millatlararo totuvlik tuyg‘ularini shakllantiradigan materiallardan tarkib topishi;

– o‘quv-metodik yig‘malar ta’limning kundalik hayot va amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishiga, o‘quvchilarda olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirilishi;

– metodik vositalar turli ko‘rinishdagi illyustratsiya, jadval va fotosuratlar bilan bezatilgan bo‘lishi.

Ilmiy-metodik talablar:

– o‘quv-metodik yig‘malar fan-texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida tayyorlangan bo‘lishi;

– ularda o‘quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi aks etgan bo‘lishi;

– yig‘malarda mavzular adabiy til qoidalariga to‘liq rioya etilgan holda sodda, tushunarli va ravon bayon qilinishi;

– o‘quv-metodik yig‘malarda mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilinishi;

– ular milliylikka zid bo‘lmagan illyustratsiyalar bilan bezatilishi;

– yig‘malarda savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo‘lishi;

– o‘quv-metodik yig‘malarda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, qarashlarini yozma ifodalashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lishi;

– ularda bir tushunchaning ikki xil atalishi hamda sanalarni keltirishda mavhumlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

– og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, yozma savodxonlikka oid matnlar va rasmlar, izohli lug‘at, badiiy ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan topshiriqlarni qamrab olgan bo‘lishi lozim.

Pedagogik-psixologik talablar:

– o‘quv-metodik yig‘malar ilmiy asoslangan ma’lumotlarga tayanib, o‘quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va hayotiy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

– yig‘malardagi mavzularning o‘quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, fakt, tushuncha va qoidalar fanlararo bog‘liqlik hisobga olingan holda izohlanishi;

– o‘quv-metodik yig‘malarda o‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyati, oldin berilgan bilimlarini o‘zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo‘lishi lozim.

Estetik talablar:

– o‘quv-metodik yig‘malar yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bezalishi;

– yig‘madagi matnlar o‘quvchiga ijobiy-hissiy ta’sir o‘tkazib, unda o‘quv faniga qiziqish uyg‘otishi;

– o‘quv-metodik yig‘malarda bo‘lim, bob, paragraf, mavzu va matnlarning o‘zaro mutanosib turli shakl va ranglar bilan ajratilishi;

– yig‘malardagi rasm va tasvirlar badiiy talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalangan bo‘lishi lozim.

Gigiyenik talablar:

– matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo‘lishi;

– harflarning kattaligi va qog‘ozning sifati (og‘irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo‘lishi lozim.

6.3. Adabiyot o‘quv fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash

Adabiyot o‘quv fanining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

“Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy darslik va metodik qo‘llanmalar yaratish, ona tili va adabiyot o‘qitishga ixtisoslashgan sinf xonalarini barpo etish, zamonaviy maktab namunasini yaratish;

– sinfxonalarni xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv jihozlari bilan ta’minlash;

– o‘quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan adabiy-badiiy to‘garaklarning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash.

6.4. Adabiyot o‘qitish jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim zamonaviyligiga erishish

Ushbu yo‘nalishda quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi:

– raqamli texnologiyalar bilan ta’lim texnologiyalarining integratsiyasini ta’minlash orqali pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borishga sharoit yaratish;

– ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

– adabiyot o‘quv faniga doir elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, darsliklarning multimediali ilovalari kabi o‘quv-metodik majmualarni joylashtirish tizimini yaratish;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish;

– adabiyot fanini o‘qitishda xalqaro standartlarda belgilangan ta’lim muhiti (Teaching environment)ga ham jiddiy e’tibor qaratish va o‘qitish xonalarini adabiyot ta’limning xususiyatlaridan kelib chiqib jihozlash. Ta’lim muhiti o‘quvchilarga katta rag‘bat berishini e’tiborga olish;

– masofadan turib foydalaniladigan elektron kutubxona tizimiga adabiyot bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv-metodik yig‘malarni, elektron ta’lim resurslarini joylashtirib, ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

– ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llanadigan zamonaviy elektron dasturlardan adabiyot o‘quv fanining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Adabiy ta’limning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

– iqtidorli o‘quvchi-yoshlarni aniqlash, ularni chuqurlashtirilgan hamda variativ ta’lim dasturlari asosida o‘qitish, ularni “Ustoz-shogird” tizimi asosida o‘z sohasida yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish;

– innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi bilan uzviyligini ta’minlash.

6.5. Adabiyot fanining umumta’lim fanlari bilan integratsiyasi:

– adabiyot o‘quv fanining umumta’lim fanlari bilan integratsiyasi o‘quvchilarning sog‘lom va keng dunyoqarashga ega, jadal rivojlanayotgan raqamli asrda erkin yashab, samarali faoliyat ko‘rsata oladigan raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi;

– fanlararo integratsiya o‘quvchilarda motivatsion va o‘z-o‘zini baholash (refleksiv) ko‘nikmasini shakllantirib, ularning kasbiy kompetentlilik va ilmiy izlanishlar qilish qobiliyatiga ega kadrlar sifatida shakllanishiga yordam beradi;

– adabiyotning o‘zga fanlar bilan integratsiyasi o‘quvchilarni turli ijtimoiy sohalarda o‘z yo‘nalishini topish, to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltiradi.

6.6. Adabiyot o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

Adabiyot predmetining mazmun va metodlari takomillashtirilayotgani, umumiy ta’lim uchun ushbu o‘quv fani bo‘yicha ishlab chiqilayotgan me’yoriy hujjatlar hamda adabiy ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalari, masofadan o‘qitish usullari joriy etilayotgani o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini keskin yuksaltirishni talab qiladi. Bugungi o‘zgarishlar adabiyot o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarlik darajasi yuqori, o‘z ish faoliyatida ham milliy, ham chet eldagi ilg‘or ta’lim tajribalarni uyg‘unlashtirgan raqobatbardosh kadr sifatida ko‘rinishini taqozo etadi.

Bu hol umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiyot o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi oldiga yangi vazifalar qo‘yadi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak bo‘ladi:

– adabiyot o‘qituvchilarini masofadan turib va aralash usulda malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– malaka oshirish davri oralig‘ida fanda yuz bergan muhim ilmiy yangiliklar hamda ilg‘or pedagogik tashabbuslar bilan tanishtirish;

– yangi yaratilgan o‘quv-metodik yig‘malar, ilg‘or pedagogik texnologiyalarning mazmun va mohiyatiga doir ma’lumotlarni yetkazish;

– o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashishlarini ta’minlash orqali kasb mahoratlarini oshirish;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ilg‘or tajribani o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil qilish;

– o‘qituvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlashlarini ichki ehtiyojga aylantirish;

– joylarda o‘tkaziladigan ko‘rgazmali va ochiq saboqlarda, metodik birlashmalar, pedagogik o‘qishlar, kengashlarda o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy-metodik seminarlarda faol qatnashishlarini yo‘lga qo‘yish.

VII. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali adabiyot predmetini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishni rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

– konsepsiya umumiy o‘rta ta’limning DTSida belgilanadigan talablar uchun asos bo‘ladi;

– konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga joriy etish o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy hamda intellektual rivojlanishiga samarali ta’sir etadi;

– adabiyot predmetini o‘qitish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni me’yorlari aniqlashtiriladi;

– ta’limning barcha bosqichlarida zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda adabiyot predmeti imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga erishiladi;

– ta’lim muassasalarida badiiy adabiyotni o‘rganish va uni bilish darajasini baholashning zamonaviy tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Jamiyatda badiiy adabiyotning ezgu ma’naviyatli shaxslar shakllantirishning ma’naviy, ma’rifiy omili sifatidagi nufuzi ortadi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Adabiyot o‘qitish metodikasiga xos bo‘lgan tamoyillar 3
An’anaviy qarashlar 4
Kognitiv qarashlar 5
O‘qishning “pastdan tepaga” modeli 5
Meta-kognitiv qarashlar 7
O‘qishning meta-kognitiv modeli 7
O‘qish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar 9
O‘qishdan oldingi topshiriqlar 15
O‘qish davomidagi topshiriqlar 18
O‘qib bo‘lgandan keyingi topshiriqlar 19
Adabiyot o‘qitish metodologiyasi 21
Umumiy o‘rta ta’limda adabiyot fanining maqsad va vazifalari 22
Adabiyot fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari
bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar 22
Adabiyot faniga oid kompetensiyalar 22
Adabiyot fani bo‘yicha 7-sinf yakuniga qo‘yiladigan talablar 23
“Adabiyot” dasturi mazmuni va tuzilishi 24
7-sinf uchun taqvim-mavzuviy reja (tavsiyaviy) 26

1-chorak

Normurod Norqobilov. “Oqbo‘yin” 30
Zulfiya. “Sog‘inib”. Asqad Muxtor. “Oliy butunlik” 40
Ernest Seton-Tompson. “Lobo” 45
Ernest Heminguey. “Chol va dengiz” 55
Fanlararo aloqa: adabiyot va tabiatshunoslik 65
Takrorlash 66

2-chorak

Muhammad Ali. “Gumbazdagi nur” 70
Hamza. “Jonlarni jononi Vatan”. Sirojiddin Sayyid. “Vatanni o‘rganish” 74
Nabi Jaloliddin. “Ota” 79
Sergey Yesenin. “Shahinam, o, mening Shahinam...”
Rasul Hamzatov. “Qushqanotli, hoy karvon...” 84

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Fanlararo aloqa: adabiyot va musiqa 87
Takrorlash 88

3-chorak

Alisher Navoiy. Qit'alar va fardlar 90
Jahon otin Uvaysiy. G'azallar va chistonlar 93
Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" 96
Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" 107
Fanlararo aloqa: adabiyot va tarix 114

4-chorak

O'lmas Umarbekov. "Qiyomat qarz" 118
Qamchibek Kenja. "Baliq ovi" 125
Saida Zunnunova. "Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh…" Iqbol Mirzo. "Daraxtlar" 131
Anton Chexov. "Xameleon" 135
Fanlararo aloqa: adabiyot va tasviriy san'at 141
Takrorlash 143

Ilovalar

Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari 145
Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari. "O'quvchi – faol" yondashuvi 145
Adabiy ta'limga pragmatik yondashuv.
"Kitobxon javobi" nazariyasi plyuralistik tafakkur omili sifatida 146
Gardner nazariyasi va adabiy ta'lim integratsiyasi 151
Lingvistik zakovat (linguistic intelligence) 152
Mantiqiy matematik zakovat (logical-mathematical intelligence) 152
Musiqiy zakovat (musical intelligence) 153
Voqelikni tashqi belgilar orqali ko'rish zakovati (visual-spatial intelligence) 153
O'zaro muloqotga asoslangan zakovat (interpersonal intelligence) 154
Blum taksonomiyasi va uning adabiyot o'qitishda qo'llanishi 158
O'quvchilarni fanga qiziqtirish (motivatsiya). Darsni rejalashtirish 162
Adabiyot darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun
badiiy asar asosida dars ishlanmasi yaratish bo'yicha tavsiyalar 167

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Umumiy o‘rta ta’limda adabiyot fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi 176
I. Umumiy qoidalar 176
II. Adabiyot predmetining ta’lim tizimida tutgan o‘rni 177
III. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari 177
IV. Adabiy ta’limning asoslari 178
V. Adabiyot o‘qitishdagi mavjud muammolar 179
VI. Adabiyot o‘qitishni rivojlantirish strategiyasi va ustuvor yo‘nalishlari 182
6.1. Adabiyot o‘qitishni rivojlantirishning strategik maqsadlari 182
6.2. Adabiyot fanining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish 183
6.3. Adabiyot o‘quv fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash 185
6.4. Adabiyot o‘qitish jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim zamonaviyligiga erishish 185
6.5. Adabiyot fanining umumta’lim fanlari bilan integratsiyasi 186
6.6. Adabiyot o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish 186
VII. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar 188

O‘quv nashri

ADABIYOT

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

Muharrir Xurshidbek Ibrohimov
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Sahifalovchi-dizayner Kamola Ahmedova
Musahhih Orifjon Madvaliyev

Bosishga __.__.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i ____. Nashriyot-hisob tabog‘i ____.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma ___.